

25
S64



E.N.SIRLIYEV
O.S.MIRZAYEV

PSIXOLOGIYA TARIXI

TOSHKENT

75
564
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI


O'ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA INSTITUTI

E.N.SIRLIYEV, O.S. MIRZAYEV

PSIXOLOGIYA TARIXI

O'QUV QO'LLANMA

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim
vazirligining muvofiqlashtirish kengashi tomonidan jismoniy tarbiya
instituti talabalari uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*



TOSHKENT – 2018

UDK: 332.2 (575.2)

BBK: 65.32-5 (5ŷ)

A – 33

Sirliev E.N., Mirzaev O.S. Psixologiya tarixi. O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti talabalari uchun o‘quv qo‘llanma / Sirliev E.N., Mirzaev O.S. Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi. – T., 2018.

Mas‘ul muharrir: psihol.f.n. dots. D.N.Arzikulov

Taqrizchilar: p.f.n., prof. Z.Gapparov
f.n.n. dots. M.M. Mamatov

Mazkur o‘quv qo‘llanmada psixologiya tarixi fanining soha sifatida shakllanishi, predmeti, maqsad va vazifalari, antik davr psixologik ta‘limotlari (IV asr – V asrlar misolida) qadimgi yunon mutafakkirlari qarashlarida psixologik fikrlar rivoji, qadimgi Hindiston va Xitoy falsafa maktablari va uning psixologik ta‘limotlardagi o‘rni, o‘rta asr sharq va g‘arb mutafakkirlarining psixologik qarashlari (VI-XVI asrlar misolida), ong – psixikaning mahsuli sifatida, psixologiyaning fan sifatida vujudga kelishi. V.Vund tajribasi va uning ilmiy ahamiyati, psixologiya fanida ochiq inqiroz davri, psixoanaliz ta‘limoti, bixeviorizm ta‘limoti, geshalt ta‘limoti, assotsionistik ta‘limot, psixologik tadqiqotlar va ularning psixologiya fani taraqqiyotidagi o‘rni, psixologiya fani taraqqiyotiga hissa qo‘shgan xorij olimlari haqida ma‘lumot, psixologik tadqiqotlar rivojida sobiq sovet olimlarining o‘rni, sobiq sovet tuzumidan keyingi davrda psixologiya fani uning holati, psixologiya fani taraqqiyotiga hissa qo‘shgan sobiq sovet olimlari haqida ma‘lumot, psixologiya fani o‘zbek olimlari siyomosida, O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti va O‘zbekiston Milliy universitetida “Psixologiya”, “Pedagogik psixologiya” kafedralari faoliyati, Psixologiya fani taraqqiyotiga hissa qo‘shgan o‘zbek olimlari haqida ma‘lumot kabi masalalar yoritilgan.

ISBN: 978-9943-5066-6-4

© ILMiy TEXNIKA AXBOROTI – PRESS NASHRIYOTI, 2018

ANNOTATSIYA

Ma'lumki, inson ruhiyati haqidagi qarashlar psixologiya fani tarixida o'ta qiziqarli va bahsbop ma'lumotlarga boy bo'lib, bu ma'lumotlar hozirga qadar psixolog tadqiqotchilar tomonidan ilmiy asosda turlicha izohlanib kelinmoqda. Zero, hozirga qadar yaratilgan va ilmiy asoslangan konsepsiyalar, psixologik maktablar, fan tamoyillari va ilmiy yondashuvlarni tahlil qilish psixologiya fani tarixi haqidagi bilimlarni boyitishning ilmiy uslubiy o'chog'i sanaladi.

O'quv qo'llanmada psixologiya faniga oid antik davr ta'limotlari, o'rta asr Sharq va G'arb mutafakkirlarining psixologik qarashlari, psixologik bilimlarning tabiiy fanlar negizidagi rivoji, psixologiya fanining fan sifatida tan olinishi va sohalari rivoji, uyg'onish davri psixologiyasi, psixologik maktablar taraqqiyoti, O'zbekistonda psixologiya fanining rivojlanishi, o'zbek psixologiya maktablari va ularning psixologiya fani taraqqiyotidagi ro'li haqidagi ma'lumotlar yoritilgan.

Mazkur o'quv qo'llanma psixologiya, sport psixologiyasi mutaxassisligi bo'yicha ta'lim olayotgan bakalavriat va magistratura talabalarga hamda hamda psixologiyani o'rganishga qiziquvchi shaxslarga mo'ljallangan.

АННОТАЦИЯ

Как известно, в истории психологии представления о психологии человека являются довольно интересной и богатой дискуссиям тема, которая до сих пор разносторонне изучается и научно обосновывается со стороны исследователей. Однако, анализ созданных до сегодняшнего дня научно обоснованных концепций, психологических школ, принципов предмета и научных подходов является научно-методологической базой обогащения знаний об истории психологии.

В учебном пособии раскрываются и обсуждаются учения античного периода, психологические взгляды и воззрения мыслителей Востока и Запада среднего века, развитие психологии в недрах естественных наук, признание психологии

как науки и развитие ее отраслей, психология периода просвещения, развитие психологических школ, развитие психологии в Узбекистане, узбекские школы психологии и их роль в развитии психологии как науки.

Данное учебное пособие предназначена для обучающихся студентов бакалавриатуры и магистратуры направления психология, психология спорта, а также лицам, заинтересованным в изучении психологии.

ANNOTATION

As it is known, the visions about human psychology is rich of the most interesting and disputable information in the history of the science of psychology, this information being differently commented by the psychology researchers on a scientific basis until nowadays. After all, analyzing the created and scientifically based concepts, the psychological schools, principles of science and scientific approaches until now is the scientific methodological basis of enriching the knowledge about the history of the science of psychology.

The manual provides information about the doctrine of antiquity, eastern and western thinkers of the middle ages, the development of psychological knowledge on the basis of the natural sciences, recognition of the science of psychology as a science and the development of branches, the period of the renaissance of psychology, development of psychological schools, the development of the science of psychology in Uzbekistan, Uzbekistan psychological schools and their role in the development of the science of psychology.

This manual is aimed for the bachelor and master degree students studying as a profession of psychology and sport psychology and for the teachers working as a psychologist in the higher education.

KIRISH

Ma'lumki, psixologiya tarixi fani inson psixikasi va psixik hodisalar haqidagi fikrlarning paydo bo'lishi va uning rivoji haqida fikr yuritib, u ruhiy olam to'g'risidagi qiziqarli va bahsbop bilimlar, mumtoz ma'lumotlar tizimidan iborat. Tarixiy rivojlanish har bir fan uchun xos bo'lib, u fandagi yangi g'oyalarning ildizi hisoblanadi. Bir so'z bilan aytganda nsonning o'zi haqidagi bilimlarini yig'ilib hamda chuqurlashtirib borishidir. Psixologiya fani tarixiga nazar solar ekanmiz, psixik hayotni o'rganishga bo'lgan qiziqish turli tarixiy davrlarda nazariy rang-baranglik bilan kechganligini va psixikaning moddiy asoslari qanday tadqiqotlarda aniqlanganligini bilish imkoniga ega bo'lamiz.

Psixologiya tarixi fan sifatida hayotning turli bosqichlarida, fan va madaniyat taraqqiyoti munosabati bilan psixologik bilimlar sohasi qanday kengayib borganligi, dastlabki psixologiya fani qay tarzda taraqqiy etib, fanlar tizimi darajasiga ko'tarilganligiga doir ma'lumotlarni qamrab oladi. Shuningdek, psixologiya tarixi inson psixikasi va uning hozirga qadar taraqqiyoti haqida chuqurroq, aniq ilmiy ma'lumot olish imkoniyatini beradi. Ilmiy jihatdan esa bu fan, nazariy malumotlarni o'rganishda foydali bo'lgan ilmiy uslublarni yaratishda ahamiyatli hisoblanadi.

Inson psixikasi haqidagi bilimlarning rivojlanish tarixi davomida ikki ilmiy falsafiy oqim, ya'ni idealizm va materializm o'rtasidagi kurashni ko'rish mumkin. Bu kurash psixologiya fanining mohiyatini turlicha tushunadi, undagi farqlar insondagi psixik va fiziologik hodisalarni o'zaro munosabatlarini aniqlashda hamda psixologiya fani predmetini turlicha talqin qilishda namoyon bo'ladi. Fan tarixida turlicha qarashlar va yo'nalishlar bo'lishiga qaramasdan, fanning predmeti, ya'ni inson va hayvonga xos bo'lgan psixika, psixik hayot shundayligicha qolaveradi.

Ilmiy jihatdan psixologiya tarixi fani, psixologiya fanining predmet va vazifalaridan farqli ravishda, miya mahsullarini emas, balki psixologik fikrlarning paydo bo'lishi hamda rivojlanishi, ilmiy tadqiqotchilarning turli davrlardagi faoliyati, psixologiyaning fan

sifatida tan olishini kabilarni o'rganadi. Bir tarafdin inson ruhiy olamini dastlab psixika, so'ng ong, oxir-oqibat xulq-atvor sifatida tahlil etishdir.

Hozirga kelib, fanda psixologiya tarixining avvalgi davrlarda e'tiborga olinmagan "ruhiyat va xulq-atvor" haqidagi faoliyat birligi tamoyili yana qaytadan tiklandi. Xronologik jihatdan yondoshilganda, psixik olam haqida fikrlar rivoji hech qachon izchillikda kechmagan. Ba'zi davrlarda nazariya va konsepsiyalarda inqirozli davrlar xarakterlansa, ba'zida ulardagi o'sish kuzatiladi. Ammo bunda tabiiy fanlar va ijtimoiy fanlardagi o'zaro uyg'unlik e'tiborli sanalib, bu psixologik bilimlarning haqiqiy ilmiylik mazmunini belgilaydi.

Bizningcha, haqiqiy ilmiy psixologiya XIX-asr oxiri, XX-asr boshlarida tan olingan bo'lsa-da, antik davr va mumtoz qarashlar fan tarixi uchun ilk uslubologik manbalar sanalishi ehtimoldan holi emas. Chunki nemis psixologi V.Vundning psixologiya tarixida amalga oshirgan tajribalari shunchaki falsafiy g'oya emas, aksincha sof psixologik eksperimental tadqiqot edi. Bu tadqiqot psixologiya fanining amaliy jihatdan tan olinishi hamda keyingi tadqiqotlar uchun zaruriyatning ortishiga xizmat qildi. Hozirga kelib psixologiya fani ham uslubiy jihatdan, ham uslubik jihatdan etuk fan sifatida jamiyatdagi fanlar tizimida o'z o'rniga egadir. Olib borilayotgan amaliy tadqiqotlar, fan yutuqlari ba'zi mumtoz nazariy qarashlarni inkor etib, uning zamonaviy tahlilini amalga oshirmoqda. Psixologiya fani ilmiy jihatdan tubdan yangilanmoqda. Shunday ekan, psixologiya fani tarixini bilish har bir bo'lg'usi psixolog, sportchi psixologlar, shuningdek, oliy o'quv yurtlarida faoliyat olib boruvchi psixolog o'qituvchilar uchun ilmiylikning nazariy sharti sanaladi, u haqda bilmay turib psixologiya fani haqida fikr - mulohaza yuritish, ta'lim berish, shaxs haqida tadqiqotlar olib borish ehtimoldan holi sanaladi.

BIRINCHI BO'LIM. PSIXOLOGIYA TARIXI FANIGA KIRISH

I QISM. PSIXOLOGIYA TARIXI FANINING FAN SIFATIDA SHAKLLANISH MASALALARI

I BOB. PSIXOLOGIYA TARIXI FANINING SOHA SIFATIDA SHAKILLANISHI, PREDMETI, MAQSAD VA VAZIFALARI

Psixologiya tarixi fani boshqa fanlar singari o'z o'tmishiga ega bo'lib, inson psixikasi va uning paydo bo'lishi haqidagi mumtoz nazariy ma'lumotlar tizimidan iboratdir.

Avvalombor, fanning maqsadi, predmeti, vazifalarini tushintirishda xronologik yondashish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki har bir davr psixologik qonuniyatlar va jarayonlarni tushintirishda qiziqarli va bahsbop fikr mulohazalarni qamrab oladi.

Psixologiya tarixi fanining predmeti psixik voqelikni emas, uning haqidagi tassavurlarining aniqlanish bosqichlarini o'rganadi.

Shuning uchun fanning predmeti davrlashtirish asosida o'rganiladi. Psixologiya so'zining lug'aviy ma'nosi grekcha "psyche"-ruh, jon "logos"¹-ta'limot so'zlarini anglatib, inson psixikasini tadqiq etuvchi fandır. Bundan farqli ravishda psixologiya tarixi o'z predmetida fan haqidagi ilk qarashlardan hozirgi zamonaviy psixologiyagacha yaratilgan nazariyalar, ilmiy qarashlar, ilmiy tamoyillar, turli ta'limotlar va fikrlar asosida psixik hayot faktlari, mexanizmlar mazmunini yoritadi.

Psixologiya tarixi fanining maqsadi inson psixikasi rivojlanishining tarixiy taraqqiyotini o'rganish va fanning kelgusidagi rivojini psixologik manbalar bilan rivojlantirishdir.

Asrlar mobaynida ruh, ong, xulq haqidagi tasavvurlar yuzaga kelgan va bir-biri bilan o'rin almashib kelgan. Psixologiya tarixi ana shu o'rin almashish manzarasini ifodalab beradi.

Psixologiya tarixi fanining vazifasi - psixika haqidagi ilmiy bilimlarning paydo bo'lishi va keyingi taraqqiyotini tahlil qilishdan iboratdir.

Bizningcha, psixologiya tarixi fanining vazifalari quyidagilarda aks etadi:

¹ Hergenhahn B.R. Tracy B. Henley An Introduction to the History of Psychology. – 2014 Wadsworth, Why Study the History of Psychology. 4-p.

1. Psixika haqidagi bilimlar rivojlanish qonuniyatlarini xronologik o'rganish.

2. Fan taraqqiyotida psixologiya fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligini ilmiy ochib berish.

3. Inson ruhiyati haqidagi dastlabki bilimlarning vujudga kelishi va voqe'likni idrok qilinishining miya mahsuli sifatida namoyon bo'lishini tahlil etish.

4. Fanning vujudga kelishida shaxs va uning individual hayotda tutgan rolini o'rganish. Bir so'z bilan aytganda, psixologiya tarixi – bu fanning mantiqiy xotirasidir.

5. Psixologiya fanining butun bir masalalarini uslubologik, ilmiy, haqqoniy tarzda yoritishdan iborat.

Psixologiya bilimlar taraqqiyotining butun tarixida psixologiya predmetining uchta tarifi mavjud; ruh (jon) haqidagi fan, ong haqidagi fan va xulq haqidagi fan. Psixologiyani ruh haqidagi fan sifatida talqin qilish, ruhni izohiy tamoyil deb, uning faoliyat doirasini nihoyatda cheklab qo'ygan.

Ongni psixologiyaning predmeti sifatida talqin qilish va psixikaning ongli qismini tadqiqot ob'yektiga aylantirib, bir vaqning o'zida ong, ham predmet, ham izohiy tamoyil bo'lib xizmat qilgan.

Psixologiya predmeti sifatida xulqning tanlanishi ong psixologiyasi sub'yekt tizimini engib, psixologiyani ob'yektiv tadqiqot yo'liga olib chiqdi. Lekin ayni paytda psixologiya psixika va ongni o'z tadqiqot predmeti sifatida yo'qotdi.

Keyingi taraqqiyot ong va xulq (faoliyat) birligi tamoyili asosida ong va faoliyatning tarixiy buzilgan aloqasi tiklanmoqda. Har qanday boshqa fanda bo'lganidek psixologiya ham murakkab, qarama-qarshiliklarga to'la, ba'zan, turg'unlik, ba'zan voz kechilgan fikrlarga qaytish kabi bosqichlarni bosib o'tgan.

Psixologiya haqidagi dastlabki ilmiy tasavvurlar eramizgacha VI asrlarda paydo bo'lgan. Taraqqiyotning shu katta davrini o'rganish uchun qismlarga ajratish, bosqichlarga bo'lish va har bir davrning mazmunini belgilash kerak bo'ladi.

Psixologiya tarixi fanida ikkita katta davr ajratiladi. Birinchisi-psixologiyaning falsafa, boshqa tibbiy, ilmiy fanlar tarkibidagi taraqqiyoti bo'lsa, ikkinchi - taraqqiyoti psixologiyaning mustaqil fan sifatida rivojlanishi tarixiga bo'linadi. Birinchisi eramizgacha VI asrdan eramizning XIX asrning o'rtalarigacha davom etib 2,5 ming yildan ortiq vaqtni o'z ichiga olsa, ikkinchi davr 1,5 asr mobaynida

davom etib kelmoqda. Har ikkala katta davrning haqiqatga yaqin ekanligiga shubha qilmagan holda, har bir davrni yana mayda davrlarga bo'lib chiqish mumkin.

1.1. Psixologiyaning falsafa tarkibidagi taraqqiyoti.

er.av.IV asrdan XIX:asr o'rtalarigacha

1. Eramizgacha VI asrdan eramizning V asrigacha. Psixika haqidagi dastlabki ilmiy tasavvurlarining paydo bo'lishi va ularning dastlabki taraqqiyoti.

2. V-VIII asrlar, Ruh haqidagi ta'limotning falsafiy ta'limotlar va tibbiy bilimlar bazasida rivojlanishi.

3. XIV-XVI asrlar. Ruh haqidagi ta'limotning anatomo-fiziologik bilimlar va XIV-XVI asrlardagi buyuk kashfiyotlar ta'sirida rivojlanishi.

4. XVII-XIX asrlar o'rtalarida ongning psixologiya predmeti sifatida ajratilishi, psixologiya nazariy asoslarini shakllanishi. Psixologiyaning mustaqil fan sifatida taraqqiyoti.

5. XIX asrning boshidan XIX asrning 60-yillarigacha. Psixologiyaning mustaqil fan sifatida tabiiy shakllanishi.

Psixologiyaning mustaqil fan sifatidagi taraqqiyoti.

XIX asr 60-yillaridan to hozirgacha

1. XIX asrning 60-yillaridan XIX asrning oxirlarigacha. Psixologiyaning mustaqil fan sifatida paydo bo'lishi va dastlabki taraqqiyoti.

2. XX asrning 10 va 30-yillari o'rtalarida. Psixologiyada ochiq krizis.

3. XX asrning 20 - 30 yillari. Inqirozning tugallanishi.

4. 30-yillar oxiri 50-yillar Sobiq sovet psixologiyasi nazariy sohasi taraqqiyoti. O'zbekistonda psixologiya fanining shakllanishi.

5. 60-yillardan shu davrgacha psixologiyada yangi nazariy yondoshishlarni qidirish davri.

Ilmiy psixologik bilimlar taraqqiyotining umumiy va asosiy qonuniyati bu g'oyalari kurashidir. Bu kurash uzoq vaqt materializm va idealizm o'rtasidagi kurash ko'rinishida talqin qilinib kelindi.

Idealizm (fr. idealisme) – idealizm: falsafaning bosh masalasida – ongning borliqqa munosabati masalasida materializmga qarama-

qarshi o'laroq ong, ruh, birlamchi, moddiy dunyo, borliq esa ikkilamchi, ong, sezgi, tasavvur va tushunchalarning mahsulidir deb da'vo qiluvchi g'ayri ilmiy falsafiy oqim.

Idealistlar materialistlarga qarama-qarshi o'laroq, psixika tana bilan yashirin yo'sinda birlashgan, inson o'lgach, tanani tashlab "narigi dunyoga", g'oyalar dunyosiga ketib, u erda abadiy yashaydigan moddiy bo'lmagan qandaydir ilohiy substansiya yoki mohiyatning namoyon bo'lishidir deb tushunadilar.

Idealistik oqim namoyondalari psixika tana hayotiga bog'liq bo'lmagan qandaydir ruhiy substansiya jondan iborat deyдилar. Bunday qarash falsafaning antik taraqqiyotida Platon idealizmida yorqin namoyon bo'ldi.

Materializm (lot.materialis– moddiy) materializm falsafasidagi ikki asosiy oqimdan biri, ya'ni idealizmga qarama-qarshi o'laroq, birdan bir ilmiy, tarixan progressiv dunyoqarashdir. Falsafa tafakkurning borliqqa munosabati haqidagi bosh masalasini hal qilishda materializm, dunyo o'z tabiatiga ko'ra moddiydir, materiya, tabiat, borliq, inson ongidan tashqari unga bog'lik bo'lmagan holda mavjuddir, material birlamchi hamda sezgilarning manbaidir, ong esa ikkilamchi, hosila narsadir, dunyoni va uning qonuniyatlarini to'liq bilish mumkin, deb ta'lim beradi. Yuqoridagi ikki yo'nalish ma'lumotlari fan tarixida mavjud bo'lgan ilmiy tamoyillarga uzviy bog'lanadi.

1.2. Psixologiya tarixi fanining ilmiy tamoyillari

Tarixiy tadqiqotlardagi eng muhim tamoyil - tarixiylik tamoyilidir. Bu tamoyil tadqiqotchidan o'rganilayotgan hodisani shu davrning hamma o'ziga xosliklari, ijtimoiy-madaniy aloqalari, uning aniq mazmuni bilan birga o'rganib, o'rganiladigan hodisaning qaytarilmasligi va noyobligini ko'rsata olishni talab qiladi.

Tarixiylik tamoyilining tuzilishi prezentizm va antikvarizmga ko'rinadi.

Prezentizm - tarixiy tadqiqotni o'rganilayotgan davrdan faqatgina hozirgi zamon tasavvurlariga mos bo'lgan ko'rinishlariga ajratib olib o'rganishdir.

Antikvarizm - aksincha tarixiy o'tmishni hozirgi zamon talablariga bog'liq bo'lmagan, qotib qolgan hodisa sifatida o'rganadi. O'tmish hodisalarini tasvirlashdagi har qanday bir yoqlamalik, shematizm tarixiylik tamoyilidan chekinishdir. Shu bilan tarixiy

tadqiqotlar o'rganilayotgan xodisalarning umumiy qonuniyatlarini topishni talab qiladi. Bu talabni bajarishni asosan mantiqiylik va tarixiylikning birligiga tayanish taminlaydi. Bu tamoyilga ko'ra tarixchi o'tmish xodisasini shunchaki tasvirlab qo'ymay, balki uni nazariy jihatdan tasavvur eta olishi kerak, ya'ni bu xodisalarda qandaydir doimiylikni topa olishi kerak. Tarixiy psixologik g'oyalarni umumiy, siyosiy yo'nalishni g'oyaviy mohiyatini aniqlashni talab qiladi. Bunday yondoshish ilmiy konsepsiyalarning jamiyatdagi umumiy rolidan ajratib o'rganuvchi ob'yektivizm va sub'yektivizmdan farq qiladi.

Tarixiy psixologik tadqiqotlarda psixolog M.G.Yaroshevskiy ta'kidlaganidek, determinizm - sababiylik tamoyili katta ahamiyatga ega. Uning fikricha determinizmning ko'plab turlari paydo bo'lgan. Masalan mexanikadan oldin, mexanik, biodeterminizm, psixodeterminizm, sotsiodeterminizm. Bularning har biri psixik xodisalar o'z - o'zidan paydo bo'ladi deb talqin qiluvchi indeterminizmga qarshi turadi. Bunday bahslar psixologik muammolarni hal etishning usullariga ehtiyoj sezib, fan tarixida ilmiy - amaliy uslublar ahamiyatini nazarda tutadi.

1.3. Psixologiya tarixi fanining ilmiy tadqiqot uslublari

Ma'lumki fandagi barcha nazariy masalalar, ilmiy konsepsiyalar, yondoshuvlar oxir oqibat biror bir uslub orqali amaliy o'rganiladi va bu faraz qilinayotgan tushuncha yoki kategoriyalarni yaratilishiga sabab bo'ladi. Psixologiya tarixi fanida quyidagi ilmiy uslublardan foydalaniladi.

Tarixiy tadqiqot uslubi - ushbu uslubning asosiy vazifasi manbalarni qidirib topish, tadqiqot mazmunini belgilash, asoslash, nazariya, qonun tushunchalaridan iborat o'rganilayotgan materiallarni tizimlashtirishdan iboratdir. Masalan fan taraqqiyotini davrlashtirish (antik, o'rta, zamonaviy), psixologik maktablarning paydo bo'lishi (bixeviorizm, gesh'talt, psixoanaliz, vyursburg, assotsiativ) kabi tizimlashtirishda bilan ifodalanadi.

Rekonstruksiyalash uslubi - mohiyatan bu uslub fanda mavjud bo'lgan ilk fikrlar, mumtoz qarashlar va yo'nalishlarni o'zgartirmagan holda hozirgi psixologik masalalarga moslashtirishdir. Ya'ni o'tmish ilmiy tizimlarini tasvirlar va tahlillar, qiyosiy solishtirishga asoslangan nazariy uslubidir. Nazariy rekonstruksiya - keng ma'noda ilmiy konsepsiyalar, muammolar, tadqiqot uslublarni predmet mantiqiga

mos ravishda tarixiy ketma-ketlikda reprospektiv qayta tiklash imkonini beradi. Fanda tadqiqot yo'nalishlarining yagona turi ilmiy maktablar hisoblanadi. Arxiv materiallarini o'rganish, izlash, sharhlash, izoh berish tadqiqotlarda yo'naltirishni talab qiladi. Shu bois bu holat boshqa tadqiqot usullariga e'tibor qaratishni talab etadi.

Intervyu uslubi – Psixologiya fanidan ma'lumotlar olishning ushbu uslubi mavjud bo'lib, u orqali biror bir yondashuv, yo'nalish, xususiyat, qonuniyat aniqlanadi. Misol uchun mutafakkirlar, psixolog-tadqiqotchilar, fan olimlari tomonidan aytilgan fikrlarning hozirga qadar qayd etilganligi fan tarixi uchun manba vazifasini o'taydi.

Biografik uslub – (tarjimai hol) uslubi inson psixikasining tadqiq qilish uchun uning hayoti, faoliyati, ijodiyoti to'g'risida og'zaki va yozma ma'lumotlar muhim ahamiyatga ega. Bu borada kishilarning tarjimai holi, kundaligi, esdaliklari, o'zgalar ijodiga bergan baholari, taqrizlari alohida o'rin egallaydi (Freyd esdaliklari). Shu bilan birga o'zgalar tomonidan to'plangan tarjimai hol haqidagi materiallar: esdaliklar, xatlar, rasimlar, tavsiflar, baholar, taqrizlar o'rganilayotgan fanni to'laroq tasavvur etishga xizmat qiladi. Inson ongi xossasi, namoyon bo'lish, rivojlanishi, o'ziga xos ijtimoiy xususiyatlari atoqli odamlar bildirgan mulohazalarda o'z ifodasini topadi. Allomalar to'g'risidagi ma'lumotlar zamondoshlari, izdoshlari, safdoshlarining ta'rifu tavsiflari orqali avloddan avlodga o'tadi.

Tarixiy psixologik omilga munosabatni aniqlash va ularga baho berish uchun anketa uslubidan ham foydalaniladi.

So'rovnoma uslubi - yozma, so'rov usuli sanalib psixologiya va sotsiologiya fanlari oralig'idagi uslub sanaladi. Anketalr kishilarning ijtimoiy jarayonlarga munosabatlarini aniqlashda, shaxs haqida ma'lumot olishda ochiq va yopiq tarzda amalga oshiriladi. Anketalr faqat verbal xarakterda tuziladi.

Bundan tashqari, psixologiya tarixi fani ilmiy ishlardan jumlarlar keltirish ularni tahlil qilish, tarixiy psixologik uslublardan hisoblanadi. Hozirga qadar psixologiya fanida bir qancha so'rovnomalar yaratilgan bo'lib, ular shaxsning intellektual sifatlarini (Kettel), kasbiy axloqiy sifatlarini (Mayris Briggess), shaxs tiplarini aniqlash (G.Yu.Ayzenk) shaxsni kengqamrovli tadqiq etish (Minnisotskiy), shaxs so'rovnomasi

(Lyongard), xarakter aksentuatsiyasi (Shmishek) o'rganishga qaratilgan.

1.4. Psixologiya tarixi fanining manbalari

Psixologik bilimlar to'planishining tarixiy jarayonini o'zida aks ettirgan har qanday ma'lumot fan tarixi haqidagi ilmiy manba bo'la oladi. Ushbu manbalar sifatida o'tmish allomalari va psixologlarining ilmiy ishlari, esdaliklari, qo'lyozmalari, tajribalarini keltirish mumkin.

Psixologiya tarixi fanining muhim manbasi ijtimoiy amaliyot, tibbiyot, ta'lim va tarbiya, xuquqiy amaliyot, moddiy ishlab chiqarish va hokozolar hisoblanadi. Shuningdek, boshqa fanlar tabiatshunoslik, tilshunoslik, etnografiya, antropologiyalar ham fan tarixini yoritishda ilmiy asos sanaladi. Bundan tashqari xalq og'zaki ijodi (Avesto qo'lyozmasi, Alpomish dostoni, Shoh Edip hikoyasi), psixologik adabiyotlar, diniy (Qur'oni karim, Injil, Tavrot, Zabur kabi diniy kitoblar), falsafiy maktablar (idealizm, materializm, Milet maktabi) kabi ilmiy manbalar psixologik bilimlar tarixiy taraqqiyotini qayta tiklashda manba bo'lib xizmat qila oladi.

Empirik anglashdan nazariy anglashga o'tish yoki ta'biy sabablar bilan belgilangan ustunliklar determinizm deb nomlanadi. Psixologik tushunchalarni birinchi sistemasi psixologiya fanining asoschisi Aristotelning "qalb to'g'risida" degan traktatida tasvirlangan. Ammo mustaqil fan bo'lib psixologiya yuz yil ilgari shakllandi, ilgari psixologiya fani falsofiya deb o'rganilar edi. Unga boshqa nomlar ham berilgan:

A) mental falsofiya

B) pnevmatologiya

Ilmiy nuqtai - nazardan qaralganda psixologiya fani o'tmishni faqat bu nomlar ostidagi kitoblardan, ya'ni umumiy falsafiy bilimlardan qidirish xatodir, chunki psixologiya fani haqidagi haqiqiy bilimlarni to'plash insoniyat taraqqiyotining turli davrlarida uchratish mumkin. Shuning uchun ham psixologiya tarixini (mustaqil fan bo'lgunga qadar bo'lgan davr) qalb to'g'risidagi falsafa ilmiga tenglashtirish haqiqatdan emasdir.

*Psixologiyaning o'tmishi to'g'risidagi ma'lumotlarni faqat bir-biri bilan almashgan falsafa tizimini saqlab qolmay, uni ta'biy fanlar ayniqsa, biologiya, tibbiyot, pedagogika, jamiyatshunoslik kabi fanlar ham saqlab qolgan.

XIX asrning oxiri, XX asrning boshlarida, psixologiya fani sohasiga qiziqish kuchaydi. Bu yillar fan tarixida psixologiyani uygʻonish davri deb hisoblanadi.

XX asr 10-yillarda psixologiyani oʻsha paytda hukumon boʻlgan uslublarda oʻrganish sistemasi qattiq tanqid qilingan. Keyingi yillarda psixologik oʻrganishni uslubologik muammolariaga qiziqish kuchaydi va bir necha yirik tarixiy psixologik ishlar paydo boʻldi.

Juflarni qarama-qarshiligi tamoyili

Psixologik gʻoyalar harakatini umumiy chiziqlarini aniqlashda shemalar chizildi, bunga asoslanib harakat qarama-qarshilikka ega deyiladi. Buni amerikalik tarixshunos “qarama-qarshilik jufti” deb atadi. Bir necha nazariyalar taklif qilindi. G.Merfi psixologik oʻrganishlarni XX asrni 10-20-yillarda umumiy holini toʻrt “qarama-qarshilik juft”larga boʻldi:

1. “struktura - funksiya”
2. “qisman - butun”
3. “sifat - son”
4. “eksprimental - statistik”.

Mavzu yuzasidan tayanch tushinchalar:

Psixologiya, idealizm, materializm, prezentizm, antikvarizm, tarixiy tadqiqot, intervyu uslubi, biografik uslub, pnevmatologiya, soʻrovnomma uslub, tamoyil.

Nazorat savollari:

1. Psixologiya tarixi faninig predmeti haqida tushincha bering?
2. Psixologiya tarixi faninig maqsadi haqida tushincha bering?
3. Idealizm terminiga tushincha bering?
4. Materializm qanday yonalish hisoblanadi?
5. Prezentizm tamoili haqida tushincha bering?
6. Antikvarizm tamoili haqida tushincha bering?
7. Psixologiya tarixi fanining uslublari haqida tushincha bering?
8. Psixologiya tarixi faninig maʼnbalari deganda nimani tushinasiz?
9. G.Merfi taʼmoili tuzilishi toʻgʻrisida tushincha bering?
10. Avesto qoʻlyozmasida milliy qadiryatlar qanday aks etgan?

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T., Ma'naviyat, 2008.
2. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: O'zbekiston, 2011.
3. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T.: O'zbekiston, 1997.
4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston-NMIU, 2017.
5. Mirziyoyev Sh.M. Erikn va farovon, demoktarik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majilisdagi nutq. – T.: O'zbekiston-NMIU, 2017.
6. Hergenhahn B.R., Tracy B. Henley “An Introduction to the History of Psychology”. – 2014 Wadsworth, Cengage Lyerning.
7. Ярашевский М.Г. История психологии. – М., 1997.
8. Ждан Н.Ж. История психологии. – М., 1995.
9. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. – T., 2010.
10. G'oziyev E.G'. Psixologiya metodologiya. – T., 2013.

II BOB. ANTIK DAVR PSIXOLOGIK TA'LIMOTLARI (IV – V ASRLAR MISOLIDA). QADIMGI YUNON MUTAFAKKIRLARI QARASHLARIDA PSIXOLOGIK FIKRLAR RIVOJI

Ma'lumki, "Psixologiya" atamasi ilmiy tadqiqotlarda XVI asrning oxirlarida paydo bo'lib, XVIII asrning oxiri va XX asrning boshlaridagina keng qo'llanila boshlandi. Keyinchalik "Psixologiya" deb atalgan ta'limotning o'zi bundan ikki yarim ming yil oldin Gretsiyada paydo bo'lgan.

"Psixologiya fan sifatida ruh haqidagi ta'limotdan boshlanishi kerak edi. Ruh haqidagi ta'limot odamzot tomonidan ilgari surilgan birinchi ilmiy gepoteza" dir deb yozadi L.S. Vigotskiy.

Anita - ruh haqidagi qarashlar ibtidoiy jamoa davridayoq mavjud bo'lgan bo'lsada er. av. II asrda tabiat va inson haqidagi tasavvurlar tub burilishga uchrab, antik olamda dastlabki ruh haqidagi ilmiy farazlar paydo bo'la boshlaydi. Ilmiy psixologiya va undagi barcha muammolarning boshi shu erdadir.

VII – V asrlardagi qadimgi grek filosoflari boshqa dunyoning mohiyatini, uning kelib chiqishini bilishga uringanlar. Ular tabiat haqida, inson haqida, uning olamda tutgan o'rni haqida, xususan uning ruhi va ruhiy hayoti, uning taqdiri haqida fikr yuritganlar. O'sha davrlarda ruh haqidagi ta'limotda bir-biriga qarama - qarsini bo'lgan, binobarin, o'zaro doimo kurashadigan ikki oqim – materialistik va idealistik oqimlar paydo bo'lgan.

2.1. Dunyoni tushunishning materialistik yo'nalishi

Eng qadimgi grek faylasuflari va ularning ta'limotlari to'g'risidagi ma'lumotlar g'oyat kam. Bizda ular haqidagi ishonchli axborotlar ko'p emas, ularning o'z asarlari bizgacha kam hollarda to'laligicha etib kelgan. Shuning uchun, ular to'g'risida aytiladigan ma'lumotlar taxminlar va ularning ta'limotlari haqida boshqa faylasuflar hikoya qilib ketgan xotiralarga asoslanadi. Antik davr grek faylasuflari fikriga ko'ra, dunyoning asosida qandaydir bitta moddiy narsa yotadi. Ularning fikricha, inson ham dunyoning bir qismi sifatida shu moddadan tashkil topadi.



Qadimgi yunon faylasuflaridan biri, **Fales**¹ bo'lib, Yunonistondagi Milet maktabining asoschisidir. Fales miloddan avvalgi 625 yil bilan 547 yil oralig'ida yashab o'tgan, deb hisoblanadi. Bunday taxmin qisman Falesning miloddan ilgari 585 yildagi quyosh tutilishini oldindan aytib berganligi haqida yozgan Gerodot fikriga asoslanadi.

Boshqa manbalar Falesning Misr bo'ylab sayohati to'g'risida ma'lumot beradi. Bunday sayohat o'sha paytdagi greklar uchun ayniqsa, noodatiy hol bo'lgan. Yana shunday ma'lumotlar borki, Fales ehromlarning balandligini hisoblash masalasini uning o'z soyasi o'zining bo'yi o'lchamiga tenglashgan paytda ehromdan tushgan soyaning uzunligini o'lchash yo'li bilan hal qilgan.

Miletlik Fales o'z zamonasidagi etti donishmandning biri bo'lgan. Aytishlaricha, Fales shu etti donishmandning ichida etakchilik qilgan. U birinchilardan bo'lib tabiat haqida fikr yuritgan.

Quyosh tutilishi uning oy bilan to'silishi tufayli yuz berishini birinchi bo'lib Fales anglagan, diametr aylanani teng ikkiga bo'lishini isbotlab bergan. Fales falakiyotshunoslik bilan ham shug'ullanib, quyosh tutilishini oldindan aytib bergan.


Falesning quyosh tutilishini oldindan aytib berganligi haqidagi hikoya uning ehtimol, Bobildan o'tib kelgan astronomiyaga oid bilimlarni bilganligini ko'rsatadi. U shuningdek matematikaning greklar tomonidan rivojlantirilgan sohasi - geometriyaga doir bilimlarni ham egallagan.

Matematik fikrlarning universalligi greklarda nazariya va nazariy tekshirish haqidagi tasavvurlarning shakllanishiga yordam bergan.

Darhaqiqat matematik fikrlar alohida xususiy voqea - hodisalar haqidagi fikrlarga nisbatan boshqacha ma'noda haqiqiy bo'lib, hisoblanadi. Shuning uchun matematikaga doir universal fikrlar nomatematik fikrlarga nisbatan qo'llaniladiganidan boshqacha usulda tanqid qilinishi kerak.

Bularning hammasi dalillash uslublari va idrok etiladigan haqiqatga asoslanmaydigan fikrlarning rivojlanishini zarur qilib qo'ydi. Ta'kidlanishicha, Fales Miletning siyosiy hayotida ishtirok etgan. U yangi uskunalarini yaxshilash uchun o'zining matematik

¹ Hergenhahn B.R. Tracy B. Henley An Introduction to the History of Psychology. 2014 Wadsworth, Cengage Lyerning. 29-p.



bilimlarini qoʻllagan. U birinchi boʻlib quyosh soati boʻyicha vaqtni aniq belgilab bergan edi.

Ayrim maʼlumotlarga koʻra Fales sharq mamlakatlarida boʻlgan va u erdagi bilimlar bilan tanishgan. Uning asarlari bizgacha etib kelmagan. Fales fikricha jonni nozik modda (ifr) tashkil etadi ammo hamma narsa suvdan yaraladi va oxir oqibat suvga aylanadi. Astronomiyaga oid kashfiyotlar qilib, mil.av.585 yilda Yunonistonda sodir boʻlgan quyosh tutilishini kuzatib, bir yil 365 kundan iborat ekanligini ilk bor aytib oʻtgan. Inson ruhi va ruhiy hayoti par (bugʻ) shaklida tasavvur qilingan

Uning asarlari haqida koʻp maʼlumot berish qiyin, chunki bunday asarlar bizga faqat boshqa kishilarning takroriy bayonlari orqali kelgan. Shuning uchun biz ularni bayon qilishda boshqa mualliflarning bu asarlar toʻgʻrisida bildirgan maʼlumotlariga tayanib ish koʻrishga majburmiz. Aristotel Metafizika asarida Fales jami mavjudot, yaʼni mavjud boʻladigan narsalardan kelib chiqadigan va yana qaytib borib joylashadigan ibtido haqidagi masalalarni qoʻyadigan falsafa turini asoschisi boʻlgan, deydi. Aristotel yana shuningdek Fales bunday ibtido suvdan (yoki suyuqlikdan) iboratdir deb faraz qilgan deydi. Biroq, agar hatto Fales haqiqatan ham shunday deb taʼkidlagan boʻlsada uning bunda nimani nazarda tutganligi aniq maʼlum emas. Bunday izohni hisobga olgan holda biz "Fales falsafasi" ni rekonstruktiv tarzda talqin etishga harakat qilamiz.



Qadimgi yunon faylasuflaridan biri boʻlgan **Anaksimenes** shubhasiz, miloddan avvalgi 585 yil bilan 525 yil oraligʻida yashagan. Qadimgi Yunon faylasufi Anaksimenes miletlik Evristratning oʻgʻli va faylasuf Anaksimandriyning yaqin doʻsti boʻlgan. U Milet maktabi vakillaridan biri boʻlib, uning taʼlimotiga koʻra, dunyoning asosini, tabiatning mohiyatini havo tashkil qiladi. Anaksimenes fikricha, makon oʻz - oʻzini rivojlantirib, oʻz - oʻzini boshqaradi, koinot abadiydir. Boshqa faylasuflardan farqli ravishda Anaksimenes diniy gʻoyadan yiroqlashib, inson ongi haqidagi gʻoyalarga yaqinlashdi. Bu taʼlimot keyinchalik falsafa tarixida sodda dialektik oqim sifatida nom oldi. butun mavjudot zichlashish va siyraklashish qobiliyatiga ega boʻlgan havodan tashkil topgan, deb taʼlim beradi. Ruh - bu juda siyraklashgan havodir deydi u.

Anaksimandr² taxminan miloddan avvalgi 610 yil bilan 546 yil oralig'ida yashagan va Falesning birmuncha yoshroq zamondoshi bo'lgan.



Anaksimandrga tegishli deb hisoblanadigan faqat bitta asar bizning davrimizgacha etib kelgan. Faylasuf Anaksimandr shogirdi Pifagor: "Donishmandlik ibtidosi: fikrlashni o'rganish, vaysaqilikka barham berish" deya ta'kidlab ilk bora tafakkur operatsiyalariga e'tibor qaratish kerakligi haqidagi fikrlarni ilgari suradi.

Quyida Anaksimandr va Pifagorning bir qancha aforizmlarini keltirib o'tamiz, ularni psixologik tahlil qilishga harakat qilib ko'ring.

-Tinglash va sukut saqlash seni donolikka etaklaydi. Sukut-donolikning boshlanishi.

-Bilimlilik va donishmandlikni ayni bir narsa deb hisoblamang.

-Jonzotlarni o'ldirishdan saqlaning, chunki odam o'ldirish jonivorlarni o'ldirishdan boshlangan.

- O'tgan kun haqidagi: "Men uni qanday o'tkazdim, nimalar qildim-u, nimalarga ulgurolmadim?" - degan savollarga javob topilmaguncha ko'zlaring uyquga ketmasin.

Bir so'z bilan aytganda Anaksimandr dunyo falsafasi va psixologiya fani taraqqiyoti tamadduniga o'ziga xos tarzdagi hissasini qoshgan qomusiy allomalar qatoridan joy olgan.



Pifagor (miloddan avvalgi 576-496 yillar)

Janubiy Italiyaning Regiya shahrida tug'ilib o'sgan qadimgi Yunon faylasufi Pifagor Mnesarx ismli kishini farzandi bo'lgan. Otasi uni xizmat safariga doimo o'zi bilan olib yurgan. Oqibatda Pifagor qiziquvchan va yangi narsalarni bilishga intiluvchan bo'lib o'sadi. Pifagor uzoq vaqt davomida Misrda tahsil olgan. Zardushtiylik diniga juda qiziqqan. U Misrda ilm sirlarini o'rganish uchun hatto xatna qildirishga ham rozi bo'lgan. Aks holda uni kitoblarga yaqinlashtirishmasdi. U hech qachon yig'lamagan va umuman ehtiros hamda his - hayajonga berilmagan.

Pifagorning quyidagi asarlari ma'lum: "Tabiat haqida", "Davlat haqida", "Tarbiya haqida", "Jon haqida", "Olam haqida", "Ilohiy kalom".

² Hergenhahn B.R. Tracy B. Henley An Introduction to the History of Psychology. – 2014 Wadsworth, Cengage Lyerning. 30-p.

Pifagor hayotning mazmuniga oid qarashlarga “falsafa”, deb nom bergan birinchi donishmand edi.

Rivoyat qilishlaricha, Fliunt shahriga safari chog‘ida hokim Leon Pifagordan so‘radi: “Sen qaysi ilm bilimdonisan?” – “Hech qaysi, - deb javob berdi Pifagor. – Men shunchaki bir faylasufman”. – “Falsafa degani nima o‘zi?”- taajublanib so‘radi hokim. Pifagor shunday javob berdi. “Inson umrini bozor va Olimpiya o‘yinlariga qiyoslash mumkin. Bozordagi sotuvchilar ham, haridorlar ham doimo o‘z foydalarini ko‘zlaydilar. Olimpiya o‘yinlari ishtirokchilari esa shon-shuhrat va mashhurlik payida bo‘ladilar. O‘yingohdagi tomoshabinlar esa ularni diqqat bilan kuzatadilar. Hayotda ham shunday. Odamlarning katta bir guruhi boylik va shon-shuhrat orttirish maqsadida elib yuguradilar. Ana shu olomon orasida kamchilikdan iborat bir guruh borkim, ular chetdan turib atrofdegilarni jimgina kuzatadilar. Voqea hodisalarni, inson tabiatini tadqiq etadilar.

Haqiqatni anglash ularning eng sevimli amalidir. Ana shu toifadagi odamlar faylasuflar – donolikni sevuvchilar, deb ataladi. Ular sofoslar, ya‘ni donishmandlar emas. Chunki tom ma‘nodagi donishmandlik yolg‘iz Allohga xos sifat. Bandalar esa donishmandlikka intilish bilan kifoyalanadilar xolos”. Pifagor miloddan avvalgi 496 yilda dushmanlari tomonidan o‘ldirilgan.

Yana bir grek mutafakkiri **Anaksagor** (er. av. 500 – 428) ning barcha narsalar gameomeriy nomli mayda moddalardan tashkil topganligi va ularning aql bilan va ya‘ni ruh bilan boshqarilishi to‘g‘risidagi fikr ham Demokritning atomik qarashlariga o‘xshaydi. “Anaksagor olov va quyosh ayni bir narsadir, deb hisoblaganda qattiq yanglishgandi, - deydi Suqrot. – chunki odamlar olovga bemalol qaray olishlarini, quyoshga esa hech qachon tik boqolmasliklarini nazardan qochirgan. Shuningdek, Anaksagor inson terisi quyosh nuri ta‘sirida qorayishini, olov esa bunday qudratga ega emasligini; o‘simliklar quyosh haroratisiz yashay olmasliklari, olov taftidan esa halok bo‘lishlarini unutmagan. Anaksagor quyoshni olovda toblangan tosh, deb ta‘riflagan. Ammo tosh qancha qizdirilmasin, hech qachon quyosh kabi yog‘du tarata olmasligi kundek ravshandir. Quyosh esa doimo eng porloq yoritgich bo‘lib, qolajak”.



Geraklit³ (540-480) Mileet bilan qo'shni bo'lgan dengiz forti Efesda tug'ilib o'sgan. U miloddan avvalgi 500 yillar atrofida, ya'ni Falesdan taxminan 80 yildan so'ng yashab o'tgan. U podshoh xonadoniga mansub bo'lib, akasining foydasiga shohlik martabasidan voz kechgan. U "kosmos" so'zini birinchi bo'lib qo'llagan Yunon faylasufi edi. ("kosmos" so'zi "tartib" degan ma'noni anglatadi. Bu so'z dastlab davlat tizimi va hatto ayollarni "tartib"ga keltiruvchi pardoiz andoz anjomlariga nisbatan ham qo'llanilgan. "Kosmetika" so'zi shundan kelib chiqqan).

Geraklit to'g'risida bir necha tarixiy manbalar ma'lum, biroq ularning real negizga egaligi ehtimoldan ancha yiroq. Bularning hammasiga qaramasdan, saqlanib qolgan qo'lyozmalar asosida uning obrazini qayta tasvirlash imkoniga egamiz.

Geraklit har doim ham o'z zamondoshlari tomonidan tushunilmagan, mahdud, achchiq istehzoli faylasuf sifatida gavdalanadi, u zamondoshlarining o'zini anglab etishmaganligi uchun ularning aqliy qobiliyatlarini juda past deb qaragan.

Mana shuning uchun u odamlarning fikrlari va nuqtai nazarlari "bolalarning o'yinchoqlariga" o'xshaydi, deb ta'kidlagan.

Geraklitga doir yana bir aforizmda, tushunmaydigan odamlar karlarga, "ishtirok eta turib qatnashmayotgan" kishilarga o'xshaydi. Buning ustiga, Geraklit ko'pchilik fikrini nazarda tutib, uning vakillarini "poholni oltindan afzal ko'radigan eshaklarga" qiyoslaydi.

Zamondoshlarining Geraklit ta'limotini tushunmaganligi, shubhasiz, nafaqat ko'pchilikni noto'g'ri fikrlashi bilan bog'liq edi. Geraklitga faylasuf sifatida "Noma'lum" degan tahallus berilgan. U ko'pincha o'z fikrlarini noaniq va ko'p ma'noli majozlar yordamida bayon qilardi. Afsonaviylikdan qat'iyat bilan yiroqlashishga harakat qilgan

Miletlik naturfaylasuflardan farqli ravishda Geraklit afsonaviylik uslubida bayon qilish tarafdori edi.

U Miletliklarda bo'lgani kabi ilmiylik darajasiga ega bo'lmagan. U Parmenid va Eleatlarga o'xshab mantiqiy, puxta belgilangan tushunchalarni ham qo'llamagan. Geraklit his qilish va kuzatuvga tayangan – uning nutqi folbinlarning gap - so'zlariga o'xshab ketardi.

³ Hergenham B.R. Tracy B. Henley An Introduction to the History of Psychology. – 2014 Wadsworth, Cengage Lyerning. 30-31-p.

Bizning bilishimizcha, Geraklit o'z asarlarini Artemida Efesskaya ibodatxonasida saqlagan. Geraklitning hikoyalarida boshqa faylasuflar ham esga olinadi.

Bu shundan dalolat beradiki, faylasuflar nafaqat tashqi hodisalar bilan qiziq boshlagan, shu bilan birga ular falsafiy muammolar xususida boshqa faylasuflarning bildirgan fikrlari to'g'risida ham muayyan qarashlarida namoyon etishgan.

Natijada, faylasuflar o'rtasidagi bahs-munozaralar va bir faylasuflar asarlarining boshqa faylasuflar asarlarida izohlanishi tufayli falsafiy an'ana vujudga keladi va qo'llab quvvatlanadi. Geraklit tabiatning asosi olovdur - deb hisoblagan. "Hamma narsa olovdan paydo bo'ladi va hamma narsa yana olovga aylanadi". Butun dunyo, alohida narsalar, shuningdek, inson ruhi ham olovdan kelib chiqadi deydi u.

Geraklitning fikricha, ruh - bu dunyoning abadiy harakatlanadigan va o'zgarib turadigan asosining - olovning o'tkinchi holatlaridan biridir.

Empedokl (483-423 y.) antik davr faylasuflaridan biri bo'lib, u o'z ta'limotida olamning asosi sifatida to'rt unurni qo'yadi. Bular suv, olov, havo va tuproqdan iboratdir. Shuningdek to'rt unsurdan tashqari ikki harakatlantiruvchi kuch ham mavjud. Birinchi kuch birlashtiruvchi bo'lib, u muhabbat hisoblanadi. Ikkinchi kuch ajratuvchi bo'lib, u yovuzlikdir. Empedoklning ushbu fikrlari hozirgi ijtimoiy psixologiya kategoriyalari mohiyatini izohlab, insondagi ikki sifatni yoritib o'tadi. Ya'ni muhabbatni vatanga, oilaga, kishilarga bo'lgan munosabatlarda ko'radi. Yovuzlik jamiyatni buzuvchi, inson ongini zaharlovchi modda sifatida tushintiradi. Bu fikrlar hozirgi psixologiya fanidagi tarbiya, xulq kabi tushinchalar asosini belgilaydi. "Tabiat haqida" degan poemang avtori bo'lib, u dunyoning asosida qandaydir bitta unsur (suv, havo, tuproq yoki olovdan bittasi) emas, balki to'rtala unurning hammasi, ya'ni suv, havo, tuproq, va olov yotadi deb ta'lim bergan.



Tibbiyot fanining otasi **Gippokrat**⁴ (er. av. 460-377 yillar) Likseon kabi tafakkur va sezgi organi miya ekanini ta'kidlaydi. Uning yozishicha mana shu qism bilan biz fikrlaymiz, yaxshi va yomonni ajratamiz, tanamizning mana shu qismi bilan

⁴ Hergenahn B.R. Tracy B. Henley An Introduction to the History of Psychology. - 2014 Wadsworth, Cengage Learning. 37-38-p.

ko'ramiz. Miya sog' holatda bo'lgandagina biz sog' fikrlaymiz. Gippokratning ishlari orasida eng katta shuhrat keltirgani temperament haqidagi ta'limotdir.

Unga ko'ra, inson temperamentini organizmdagi 4 xil suyuqlik: miyadagi shilimshiq modda, yurakdagi jigardagi safro, qora taloqdagi qora safroning nisbatini belgilab beradi. Qonning ustunligi - sangvinik temperamentiga (lot - qon), shilimshiq modda ustunligi - flegmatik temperamentiga (grek - shilimshiq modda), safro ustunligi - holerik temperamentiga (grek - safro, o't), qora safro ustunligi melanholik temperamentiga (grek - qora safro, o't) to'g'ri keladi. I.P. Pavlovning aytishicha, Gippokrat son - sanoqsiz variantlar ichida inson xulqini tushuntiruvchi nazariyaga asos soldi.

Aleksandriyada ma'lum vaqtgacha o'liklarni yorib o'rganishga ruxsat berilishi Aleksandriyadagi 2 ta yirik tabib olim Gerofil va Erazistrantning yangi kashfiyotlariga sabab bo'ldi. Ptolemeyning shaxsiy tabibi Gerofil birinchi bo'lib, nervlar, paylar va bog'lamlar o'rtasidagi farqni aniqlab, ko'zning tuzilishini batafsil tariflab berdi. Erazistrat bosh miyaning tuzilishini ta'riflab, katta yarim sharlardagi egri va bugriliklarning ko'pligidan odam aqliy jihatdan hayvonlardan ustun turadi, degan fikrga keldi.



Yana shunday allomalardan biri rimlik tabib **Klavdiy Galen** (er .av. II asr) tibbiy bilimlarni umumlashtirdi va yangilari bilan boyitdi. Uning asarlaridan XVII - asrgacha keng foydalanildi. Har xil muskullarga boruvchi nervlarni kesish bilan Galen xulosaga keldiki, tananing nervsiz birorta qismi yo'q, birorta harakat, birorta hissiyot ularning ishtirokisiz kechmaydi.


Eksperimentlar orqali Galen orqa miyaning funksiyalarini ham aniqladi. Agar orqa miyani ko'ndalang kessa, kesilgan joydan pastda joylashgan barcha tana qismlari harakatchanligi va sezuvchanligini yo'qotadi, degan xulosani olim asoslab berdi. Galen Gippokratning temperament ta'limotini yanada rivojlantirdi. U barcha narsalarning 4 xil holati - iliq, sovuq, quruq, va nam va 4 xil suyuqlik 13 ta temperamentni keltirib chiqaradi, degan fikrda edi.

Shu temperamentlarning bittasi normal bo'lib, 12 tasida normadan chetga chiqish mavjudligini Galen tushuntirmoqchi bo'ldi.

Ko'rish idrokini o'rganishga a'finalik tabib Aleksandr Vfrodiyskiy (139-211 yil) katta hissa qo'shdi.

Antik mutafakkirlar tomonidan to'plangan ruh haqidagi ta'limot keyinchalik fanning shakllanishi uchun zamin yaratdi.

Bir so'z bilan aytganda Gippokrat va Galen dunyo meditsina taraqqiyotiga o'ziga xos tarzda hissasini qoshgan allomadir.



Demokrit⁵ (460–370 y.) qadimgi yunon faylasuflaridan biri bo'lib, moddiylik ta'limoti asoschisidir. U o'z ustozlari qarashlarini rivojlantirib, dunyoning asosida tabiatning qandaydir bitta yoki bir qancha unsuri emas, balki bitta manba yotadi, olov ham, suv ham, tuproq ham, havo ham, dunyodagi barcha turli - tuman narsa va hodisalar ham shu manbadan paydo bo'ladi, degan ta'limotni ilgari surdi. Butun mavjudotning negizi bu materiya deb atalgan edi. Demokritning ta'limotiga ko'ra, materiya atomlardan, ya'ni juda mayda, ko'zga ko'rinmaydigan zarrachalar va moddalardan tashkil topgan.

Uningcha, atomlar doimo harakatlanib turadi (Demokritning fikricha, ular bo'shliqqa tushib turadi). Atomlar faqat shakl jihatidagina bir-biridan farq qiladi.

Burchaksimon, ilmoqsimon, g'adir-budur atomlar bo'lib, harakatlanganda ular bir-biriga tegib ketadi, shuning uchun ham ular sekin harakatlanadi.

Shu atomlarning birikishidan qattiq jismlar hosil bo'ladi. Dumaloq, oval shaklidagi, sirg'anchiq atomlar ham bo'ladi, ular esa sekin harakatlanadi. Bu atomlarning birikishidan suyuq gazsimon jismlar hosil bo'ladi.

Sochilib ketishidan iborat fizik qonuni tana uchun ham, taaluqli deb hisoblab Demokrit ruhning abadiyligini inkor etadi.

Demokrit ruhning tana harakatining sababi deb biladi. Uning yozishicha ruh og'ir tanaga kirib harakatga keltiradi. Tana o'lgandan keyin esa u fazoda tarqalib ketadi. Biz nafas olganimizda ruhni tashkil etuvchi atomlarni yutib nafas chiqarganda ruhimizni bir qismini tashqariga chiqarib yuboramiz. Shu tariqa ruhimiz doimo engillashib turadi, deb hisoblaydi Demokrit. Uning fikricha, hamma narsaning, hatto o'likning ham ruhi bor, faqat juda kam. Demokritning bunday fikri panpsixizmga yaqinlashib qoldi. Tanadan tashqari ruh bo'lishi mumkin emas, degan umumiy hukm chiqardi. U nafaqat tana va ruh

⁵ Hergenhahn B.R. Tracy B. Henley An Introduction to the History of Psychology. -- 2014 Wadsworth, Cengage Lyerning. 35-36-p.

birligi, balki ruhning o'zi tana ekanligini ta'kidlaydi. "Agar ruh tanani harakatlantirsa, demak uning o'zi tana qismi" deb yozadi. Epikur, Lukretsiy kabilar Demokrit ruh haqidagi tasavvurlarni rivojlanishini davom ettirdilar. Lekin Epikurga ko'ra, ruh atomlardan emas, o'zgaras 4 elementlardan: olov - issiqlik asosi, Bug' - harakati asosi, shamol - sovish, nomsiz 4-element - ruhdan iborat. Epikurning nomsiz elementini Lukretsiy "A", deb atadi. Shuningdek, Epikurning fikricha faqat sezish xususiyatiga ega narsalardagina ruh bo'ladi.

Demokratning ta'limotiga ko'ra, tan va ruh egasi bo'lgan inson huddi shu atomlardan, tarkib topadi.

Odamning tanasi qo'polroq ilmoqsimon, g'adir-budur va sekin harakatlanadigan atomlardan tashkil topadi, ruhi esa eng silliq, dumaloq, sirpanchiq, binobarin eng harakatchan atomlardan tashkil topadi. Ruhning har bir ayrim atomi, hatto uning kichkina gruppalari ham sezuvchanlikka ega emas. Ularning bir qanchalari birlashibgina, sezuvchanlik qobiliyatiga ega bo'ladi. Ruh atomlari butun badanga tarqalgan, lekin ularning ko'pchiligi ko'zda, quloqda, panja uchlarida, yurakda hamda bosh miyada joylashgan. Bizning sezgilarimiz, hislarimiz va fikrimiz shu ruh atomlarining mahsus harakatidir.

Atrofimizdagi narsalardan doimo dumaloq, engil atomlar ajralib chiqib, fazoda uchib yuradi. Agar shu atomlardan birortasi ko'zimizga tushsa, biz ko'ramiz kuloqimizga tushsa eshitamiz, burnimizga kirsas, biror narsaning hidini sezamiz va hokazo. Bizning fikrlarimiz bu bosh miyadagi ruh atomlarining harakati. Bizning hislarimiz, intilish ehtirosalarimiz, bu yurakdagi ruh atomlarining harakati.


Demokratning ta'limotiga ko'ra, ruhiy hayotning markazi yurakdir. Ruhimizni tashkil qiluvchi atomlar tanamizdan chiqib ketmaguncha biz o'z - o'zimizni anglaymiz.

Shu atomlarning bir qismi tanamizdan chiqib ketganda uyqu va shunga o'xshash ongsiz holat ro'y beradi, agarda deyarli barcha atomlar tanamizdan chiqib ketse, yarim o'lik holat (behushlik holati) ro'y beradi.

Barcha ruhiy atomlarining tanadan butunlay ajralib chiqib ketishi o'limga olib keladi. Demokrit ruhning abadiyligini inkor qilgan.

Uning ta'limotiga ko'ra, tana o'lishi bilan ruh ham o'ladi. U moddiy narsadir, maydalanib dunyo atomlarining umumiy yig'indisiga qo'shib ketadi.

Idealistik yo'nalish ta'limoti. Suqrot, Platon, Aristotel qarashlarida borliqni bilish masalasi



Suqrot⁶ taxminan miloddan avvalgi 470-yilda tug'ilgan va 399 yilda vafot etgan. Uning faol falsafiy faoliyati naturfalsafa davriga (miloddan avvalgi 450-400-yillar) to'g'ri keladi. Sofistlarga zamondosh bo'lgan Suqrot dastlabki afinalik faylasuf edi va butun umr bo'yi ona shahrida yashagan. Uning otasi toshqarosh, onasi esa doya bo'lgan. U aslzoda va badavlat bo'lmasada, hech qachon o'zining moddiy ahvolidan yaxshilashga urinmagan. Suqrot Ksantippaga uylangan va uch farzandli bo'lgan. U juda ko'rimsiz qiyofaga ega bo'lgan. U doimo eski liboslarda, yalangoyoq yurgan. Ayollar borasida ham Suqrotning omadi yurishmagan. Garchi ikki marta uylangan bo'lsa-da, oilaviy baxtga erisha olmagan. Suqrot asosiy vaqtini munozara va bahslarda o'tkazgan. Bahslarda doim uning qo'li baland kelgan. Shuning uchun ko'pincha uning sochidan tortib kaltaklashgan, ustidan kulib haqoratlashgan. Suqrot hammasiga dosh bergan. Odamlar bundan ajablanishganda, ularga qarata shunday degan: "Eshak tepsa uni sudga bera olmayman-ku!". Suqrot mohir raqqos bo'lgan va bunday mashqni jismning salomatligi uchun foydali deb bilgan.

U talabalarga og'zaki saboq bergan va hech qanday yozma manba qoldirmagan. Timey ismli shogirdi: "Ey, ustoz, nima sababdan dono fikrlaringizni qog'ozga tushirmaysiz?" - deb so'raganda,

Suqrot: "Ey, Timey o'lik hayvonlarning terisiga ishonching va tirik barhayot fikrlarga ishonchsizliging juda mustahkam ekan", - deb javob bergan.

399-yil Suqrot bir yurtdoshining fitnasi tufayli fuqorolik me'yorlarini buzganlikda ayblanib, o'lim jazosiga hukm qilingan va qatl etilgan. Sudda Suqrot og'zidan chiqqan so'ngi so'zlar shunday bo'lgan: "Menga o'lish uchun, sizga esa yashash uchun bu yerni tark etish fursati yetdi. Faqat buning qay biri afzalligi Xudodan o'zga hech kimga ayon emas". Sudda 220 nafar odam Suqrotning aybsizligini yoqlab, 280 nafar kishi esa unga qarshi ovoz bergan.

Suqrot Platonning dialoglarida tasvirlanganidek, g'arbiy dunyo ruhiga eng ko'p ta'sir ko'rsatgan kishilar sirasiga kiradi. Suqrot

⁶ Hergenhahn B.R. Tracy B. Henley An Introduction to the History of Psychology. – 2014 Wadsworth, Cengage Lyerning. 41-42-p.

insoniy shaxs sifatida u yuksak ma'naviyati, kamtarin va oddiy turmush tarzi, zukkoligi, samimiyligi, xushfe'lligi va hazil-mutoyibaga moyilligi kabi xususiyatlari bilan ajralib turar edi. Biroq Afinalik fuqorolar Suqrot ularni ko'chada yoki bozorda yo'ldan to'xtatib, suhbatga solib, qiyin savollarga tutadigan holatlarda muayyan darajada noqulay vaziyatga tushib qolishardi.

Bir qator sabablarga ko'ra, Suqrot ham sofistlar kabi o'zining yoshlik davrini xazon qilib, jamiyat uchun xavfli odamga aylanmoqda, degan qarash ham shakllangan edi.

Suqrot hayoti faoliyati davomida o'z ta'limotini og'zaki ravishda ko'cha kuyda, maydonlarda, hiyobonlarda o'z shogirdlari va izdoshlari bilan suhbatlarda bayon qilgan, lekin bironta ham asar yozmagan. Uning falsafiy, ahloqiy ta'limotlarini shogirdlari Ksenofont, Aristofan va Platonlarning asarlari orqali bilib olishimiz mumkin.

Ksenofont "Suqrot haqida esdaliklar" asarida o'z ustozini haqida iliq so'zlar aytib, uni oliyjanob ustoz, ahloq-odob borasida haqqoniy fikr yuritgan, inson fazilatlarini qadrlashga da'vat etgan kishi sifatida tasvirlaydi. Platon ham o'zining "Suqrot" nomli asarida unga qo'yilgan ayblar tuhmat ekanligi haqida yozib qoldirgan. Shuni alohida ta'kidlash joizki Suqrot juda kuchli arator bo'lib, boshqaruv psixologiyasi, notiqlik san'ati kabi fanlarga katta hissa qo'shdi.

Suqrot hech narsa yozmagan. Uning ta'limoti (mabodo umuman uning ta'limoti xususida gapirish mumkin bo'lsa) haqidagi bizning bilimimiz u haqida boshqalarning yozgan asarlariga asoslanadi.

Asosan, bular Platon asarlari bo'lib, Suqrot uning dialoglarida asosiy rol o'ynaydi. Shuning uchun Suqrotning aslida nimalarni gapirganligini va Platonning dialoglarida Suqrot fikrlari bilan Platon fikrlari o'rtasidagi chegarani aniqlash ancha qiyin vazifadir. Anna shu jihatni e'tiborga olib, Suqrot falsafasini Platonning bayon qilgani tarzda talqin etishga harakat qilamiz.

Platon⁷ (427 – 347 y.) antik davr faylasuflaridan bo'lib, Platon akademiasining asoschisi er.av. 385 yilda Afinada tashkil etdi. Platon ahloq, siyosat, falsafa, tabiiy fanlar, matematika va psixologiya fanlarini qiziqish bilan o'rgangan. U Demokrit bilan deyarli bir vaqtda yashagan va ijod etgan. Bular



⁷ Hergenahn B.R. Tracy B. Henley An Introduction to the History of Psychology. – 2014 Wadsworth, Cengage Learning. 43-44-p.

quldorlik aristokratiyasi mafkurasining namoyandalari edilar. Platon taxminan miloddan avvalgi 427 yilda Afinada tug'ilgan va 347 yilda shu erda vafot etgan.

Uning asl ismi Aristokl bo'lgan. "Platon" uning tahallusi bo'lib, yunoncha "keng elkali", degan ma'noni anglatadi. Bu tahallusni unga Suqrot bergan. Aflotunning oilasi badavlat bo'lmasada, aslzodalar nasabidan edi. Otasi Ariston Afinaning oxirgi shohi Kodr avlodiga mansub bo'lgan. Aflotun aslzoda Afinaliklarga xos bo'lgan riyoziyot, musiqa, gramaatika va gimnastikadan ta'lim olgan. Geraklit, Parmenid, Zenon falsafasini ilmiy tahlil qilgan. Miloddan avvalgi 407 yilda Suqrot bilan tanishgan. Suqrotning o'limigacha uning eng yaqin shogirdlari qatorida bo'lgan.

Ko'p vaqtini she'riyatga bag'ishlagan. Manbalarga ko'ra, u qator dostonlar, lirik asarlar, fojia va komediyalarning muallifi bo'lgan. Uning 25 ga yaqin she'riy usulda bitilgan miniatyura- epigrammalari bizgacha etib kelgan. Bundan tashqari uning 23 ta asl nusxadagi va 11 ta uning qalamiga mansub deya taxmin qilinadigan suhbatlari, "Suqrot madhi" deb nomlangan nutqi, shuningdek, 13 ta maktubi ma'lum.

Aflotunning suhbatlari quyidagilardan iborat: "Protakor", "Fedon", "Parmenid", "Teetet", "Timey", "Kritiy", "Laxet", "Menon", "Davlat", "Siyosatdon", "Qonunlar", "Fedr", "Fileb" va boshqalar.

Aflotunning Atlantida to'g'risidagi hikoyasi keyingi madaniyatlarning halovatini buzib, avlodlarning ichiga g'ulg'ula soldi. Uning yozishicha, 12 ming yil oldin Gibraltar yaqinida sirli qit'a mavjud bo'lib, bir kecha kunduz ichida dengiz qa'riga cho'kib ketgan. Aflotun halokatning aniq o'rnini ko'rsatmagan, ammo faylasufning obro'yi shu qadar baland ediki, darhol g'oyib bo'lgan atlantlar mamlakatini izlashga kirishilgan. Uni hozir ham izlashmoqda.

U kelib chiqishi bo'yicha aslzodalarga mansub bo'lib, uning urug'i ona tomonidan qonunshunos Solonga borib taqalardi Oilaviy an'anaga rioya etib, uning siyosiy faoliyatga tayyorlashgan. Biroq taqdir boshqacha hukim chiqardi. Afina demokratiyasi Spartadan mag'lubiyatga uchradi va Afinadagi hokimiyat qisqa muddatga Spartaga o'tdi. O'z navbatida ularning o'rnini yangi demokratik hokimiyat egalladi, bu hokimiyat 399-yilda Suqrotni o'lim jazosiga hukm qildi, Platon esa uning shogirdi va izdoshi bo'lgan. Extimol shuning uchun Platon siyosiy faoliyatda, juda bo'lmaganda o'sha paytda Afinada mavjud bo'lgani kabi turdagi bunday faoliyatda

ishtirok etmaslikka qaror qilgan. U buning o'rniga siyosatni qanday qilib qayta qurish mumkinligi bilan qiziq boshlagan. Platon Suqrotning sofistlar relyativizmini nazariy jihatdan inkor qilishga doir ishini davom ettirgan, u bunday oqimni ijtmoy inqirozning namoyon bo'lish shakllaridan biri deb qaragan edi. Platon ideal davlatning oqilona siyosatini qurish uchun asos bo'lishi mumkin bo'lgan tamoyillarni ochib berish vazifasini o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. U siyosiy faoliyatda ishtirok etish o'rniga siyosatning o'zi nima va u qanday bo'lishi kerak degan masalani tadqiq etishga kirishdi. Bunda Platon Ushbu prinsiplial masalalar xususida mushohada yuritar ekan, gerkcha polisni nazarda tutgan edi.

Platon o'zining siyosat haqidagi g'oyalarin bir necha marta amalga oshirishga urinib ko'rdi. Shunday bir urinish Sitsiliyaning Sirakuzi shahrida hukmronlik qilgan Tiran Dionisiy I (taxminan miloddan avvalgi 430-367 yillar) hokimiyati qoshida, boshqasi – uning o'g'li Dionisiy 2 ning (miloddan avvalgi 367-344 yillar) hokimligi davrida amalga oshirilgan. Uning har ikala urinishi ham to'la mag'lubiyatga uchradi va Platon Afinaga sog'omon qaytib ketishga zo'rg'a imkoniyat topdi.

Platon Sirakuziga qilgan sayohatidan tashqari Janubiy Italiya bo'ylab ham safar qildi va bu erda Pifagorchilar bilan tanishdi. Aftidan, bu uchrashuv unga jiddiy ta'sir ko'rsatgan. Ularni quyidagi 1) matematika barcha narsalarning ichki mohiyatidir; 2) olam dualistik tusdadir, bu g'oyalarning haqiqiy borlig'i bilan g'oyalarning soyasi sifatidagi hissiy borliqa bo'linishda aks etadi; 3) ruh abadiydir va bir jismdan boshqa jisimga ko'chib yuradi degan umumiy qarashlar birlashtirgan. Platon va Pifagorchilarga, shuningdek, nazariy Fan diniy mistitsizmga bo'lgan qiziqish va asketik ahloq birdek xos edi.

Miloddan avvalgi 388 yilda Platon Afinadagi maktab-Akademiya asos soldi. U o'zi joylashgan joy – yarim xudo akademga bag'ishlangan qayinzor nomi bilan atalgan edi. Akademiya 900 yildan ziyod amal qilib turdi va imperator Yustinian I ning (483-565) farmoniga ko'ra 529 yilda yopildi. Bu Rim imperiyasining tanazzulga uchragan davrida dastlabki xristian monastrlarining ommalashishi bilan qariyb bir vaqtda yuz berdi.

1100-yillarda ilk universitetlar (Bolanya, Parij) tashkil etilgan vaqtgacha Ayni shu manastirlar jamoalari O'rta asrlardagi Evropa madaniy institutlarining asosiy tayanchi bo'lgan edi.

Shunday qilib, Platon akademiyasidan boshlab hozirgi universitetlar va "o'qituvchilar hamda olimlar sifatidagi akademiklar" bir qismi bo'lgan uzluksiz an'anaga asos solingan.

Afinadagi Akademiyada nafaqat falsafa, shu bilan birga geometriya, astronomiya, geografiya, zoologiya va botanikadan ham ta'lim berilardi. Biroq siyosiy ta'lim markaziy o'rinni egallagan edi. Ta'lim leksiyalar, munozaralar va birgalikdagi suhbatlarga asoslanardi. Har kuni gimnastika mashg'ulotlari o'tkazilar edi.

Suqrotgacha bo'lgan olimlar asarlarining faqat bir necha qisimigina bizning davrimizgacha etib kelgan. Platondan 30 ga yaqin kichik va katta dialoglar, shuningdek bir qator xatlar saqlanib qolgan. Bundan tashqari, Platonga bag'ishlangan ikkilamchi adabiyotlar ham mavjud.

Platon ta'limotini qayta tiklashning qiyinligi saqlanib qolgan asarlarning kamligi bilan emas, balki dialoglar yozilgan uslub bilan bog'liqdir. Ularda uzil-kesil xulosa va qoidalar yo'q. Platonning o'zi esa ularda juda kamdan - kam namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, Platonning umri mobaynida uning qarashlarining o'zgarib borganligini ham hisobga olish kerak. Odatda Platon dialoglari ichidan uch guruhni ajratib ko'rsatishadi: 1) ilk, "Suqrotcha" dialoglar; 2) Platonning etuk do'ktorinasini aks ettiruvchi dialoglar (Davlat shunga kiradi) va 3) so'nggi davrdagi dialoglari, qonunlar shularga mansubdir.

Bundan tashqari Platonning faosafiy qarashlarida jon va tan mutlaqo har xil, hatto qarama-qarshi bo'lan ikkita mohiyatdir, deb ta'lim berganlar.

Tana moddiydir, uni tashqi sezgi organlari bilan idrok qilishi mumkin: uni ko'rish va sezish mumkin, u fizik jismdir.

Platon qarashicha jon moddiy emas, balki ruhiydir uni sezgi organlari yordami bilan idrok qilish mumkin emas. U tanaga qarama-qarshi bo'lib, fizik jism emas, balki metafizik, sezib bo'lmaydigan narsadir. Jon moddiy dunyoga emas, balki boshqa ideal dunyoga, haqiqatan yashayotgan ideyalar (g'oyalar), "obrazlar" dunyosiga taalluqlidir. Jon inson tanasiga o'sha dunyodan kelib qo'shiladi. Uning tana bilan birga bo'lishi vaqtinchalikdir, tana o'lishi bilan jon yana ideal dunyoga qaytib ketadi.

Tom ma'noda jon tanaga mahkum etilgan, u zindondagi narsa kabi, doimo g'oyalar dunyosiga chiqib ketmoqchi bo'lib intilib turadi.

O'z ongini oshirish yo'li bilan shu dunyo haqida eslash insonga haqiqiy demak, Platon fikricha, haqiqiy bilimning birdan-bir manbai ideyalar dunyosidir. Bizning atrofimizdagi dunyoni sezishimiz va idrok qilishimiz esa, faqatgina o'zgarib turadigan beqaror hodisalar haqida bilim beradi, xolos.

Biroq jonning (ruhning) ideal holda namoyon bo'lishi ko'pchilik kishilarda to'silib turilishi va moddiy tanaga bo'ysundirilishi mumkin. Oqibatda, jon ideyalar dunyosini go'yo esdan chiqarib, materiyaga g'arq bo'lishi mumkin. Platon ta'limotidagi e'tiborli jihat shuki, u dunyoqarash va fikrlashning dogmatik (qotib qolish) da emas balki ularni qachondir o'zgarishi isbotlanishini ta'kidladi. Bu qarash hozirgi tafakkur psixologiyasi g'oyalariga yaqin bo'lib, masalalarning echimi o'z isbotini topishi mumkinligi hisoblanadi. Aynan bu erda tafakkur qilish oliy funktsiya ekanligi izohlangan. Tafakkurning regidligi yoki o'zgarimasligi inkor etilgan.

Shuning uchun ham er yuzidagi hayot sharoitlarida inson joni, materiyaga qanchalik g'arq bo'lish darajasiga qarab, go'yoki uch qismga bo'linadi. Har bir kishida ularning har biri har xil darajada namoyon bo'ladi. Eng oliy qismi - bu insonning (g'oya) ideyalarni ko'rish - bilish darajasigacha ko'tarila olish qobiliyatiga ega bo'lgan yuksak aqlidir, jonning bu qismi insonning boshidan o'rin oladi; jonning faol qismi, g'azab, shuhratparastlik, oliyjanoblik ehtirolari va ma'naviy fazilatlar manbaidir, u yurakda joylashgan. Jonning uchinchi qismi turli hush-nohush hislar. U his va kayf-safoga doir his-tuyg'ular manbai bo'lib, qorinda joylashgan bo'ladi.

Jonning qaysi qismi ustun chiqishiga qarab, kishining har xil individual xususiyatlari hayotining yo'nalishi, xarakteri, mayl va qobiliyatlari paydo bo'ladi.



Aristotel qarashlarida ruh - jon masalasi

Grekl faylasuflaridan birinchi bo'lib ruh, va ruhiy faoliyat haqida sistemali ta'limot yaratgan alloma **Arastudir**⁸ (**Aristotel**) Qadimiy Yunon faylasufi Arastu Frakiyaning Stagira shahrida tug'ilgan. Shu tufayli ba'zan Arastuni Stagirit deb ham atashadi.

Arastuning otasi Nikomax Makedoniya hukmdori Amint 2ning shaxsiy tabibi bo'lgan. Arastu Makedoniyanning bo'lg'usi hukmdori

⁸ Hergenhahn B.R. Tracy B. Henley An Introduction to the History of Psychology. -- 2014 Wadsworth, Cengage Lyerning. 48-49-p.

Filipp bilan bolaligidanoq birga o'ynab katta bo'lgan. U 17 yoshidan 37 yoshigacha (367-347) yillar faylasuf Aflotunning Akademiyasida tahsil olgan. Miloddan avvalgi 343 yildan boshlab Arastu Iskandar Maqduniy (Aleksandr Makedonskiy)ga murabbiylik qila boshlaydi. Iskandar Maqduniy hukmdorlik taxtiga o'tirgach, o'z ustozini va do'stiga atab haykal barpo etadi. Bu haykalning poyida shunday yozuvlar bor edi: "Iskandar Ushbu yodgorlikni Nikomaxning o'g'li, buyuk donishmand va avliyo Arastu xotirasiga o'rnatdi".

Sharq asotirlarida yozilishicha, bir kuni Iskandar Maqduniydan so'radilar:

- Ne sababdan ustozing Arastuni otang Sulton Faylaqus (Filipp)dan ham a'lo ko'rasan?

Shoh Iskandar Maqduniy shunday javob qaytaradi:

- Otam mening jismimni tarbiyalab, osmondan erga olib tushdi. Ustozim Arastu esa mening ruhimni tarbiya qilib, erdan osmon qadar yuksaltirdi.

Arastu peshonasiga sochini tushirib, kalta soqol qo'yib yurgan. Zamondoshlarining guvohlik berishicha, lablari chetidagi doimiy kinoyali tabassum natijasida ajinlar paydo bo'lgan. Arastu Yunon ilm fani qo'lga kiritgan bilimlarni egalash borasida Aflotunni hatto shoh Aleksandr Makedonskiydan ham ustun qo'yg'an.

Miloddan avvalgi 336 yilda Arastu Afina shahrida o'zining xususiy maktabini ochdi. Bu ilmgoh kurash maktablari qatorida va Afinaning shimoliy darvozasidagi Likey maydonlariga tutash erda joylashgandi.

Arastuni hayajonga soluvchi muammolar fovqulodda qiziqarli va teran edi. Masalan: inson eng avvalo o'zining sevishi kerakmi yo boshqanimi, degan savol uni ko'p o'ylantirardi.

O'zini ko'proq sevgan odamni xudbunlikda ayblaydilar. Boshqa tomondan olib qaralganda esa, inson avvalo o'zining eng yaqin do'sti bo'lgan kimsani ko'proq qadrlashi va sevishi lozim, deyiladi. Vaholanki, har bir odamning o'zidan o'zga sadoqatli do'sti bormi dunyoda? Demak inson avvalo o'zini hurmat qilishi va sevishi lozim, deb fikr yuritadi Arastu.

Agar faylasuf Zenon Eleyskiy Arastuga zamondosh bo'lganida shu so'zlari uchun unga ta'zim qilishi turgan gap edi.

Arastu havas qilarli darajada o'tkir zehn sohibi bo'lgan. U 445270 satrdan iborat 28 ta kitob yozgan. Faylasufning "Metodika", "Metafizika", "Jon haqida", "Poetika", "Osmon haqida", "Fizika", "Ritorika", "Sevgi haqida", "Uyqu va bedorlik haqida" asarlari shu kitoblar sirasiga kiradi.

Epikur aytadiki: Insonlar yo hasad, yo ko'rolmaslik, yoki nafrat tufayli bir-birining dilini og'ritadilar. Dono kishi esa aql idrok ila bularning barchasidan ustun turadi. Donolikka erishgan odam hatto atayin urinsa ham buning aksini qilolmaydi. Sezgi hech qachon aldamaydi. (Epikur beqaror va yuzaki sezgini barqaror va umumiy sanalmish fikrga qarama-qarshi qo'ygan qadimiy falsafa aqidalarini rad etgan. U sezgini haqiqatning mezoni deb hisoblagan.)

Donolik hamma narsaning ibtidosi va buyuk ezgulikdir. Shu bois u hatto falsafadan ham qimmatliroqdir.

Arastu ruh, tana bilan uzviy bog'langan, deb hisobladi. Lekin uning fikricha ruh, moddiy jismaniy ham bir narsa emas.

Arastu jon (ruh,) ning uch qismi haqida Platon ta'limotidan farq qilib, uch xil jon (ruh) haqida vegetativ, sezuvchi va aqliy ruh turlari haqida ta'limot yaratdi. Vegetativ ruhning faoliyati ovqatlanishda va ko'payishda ifodalanadi. Ruhning bu turi o'simliklarda, hayvonlarda, insonlarda ham bo'ladi. Sezuvchi ruhning faoliyati sezgi va hislarda, xotira va tasavvurlarda namoyon bo'ladi. Ruhning bu turi hayvonlarda ham, insonlarda ham bo'ladi. Aqlli ruhning faoliyati tafakkurda, bilimda va ixtiyoriy harakatlarda yuzaga chiqadi.

Aqlli ruh faqatgina insonlarga xosdir. Shu aqliy insoniy ruh va uning faoliyati haqidagi mulohazalar Arastu psixologiyasida asosiy o'rin tutadi. Uning fikricha, bu ruhning mohiyati yashirin, ilmiy yo'l bilan bilib bo'lmaydigan botir kuchdan iborat. "Ruh haqida aniq tushuncha berish deydi Arastu, har jihatdan haddan tashqari qiyin ish, ruh bu jism emas, balki o'shanga xos bir narsadir.

U mavhum tushunchadir". Arastuning fikricha, aqlli ruh ilohiy yo'l bilan paydo bo'lgan u tanadan tashqarida ham yashay oladi. Tana o'lgandan keyin aqlli ruh, ilohiy ruh bilan qo'shilib ketadi.

Arastu ruh va tananing o'zaro munosabati masalasiga katta e'tibor bergan. "Ruh deydi u, o'z tabiatiga ko'ra hukmron asosdir, tana esa tobe narsadir". Forma materiyaga nisbatan qanday bo'lsa, ruh ham tanaga nisbatan huddi shunday. U hayotga ma'no va yo'nalish

beradi. Ruh ta'sir qiladi va harakatlantiradi, tana esa ta'sirlanadi va harakatga keladi. U ruhning birlamchiligi haqidagi umumiy tezisini quyidagi so'zlarda ifodalagan. "Ruh tirik tananing sababi va manbaidir".

Arastu ruhning mohiyati va uning tana bilan o'zaro munosabati haqidagi bu o'ziga xos fikrlar bilan birga, birinchi bo'lib, o'z-o'zida kuzatish mumkin bo'lgan ruhiy hodisalarni tasvirlab yozgan va tasniflashtirgan. Uning psixologiyasida hozirgi zamon psixologiyasiga asos bo'lgan ko'pchilik tushunchalarni uchratish mumkin, chunonchi tashqi beshta sezgi va sezgilar haqida, hush va nohush hislar haqida, ixtiyoriy va ixtiyorsiz jarayonlar haqida, tasavvur va assotsiatsiyalar haqida, tafakkur haqida, tushunchalar va xulosa chiqarishlar va hokazolar haqida ta'limot yaratdi.

Olim inson sezgilari tashqi moddiy qo'zg'ovchilar ta'siri tufayli hosil bo'ladi degan fikrni ta'kidlagan. Tafakkur haqidagi ta'limotida u Platonning umumiy va mavhum tushuncha-ideyalar narigi dunyodan kelib chiqqan degan ta'limotini inkor qildi.

Arastu tushunchalarida ifodalangan umumiylik yakka narsalardan tashqarida yoki yakka narsalardan avval o'zi bor bo'lgan emas, balki yakka narsalarning o'zida bo'ladi, degan ta'limotni ilgari surdi. Qadimgi grek faylasuflari birinchi bo'lib, mantiqiy tafakkur formalarining mukammal tizimini ishlab chiqdi.

Arastu psixik hodisalarni tasvirlar va analiz qilar ekan, organizmdagi ruhiy va fiziologik hodisalar o'rtasidagi bog'lanishlarni izladi. Uning psixologiya masalalarini hal qilishdagi materialistik tendensiyalari mana shunda ko'rinadi.

Yunon faylasufi **Epikurning (miloddan avvalgi 341-270 yillar)** vatani – Lampaska shahri bo'lib, Afinadan Samos oroliga ko'chib o'tgan oilada tug'ilgan. Epikur Aflotunning shogirdi Pamfil qo'lida tahsil olgan. Donishmand miloddan avvalgi 310 yilda Lebosdagi Mitilen shahrida, 306 yildan o'limiga qadar Afinadagi o'z bog'ida talabalarga falsafadan saboq bergan. Bu bog' Epikurchilarning muqaddas dargohiga aylangan. Epikur umri davomida hech qachon o'zgalarning fikriga tayanmaslikka harakat qilgan. Jami 300 ga yaqin asar yozgan, biroq ular bizga qadar etib kelmagan. Epikurning ta'limotiga asoslari bayon etilgan uchta maktubi va ba'zi qo'lyozmalaridan parchalargina saqlanib qolgan. Donishmand

umrining so'nggi 14 kuni davomida buyragidagi toshdan qattiq azob chekan. Rivoyatlarga qaraganda, u issiq suv to'ldirilgan jomga yotib o'tkir sharobni simirgan-da, do'stlariga saboqlarini unutmastikni vasiyat qilib, hayotdan ko'z yumgan.

Keyinchalik Epikur g'oyalari Lukretsiy tomonidan takomillash-tirildi. Quyida Lukretsiyni bir nechta fikrlarini mushohada uchun keltirib o'tmoqchimiz.

- Bir qarashda ulug'vor va ajoyib ko'ringan har qanday narsaning jozibasi ko'zimga vaqt o'tishi bilan ozaygandek ko'rinaveradi.

- Vaqt ildamlagani sayin buyumlarning mohiyati ham o'zgarib boradi.

- Qalbni ham jism kabi davolash mumkin.

- Jism ulg'aya borgani sayin ruhiy sifatlar ham takomillasha boradi.

- Sariq kasaliga chalingan bemor qaerga qaramasin, hamma narsa ko'ziga sariq tusda ko'rinadi.

- Hech narsa yakka holda rivojlana olmaydi.

Mavzu yuzasidan tayanch tushinchalar:

Psixologiya, idealizm, materializm, prezentizm, antikvarizm, anita, Milet MAKTABI, Jon haqida, Afina, Platon Akademiyasi, Arastu maktabi, Etti donishmand.

Nazorat savollari:

1. Psixologiya ruh haqidagi fan?
2. Anita so'zi haqida tushincha bering?
3. Platon Idealizmi tushincha bering?
4. Materializm qanday yonalish hisoblanadi?
5. Milet maktabi yo'nalishi haqida tushincha bering?
6. Arastu ta'limoti haqida tushincha bering?
7. Psixologiya tarixi fanida Suqrotning o'rni?
8. Demokrit ta'limotida psixologik qarashlar?
9. Gippokratning psixologiya fani taraqqiyotiga qo'shgan hissasi?
10. Qadimgi Yunon falsafiy va psixologik qarashlari?

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T., Ma'naviyat, 2008.
2. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: O'zbekiston, 2011.
3. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T.: O'zbekiston, 1997.
4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston-NMIU, 2017.
5. Mirziyoyev Sh.M. Erikn va farovon, demoktarik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majilisidagi nutq. – T.: O'zbekiston-NMIU, 2017.
6. Hergenhahn B.R., Tracy B. Henley "An Introduction to the History of Psychology". – 2014 Wadsworth, Cengage Lyerning.
7. Ярашевский М.Г. История психологии. – М., 1997.
8. Ждан Н.Ж. История психологии. – М., 1995.
9. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. – T., 2010.
10. G'oziyev E.G'. Psixologiya metodologiya. – T., 2013.

III BOB. QADIMGI HINDISTON VA XITOIY FALSAFA MAKTABLARI VA UNINIG PSIXOLOGIK TA'LIMOTLARDAGI O'RNI

Miloddan avvalgi bir necha ming yillikning o'rtalarida Hindiston va Xitoyda ilk falsafiy fikrlar paydo bo'la boshlagan. Vedalar eng qadimgi ariylik dunyoqarashini ifodalardi. Grek, skandinaviya va slavyan afsonalarida bo'lgani singari unda ham xudolar ko'pincha tabiiy kuchlarga qiyos qilinardi. Bunday dunyoqarash Koinot bilan Tartibsizlik (Xaos) o'rtasidagi azaliy kurash bilan tavsiflanardi. Bu jangda xudolarning uzil-kesil va abadiy g'alaba qilishi kafolatlanmaydi. Tartibsizlikka qarshi kurashda xudolar odamlarning yordamiga muhtoj bo'lgan. Qurbonliklar va to'g'ri bajariladigan marosimlar koinotdagi tartibni tutib turishga katta xissa qo'shib turadi. Vedalar bilan tanishishda muayyan afsonaviy olamga g'arq bo'lamiz. Agar biz hind ma'naviy hayotida afsonadan logosga o'tish haqida gapirsak edi, unda uni matnlarning yangi va ancha tushunarli guruhleri (miloddan ilgargi 800-300 yillar) bo'lgan Upanishadalarga tegishli deyish mumkin bo'lardi. Upanishadalar veda dunyoqarashining tanqidiy jihatdan idrok etilishidir. Ehtimol, ular ariy madaniyatining ayrim jihatlariga nisbatan norozilikni ifodalaydi. Eng yangi tadqiqotlar ularda noariy tendensiyalarning ta'sirini topmoqda. Biroq bu murakkab masala din tarixchilari ixtiyorida qoldirilishi kerak. Lekin, baribir Upanishadlarga dalil asoslar muvofiq keladi. Bu narsa mazlumlarining o'z ovozi chiqarish usulini topganligini anglatadimi? Biz buni bilmaymiz va faqat taxminlar bilan cheklanishimizga to'g'ri keladi. "Upanishada" atamasi donishmandning o'z shogirdlariga ta'lim berishi jarayonini anglatadi. Vaqt o'tishi bilan bu atama shu jarayonda beriladigan mazmunni ifodalaydigan falsafiy matnni ham ifodalaydigan bo'ldi. Shunday qilib, muayyan ma'noda Upanishadlarni Platonning dialoglari bilan o'xshatish mumkin.

Upanishadlarning markaziy mavzularidan biri tug'ilish va o'limning abadiy "almashinuvi" g'oyasidir. Bunday g'oya tirik mavjudotlarning o'limidan keyin yana qayta tirilishini nazarda tutadigan ular ruhlarining ko'chib yurishi (reinkarnatsiya) haqidagi ta'limotga asos qilib olingan. Tug'ilish bilan o'lim o'rtasidagi abadiy qayta tiklanib turadigan sikl sansara deyiladi. Aynan ana shunday siklda insonning eng teran "mohiyati" (atman) takror va takror qayta tiklanaveradi.

Sharqshunoslik adabiyotlarida nimani atman deb tushunish masalasi xususida munozara ko'pdan beri davom etib keladi. Upanishadlarning ayrimlari, aftidan, atman o'zgaras va substansial narsa hisoblanadi va idrok etuvchi "men" yoki "ego"dan farq qiladi.

Upanishadlarning boshqa bir muhim qoidasi atman bilan braxmanning bir-biriga tenglashtirilishidir. "Braxman" so'zining adekvat tarjimasini topish qiyin. Ehtimol, uni absalyut, hamma narsani qamrab oluvchi yoki ilohiy sifatida tushunish kerakdir. Bu holda atman bilan braxmanning bir-biriga tenglashtirilishi atman absalyut yoki ilohiy bilan teng degani bo'ladi. Bunga o'xshash qarashlar odam (yoki uning ruhi) Xudo bilan ayni bir narsa bo'la oladigan g'arb mistitsizmida ham mavjud. Bunday birlik hind falsafasi va G'arb mistitsizmi targ'ib qiladigan zohidona turmush tarzini nazarda tutadi.

Upanishada faylasuflari, shu tariqa olamdan teskari o'girilib olishdi. Ularning maqsadi zohidlarcha dunyodan qochish edi. Ularning e'tiqodicha, matndami yoki tabiatdami bo'lishidan qa'tiy nazar "tashqari"da emas, u senning ichingda. Sen "o'z-o'zingni topish"ni o'rganishing kerak. Mistitsizm haqida ko'p narsani o'qib olish mumkin, lekin bu mistik bilishni anglatmaydi. U faqat sen tomoningdan va o'zingning shaxsiy sa'y-harakatlaring yordamida ishlab chiqiladi. Hindistonda bunga o'xshash mistik donishmandlik koinlar tabaqasiga, haqiqiy "braxman"larga xos deb hisoblanardi.

Atman bilan Braxman to'g'risidagi tezis atman absolyutga tengdir, deb talqin etilishi mumkin. Faqat ana shunday sharoitda individ o'limdan keyingi yangi qayta tirilishlarga qodir bo'ladi. Hind falsafasiga binoan odam sansaradan, hayotlar va o'limlar "xorovodi"dan halos bo'lishi lozim. Butun hind falsafasi mujassamlashishlarning abadiy siklidan halos bo'lish (moksha) yo'lini izlaydi. Bunday qoida nafaqat Upanishadlarda, shu bilan birga buddizm falsafasida ham etakchi o'rin tutadi.

Hind falsafasining bu sikldan halos bo'lishga nima uchun bunchalik alohida e'tibor qaratganligini qisqacha ko'rib, chiqamiz. Shubhasiz, bu unga xos bo'lgan, karma haqidagi ta'limotda ifodalangan faoliyat tushunchasi bilan bog'liq edi. Unga ko'ra, bizning xatti-harakatlarimiz navbatdagi hayotda "braxman" yoki kaltakesak bo'lib qayta tug'ilishimizni belgilab beradi – bu million-million imkoniyat ichidan bizning peshonamizga bitishi mumkin bo'lgan atigi ikkitagina taqdiridir!

Karma ko'pincha butun hind falsafasining o'zagi bo'lgan asosiy tushuncha sifatida ko'rib chiqiladi. Karma xatti-harakat, amalni anglatadi. Karmacha fikrlash uslubi deb ataladigan uslub ayni bir vaqtda falsafaning ahloqiy va metafizik mezonlarini ochib beradi, ular hozirgi G'arb falsafasida odatda bir-biridan ajratib qo'yilgan. Bu karmaning reinkarnatsiyaga, qayta tug'ilishga ishonch va ahloqiy sabablilik g'oyasi bilan chambarchas bog'langandir. Ahloqiy sabablilik deganda koinotning adolat bilan sug'orilganligi tushuniladi. Biz har bir kishi o'zi xizmat qilgan narsasini oladigan olamda yashaymiz, lekin bu erda yana keyingi hayotda yaxshiroq holatga erishish imkoniyati ham mavjud. Boshqacha aytganda, saxovatpesha kishi uchun yaxshilikka, gunohkor odamga esa – yomonlikka tomon istiqbollari ochiladi. Dunyodagi barcha nomukamalliklar va azob-uqubatlar odamning o'z xatti-harakatlarining oqibatidir. Biroq muayyan tabaqaga mansublik odam uchun yaxshi va yomon bo'lib hisoblanadigan narsani jiddiy darajada taqdim etadi. Shunday qilib, Upanishadlar tabaqali tizimni legitimlashtiradi. Odamlar muayyan tabaqaga mansub bo'lish xuquqini o'zlarining bundan oldingi hayotida "ishlab topgan".

Karma haqidagi tasavvur evropacha tafakkurga butunlay yot emas. U jumladan, "har bir kishi o'z baxtining yaratuvchisidir" va "nima eksang, shuni o'rasan" kabi maqollarda ifodalangan. Biroq evropacha tafakkurda, hindlarnikidan farqli ravishda, axloqiy sabablilik reinkarnatsiya bilan bog'lanmaydi. Reinkarnatsiya g'oyasi – bu spetsifik hindcha fenomendir.

Shunday qilib, hind falsafasida axloqiy xatti-harakatlar "aylanish"ga kiritilgan: qayta tirilish-hayot-o'lim. (sansara). Reinkarnatsiya to'g'risidagi ta'limotning g'arbdagi ko'pgina talqinlari, ayniqsa, yangi davrga oidlari uni individning ko'plab hayotlari yoki hatto uning abadiy hayoti haqidagi g'oyaning ifodasi sifatida ko'rib chiqilgan. Masalan, Nitsshening hind falsafasi kayfiyatlari bilan sug'orilgan hamma narsalarning "abadiy takrorlanishi" to'g'risidagi nazariyasi borliqni xristiancha tushunishga pozitiv muqobillik sifatida ko'rib chiqilishi mumkin. Ehtimol, reinkarnatsiya g'oyasini u o'lim oldidagi qo'rquvni bartaraf etishi va bizga takror va takror yangicha yashash, ya'ni amalda cheksiz sonli umrlarni yashash imkoniyatini berishi uchun ham ijobiy baholasa kerak. Biroq bunday mulohazalar shaxsni karmaga oid shakl

o'zgarishlar zanjiriga singdirib yuboradigan hindcha dunyoqarashga unchalik muvofiq kelmaydi.

Darhaqiqat, hatti - harakatlar (shu jumladan, nutq va tafakkur), hohish - istaklar va ehtiroslar muammolari hind falsafasi uchun asosiy muammolar bo'lib hisoblanadi. Reinkarnatsiya haqidagi ta'limotning ta'kidlashicha, bizning navbatdagi hayotdagi mavjud bo'lish shaklimiz bu hayotdagi orzularimiz va ehtiroslarimizni aks ettiradi. Bu o'rinda o'z yo'lida uchraydigan hamma narsani eb, hazm qilib yuboradigan kapalak qurti bilan qiyoslash o'rinli bo'lishi mumkin.

Kapalak qurtiniki kabi hoxish istaklarga ega bo'lgan kishi navbatdagi hayotida unga aylanadi. Kapalak qurti G'arb mentalitetining tobora ko'proq va beto'xtov iste'molga nisbatan to'yim bilmas ehtiros bilan ifodalanadigan xususiyatining obrazi bo'ladi. Shu sababli kapalak qurtiga aylanmaslik uchun unga xos bo'lgan xatti-harakatlar va hohish-istaklardan yiroq bo'lish kerak.

Xohish-istaklardan qanday qilib halos bo'lish va karmani nazorat qilish mumkin? Hind falsafasining g'oyat muhim manbai hisoblanadigan Bxagavadgitaning kichik parchasida olov tayanch ramziga aylanadi. Bizning ishlarimiz bilim olovi bilan qamrab olinishi kerak. Bunga zohidlik va yoga orqali erishish mumkin. Faqat shu tarzdagina karmadan halos bo'lishga intiluvchi kishi pirovard najotga ega bo'ladi. Biroq bunday maqsad bizning ko'pchiligimiz uchun erishilmaydigan maqsaddir. Biz hayotlar va o'limlar siklidan qutulib keta olmaymiz. Bizning "mohiyatimiz" millionlab turli qiyofalarda qayta tug'ilishdek tavakkalchilikka bog'lanib qolgan. Shunga qaramasdan, garchi hammamizning birdaniga taqvodor bo'lib, qolishimiz mumkin bo'lmasada, lekin bu hayotda eng yaxshi tarzda ish tutish uchun hamma asoslarga egamiz. Karma falsafasiga binoan, yaxshilik qiladigan va yaxshilik istaydigan kishi navbatdagi hayotda yaxshi mavjudot bo'lib qayta tug'iladi yoki bir muncha yuqoriroq tabaqaga o'tadi. Shunday qilib, karma haqidagi ta'limot, reinkarnatsiya g'oyasi va tabaqachilik tizimi hind falsafasining ulkan qismi uchun yaxlit negizni yaratdi. Uning doirasida ahloq va ijtimoiy tizim bir-birini o'zaro qo'llab-quvatlab turadi.

Ularda ruh muammosi ko'proq etik muammo sifatida shaxsni etuklikka erishishning nuqtai nazaridan tahlil qilinadi va qabul qilingan umumiy g'oyalar, ya'ni ruhning uchib yurishi uning abadiyligi ushbu manbalarda o'z aksini topdi.

Shu asosda er.av. III asrda jaddizm va buddizm dini ta'limotining mazmuni shakllandi, yo'nalishi ham ruhiy hodisalarning tana bilan bo'lgan munosabatiga doir o'z qarashlarini ifoda etdi. Jaddizm tana ruh erkinligini sababchisi deb ta'riflangan bo'lsa, Buddizm umuman ruhni alohida sifatda inkor etdi.



Budda dinining hind asoschisi **Siddharta Gautama** (taxminan miloddan avvalgi 563-483yillar) daxldor bo'lgan diniy e'tiqodlar va falsafiy qarashlarni ko'rsatadi. Biz bu erda keyinchalik boshqa madaniyatlarda rivoj topgan buddizmning boshqa shakllarini ko'rib chiqish imkoniyatiga ega emasmiz. (buddizmning Hindistonda etakchi pozitsiyalarni boy berganidan keyin Tibetda va Sharqiy Osiyoda muhim rol o'ynaganligi bilan qiyoslang).

Boshqa ko'plab hind avliyolari singari Siddharta Gautama ham uy-ro'zg'orini va xotinini qoldirib, zohid va donishmand sifatida ziyoratga chiqib ketgan. Ko'p yillik zohidlik va o'z-o'zini azoblashdan keyin u inson hayotining fundamental masalalari yuzasidan hali ham ilgarigidek baribir to'la g'aflatda (avidya) ekanligini sezgan. Shuning uchun u o'z-o'zini azoblash amaliyotidan voz kechish va an'anaviy mushohadaga qaytishga qaror qiladi. Biroz vaqtdan keyin Gautamaning ongi tiniqlashib ketadi va u bunday savollarga javob beradigan bilimni egallaydi. Keyinchalik u Budda (Oydinlashgan) nomi bilan mashhur bo'ladi. Gautama muhtasham saroyda, gullar va dur javohirlar ichida yashagan. Shuning uchun u hayot hamma erda go'zal va zavqli degan xulosaga kelgan.

Biroq bir kuni og'zida bitta ham tishi yo'q, qartayib qolgan qariyani uchratgach, keksalik muqarrar ekanini tushunadi. Bemor odamni uchratib, salomatlik omonatligini angladi va o'lim to'g'risida o'ylay boshladi. Shu tariqa zohidlikni ixtiyor qiladi. Etti yil tarki dunyochilikda, ochlik va sargardonlikda yashaydi. Kunlardan bir kuni u katta daraxt ostida chordona qurib chuqur o'yg'a tolganча o'tirganda mo'jiza yuz berib, ongi tiniqlashadi va donishmandlik sari yuz tutadi. Shu paytdan boshlab uni Budda deb atashadi. Budda Gang daryosi bo'yidagi Banoras shahrida o'z ta'limoti asoslari bo'yicha dars bergan.

Budda Shakya Muni shunday degandi: "Inson hayoti azob uqubatlardan iboratdir. Biroq doimo to'g'ri so'zlab, ezgulikka intilish o'zgalarning haqiga xiyonat qilmaslik, g'azab va hasadni engish orqali

uni engillatish mumkin. Shuningdek, inson behuda yugur – yugurlardan, mol dunyo ortirish havasi va haddan ziyoda huzur – halovat istagidan ozod bo‘lmog‘i lozim. Ana shunda har bir boy va kambag‘al, shoh va qul, ruhoniy va oddiy kimsalar dunyoga qayta – qayta kelish azobidan halos bo‘ladilar”.

Budda ta‘limoti ayni bir vaqtning o‘zida ham qiyin, ham teran. Biz bu o‘rinda faqat uning “to‘rtta yaxshi xaqiqat” degan nom bilan tanilgan asosiy qoidalarini shematik tarzda tavsiflab berishimiz mumkin va ularni quyidagi holatlarda ko‘rish mumkin.

1. Dunyo azob uqubatlarga to‘lib ketgan. Tug‘ilish azob, qarilik azob, kasallik va o‘lim azob. O‘zing yomon ko‘radigan odam bilan uchrashish azob, sevimli kishidan judo bo‘lish azob, hojlagan narsani qondirish uchun behuda kurash azob. Aslida xohish istaklar va ehtirolardan bo‘lmagan hayot har doim azob keltiradi. Bu azob haqidagi haqiqat deyiladi.

2. Inson azoblarining sababi shubhasiz jismoniy mavjud bo‘lish ishtiyoqida va dunyoviy ehtirolarning xomxayoligidadir. Agar bunday ehtirolar va xomxayollarning kelib chiqishini kuzatilsa, shu narsa ma‘lum bo‘ladiki, ular hamma narsani yutib yuboradigan, instinktli tarzda kelib chiqadigan hoxish istaklarga asoslanadi. Masalan: yashashga nisbatan kuchli irodaga asoslanadigan hoxish, agar hatto uning izlaydigan narsasi ba‘zan o‘lim bo‘lib chiqsada, o‘zi hojlagan narsani izlaydi. Bu azoblarning sababi to‘g‘risidagi haqiqat deb ataladi.

3. Agar insonning barcha ehtirolari negizida yotgan xohish bartaraf etilishi mumkin bo‘lsa, unda ehtiros o‘ladi va odamning azoblari nihoyasiga etadi. Bu azoblarning to‘xtatilishi haqidagi haqiqat, deb ataladi.

4. Hoxish istaklar va azoblar bo‘lmaydigan holatga erishish uchun muayyan yo‘lga amal qilish lozim. Bunday saxovatli eski yo‘lning bosqichlari quyidagilardir: to‘g‘ri tushunish, to‘g‘ri nutq, to‘g‘ri tafakkur, to‘g‘ri fe‘l atvor, to‘g‘ri turmush tarzi, to‘g‘ri kuch g‘ayrat, fikrning to‘g‘ri yo‘nalishi va diqqat e‘tiborni to‘g‘ri qaratish. Bu azoblarning sababidan halos bo‘lishning saxovatli yo‘li haqidagi haqiqatdir.

Miloddan ilgarigi V asrda Hindistonda Upanishadlar falsafiy hayotda muhim o‘rin egallagan bir paytda uning diniy hayotida veda an‘analari ustunlik qilardi. Yangi budda ta‘limoti qadimgi veda adabiyotlariga keskin qarshi chiqdi va marosimlar hamda urf-

odatlarining hamma shakllarini inkor etdi. Ayni bir paytda u Upanishadlar muayyan bir qismining tanqidiy idrok etishini bo'lgan edi.

Mantiqqa zidku, lekin Buddha spekulativ va diniy tafakkurlar nisbatan g'oyat salbiy munosabatda edi. Hozirgi sharhchilar ma'lum darajadagi anaxronizm bilan uni "empiritsist" va "skeptik" sifatida tavsiflashadi. Ehtimol, Buddaga tegishli bo'lgan matnlar uning keyinchalik ilohiylashtirishi uchun asos bermaydi. Ma'lum darajadagi ehtiyotkorlik bilan buddizmni "ateistik" din, ya'ni bir tizimli teologiyasiz yoki Xudo haqidagi ta'limotsiz din sifatida tavsiflash mumkin.

Upanishadlarning ko'plab yo'nalishlari singari yangi ta'limot ham insonning ozod etilishi yoki halos bo'lishiga qaratilgan. Ozodlik holatini Buddha nirvana deydi. Bu atama ko'p jihatdan boshqa an'analardagi moksha atamasiga muvofiq keladi. Buddaning o'zi erishgani kabi nirvanaga erishishni xohlaydigan kishi o'zini bu dunyo bilan bog'lab turgan hamma narsadan, shu jumladan, falsafiy va diniy ta'limotlardan ham halos qilishga o'rganishi kerak. Buddha sol bilan analogiyadan foydalanib, bunday talabning narigi qirg'og'iga suzib o'tishga majbur. U daraxt poyalarini yig'adi va ularni novdalar bilan bog'lab mustahkam sol yasaydi, shu sol yordamida daryoning narigi qirg'og'iga eson omon etib oladi. U maqsadga erishgach, o'ziga o'zi bu solning haqiqatdan ham yaxshi va foydali bo'lganligini ta'kidlaydi. U solni o'zi bilan birga olib ketishga qaror qiladi va miyasiga joylab, yo'lga tushadi. Shunday qilib, u endilikda unga ortiq kerak bo'lmagan real sonli qirg'oqda qoldirib ketadi. Bunday analogiya ma'nosi shundaki, yangi ta'limot ham solga o'xshaydi. Sol uni o'zi bilan birga olib ketishi uchun emas, balki u yordamida daryoni kesib o'tish va nirvanaga erishish uchun mo'ljallangan. Falsafaning maqsadi haqidagi bunga o'xshash tasavvurlar uning tarixida bir necha marta paydo bo'lgan. Ularga binoan, falsafa shunchaki egallab qo'yilsa yomon bo'lmaydigan narsa emas, balki vositadir.

Keyinchalik paydo bo'lgan Sanya Vedanta, Yoga, Milansa falsafa maktablari ham ruhni o'rganishga metafizik etik tomondan yondoshdilar. Vedantada Upanishadagi idealistik g'oyalar ilgari surildi. Ularda Ataman va Braxman haqida fikr yuritildi. Bu fikrga ko'ra ruh doim tananing intilishlari va hissiy kechinmalari ortida yashiringan bo'ladi. Qat'iy intizom orqali ruh bulardan halos bo'lib, abadiy Braxman darajasiga etadi. Yoga ta'limotida esa haqiqiy yuksaklikka erishish uchun psixik faoliyatga to'sqinlik qilayotgan

tomonlarni bartaraf qilish kerak bo'ladi deyiladi. Buning uchun yogalar maxsus 8 olamni: avval tana harakatlarini (nafas olish gavda harakatlari (keyin psixik aktlar) diqqat tafakkurini/ boshqarish uslublarni ishlab chiqqan. Yogalar tomonidan ishlab chiqilgan sezgi chegaralarida narsalarni idrok etish, ko'rish gallyusinatsiya, idrok illyuziyasi xindlarning psixologik ta'limotida katta o'rin egalladi.

Hind adabiyotida qadimdan idrokning 2 xil shakli: noaniq (nirvikalka) va aniq (sarvikalka) farqlangan. Noaniq idrok sensor, narsa hodisaning sezgi a'zosi bilan kontaktga kirishi orqali idrok qilinishi. Vedanta maktabining namoyondlari noaniq hech qanday individualligi ham, umumiyliigi ham bo'lmagan hissiy kechinmalar yi²indisidir, deb ta'kidlaydilar. Aniq idrok bo'lingan nutq tuzulmasida namoyon bo'luvchi idrok bo'lib, buddistlarning ta'kidlashicha, u idrok emas, chunki unga aql ta'sir etadi. Nutq har xil belgilardan tashkil topganligi uchun idrok etilayotgan obrazni xiralashtiradi. Mimansa maktabining tarafdorlari vedantistlarni ham buddistlarni ham, tanqid qilgan holda noaniq idrok ikki belgiga - umumiy va spetsifik belgilarga ega ekanligini ta'kidlaydi. Umumiy belgi ko'pchilik individual ob'yektlarga ta'lluqli bo'lsa, spetsifik idrok faqat berilgan ob'yektlarga tegishlidir. Noaniq idrok qilinishi mumkin emas, chunki buning uchun uning boshqalaridan ajratishga to'g'ri keladi. Lekin bu ob'yekt umumiy belgi sifatida ham idrok qilinmaydi, chunki buning uchun u boshqalar bilan birlashtirilishi kerak. Bunga esa faqat nutq hisobida erishish mumkin. Chunki nutq narsalarga xos belgilarni ajratishi ham birlashtirilishi ham mumkin degan xulosaga keldilar. Buni maktab namoyondalari "Reallik" va "Illyuziya" deb atardi.

Mimansa maktabining faylasufi Bxata organ va tashqi ob'yekt o'rtasidagi munosabat bilan belgilaydi. Agar bu munosabat qandaydir sabab bilan buzilsa, idrok illyuzior bo'lib qoladi. Buning sababi sifatida Bxatta: 1) pereferik (sezgi a'zosidagi) va 2) markaziy (manas) qismdagi buzilishni ko'rsatadi. Gallyusinatsiya ham huddi shunday paydo bo'ladi. Tush ko'rish ham gallyusinatsiyaning turidir.

Psixik hayot davomida o'tish davri muammosi g'arbiy evropa faylasufini ko'proq qiziqtirdi. Hech kimni xindlar kabi "men" muammosi bunchalik ko'p o'ylantirmagan masalan, lakata ma'lumotida umuman "men" muammosi inkor qilinadi. Ular shunga asoslanadiki, sezgi a'zolarimiz bizga "men" haqida hech narsani ma'lum qilmaydi. Xulosa chiqarish yo'li bilan olingan ma'lumotlar esa noto'g'ri bo'lishi ham mumkin.

Qadimgi Xitoy tibbiyot manbalari (er. av. 8 asrga oid "Ichki olam haqidagi kitoblar")dan ma'lum bo'lishicha, bosh organ "tana knyazi" bu yuksak bo'lib, hayotiy jarayonlar asosan xavosimon Si elementi bilan bog'liq. Tanadagi boshqa elementlar bilan aralashib, Si fiziologik jarayonlarni va psixik fe'lni bajaradi deb hisoblangan. "Yurak fikrni harakatlantirgani uchun u fikrimiz asosi jigar esa hissiyotlarimiz asosidir" deb ta'kidlaydi, qadimgi xitoy tabiblari. Tabiblar o'sha davrdayoq temperament haqidagi ma'lumotni yaratdilar. Bu ma'lumotga ko'ra temperament 3 ta element: Xavosimon Si elementi, qon va balg'amning miqdoriga bog'liq bo'ladi va quyidagilar bilan tushuntiriladi:


1. Agar qon ko'p bo'lsa: odam kuchli yo'lbarsdek jasur bo'ladi;

2. Agar Si elementi ko'p bo'lsa: odam maymun kabi beqaror, harakatchan bo'ladi;

3. Agar shilimshiq ko'p bo'lsa, odam kamharakat sust bo'ladi.

Shuningdek, huddi Xindistonda bo'lgani kabi er. av. I-ming yillik o'rtalarida paydo bo'lgan Xitoy falsafasi maktablari o'zining etik yo'nalishi bilan ajralib turadi. Shunday maktabning eng yirigi Lao - Szi asos solgan maktab hisoblangan.

Lao - Szi (miloddan avvalgi 579-499 yillar)



Xitoylik faylasuf Lao szi Chu podshohligining fuqorosi bo'lib, asl ismi Li Er edi. Lao szi "ustoz Lao" degan ma'noni anglatadi. Lao esa laqab bo'lib, "qariya" deganidir. Lao szi Chjou saroyida arxiv xodimi bo'lib hizmat qilgan. Konfutsiy bilan uchrashgan. Lao szi Chjou saltanatining inqirozga yuz tutganini ko'rib, "iste'foga" chiqadi va tarki dunyo qilib, g'arbga qarab yo'l oladi.

Chegaraga etib kelganda chegara boshlig'i undan o'z vataniga nimadir qoldirib ketishni so'raydi. Li Er chegara boshlig'iga 5000 belgidan iborat qo'lyozmani topshiradi. Bu tarixda "Dao de szin" ("Ezgulik yo'li yoki kuch va harakat haqidagi kitob") nomi bilan mashhur kitob edi. Bu kitobda Dao ta'limotining mohiyati haqida so'z boradi. Dao ieroglifi ikki qism: "Shou" - bosh va "Szou" - barmoq degan so'zdan iborat. Bu "odamlar yuradigan yo'l", degan ma'noni bildiradi. Hozirga kelib "Dao" qonuniyat, qonun degan ko'chma ma'noni anglatadi. Uning psixologik jihatdan ta'sirga ega quyidagi o'g'itlari ahamiyatli sanaladi.

Buyuk ishlar, albatta mayda ishlardan boshlanadi.

Bilguvchi so'zlamaydi, so'zlaguvchi bilmaydi.

Fikrlaringizga ehtiyot bo'ling – ular qilmishlaringiz ibtidosidir.

Buyuk to'g'rilik egrilikka, buyuk zakovat ahmoqlikka o'xshaydi.

Lao - Szining haqida ma'lumotlar ko'p emas. Faqat shu narsa ma'lumki, u Konfutsiyning katta zamondoshi bo'lgan. U yolg'iz yashagan va mashhurlikdan o'zini yiroq tutgan, deb hisoblanadi. Lao-Szining nomi Dao de szin (yo'l va uning saxovati haqidagi kitob yoki Dao va de haqidagi kitob) degan asar bilan bog'liqdir, lekin bu asarni uning yozganligi aniq emas. Ehtimol, bu asar uning muxlislari tomonidan bitilgandir.

Dao de szin daosizm falsafasiga doir klassik matndan iborat. Uni tushunish qiyin va talqin qilishda esa katta muammolar ko'ndalang bo'ladi. Geraklit singari Lao - Szini ham ko'pincha "sirli" va "o'qib bo'lmaydigan" deb atashadi. Dao de szin tabiat yoki borliqqa oid xitoy falsafasiga qo'shilgan katta hissa bo'ldi. Bu uni amaliy yo'nalishdagi konfutsiychilik an'alariga o'xshagan ayrim markaziy falsafiy qoidalaridan ham yaqqol ajralib turadi.

Lao - Szi uchun "dao" tushunchasi fundamental tushuncha hisoblanadi. Dao to'g'risida u "noaniq", "cheksiz", "o'zgarmas", "makon va zamonda cheksiz", "tartibsizlik va shakl" hisoblanadi deyiladi. Bunga o'xshash so'zlar vositasidagi ifodalashlar faqat o'zlari ifodalaydigan narsalarning alomati bo'lishi mumkin. Qat'iyroq qilib aytganda, til bunday holda adekvat bo'la olmaydi, chunki uni xatto salbiy ta'riflar orqali ifodalashda ham daoning nima bo'lishini darhol faraz qiladi. G'arb tafakkurida bunga o'xshash yondashuv salbiy (apofatik) teologiyaga o'xshaydi, unga ko'ra biz Xudo to'g'risida ijobiy fikr bildirishga ojizmiz. Biz faqat uning nima bo'la olmasligini ta'kidlashimiz mumkin. Shu bilan birga Lao-Szining Dao haqidagi fikrlari grek naturfalsafasi qo'llagan savollar va javoblar tiplari bilan ko'plab umumiylikka ega fikrlarga o'xshab tuyuladi.



Konfutsiy (miloddan avvalgi 551-479 yillar)

Xitoyning sharqidagi Lu knyazligida tug'ildi. U aslzodalar xonadoniga mansub bo'lib, otasi Shulyan Xe Lu knyazligidagi Szou muzofotini boshqargan. Konfutsiy tug'ilganda otasi 70 yoshga to'lgan edi. Uch yoshga to'lganda otasidan, 17 yoshida onasidan ayrildi. Oilada Konfutsiydan tashqari 9 qiz va bir nogiron o'g'il bo'lgan. Konfutsiylikda uning asoschisi Konfutsiy birinchi bo'lib irsiy va hayotda orttirilgan narsalar masalasini ko'tarib

chiqdi. Uning fikricha odam o'z tabiatiga ko'ra mehribon mavjudot, uni tashqi muhit buzadi. Uning zararli ta'sirini engish uchun inson etuklikka erishish kerak.

Konfutsiy (milodan avvalgi 551-479 yilgacha) taxminan Budda, Fales va Pifagor yashagan davrda yashab o'tgan. U yozgan matnlar saqlanib qolmagan, lekin uning ta'limotining asosiy qoidalari Konfutsiyning shogirdlari bilan suhbatlari (savollar va javoblar) haqidagi qisqacha qaydlar to'plami fikrlar va suxbatlarda yozib qo'yilgan.

Ular asosan to'g'ri fe'l atvorning ijtimoiy etik muammolariga bag'ishlangan. Ulardan Konfutsiy siymosi an'analarga qattiq rioya qilgan mutafakkir sifatida gavdalanadi. Masalan: u odam faqat an'anani astoydil o'rganish yordamida o'z vazifalarini to'g'ri tushunib etishi mumkin deb hisoblaydi. An'ana, shuningdek, mavjud betartib ijtimoiy shart sharoitlarni isloh qilish borasidagi urinishlarga asos bo'ladigan me'yor tusini kasb etadi. Ana shunday yondashuv tufayli Konfutsiy ta'limotida qadimgi yozma manbalarni o'rganish markaziy o'rin tutadi. Hind falsafasida bo'lgani kabi olamdan qochish emas, balki dunyoga moslashish Konfutsiyning asosiy fikri bo'lgan. Konfutsiyning bunday qarashlarini uning izdoshi Men-Szi davom ettirgan.



Men-Szi (miloddan avvalgi 372 (taxminan)-289 yillar) ta'limoti. "Men Koinot fuqorolaridanman", degan ekan Men-szi. U Xitoyning hozirgi Shandun viloyati hududida joylashgan Lu xonligida tug'ilib o'sdi. Men-szi Konfutsiyning nevarasi Szi Si qo'lida tahsil olgan. Bu faylasuf mamlakatni muvaffaqiyatli idora etishning 12 qoidasini ishlab

chiqqan.

O'zining ana shu g'oyalari amalga tatbiq etish niyatida u hukumat tizimiga ishga kirish uchun Xitoyning turli xonliklarini kezib, qisqa muddat Si xonligida maslahatchi bo'lib ishlagan. Insonparvarlikka tayangan holda davlatni boshqarish g'oyalari hayotga tadbiiq etish yo'lidagi behuda urinishlardan so'ng Men-szi vatani Luga qaytadi va g'oyaviy qarashlarini o'zi tashkil etgan maktab, shogirdlari, kitoblari orqali targ'ib va tashviq qiladi.

Men - szining asosiy asari "Men-szi" deb ataladi. Lyudvig Feyerbax: "Men-szi Xitoyning Konfuysiydan keyingi eng buyuk faylasufidir", - deb yozgandi.

Konfutsiy kabi u ham inson tug'ma ravishda yaxshi bo'ladi va bunday yaxshilik tarbiya yo'li bilan rivojlantirilishi mumkin, deb hisoblagan. U ham o'z davridagi ko'plab xitoylik faylasuflarga o'xshab o'z umrini turli imperatorlik saroylarida o'tkazgan va shahzodalarga ikkita eng muhim saxovat insonparvarlik (jen) va adolat (i) dan ta'lim bergan. Lekin Konfutsiyda yana bir oqim Syun-szy asos solgan oqim paydo bo'ldi.



Syun – Szi (taxminan miloddan avvalgi 313-235-yillar) qadimgi Xitoy faylasufi Syun szi Chjao hoqonligida dunyoga keldi. Miloddan avvalgi 266 yilda Chjaoni tark etib, Sinn saltanatiga jo'nadi va bu erda hoqon Chjao-van hamda uning bosh vaziri Suy bilan hamsuhbat bo'ldi.

Miloddan avvalgi 264-yili faylasuf Si hoqonligiga kelib, "Szisya" akademiyasida dars bera boshlaydi va tez orada saltanatdagi eng ko'zga ko'ringan a'yonlar qatoridan joy olib, olimlarga boshchilik qiladi.

O'ta mustaqillikka va fikrlarini ochiq oydin aytishga odatlangani bois Syun-szi 255 yilda tuhmatga uchraydi. Natijada Si xoqonligidan Chu saltanatiga qarab yo'l oladi va bu erda Lanlin tumaniga hokim qilib tayinlanadi.

Miloddan avvalgi 250-yilda Syun-szi vazifasidan ozod etiladi va Chjao xonligiga qaytib boradi. Oradan ko'p o'tmay u Chu hoqonligi Lanlin viloyati hokimligi vazifasiga qayta tiklanadi.

Miloddan avvalgi 238 yili faylasufning xomiysi bo'lmish Chunshen viloyatining hukmdoriga suiqasd qilinadi. Syun-szi noiloj davlat xizmatidan ketadi. U Lanlin viloyatida muqim qolib, shogirdlari bilan birgalikda "Syun-szi" deb nomlangan asarini yozishga kirishadi.

Hukmdorlar-u vazirlar bilan dadil muloqatda bo'lib, o'z fikrini tap tortmay aytgan Syun-szi hayotini qashshoqlik va faqirlikda o'tkazadi. Zamondoshlari uning falsafiy salohiyatini munosib qadrlay olmaydilar. U hayotdan shu tariqa ko'z yumadi.

Unda aksincha odam o'z tabiatiga ko'ra badjahl bo'lib, mehribonlik bu tarbiyaning natijasidir. Axir bunday bo'lmaganda odamni tarbiyalashga hojat qolmas edi-ku! Axir o'zingda bor narsaga, intilib nima qilasan. Inson xarakteri kulol loydan yasagan ko'zga o'xshaydi deb ta'kidlanadi Syun-szi tomonidan.

Syun - sizning g'oyalaringizni targ'ib qilishda faollik ko'rsatgan shogirdlaridan biri Xan Feydir.



Xan Fey (miloddan avvalgi 288-233 yillar) qadimgi Xitoy faylasufi Xan Fey Xan saltanatining aslzoda xonadonlaridan birida dunyoga keldi. U bolalik chog'idanoq duduqlanib gapirardi. Keyinchalik Syun-szining qo'lida tahsil olib, Shan Yun, Shen Buxay, shuningdek, daosizm (xitoycha "dao" - qonun demak) ta'limoti bilan qiziqqan.

Xan Fey o'ziga qadar yashab o'tgan ko'plab yirik donishmandlar kabi legistik ("legist" - lotincha "qonun" degan ma'noni anglatadi) dunyoqarash tarafdori bo'lib, davlatni boshqarish muammolari bilan shug'ullangan. "Qonunlar xalqning otasi va onasidir. Xukmdor va amaldorlar, oliy nasablilar-u past tabaqadagilar - hamma qonunga birdek amal qilmog'i lozim. Bu- buyuk boshqarish san'ati deb ataladi" degan g'oyani yoqlagan.

Xan Fey qonunni birinchi o'ringa qo'ygan Shan Yan ("qonunlar va farmoyishlar - xalqning hayoti va boshqaruvning asosidir"), hukmdorlik san'atini birinchi o'ringa qo'ygan Shen Buxay ("Hukmdor qo'l ostidagi amaldorlarni ishlata biladi va harakatlarning natijasi bilan o'zgalarni lol qoldiradi"), ierarxiya (quyi mansabdagilarning yuqori mansabdagilarga bo'ysunish tartibi) kuchini birinchi o'ringa qo'ygan Shen Dao ("Ahloqsizlarni itoatga keltirish uchun donishmandlikning o'zi etarli emas, ammo donishmandlarni egib olish uchun e'tiborli mavqening o'zi etarli") qarashlariga tayanib, boshqaruvning "uch quroli" va "ikki tayanchi" haqidagi ta'limotni ishlab chiqdi.

Xitoydagi materialistik oqimning yirik namoyondalaridan biri Van Chun edi. U o'zining mashhur "Tanqidiy mulohazalar" nomli asarida tabiatshunoslik va meditsinaning o'sha davrdagi - yutuqlari asosida diniy teologik g'oyalarni tanqid qiladi. Tabiat qonunlari inson ruhiyatini bilishda birdan bir xitoylik mutafakkir Fan Chjen ham o'z davrida ilgari surdi. U ruhning abadiy emasligi aksincha moddiy tana ning funksiyasi bo'lgani uchun ajralmasligi va u bilan birga yo'qolishi o'z traktida yozgan "Tana, - deb yozadi u, - ruhning materiyasi, ruh tananing funksiyasidir. Materiya uchun ruh pichoqdek o'tkirdir, o'tkirlik bu pichoq emas. Pichoq mavjud bo'lmay o'tkirlik

bo'lishi mumkin emas. Huddi shunday ravishda tana o'lib ruh qolishi mumkin emas" – deb ta'kidlaydi Fan Chjen. Shu bilan birga u ruh faqat ma'lum tarzda tuzilgan materiyaga xos ekanligini aytib o'tdi.

Ma'lumki, er.av. IV-V asrda ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi jamiyatning tabaqalanishi va quldorlik davlatlarining paydo bo'lishiga olib keldi. Bu davlatlarda ruhning abadiyligini, u tanani tark etib bemaol harakatlanib yurishi mumkinligini ta'kidlovchi diniy ideologiya hukmron edi. Shu bilan birga bizgacha etib kelgan manbalarda nafaqat diniy balki, tabiiy bilimlarning asoslari ham ta'riflangan. Narsa va hodisalarni teologik, mifologik jihatdan tushuntirishga harakat qiluvchi tasavvurlar asta-sekin ratsionalizatsiyaga uchrab yangi tushunchalar bilan almasha boshladi. Xudo hali ham oliy hukmron bo'lib hisoblansa-da, odam hayotiga o'tkaziladigan ta'siri haqidagi qarashlar avvalgidan o'zgarib bordi.

Er. av. IV asr oxiriga oid Misrdan topilgan "Memfis teologiyasining yodgorligi" psixik-faoliyatga berilgan ta'rif fikrimizni tasdiqlaydi. Unga ko'ra bu dunyoning arxitektori Ptax xudosidir. U ko'z, quloq, burun, sezgi a'zolarini yurakka xabar berish uchun yaratgan. Yurak orqali berilgan xabarni til takrorlaydi halos. Albatta bugungi kun bahosi bilan bunday fikrlar ibtidoiy bo'lib hisoblanadi. Ularda "periferiya – markaz" munosabatida dastlabki elementlari ko'zga tashlandi. Shu tariqa teologik dunyoqarash doirasida ba'zi narsalar haqidagi tasavvurlar o'zgarib boradi. Buning asosiy sababi qadimgi sharq tibbiyotining yutuqlari hisoblanadi.)

Mavzu yuzasidan tayanch tushinchalar:

Jaddizm, Karma, Veda, Upanashiada, Atman, Braxman, Yo'ga, Dao-szou, Syun-szi, Shin – Dao, Buddizm, Idealizm, Materializm, Dao-sizn, Anita.

Nazorat savollari:

1. Hind falsafasida inson ruhiyati masalasi?
2. Anita so'zi haqida tushincha bering?
3. Karma va Veda tushunchalarining psixologik talqini?
4. Budda dinida inson ruhiyati tavsifi?
5. Konfutsiy ta'limoti va uning mazmun mohiyati?
6. Dao-szou falsafasida inson qadiryatlari tizimi?

7. Shin –Dao ta’limotining falsafiy va psixologik mazmuni?
8. Yogalarda tana va ruh uyg’unligi tushunchasi?
9. Xitoy falsafasining psixologiya fani taraqqiyotidagi ro’li?
10. Syun-Szi ta’limotida inson va tabiat munosabati?

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T., Ma’naviyat, 2008.
2. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: O‘zbekiston, 2011.
3. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. – T.: O‘zbekiston, 1997.
4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston-NMIU, 2017.
5. Mirziyoyev Sh.M. Erikn va farovon, demoktarik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq. – T.: O‘zbekiston-NMIU, 2017.
6. Hergenhahn B.R., Tracy B. Henley “An Introduction to the History of Psychology”. – 2014 Wadsworth, Cengage Lyerning.
7. Ярашевский М.Г. История психологии. – М., 1997.
8. Ждан Н.Ж. История психологии. – М., 1995.
9. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. – T., 2010.
10. G‘oziyev E.G‘. Psixologiya metodologiya. – T., 2013.

IV BOB. O'RTA ASR SHARQ VA G'ARB MUTAFAKKIRLARINING PSIXOLOGIK QARASHLARI (VI-XVI ASRLAR MISOLIDA) QADIMGI SHARQ MUTAFAKKIRLARINING PSIXOLOGIYASI

O'rta asr Sharqida arab halifaligi davriga kelib yangi feodal ishlab chiqarish usulining qaror topishi bilan intellektual bilimlar monopoliyasi ruhoniylar qo'liga o'tadi. Natijada diniy rasm-rusumlari va an'ana-odatlar jamiyatdagi axloqiy-iqtisodiy va huquqiy-iqtisodiy normalarga aylanadi. Bu davrda falsafa amaliyotdan ajralib, ko'proq sxolastikaga aylanib, ilohiyot haqidagi ta'limot xarakterini oladi. Tabiat va insonni ilmiy o'rganish gunoh hisoblanib, bunday o'rganishga kirishgan mutafakkirlar dahriylikda ayblanadi va quvg'in qilinadi. Lekin shunga qaramay, bu davrda ham jamiyatning madaniy - ma'naviy taraqqiyoti ma'lum darajada to'xtamay davom etadi.

Bu davr mutafakkirlari islom dinining cheksiz hukmronlik qilgan sharoitlarida ham olamning tabiati va mohiyati, uning taraqqiyoti, koinotning sirlari, insonning hayoti va uning dunyodagi o'rni haqida, insonda uchraydigan har xil kasalliklarning sabablari haqida diniy qarashlar bilan birga, ulardan tubdan farq qiladigan tabiiy-ilmiy va falsafiy qarashlarni ham ilgari suradilar. Bu bilan ular ilg'or falsafiy dunyoqarashga va tabiatshunoslik bilimlari rivojiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shadilar. Arab halifaligiga qarashli hududlarda ilm-fanning taraqqiyoti bilan birga, erkin fikr qiluvchi, diniy aqidalardan etishib chiqadilar. Bu mutafakkirlar o'z qarashlari bilan O'rta asr Sharq falsafasiga asos soladilar. Ular o'z qarashlarining dunyoviyligi, o'z asarlarining aql-idrokli, o'qimishiligi, qadimgi yunon-rim falsafiy qarashlari bilan tanish bo'lgan, o'z kuchlari va bilimlariga qattiq ishongan kishilar bo'lishgan edi. VIII-XIII asrlarda O'rta Osiyoda ijtimoiy-falsafiy fikrlar o'z taraqqiyotining gullab yashnagan davrini kechirdi. Bu jarayonga O'rta va Yaqin Sharq mamlakatlaridagi ilmiy, falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, diniy ta'limotlar ham katta ta'sir ko'rsatdi. Umuman olganda, o'sha davrlarda O'rta Osiyo, O'rta va Yaqin Sharq mamlakatlaridagi ijtimoiy-falsafiy fikrlar bir-biri bilan bog'langan yaxlit jarayon sifatida rivojlandi. Unda qadariylar, mutazila va kalomdan iborat ratsionalistik va insonparvarlik yo'nalishdagi diniy-falsafiy oqimlar, tasavvufning oriflik ta'limoti tarafdorlari, "sof arab-musulmon falsafasi" - mashshoiyunlar (Kindiy, Yah'yo ibn Adi, Nasriddin Tusiy, Ibn Bajja,

Ibn Tufayl, Ibn Rushd), Demokritning empirik tabiatshunoslik falsafasi yo'nalishidagi (Jobir, Eronshahriy, Roziy, Beruniy, Abu-l-Barakot), amaliy siyosat, davlat va axloq falsafasi (Abu Hanifa, Abu Yusuf al-Hirojiy, Mavardiy, Forobiy, Ibn Miskavayh, Ibn Sino, Kaykovus, Nizomul-Mulk, Nasriddin Tusiy, Sa'diy, Hofiz), mantiqshunoslik va hozirgi semantik mantiq falsafasi yo'nalishidagi falsafa (Matta ibn Yunus, Yuhanna binni Haylon, Forobiy, Abu Sulaymon Mantiqiy as-Sijjistoniy, Ibn Sino, Nasriddin Tusiy, hurufiyalar, Mir Said Sharif Jurjoniy), fan, falsafiy va diniy ta'limotlarni qiyosiy o'rganuvchilar (Ibn an-Nadim, Abu Abdulloh Kotib Xorazmiy, Abdulkarim ash-Shaharastoni, Bayhaqiy, Ibn Hallikon, Ibn abi Usaybi'a, al-Forisiy al-Fahriy) kabi oqimlar ta'siri katta bo'ldi.



Bunday mutafakkirlardan biri, birinchi arab faylasufi **Yoqub Ibn Ishoq al-Kindiy** (800-879) dir. Al-Kindiy asli arablarning Yamanda yashaydigan Kinda degan qabilasidan chiqqan bo'lib, uning tahallusi ham shu qabilaning nomidan olingandir. Al-Kindiyning nomi aslida Abu Yusuf Yoqub Ibn Ishoqdir. Al-Kindiy dastlab boshlang'ich ta'limni Kufadan olib, so'ng Basraga boradi va u erda olimlar qo'lida o'qiy boshlaydi.

Al-Kindiy Basrada o'ziga zarur, deb bilgan bilim sohalarini egallab, so'ng yana o'z bilimini oshirish maqsadida Bag'dodga kelib, dastlab fors, yunon falsafasini o'rganishga kirishadi. Lekin bu davrda yunon falsafasiga oid ko'p kitoblar arab tiliga hali tarjima qilinmagan edi. Shu sababli u qadimgi yunon falsafasini o'qish maqsadida yunon tilini o'rganishga kirishadi va tez orada bu sohada nihoyatda katta muvaffaqiyat qozonadi.

Al-Kindiy yunon tilini bilib olishi asosida qadimgi yunon faylasuflarining asarlarini o'rganish bilan cheklanmay, ularning bir nechtasini arab tiliga tarjima ham qiladi. U o'zining ilmga chinakam berilganligi tufayli tez orada bilimdon kishilar orasida hurmat-e'tiborga sazovor bo'lib, uning nomi shahar amaldorlari va olimlari doirasida tez-tez tilga olinadigan bo'ladi. bundan xabar topgan halifa Al-Ma'mun uni "Baytul hikma" (Donolar uyi) akademiyasiga jalb qiladi.

Al-Kindiy bu erda yirik tarjimon va olim Xusayn Ibn Ishoq bilan tanishib, uning qo'lida tarjima ilmini o'rganadi, arab tiliga yunon tilidan tarjima qilish san'atini egallab, tez orada kuchli tarjimonlarning

biri bo'lib qoladi. Natijada, u Aristotelning "Metafizika", Ptolomeyning "Geografiya", Evklidning "Elementlar" kitoblarini yunon tilidan arab tiliga tarjima qiladi.

Shu bilan birga, Al-Kindiy Aristotelning "Kategoriya", "Ikkinchi analitika", "Organon" asarlariga, Ptolomeyning "Almagest" asariga, Evklidning "Elementlar" kitoblariga sharhlar yozadi. Ayniqsa Al-Kindiyning arab falsafasida Sharq Aristotelchiligining paydo bo'lishidagi roli g'oyat kattadir. U Aristotel falsafasini juda yaxshi bilgan va hatto uning ba'zi bir g'oyalarga tanqidiy ham yondoshgan.

U Aristotelning 10 ta kategoriyasi o'rniga o'zining 5 ta prasubstansiyasini (materiya, shakl, harakat, makon va zamonn) ilgari surgan. Uning nuqtai nazaricha, tabiatdagi barcha narsalar materiyadan tashkil topgan. Materiya esa to'rt unsur: olov, suv, havo va tuproqdan iboratdir. Materiya doimiy harakatdadir, harakat esa narsalarning bir turdan ikkinchi turga o'tishidan iboratdir. Bu o'z navbatida o'zgarish demakdir.

Al-Kindi harakatni olti turga bo'ladi: 1) paydo bo'lish; 2) yo'q bo'lish; 3) uzayish; 4) qisqarish; 5) o'zgarish va nihoyat; 6) siljish. Har qanday harakat esa ma'lum bir vaqt ichida sodir bo'ladi. Vaqt harakatning sekin yoki tezligidan iborat bo'lib, u o'tgan zamon bilan kelgusi zamonn bog'laydi.

Materiya shaklga ham ega, faqat shakliy tafovut tufayli u yoki bu narsalar boshqa narsalardan farq qiladi. Al-Kindiy borliqning makon atributini ham e'tirof etadi. Makon, deb u jismni o'z ichiga oladigan, jismdan tashqaridagi sathga aytamiz, deydi.

Makon bilan uni to'ldirib turadigan narsa bir-biriga bog'liq, deydi u. Agar makon bo'lsa, uni to'ldiruvchi biron narsa bo'lishi kerak va aksincha, agar makonni to'ldirib turuvchi narsa bo'lsa, albatta, makon bo'lishi kerak.



Abu Bakr Muhammad Ibn Zakariyo ar-Roziydir (864-925). U Eronlik bo'lib, Ray shahrida dunyoga keladi. Roziy yoshligidan arab va qadimgi yunon tillarini o'rganadi, Ray va Bag'dod shaharlarida o'qiydi. U ayniqsa, tibbiyot, kimiyo, botanika, astronomiya, matematika, mantiq va falsafaga oid ilmlarni chuqur egallab, Sharqning buyuk ensiklopedist olimi, adib va mutafakkiri bo'lib etishadi. Roziy keyinchalik Ray va Bag'dod shifoxonalarini boshqaradi. Bu paytda u O'rta Osiyo, jumladan, Buxoro ilm ahllari bilan ilmiy aloqada ham

bo'ladi. Roziy o'z davrining Galeni (Jolinusi) deb tanilib, Evropada uning nomi lotincha Razes deb ataladi. U inson bilimlarining uch sohasiga: tibbiyotga, kimyoga va falsafaga juda katta hissa qo'shadi. Roziy tabobatga, kimyoga, falsafaga, mantiqqa, etikaga, ilohiyotga, astronomiyaga, fizikaga oid 184 ta asar qoldiradi, shulardan bizgacha faqat 61 tasi etib keladi (ulardan 36 tasi tibbiyotga, 4 tasi kimyoga oid).

Roziyning falsafiy qarashlari Eron, Turon, Arab, Hind, Xitoy falsafiy sistemalari hamda qadimgi yunon falsafiy ta'limotlari asosida shakllanadi. Uning dunyoqarashida materialistik tendensiyalar ustun o'rin oladi. Roziyning ilmiy tadqiqotlari tajriba va eksperimentlarga asoslangan o'z davri dogmatik qarashlaridan holi, tabiatshunoslikning falsafiy muammolariga ko'proq oiddir. Shu bilan birga, u o'z davrida o'zining original falsafiy qarashlari bilan zamondoshlaridan ancha ilgari ketib, qator ilg'or falsafiy g'oyalarni olg'a suradi.

Roziy o'z dunyoqarashida hukmron mafkura islom ortodoksal ta'limotini inkor qilibgina qolmay, balki Aristotel va uning izidan borgan o'z o'tmishdoshlari Al-Kindiy, Ravandiy va shu kabilarga nisbatan butunlay boshqacha yo'l tutdi. Uning falsafiy ta'limoti bo'yicha, real dunyo beshta azaliy boshlang'ichning bir-biriga qo'shilishidan tashkil topgan. Bu beshta azaliy boshlang'ich: materiya (xayulo), makon, zamon, jon (an-nafas) va xudo (borib)dan iboratdir. Roziy bunda xudoni azaliy boshlang'ich sabablardan faqat biri, deb biladi, u dunyoning vujudga kelishida boshqa azaliy boshlang'ich sabablar qanday rol o'ynasa, xudo ham shunday rol o'ynaydi, deb hisoblagan. Shu sababli u xudoni dunyoni yaratuvchi emas, balki boshqaruvchi kuch, deb tasavvur qiladi. Ko'rinib turibdiki, Roziy xudoni butunlay inkor etuvchilar jumlasiga kirmaydi. U shu bilan birga, materiyaning abadiyligi, uning makon va zamonda cheksizligi, dunyo hech kim tomonidan yaratilmaganligi, harakat esa narsalarning ajralmas xususiyati, harakatning manbai narsalarning o'z ichida, deb biladi. Ar-Roziy materiyani olamning asosiy negizi, deydi. U o'zining materiya haqidagi ta'limotida Demokrit atomistik nazariyasiga asoslangan holda materiyani "bo'linmas zarrachalar" (ajzou loyata jazza) dan iborat, deb tushunadi. Bu zarrachalarning bo'shliq (holo) zarrachalari bilan turlicha birikishi natijasida to'rtta unsur: suv, tuproq, havo va olov paydo bo'ladi. Dunyodagi barcha predmetlar va hodisalar shu unsurlarning turlicha miqdorda o'zaro qo'shilishidan tashkil topadi, deydi u. Bular shuni ko'rsatadiki, Roziy o'zining dunyoning tuzilishi haqidagi ta'limotida ma'lum darajada qadimgi

yunon faylasuflarining atomistik qarashlariga suyanan. Uning bu ta'limotiga ko'ra atomlar massa va og'irlikka ega bo'lgan abadiy moddiy narsalar. Bu moddiy narsalardan moddiy dunyo tashkil topadi. Roziy bunda moddiy dunyoning, tabiatdagi jismlarning asoslari va tuzilishlari haqida gapirib, ular ikki narsadan: materiya va shakldan iborat, lekin materiya mohiyati jihatdan shakldan ustun turadi, deydi.

U bunda o'z davri falsafasida qabul qilingan terminlardan foydalanib, materiyani javhar (substansiya), shaklni esa oraz (aksidensiya), deb hisoblaydi. Roziy inson aql-idrokining qudratiga yuqori baho berib, insonni tabiatdagi predmet va hodisalarning mohiyatini bilishda benihoya qudratga ega, deb ta'kidlaydi. Uning falsafiy ta'limoti bo'yicha, inson o'zining aql va tafakkur qobiliyati bilan butun hayvonot dunyosidan farq qiladi. Inson dunyo hodisalarini bilishda o'z sezgi va idrok ko'rsatmalariga tayanishi va aqliy qobiliyatiga ishonishi lozim. Shundan kelib chiqqan holda, u har xil payg'ambarlar va din mutaassiblari tomonidan qilingan va qilinadigan mo'jizalarga, ko'rsatiladigan karomatlarga ishonmaslikni aytadi. Roziy, inson-idrokining qudrati va kuchiga, uning bilish qobiliyatiga ishongan holda, kishilarni ilm-fan va ma'rifatni egallashga chaqiradi, u insonlarning baxtli hayotga erishishi ularning ilm-fanni egalashi orqali ro'yobga chiqadi, deb tushuntiradi. Bizning uchun eng sharafli bo'lgan narsa, deydi u, - faqat jismoniy lazzatlarga intilish emas, balki ilm va ma'rifat orttirish va haqiqatga erishishdir. Uning falsafiy ta'limoticha, inson hayotining mohiyati baxtli turmushga erishishdir. Shuning uchun har bir kishi baxtli hayot uchun kurashishi kerak. Bu kurash ikki yo'ldan iborat. Birinchisi: hayotning hamma moddiy ne'matlaridan foydalangan holda, ijtimoiy hayotda faol ishtirok etish: ikkinchisi, eng oliy axloq iqtisodiy etuklikka erishishdir. Bunga erishish insonning o'ziga bog'liq. Inson o'z taqdirini, o'z hayotini o'zi yaratadi. Eng baxtli kishi insonlarga eng ko'p foyda keltirgan kishidir. U o'zining "Kitob tibbi ar-ruhoniyy" risolasida insonlarning eng oliy axloqiy-iqtisodiy etuklikka erishish yo'llari haqida fikr yuritib, bu yo'lda uchraydigan to'siqlar, kishidagi bo'lidigan kamchiliklar va ularni engib o'tish yo'llarini ham ko'rsatib beradi. Uningcha, eng oliy ahloqiy-iqtisodiy etuklikka erishgan odam, ya'ni haqiqatdan, eng mu'tabar faylasuflar intilgan hol qisqacha shundan iborat: kishilar bir-biriga nisbatan adolatli munosabatda bo'lishi, bir-birini ochiq ko'ngillik va xushmuomalalik, rahmdillik bilan qabul qilishi, yordam

qilishi, kishilarga nisbatan yaxshi munosabatda bo'lish, baxt va saodatga intilishidir deb tahlil qiladi.



Abu Hamid Muhammad Ibn Muhammad al-G'azzoliy (1058-1111) yirik musulmon arab faylasufi va mashhur islom ilohiyotchisidir. U Tus shahrida kosib oilasida dunyoga keladi. Uning otasi Muhammad Ibn Ahmad Tusdagi o'zining kichik do'konida ip yigiruvchi, ya'ni g'azzolchilik bilan tirikchilik qiladi. Abu Hamid Muhammadning

G'azzoliy tahallusi ham ayni shu otasining kasbidan olingan. Otasi Abu Hamidni o'qimishli inson bo'lishini juda xohlaydi. Shu sababli u o'z vafoti oldidan uy-joyini sotib, o'zining bir ahli solih o'z mutasavvuf do'stiga o'g'lining ilm olish uchun sarflashni vasiyat qiladi. Ota vasiyati amalga oshib, Abu Muhammad G'azzoliy butun islom dunyosi tan olgan benazir faylasuf, buyuk islom ilohiyotchi olimi bo'lib etishadi. U dastlabki ma'lumotni Nishopurda olib, so'ng uni Bag'dodda davom ettiradi. o'qishni tugatib, "Nizomiya" madrasasida islom huquqi – fiqhdan, mantiq va falsafadan dars beradi. So'ng mudarrislikdan voz kechib, o'n bir yil zohidlikka beriladi.

Umuman, barcha buyuk olimlar kabi, Abu Hamid G'azzoliy ham yoshligidan ilmga o'ta chanqoq bo'ladi, u tinimsiz, har qanday qiyinchiliklarga qaramasdan, o'qib o'rganadi, ilm oladi. G'azzoliy islom haqiqatni bilishning eng to'g'ri yo'li bo'la oladimi, yo'qmi yoki faylasuflar kabi haqiqatni faqat aql bilan bilish mumkinmi, kabi shubha va savollarga to'g'ri javob topishda juda ko'p izlanadi. Nihoyat, oxirgi u eng to'g'ri yo'l, deb Islom yo'lini tanlab, uning muqaddas dasturi Qur'on va Hadis ilmi ekanligiga o'zicha ishonch hosil qiladi hamda unga iymon keltiradi.

'Abu Hamid G'azzoliy islom ilmlarning turli sohalarini dunyoviy ilmlarga qo'shib chuqur egalaydi. U bunda nimani o'rgansa, shu sohani to'ldirishga, rivojlantirishga harakat qilib, har bir o'rgangan narsasini islom tarozisiga qo'yib, o'lchab ko'rish asosida baholashga harakat qiladi. Oqibatda, o'zi shug'ullangan islomning turli sohalariga oid yuzdan ortiq asarlar yaratadi. U fiqh ilmiga oid "Bosit", "Vajid" va "Qosit" singari asarlar yozadi. Kalom ta'limotiga doir "Tavhitdul A'qoid", "Ar-Risolat-ul-qudsiya", "Al-Iqtisodu fil e'tiqod", "Ijmoi-ul-Avvom an Ilm-ul-Kalom" kabi asarlar yozadi. G'azzoliy o'z asarlarida o'ziga xos bir islomiy falsafa bo'lgan kalom ilmini joxil kishining o'qishidan hech bir foyda yo'q, bu ilm faqat

iymonida shubhaga tushganlarni tuzatishga yaraydi, deb, uni din ulamolariga o'rganishni tavsiya etadi.

G'azolliyni jahonga mashhur qilgan va dunyo tan olgan faylasuflar qatoriga qo'shgan asarlari – bular mu'tazilliylar, botiniylar (ular ko'proq aqlga tayanganlar) ning yo'ldan ozgani va islomni zaiflashtirishlariga qarshi yozgan "Fadoix al-Botiniya", "Al-Qismoal-Mustaqil", "Hujjatul-Haq", "Mufasi-ul-Xilof" va "Ad-Diras al-Marg'um" kabi asarlaridir.

Abu Hamid G'azzoliy jahon faylasuflari, xususan, yunon faylasuflari asarlari bilan ham tanishib chiqqan bo'lib, u o'z o'tmishdoshlari ulkan allomalar Forobiy va Ibn Sinolarning Platon va Aristotel falsafasi ta'sirida qolganliklarini, ularga ergashganliklarini tanqid qilib, "Taxofut-ul-falosifa" (Faylasuflarga qarshi) asarini yaratadi. U bu asarida islomni, Qur'onni insoniyatning aqliy bilimlaridan iborat taroziga solishni qoralaydi. Aksincha, insoniyatning aqliy bilimlarini "Qur'on" tarozisiga solib tekshirib chiqish kerak. Chunki shunday qilinmasa, islomni yanglish tushunish davom etaveradi. Biz buning oldini olishimiz kerak, deydi u.

G'azzoliy bu asarida islom falsafasi nuqtai nazaridan kelib chiqib, kishilar haqiqatni tanishi, ya'ni Ollohni tanishi kerakligini, ular his-tuyg'uda ham, aqliy bilimlarda ham adashishlarini isbotlaydi. U o'zining "Ixyo ulum-ud-din" asarida bilish kishining dilida mujassamdir, deydi. Dil esa, uningcha, ilohiy ne'mat, uni odiiy qalb yoki yurak ma'nosida tushunmaslik kerak. Dilga esa jon ham, aql ham, nafs ham kiradi, ular jisman ham, ruhan ham birdir. Shuningdek, "Qur'on" va "Hadis"ning qaysi joyida "dil" so'zi kelsa, undan albatta narsalarni anglab, ularning mohiyatiga eta oluvchi inson ma'naviyati tushuniladi, deb yozadi. G'azzoliy o'zining asrlarida islom ilohiyayoti tizimini ishlab chiqib, uni falsafiy jihatdan asoslab beradi. U islomning eng yirik nazariyotchisi hisoblanadi. G'azzoliy o'zining "Adashishdan qutqaruvchi" asarida Oliy tangriga-Ollohga, payg'ambarga va oxiratga ishonish-islom diniga ishonishning asosidir, deydi. U Ollohni inson aql orqali anglashi mumkin emas, uni kishi maxsus ruhiy jismoniy (psixofizik) harakatlar: siqinish va ibodat orqali anglashi, bilib olishi mumkin, deydi. Uning fikricha, jon xudo (Olloh) singari fazodan tashqarida, olam Olloh tomonidan yaratilgan.



Asli nomi Adub-Valid Muhammad Ibn Ahmad Ibn Rushd¹⁹ (1126-1198) (Evropada Averroes deb yuritiladi) hozirgi Ispaniyaning Kordoba shahrida tug'ilib, Andalusi va Marokko shaharlarida yashab, ijod etadi hamda Marokkoda vafot etadi.

Ibn Rushd Aristotel qarashlarini davom ettirib, o'z falsafasida materializm elementlarini rivojlantirgan, shu asosda o'z shaxsiy falsafiy sistemasini yaratgan buyuk arab faylasufidir. U o'z qarashlarida xudoning mavjudligini e'tirof etsa-da, dunyoni, materiyani xudo yaratmagan, deydi.

Ibn Rushd ta'lim berib aytadiki, dunyo, materiya boshlanishga ham, oxiriga ham ega emas. Materiya benihoya, abadiy va azaliy, deydi. Uning qarashicha, moddiy dunyoda faqat zaruriyat hukm suradi, xudo ham shu zaruriyatga bo'ysunadi.

Ibn Rushd ortodoksal islom-kalom ta'limoti ilgari suradigan: kishining o'lgandan keyin tirilishi, oxiratning mavjudligi, "u dunyo" to'g'risidagi qarashlarni butunlay rad qiladi. U insondagi jonni tana bilan chambarchas bog'liq, undan ajralmas, deydi. Uningcha, jon umuman olganda o'lmasdir, bir butun holda olganda, insoniyat ham o'lmasdir, uning umumiy aqli, ya'ni umumiy aql ham o'lmas va adabiydir. Inson aqli haqiqatni bilishga qodir.

Ibn Rushd o'z davri uchun progressiv bo'lgan "ikki xil haqiqat" to'g'risidagi ta'limotni yaratadi. Bu ta'limotda aytilishicha, ilmiy-falsafiy fikr erishgan haqiqat diniy ta'limotlarda mavjud haqiqatlarga mos kelmasligi mumkin.

Uning bu fikri o'z navbatida fanni va falsafani dinning, ilohiyotning iskanjasidan, dindorlar tazyiqidan ozod qilishda muhim rol o'ynaydi.

Ibn Rushd o'zining Abu Hamid Muhammad G'azzoliy asari - "Faylasuflarni rad etish" (Taxofut-ul-falosifa)ga qarshi yozgan "Faylasuflarni rad etish" (Taxofut-ut-taxofut) asarida G'azzoliyning islom ortodoksal kalom ta'limotini qattiq tanqid qiladi. U kishi oliy kamolotga faqat zikru sano orqali emas, balki falsafiy bilimlarni egallash orqali erishadi, deb ta'lim beradi.

Ibn Rushdning bu falsafiy ta'limoti O'rta asrdagi Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida, keyinchalik esa uyg'onish davri Evropa

¹⁹ Hergenhahn B.R. Tracy B. Henley An Introduction to the History of Psychology. - 2014 Wadsworth, Why Study the History of Psychology. 79-80-p.

mamlakatlarida falsafiy qarashlarning rivojlanishida katta rol o'ynaydi. U O'rta asr hurfikrligining eng yirik namoyandalaridan biri hisoblanadi. Bir so'z bilan aytganda Ibn Rushd O'rta asrdagi Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlaridagi falsafa va pihologiya falari taraqqiyotiga juda katta hissa qo'shgan mutafakkir qomusiy allomadir.



Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Tarxon ibn O'zlug' al Forobiy at-Turkiy (870-950) Aris daryosi suvining Sirdaryoga quyilish eriga joylashgan Forob qishlog'ida tug'ilib o'sdi. Forobiyning yoshligi arab halifaligi poytaxti Bag'dod shahrida kechdi. U bu erdagi madaniy muhitdan nafas olib, olimlar bilan yaqindan tanishdi.

Shuningdek, falsafa ilmidan saboq oldi.

Forobiy Arastuning hamma asarlarini bitta ham qoldirmay o'qib chiqdi. Natijada Forobiyda Arastuning g'oyalarini engillik bilan tushunib, uning o'z oldiga qo'ygan vazifalari va o'ylantirgan muammolari ko'lamini his etish ko'nikmalari paydo bo'ldi.

Aytishlaricha, Forobiy Arastuning "Jon haqida" deb nomlangan asariga o'z qo'li bilan: "Men bu asarni 200 marta o'qidim", - deb yozib qo'ygan ekan.

Manbalarda yozilishicha, Forobiy dastlab qozilik qilgan. Lekin keyinchalik haqiqatni izlab topish umidida davlat ishlari va qisman mudarrislik bilan mashg'ul bo'ladi. Bir kuni yaqin kishilaridan biri Forobiyga bir qancha kitobni omonatga topshirib ketadi. Bu kitoblarning ichida Arastuning bir qancha asarlari ham bor edi. Forobiy bo'sh vaqtlarida ana shu asarlarni bir chekkadan o'qishga kirishadi. Aynan ana shu mutola uning qozilikni tashlashiga sabab bo'ladi. Bu tasodif Forobiyning taqdirida muhim o'rin tutadi va u buyuk olimlik maqomiga etishadi. Ba'zi ma'lumotlarga qaraganda, Forobiy Arastuning "Tabiiy uyg'unlik" asarini 200 marta o'qib chiqqan.

Forobiyga Arastudan keyingi "Ikkinchi ustoz" deb nom berilgan. Chunki u huddi Arastu kabi ilm olamining deyarli barcha jabhalariga oid qarashlarini muntazam ravishda bayon etib borgan. U buyuk shoir ham edi.

Bir kuni Forobiydan so'radilar:

- Kimning bilimi kuchliroq: senikimi yo Arastunikimi?

Forobiy shunday javob qaytardi:

- Men o'sha zamonda yashab, u bilan uchrashganimda va uning qo'lida tahsil olganimda edi, uning eng yaxshi shogirdlari safidan joy olgan bo'lardim.

Abu nasr Forobiy Yaqin va O'rta Sharqda ilg'or ijtimoiy-falsafiy oqimning asoschilaridan biri bo'lib, "Sharq Aristoteli" degan unvonga sazovor bo'lgan mashhur mutafakkirdir. Forobiy dunyoqarashining asosi, ya'ni dunyoning tuzilishi haqidagi tushunchasini "panteistik" degan fikr tashkil etadi. Mavjudot "emonatsiya" yordamida yagona boshlang'ichdan pog'onama-pog'ona vujudga kelgan, yakkalikdan ko'plikka, rang baranglikka borgan. Uning dunyoqarashidagi asosiy maqsadlardan biri ilmiy-falsafiy usulning mustaqilligini nazariy jihatdan asoslab berishga, uning inson tafakkuriga, aqliy bilimiga asoslanganligini isbotlashga intilishdir.

Forobiy bilishning ikki shakli, bosqichini - hissiy va hayoliy, aqliy bilishni bir-biridan farqlaydi. U sezgi roliga to'xtalib, besh turga bo'ladi:

Forobiy sezgini bilishning manbai deb hisoblagan, uning qarashlari Aristotelning "sezmagani odam hech narsani bilmaydi ham, tushunmaydi ham" degan qarashlariga o'xshab ketadi.

Forobiy inson (ruh) jonining bir tandan boshqasiga o'tib, ko'chib yurishi mumkinligini inkor etadi va uni balki tan kabi individual "substatsiyasining birligi" sifatida tushunadi. Uning fikri izchil emas edi. Bunday ikkilanish Aristotelga ham xos bo'lgan.

Forobiyning ruhiy jarayonlar, ularning bilish va mantiq tizimi haqidagi ta'limoti o'rta asrlar falsafasining katta yutug'i edi.

U O'rta Osiyoning emas, sharq olamining mashhur mutafakkiri, qadimgi yunon ilmi va falsafasining Sharqdagi eng yirik targ'ibotchisi va uning rivojiga hissa qo'shgan olimlardan biri, sharq Aristoteli U o'z davrining faylasufi, musiqachisi, shoiri, qomusiy olim bo'lib nom qozondi. U "Aql haqidagi risola", "Falsafadan oldin nimani o'rganish kerak", "Falsafa maktablari", "Logikaga kirish" kabi ko'plab risolalar yaratdi. Faylasuf – falsafaning eng muhim masalalari bo'yicha qator asarlarning muallifi sifatida shuhrat qozondi. U Sharqda qadim yunon falsafasi, ayniqsa, qadimgi dunyoning qomusiy olimi, psixologiya fanining otasi Aristotelning asarlarini o'rganish, ularga sharxlar yozish, g'oyalarini targ'ib etish va yanada rivojlantirishga ulkan hissa qo'shdi. Aristotel "birinchi muallim" deb nom olgan bo'lsa, butun Sharqda Forobiy "ikkinchi muallim" unvoniga sazovor bo'ldi. U insonning ruhiy jarayonlari haqida fikr yuritadi. Forobiyning fikricha,

mavjudotning eng buyuk va etuk mahsuli – bu insondir, u o‘zining ongi, aqli, sezish organlari orqali olamni har tomonlama o‘rganish qobiliyatiga egadir. Aql yordamida inson uni o‘rab olgan mavjudotning mohiyatini tushunadi. U mavjudotning yashash shakllari, olamni bilishning yo‘l va vositalari, unda ilm-fanning o‘rni va ahamiyati masalasiga alohida e‘tibor qaratadi. Uningcha, inson tanasi, miyasi, sezgi organlari tug‘ulishida mavjud, lekin aqliy bilimi, ma‘naviyligi, ruhi, intellektual va aqliy xislatlari, xarakteri, dini, urf-odatlar bilan muloqotda vujudga keladi. Uning aqli, fikri (tafakkuri), ruhiy yuksakligining eng etuk mahsuli bo‘ladi va inson o‘z bilimlarini, aqlini rivojlantirib, so‘ngra mavjudotning ibtidosi, boshlanishi haqidagi ilmga etib boradi deb ko‘rsatadi.

A.N.Forobiyning ruhiy jarayonlar haqidagi ta‘limoti psixologiya ilmining rivojlanishi va ravnaqiga katta hissa qo‘shdi. Uningcha minerallar to‘rt element – olov, tuproq, havo, suv – ya‘ni sodda substansiyalarning o‘zaro aralashuvi murakkab substansiyalarni vujudga keltirdi. Undan avvalo menerallar ya‘ni neorganik jismlar keyin esa o‘simlik olami tashkil topdi. O‘simliklar olami o‘sinh, rivojlanish qobiliyatiga egadir. O‘simliklardan so‘ng hayvonlar vujudga keldi, ular harakat qilish, bir joydan ikkinchi joyga ko‘chish, ko‘payish, sezish qobiliyatiga ega edilar. Olam jismlari rivojlanishining oliy bosqichi – insonning vujudga kelishidir. deb ko‘rsatadi.

Forobiy o‘simlik, hayvon va insonga xos xususiyat va qobiliyatlarni quvvat deb atadi va uni o‘sinh quvvati, hayvoniy quvvat va insoniy quvvat deb uchga ajratadi. Uning quvvatlar haqidagi klassifikatsiyasi organizmdagi jarayonlarni biologik, fiziologik-psixik va fikrlash jarayonlariga ajratish demakdir. Bundan shunday xulosa chiqarmoq joyizdir, ya‘ni biologik jarayon barcha tirik organizmga, fiziologik-psixologik jarayon-hayvonlarga, aqliy intellektual jarayon, ong-faqat insonlarga xosdir.

Forobiy dunyoni bilish, inson aqlini bilim bilan boyitish, uni ilimli, ma‘rifatli qilishga xizmat qiladigan psixik jarayonlarga alohida e‘tibor berdi. U bilishning ikki bosqichi-hissiy bilish va uning darajalarini va aqliy bilishni har tomonlama asoslab berdi. U “Majmuar Rasoil al-Hukamo” asarida “Inson bilimlarni aql va sezish organlari orqali qo‘lga kiritadi. seziluvchi obrazlar his qilish orqali, aqliy obrazlar esa seziluvchi obrazlar orqali bilinadi” - deb yozadi, ya‘ni u aqliy bilish hissiy bilishsiz vujudga kelmasligini ta‘kidlaydi. U

hissiy bilishning darajalari, kelib chiqishi haqida fikr yuritadi. Sezgilarni hissiyot, tafakkur kabi psixik holatlar bilan bog'lashga urinadi. U sezgilarning o'ziga xos klassifikatsiyalaydi. Oziqlantiruvchi quvvat so'ngra ichki va tashqi quvvatlar vujudga keladi. Tashqi ruhiy quvvatlar- ya'ni tashqi buyumlar sezgi a'zolariga bevosita ta'sir qilganda vujudga keladigan quvvatdir deb ko'rsatadi.

Sezgilarning kelib chiqishi va murakkabligi jihatidan besh turli tashqi quvvatni Forobiy quyidagicha talqin qiladi:

- teri-badan sezgisi;
- ta'm bilish sezgisi;
- hid bilish sezgisi;
- nutq sezgisi (eshitish sezgisi nazarda tutiladi);
- ko'rish sezgisi;

Bularning hammasini A.N.Forobiy sezish quvvati deb ataydi:

Uningcha ichki quvvatlarga:

- xotira-tasavvur quvvati;
- xayol quvvati;
- tuyg'u, emotsiya quvvati;
- nutq quvvati;

Bu Forobiy fikricha, mantiqiy operatsiyalarni bajarib, murakkab narsalarni bilib olish uchun xizmat qiladi. U, insonda kishining g'azabi va nafratlanishi, ya'ni his-tuyg'usini boshqaruvchi quvvatlar mavjud ekanligini aytib o'tadi.

Xayol qilish, so'zlash, fikr yuritish, aql quvvatini Forobiy faqat insonga xos deb to'g'ri tushunadi. Forobiy odam organizmining markazi yurakdir, chunki yurak butun tana va uning a'zolarini qon bilan ta'minlaydi, qon yurak orqali, butun organizmga tarqaladi. Ikkinchi markaz miyadir. Miya ham qon bilan tirik bo'lgani singari, yurakka bo'ysunadi, ya'ni yurakdan qon oladi. Lekin, shu bilan birga, u butun organizm va uning a'zolariga rahbarlik qiladi, o'z buyrug'iga bo'ysundiradi deb ta'kidlaydi.

Forobiyning bu fikrlaridan, birinchidan, insondagi ruhiy jarayonlar bilan fiziologik-anatolik jarayonlar psixika bilan organizm o'zaro bog'liq holda mavjud degan xulosa, ikkinchidan yurak insonning biologik hayotini, miya esa uning ruhiy ma'naviy hayotini boshqarib turadi degan xulosa kelib chiqadi.

Forobiyning bu ta'limoti ruhiy jarayonlarning paydo bo'lishini nerv-fiziologik jarayonga bog'liq ekanligini ko'rsatadi. U tashqi olam, muhit, odam organizmi o'zaro sababiy bog'liqligini yoritib berishga

harakat qiladi va u o'zining psixologik ta'limotida o'rta-Osiyo, Eron, Hindiston va qadimgi Gretsiyaning tabiiy-ilmiy bilimlar sohasida erishgan yutuqlariga suyanadi.

Forobiy ruhiy jarayonlarni psixolog sifatida emas, balki faylasuf sifatida talqin qiladi, chunki u davrda psixologiya hozirgidek mustaqil fan hisoblanmay, balki umumiy falsafiy bilimlar tuzulishiga kirgan edi. Uning bilish jarayonining ikki bosqichi hissiy va aqliy bilish ta'limoti ayniqsa muhimdir. U hissiy bilishni sezgilar orqali konkret va moddiy narsalarning bevosita ta'siri natijasida hosil bo'ladi degan bo'lsa, aql orqali bilish konkret moddiy jismlar orqali emas, ularning ta'sirisiz va ulardan tashqari faqat ruhiy obrazlar asosida vujudga keladi deb uqtiradi.

Forobiy "Aql ma'nolari haqidagi risola"sida aql-intellekt tushunchasini bir tomondan, psixik jarayon ekanligini va ikkinchi tomondan, u tashqi ta'sirning, ta'lim-tarbiyaning natijasi deb anglaydi. Uning fikricha "Aql faqat insongagina xos bo'lgan tug'ma quvvat – ruhiy kuch bilan bog'liqdir. Inson tushunish, fahmlash, muhokama qilish, o'ylab topish, fikrlash quvvatiga ega va bu hususiyatlar bolaning o'sib, kamolga etib borishi bilan rivojlanib boradi"

Forobiy "Fozil odamlar shahri", "Hikmat asoslari", "Aql ma'nolari" kabi asarlarida inson psixikasi haqida falsafiy mushohadalar yuritadi. Forobiyning ruhiy jarayonlar va dunyoni bilish haqidagi fikrlari hozir ham psixologiya fanida katta ahamiyatga egadir. Forobiy 950 yilda hayotdan ko'z yumdi va Damashq shahrida Dafn etildi.



Abu Ali ibn Sino¹⁰ (980-1037) sharq tabobat ilmining sultoni, vrach, jamiyatshunos olim 980 yilda Buxoro viloyatining Afshona qishlog'ida tavallud topdi. Ibn Sino o'z hayot yo'li davomida tibbiyot, falsafa, psixologiya, matematika kabi fanlarning rivojlanishiga katta hissa qo'shdi.

Alloma olamning mavjudligi va insoniyatning yashash tarzini shuningdek, barcha organizmlarning kelib chiqishini o'zaro munosabalar, yani biridan ikkinchisiga o'tishini keng qamrovli o'rgandi. Undan bizgacha 280 dan ziyod asarlar meros bo'lib qolgan. Ulardan 50 tasi tibbiyotga, tabiat va gumanitar fanlarga oid 40 ta,

¹⁰ Hergenbahn B.R. Tracy B. Henley An Introduction to the History of Psychology. – 2014 Wadsworth, Why Study the History of Psychology. 79-80-p.

musiqaga oid 3 ta risola, falsafa, mantiq, psixologiya, ahloq-odob va ijtimoiy-siyosiy muammolarga oid 185 ta asarlari qayd etiladi.

Ibn Sinoning fikricha, olam yaxlit murakkabliklar bilan bog'liqdir. Bu bog'liqliklarni har tomonlama tekshirish uchun uni zaruriyat, imkoniyat, voqe'lik va sababiyat tamoyillariga asoslanib o'rganish maqsadga muvofiq sanaladi. Materiya eng sodda bo'laklarga bo'linmaydigan to'rtta shakl, ya'ni havo, o't, suv, tuproqdan iboratdir. Ularning o'zaro birikuv natijasida murakkab moddiy narsalar tashkil topadi deb ta'kidlaydi. Bu moddiy narsalarning asosi bo'lgan havo, o't, suv, tuproq o'zgarmaydi ham, yo'qolmaydi ham. Materiya – harakat, vaqt, fazo bilan uzviy bog'liqdir.

Ibn Sino Aristotelning jon haqidagi ta'limotini tabiatshunoslik va tibbiyotdagi o'sha davrning yutuqlariga asoslanib yangi asosda qayta o'rgandi. Bu holat insondagi bilish jarayonlarining falsafiy emas balki ilk psixologik tavsifini ochib berdi. Ibn Sinoning ishlarida "jon" tushunchasi organizmning sezish, eshitish, ko'rish qobiliyati deb tahlil qilingan.

U jon haqida ajoyib ta'limot yaratdi. Bu haqdagi fikrlar uning "Tib qonunlari" asarida o'z aksini topgan. Asarda asab tizimi va uning xossalari, tana harakati, tashqi sezgilarni ta'minlab turuvchi miya funksiyalarini chuqur o'rganib, ularning barchasi miya qonuniyatiga bo'ysunishini aytib o'tdi. Shuningdek, psixologik hodisalar, holatlar fiziologik jarayonlar bilan o'zaro bog'liqligini birinchilardan bo'lib ilmiy asosda tushintirdi. Asab tizimi, bosh miya bu-psixikaning yuz berishi asosi deb ko'rsatdi. Tana va muhit, a'zo va uning funksiyasi har doim o'zaro bog'liqlikda yoki bir butunlikdadir, jon miyaning funksiyasi deb takidladi.

Ibn Sino tibbiyot haqidagi qarashlarini rivojlantirib ruhiy kasalliklar miyaning ishining o'zgarishi bilan bog'liqdir deb ta'kidlaydi. Alloma barcha psixik jarayonlarning markazlari miyada degan fikrni ilgari suradi. Uning fikricha, sezgi markazi miyaning old qismida, xotira markazi miyaning orqa qismida, xayolning markazi miyaning old qismida, o'ylash, fikrlash bilan bog'liq markazlar o'rta qismida, ixtiyoriy harakatlanish qobiliyati miyaning orqa qismida joylashgan"

Ibn Sinoning psixik jarayonlar va dunyoni bilish haqidagi fikrlari psixologiya fanida muhim ahamiyatga ega. U insondagi bilishni sezgilar yordamida hissiy bilish va tushunchalar yordamida, fikrlash orqali bilishdan tashkil topadi deb yozadi. Sezish bu shunday quvvatki

u tashqi narsalarning o'zi bo'lmay, balki bizning hislarimizda vujudga keladi. Sezgida narsa va hodisalarning ayrim tashqi belgilari, konkret tomonlari bilinsa, aql ularning mohiyatlarini, ichki tomonlarini mavhumlashtirish yordamida bila oladi deb ko'rsatadi.

Ibn Sino ham bilishning ikki bosqichi ya'ni sezgilar va tafakkur jarayoniga alohida e'tibor beradi.

Abu Ali Ibn Sino Sharq tabobatida keng qo'llaniladigan "mijoz" tushunchasiga alohida e'tibor berdi. Uningcha "mijoz" insonning xususiyati uning sifati, tana va ruhga tashqi muhit faktorlarining ta'sirini idrok qilishdir.

Mutafakkir fikricha, "U unsurlarning nihoyat darajada mayda bo'laklaridagi qarama-qarshi kayfiyatlarning bir-biriga ta'siri ma'lum bir chegaraga etganda paydo bo'lgan kayfiyatni mijoz deyiladi" - deb ko'rsatadi. (Tib qonunlari "A.Qodiriy nomidagi merosi nashriyoti", 1993 y. 15 bet).

"Mijoz" organizmning ruhiy va jismoniy barqarorligini ko'rsatgan jismoniy va psixik idrok va turli ta'sirlarga javob bo'lib bu so'z qadimgi grek tabibi Gippokrat tomonidan ishlatilgan. Keyinchalik, u organizmda bo'ladigan to'rt suyuqlik qon, safro, balg'am, qora o't haqida ta'limotni ishlab chiqdi.

Ibn Sino tibbiyot muammolarini hal qilishda u Gippokrat ta'limotiga suyanadi. "Tib qonunlari" asarida bir necha bor tibbiyot fanini otasi Gippokrat fikrlaridan foydalanadi. Ibn Sino organizm tashqi ta'sirlarni idrok qilish va uni organizmni javob reaksiyasini berishda mijozni turlicha ya'ni issiq, sovuq, quruq, nam, kuchli va kuchsiz paydo bo'lishini aniqladi. Ular odamda mijoz shaklida tabiiy ravishda bo'lishini va bular orqali odam ovqatlarni, havo haroratini, yoqimli va yoqimsiz narsalarni bir-biridan farq qiladi deb ta'kidladi. "Issiqlik" va "sovuqlik" tushunchasi farq qiladi va issiq mijozli, sovuq mijozli kishilar farqlanadi deb ko'rsatadi.

"Issiqlik" va "sovuqlik" tushunchasini Ibn Sino inson tanasiga xos deydi. Ular ikki bir-biriga qarama-qarshi funksiyalarni (faollik va sezish, jabr qilish), tabiatdagi o'zgarishlar, shunga o'xshash qarama-qarshi hodisalarni (yil fasllarining o'zgarishi, issiq, sovuq, muzlash va erish, uyqu va uyg'oqlik, yoshlik va qarilik, hayot va o'lim) aniqladi.

Ikki bir-biriga qarama-qarshi tushuncha, quruq va namlik tana va a'zolarining funksional holatini, sog'ligi va kasalligini aks ettiradi deydi.

“Quruq” - odam organizmdagi suyaklar bo‘lsa, “namlik” - bu qon, yog‘ deb ta’kidlaydi. Ibn Sino hatto “turli xalqlarning, turli chehralar”ning, “har bir a’zo”- ning mijozini aniqlashga harakat qildi.

Qadimgi grek ta’limotiga binoan mijozning fizik (fiziologik) asosi haqidagi to‘rt modda ya’ni olov, havo (“engil” elementlar), suv, er (“og‘ir” elementlar) va uning xususiyatlarini tahlil qilib, olov-issiq va engil, havo - issiq va nam, suv-sovuq va nam, er - quruq va sovuqligini va bular asosida mijozni issiq, o‘rtacha va sovuq bo‘lishini aniqladi.

Ibn Sino “mijoz” haqidagi ta’limotni ishlab chiqish jarayonida meditsinada buyuk grek olimi Gippokrat tomonidan ko‘p ishlatiladigan temperament so‘ziga e’tibor qaratdi va u o‘z faoliyatida temperamentni shakllanishida o‘rab olgan muhit va organizmning individual xususiyatlarini hisobga olish kerakligiga e’tibor berdi. Gippokrat kasalni ya’ni kasal joyni emas, kasallanuvchi kishining organizmini, individual xususiyatlarini va unga ta’sir etuvchi atrof-muhitni o‘rganishga qaratish lozimligi haqidagi fikriga asoslanib ish ko‘rdi. U tashqi muhit ta’siri natijasida shakllanadigan moddiy va ruhiy hodisalarni aniqlash muhimligini ta’kidladi va u kishilarni 4 asosiy tipga ajratdi. Bunda Gippokrat organizmdagi qon, safro, balg‘am va qora o‘tning rolini alohida qayd qildi va ularga asoslanib odamlarni sangvinik, holerik, flegmatik, melanholik temperament tipiga ajratadi ya’ni: organizmda qon ko‘p bo‘lganlar sangvinik, holeriklarda safro, flagmatiklarda balg‘am, melanholiklarda qora o‘t ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan “mijoz” bu temperament yoki fe‘l, xulq emas deb ta’kidlaydi.

Gippokrat temperament – inson psixikasining kompleks dinamik xarakteristikasi, shaxsning individual psixologik xususiyatlari integratsiyasidir- deydi. U o‘zida emotsionallik va faollik kabi 2 asosiy komponentlarni birlashtiradi. Emotsionallik va insonning hissiyotini kuchi, barqarorligi va kayfiyatini (xursandlik, g‘azab, qo‘rquv, tushkunlik), faollik esa tashqi muhitga, odamlarga munosabatlaridagi tempi, ritmi, tezligi bilan belgilanadi deb to‘g‘ri ta’rif bergan bo‘lsa, Ibn Sino mijoz odam organizmining xususiyatini ifodalanishi, u tashqi muhit faktorlarini sifati, jismoniy va ruhiy idrok qilinishidir degan fikrni ilgari surdi. Mijoz organizm mohiyatini o‘zida chuqurroq va to‘laroq aks ettirishidagi jismoniy va ruhiy

tabiatning o'zaro munosabatlari shartidir. U turli-tuman ta'mlarni farqlash malakasi va sifati bilan xarakterlanadi degan g'oyani ilgari suradi.

Ibn Sino mijozga dalolat beradigan belgilarni ko'rsatib berishga harakat qildi. U bu belgilar: ushlab, ko'rib sezish, go'sht va yog'dan olinadigan (qizil go'sht ko'p bo'lsa mijozning issiqligi va xo'lligidan dalolat beradi) belgilar, mo'yning rangi, a'zolarining tuzulishi (issiq mijoz alomati keng ko'krak, qo'l-oyoqlarining kaltaligi), uyquning ko'pligi (xo'llik, sovuqlik; ortiqcha uyg'oqlik – quruqlik, issiqlik), harakatlar (harakatning tezligi mijozning issiqligi, sustligi, sovuqligi), nafsoniy quvvat (kuchli g'azab, serzardalik, zukkolik, tushunuvchanlik, yaxshi fikr yuritish, surbetlik, qattiq ko'ngillilik, dadillik, xursandlik, mardonavorlik, yalqovlika kam moyillik, ta'sirchanlik – issiqlikdan dalolat beradi, ularning aksi - mijozning sovuqligini ko'rsatadi) mijozning qandayligidan dalolat bershini ko'rsatib berdi.

Keyinchalik XX asr boshlarida rus fiziologi I.P.Pavlov markaziy nerv sistemasi ustida tajribalar olib borib, u asab tizimining o'ziga xos xususiyatlarini ya'ni uning ildamligi, muvozanati va barqarorligini, faolligi, plastikligi, yarim sharlar orasida o'zaro munosabatlarni aniqlaydi va bu xususiyatlarga asoslanib u oliy asab tizimining 4 asosiy tipini ko'rsatib beradi ya'ni: 1) kuchli, muvozanatli, epchil tip, 2) kuchli, muvozanatli, sustkash tip, 3) kuchli, lekin muvozanatsiz jo'shqin tip 4) kuchsiz tip. Asab tizimining bu tiplari Gippokratcha temperament tiplarni to'la va chuqur izohlab berish imkoniyatini beradi. Temperament tiplari va uning xususiyatlari aniqlandi.

Lekin "mijoz" hozirgacha ilmiy jihatdan etarli ishlanmagan. U XXI asrning psixologiya fani oldida turgan asosiy nazariy vazifalaridan biridir. Bu vazifani hal qilish Ibn Sinoning ilmiy qarashlarini rivojlantirish demakdir. Eng muhimi, temperament inson tabiatining xususiyati insonning tashqi dunyo taassurotlarini singdirish xususiyati, shaxsning emotsional qo'zg'aluvchanligi va umumiy harakatchanligi bilan sifatlanadigan individual xususiyat sifatida uni o'zaro munosabatlarni, uning biologik mohiyatini va klassifikatsiyasini aniqlash; 2-dan "issiq" va "sovuq" mijoz haqidagi Ibn Sino qarashlarini ilmiy jihatdan asoslab berishdan iboratdir.



Sharq allomalaridan yana biri **Abu Rayhon Beruniy** (973-1048) ham, buyuk qomusiy alloma va mashhur mutafakkur bo'lgan. U o'zining falsafiy fikrlarida Forobiy va Ibn Sino kabi insonning ruhiy jarayonlar haqidagi qarashlarga e'tibor berdi. U ham ular kabi to'rtta narsani – suvni, olovni, havoni, yerni moddiy olamning asosi deb ko'rsatadi. Ba'zi ma'lumotlarga qaraganda Beruniyning 146 tadan iborat deyilgan. Shulardan 110 tasi tabiatshunoslikka, 34 tasi gumanitar fanlar va badiiy adabiyotga, qalغانlari fanning turli sohalariga tegishli ekanligi keltirib o'tilgan. Beruniy o'zining borliq to'g'risidagi ta'biy-ilmiy qarashlarida modda, vaqt, qonunyat, zaruriyat, harakat va rivojlanish va ziddiyat kabi muammolarga e'tiborini qaratdi. Psixologiyaga oid bilish nazariyasida Beruniy kuzatuv, tajriba, aql-farosatning ahamiyaitiga alohida e'tibor berdi. Inson tabiatan hodisalarini bilishga bo'lgan say-harakatida ikki narsadan ilxomlanadi. Bulardan biri Olloh tamonidan berilgan ta'biy qiziqish, barcha narsalarning mazmun-mohiyatiga etib borishga bo'lgan intilish. Shu nuqtai nazardan qaraganda, bilishga intilish har qanday dunyoviy lazzatlardan yuqori turadi. Ikkinchisi esa, bilish tufayli qo'lga kiritilgan yutuqlardan manfaatdorlikdir deb aytib o'tgan. Beruniyning asosiy asarlari "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", "Hindiston", "Saydana kitobi", "Mas'ud qonuni", "Mineralogiya" kabi asrlar to'plami bizgacha to'laligicha etib kelgan. Beruniyning psixologiya sohasiga qo'shgan hissasi inson tafakkuri, sezgilarini uslubologik tajriba va kuzatishlar orqali tadqiq qilinishini aytib o'tgan.

Mavzu yuzasidan tayanch tushinchalar:

Makon, Baytul-hikma, Jolinusi, Avzou – layota, Jazza, Substansiya, Fozil shahar, Sezgi, Tana, Aql, Tabobat, Mijoz, Hissiyot, Etnos, Sahroilar.

Nazorat savollari:

1. Al-Kindiy ta'limotida makon va zamon tushinchlari?
2. Ar-Roziy asarlarida inson xulqi va uning tarbiyasi masalasi?
3. Ibn Rushid qarashlarida shaxs tarbiyasi va uning kamoloti tavsifi?
4. Abu Nasr Forobiyning sotsial-psixologik qarashlari?
5. Fozil shahar kishilarining psiholoik tavsifi?
6. Abu Ali Ibn Sino qarashlarida inson tabiati tavsifi?

7. Mijoz tushunchasining hozirgi zamon psixologiyasidagi talqini?
8. Abu Rayhon Beruniyning asarlarida etnopsixologiya muammosi?
9. Tasavvuf psixologiyasi va uning mazmun mohiyati?
10. Imom G'azzoliy qarashlarida dunyoning yaralishi masalasi?

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T., Ma'naviyat, 2008.
2. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: O'zbekiston, 2011.
3. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T.: O'zbekiston, 1997.
4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston-NMIU, 2017.
5. Mirziyoyev Sh.M. Erikn va farovon, demoktarik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majilisdagi nutq. – T.: O'zbekiston-NMIU, 2017.
6. Hergenhahn B.R., Tracy B. Henley “An Introduction to the History of Psychology”. – 2014 Wadsworth, Cengage Lyerning.
7. Ярашевский М.Г. История психологии. – М., 1997.
8. Ждан Н.Ж. История психологии. – М., 1995.
9. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. – T., 2010.
10. G'oziyev E.G'. Psixologiya metodologiya. – T., 2013.

II QISM. PSIXOLOGIYA FANIDA ONG MUAMMOSI. EKSPRIMENTAL. PSIXOLOGIYA

I BOB. ONG PSIXIKANING MAHSULU SIFATIDA

Dunyoda hayotni vujudga kelishi bundan bir necha ming yil ilgari tabiat ta'siri orqali amalga oshgan. Quruqlikdagi, suvdagi, havodagi hayot shakllarining barchasi tabiat qonuniga bo'ysunadi. Bular inson ongining vujudga kelishidan ancha oldin bo'lgan. Tirik mavjudotlar dunyosida har bir yangi organizm xususiyatlari oldindan genetik kodlashtirilgan bo'ladi. Ulardagi o'sib ulg'ayish ham ma'lum bir rejalar asosida amalga oshadi va u tashqi muhit ta'sirida rivojlanadi. Agar 300 million yil oldin hayvonlar suvda yashagan bo'lsa, bu degani ular o'zi xohlab suvda yashashmagan. Ular evolyusiyasi va ekologik faktorlar qonuniyatiga bo'ysunishgan. Bundan 180 million yil oldin erda dinozavrlar hukmronlik qila boshlaydi. Bunga sabab qulay iqlim, o'simlik dunyosining boyligi va boshqa omillar sabab bo'lgan. Gigant kaltakesaklarning qirilishiga sabab, ular iqlim o'zgarishlariga ko'nikolmasligi sabab bo'lgan. Vaqt o'tib er yuzida inson paydo bo'ldi. Bu degani erda yana bitta biologik turi ko'payganligi hisoblanadi. Inson ham boshqa hayvonlar singari o'pka, quloq, miyaga ega edi. Lekin u ham tabiat ofatlaridan aziyat chekar edi.

Inson dastlab olov yoqishni hatto, tanasini tik tutib boshqarishni bilmasdi. Inson ongi evolyusiyasining asosiy etapi bu hayvonlar ustidan hukmronlik va tabiat hukmronligidan ozod bo'lishi edi. Nimaga inson hech kimga kerak bo'lmaydigan qiynchiliklarni boshidan o'tkazish kerak? Nimaga u yomg'irda ho'l bo'lishi, quyosh yo'q paytida sovqotishi va boshqa yirtqich hayvonlarga tayyor o'lja bo'lishi kerak? Yoki yirtqich hayvonlarga tayyor oziq bo'lishi bu tabiiylikmi yoki uni o'zgartirish kerakmi. U har doim bir xil hayot kechirishi ya'ni ozuqa qidirishi, o'zini himoya qilishi, uxlashi bu hayot kechirish uchun etarli emas. Inson qushlarga o'xshab ucha olmaydi, boshqa gigant hayvonlardan tashqari u gavda jihatdan kichik va bu unga yashab qolishi uchun xavf tug'diradi. U nima qilsa hukmron bo'ladi, qaysiki tabiat va yirtqichlar ustidan. Shunday qilib insonda birinchi ong kurtaklari shakllandi va tabiatga qarshi kurashish boshlandi.

Evolyusiyasi rivojlanib endi inson o'z tanasini boshqarishni, jarohatlarni tuzatishni, sinishlarni davolashni o'rgandi. Individual

malaka va tajribalar yo'qolmasdan avloddan- avlodga o'tib bordi. Nutq hamda yozuvni vujudga kelishi orqali ularda madaniyat paydo bo'la bordi. Insoniyat birgalikda ishlashni, bilim va tajribalarni almashtirib o'z hayotlarini engillashtirishga harakat qilishardi. Insonning qiziquvchanligi rosa ko'p savollar berilishiga olib keldi. Endi inson tabiat hukmronligidan qutulish uchun g'orlarda yashirilib o'tirolmasdan xavfni ko'ziga tik qarash kerakligini tushunib etdi. Shu tariqa tabiat ustidan hukmronlik boshlandi va bu insoniyat g'alabasi bilan yakunlandi. O'z mustaqilligiga erishgach insonlar faqat yashab qolishi uchun emas, balki o'z ongi va energiyalarini boshqa kerakli narsalarga sarflashni ham angalab etdi. Insoniyat hukmronligi simvollari bora-bora dunyoni to'ldirdi Keyinchalik makonlar va yo'llar, okeanlarni birlashtirilishi, atom energiyasiga ega bo'lishi uning ongi to'la rivojlanganligi ifodasi bo'ldi. Inson tushunib etdiki, uning taqdiri faqat tabiatgagina emas, o'ziga ham bog'liqligini. Zamonaviy inson imoratlar, mashinalar, inson qo'li bilan yaratgan narsalar ichida yashaydi. Kasalliklarni davolaydi, ya'ni oldin tuzatib bo'lmaydigan kasalliklarni davolashni o'rgandi.

Agar biz evolyusiyani inson ongi va tabiat kurashi deb olsak, bevosita dahshatga tushamiz, ko'z oldimizga voqealar rivojlanish faktorlari ahamiyati namoyon bo'ladi. Tan olishimiz kerakki biz mamnunmiz, hayotdan va g'alabamizdan. Inson mavjudligini o'zi tabiatni bo'ysundirishi bilan birgalikda - o'sha tabiat rivojlanishi natijasi bilan birgalikdadir. Inson faqat o'zini yaratmagan bu uning mehnati ham emas. Tabiat fantaziyasi o'ziga xosdir, u juda sekinlik bilan amalga oshadi. Masalan erda qanotli hayvonlarning paydo bo'lishi million yillar oldin kechgan. Samolyot yaratilganligiga va inson ongi vujudga kelganiga hali ko'p vaqt bo'lgani yo'q. Inson ongi juda tezlik bilan rivojlanib borayapti. Qushlar uchadi inson esa fikrlaydi. Inson psixikasi bilan yuksak tashkil topgan hayvon psixikasi orasida katta farqqa ega bo'lgan ijtimoiy voqelik hukm suradi. Hayvon o'z to'dasidagi a'zolariga yaqqol holat bilan bog'liq bo'lgan, bevosita favquloddagi vaziyat bilan cheklangan hodisalar yuzasidan "o'zining tili"da xabar uzatishi odatiy hodisa. Odam undan farqli o'laroq nutq vositasida o'z qabiladoshlariga o'tmish (xotiro), hozirgi davr va kelajak to'g'risida ma'lumot (axborot) berish hamda ijtimoiy turmush tajribalarini uzatish imkoniyatiga ega. Insoniyatning ijtimoiy - tarixiy taraqqiyotida til tufayli aks ettirish (in'ikos qilish) imkoniyatlari qayta qurildi, oqibat natijada odam miyasida atrof-muhit

timsollari, xususiyatlari aniqroq aks eta boshladi. Buning natijasida yakka hol shaxs kishilik dunyosi tomonidan orttirilgan tajribadan bahramand bo'la bordi, shuningdek, uning uchun noma'lum hisoblangan borliq hodisalari, holatlari, qonuniyatlari to'g'risidagi bilimlarga egalik qila boshladi. His-tuyg'ular, ichki kechinmalar, taassurotlar, hayajonga soluvchi nafasat timsollar yuzasidan zavqlanishi, maroq olish imkoniyatlari vujudga keldi, ularning mazmuni, ma'nosi, mohiyati bo'yicha o'ziga o'zi hisobat berish, ijobiy yoki salbiy ta'sir etishini baholash muammolarini keltirib chiqardi.

Hayvonot olami bilan insoniyatning xabar uzatish vositasi orasidagi farqi tafakkurda ham o'z aksini topadi. Chunki har qanday psixik funktsiya boshqa turdagi, shakldagi, mazmundagi funksiyalar qobig'ida namoyon bo'ladi va muayyan shart-sharoitlar vujudga kelganida rivojlanadi. Yuksak taraqqiy etgan hayvonlarda amaliy (sodda) tafakkur mavjud bo'lib, chamalash orqali mo'ljal olishga, favquloddagi vaziyat yuzaga keltirgan vazifani bajarishga yo'naltirilgandir. Hayvonlar, aniqrog'i maymunlar ayrim hollarda "qurol" yasash va undan muayyan masala hal etishda foydalanish hodisalari tajribalarda kuzatilgan, lekin ulardan birontasi tafakkurni mavhum tarzda amaliyotga tatbiq eta bilmagan. Holbuki shunday ekan, hayvonlar idrok qilish qo'lamidan tashqariga chiqish imkoniyatiga ega emas, binobarin, u yaqqollikdan mavhumlikka o'ta olmaydi, hatto bunday vaziyatni aks ettirish imkoni ham yo'q. Hayvon yaqqollik, bevosita idrok qilishlikni quli bo'lsa, aksincha inson mavhum fikrlashning gultojisidir. Inson bilan hayvon o'rtasidagi bu boradagi tafovut quyidagilarda mujassamlashadi: a) shaxsning xulq-atvori, faoliyati yaqqollikdan mavhum holatga o'tish imkoniyatiga ega; b) favquloddagi vaziyat munosabati tufayli vujudga kelishi ehtimol oqibatni oldindan payqash layoqati mavjud; v) qiyinchiliklar uchrasa, ularni engish uchun qo'shimcha vositalar qo'llash, o'zgartirishlar kiritish bilan ajralib turadi. Shuning uchun avtomobil ishdan chiqsa, inson uni sozlaydi, yomg'ir yog'sa, narsalarni panaga oladi, ayb ish qilib qo'ysa, himoyalani yo'l-yo'riqlarini o'ylaydi, muammo echimini qidiradi va hokazo. Shaxs favquloddagi vaziyatning quliga aylanmaydi, aksincha u kelajakni ko'ra bilishga qodir, aql-farosat esa bashorat qilish imkoniyatini yaratadi. Faoliyat mahsulini oldidan payqash, fe'l-atvor oqibatini ilgari lab ketib sezish o'quviga egaligi bilan inson ustuvorlik qiladi. Hayvonlarning amaliy

tafakkuri ularni yaqqol vaziyatdan bevosita ta'sirotda bo'ysunishni taqozo etadi. Shaxsni mavhum fikrlashga nisbatan qobiliyati muayyan vaziyatga bevosita bog'liqlikdan uni halos etadi. Inson bevosita muhim ta'siriga javob berish bilan qanoatlanib qolmasdan, balki uni kutayotgan ta'sirini ham bartaraf etish qurbiga egadir. Inson psixikasi bilan hayvon psixikasi o'rtasidagi birinchi farq shaxsning o'zi anglagan qadriyatga binoan ongli xatti-harakat qilish qobiliyati mavjudligidir.

Shaxsning hayvondan ikkinchi farqi uning mehnat quollarini yaratish va saqlashga layoqatli ekanligi bo'lib, oldindan tuzilgan reja bo'yicha ularni yasaydi va ulardan muayyan maqsadni amalga oshirishda foydalanadi hamda keyichalik qo'llash niyatida asrab olib qo'yadi. Ulardan odamlar hamkorlikda foydalanadi, hamkorlik faoliyatida esa quollar yaratiladi, o'zaro tajriba almashadi, bilimlarni boshqalarga uzatishadi, umumiy saviyaga vorislik tufayli yuksaladi.

Inson psixikasining hayvondan yana bir farqli tomoni shundaki, uning ijtimoiy tajribaning boshqalarga uzluksiz ravishda uzatishida aks etadi. Tajribalarni instinktiv xatti-harakatlar tarzida o'zlashtirish hodisasi ham insonga, ham hayvonga xos odatdir, lekin shaxsiy tajribadan ko'ra ijtimoiy tajribaning ustuvorligi odamning ongli mavjudodga aylanishining asosiy manbai hisoblanadi. Shaxsning ijtimoiy munosabat, ijtimoiy tajriba shakllantiradi, moddiy va ma'naviy quollarni egallash natijasida unda yuksak insoniy funksiyalar (ixtiyoriy xotira, ixtiyoriy diqqat, mavhum tafakkur) vujudga keladi va rivojlana boradi. Sub'ekt tomonidan kishilik dunyosida yaratilgan madaniy merosni o'zlashtirilishi, ayrim o'zgartirishlar kiritilishi uning kamolotiga sifat jihatidan yuksak bosqichni yuzaga keltiradi. Yuksak funksiyalar, nutqiy faoliyatning takomillashuvi, mehnatning hayotiy ehtiyojga aylanishi, ertangi hayot to'g'risida mulohazalar tug'ilishi ongning rivojlanishi uchun muhim imkoniyatlar yaratadi. Shu bois inson bilan hayvon o'rtasidagi tafovut tajribaning vorislik funksiyasi kasb etishi bilan yakunlanadi. Jismoniy va aqliy faoliyat kundalik zaruratga aylanishi sababli ong bevosita nazorat funksiyasini bajara boshlaydi, shuningdek, jamiyat, jamoa, tabiat to'g'risidagi tasavvurlarini tushunishi, anglash ham uning tasarrufiga aylanadi.

Borliq voqeiklarini bir tekis in'ikos ettirish vositasi sifatida insonda his-tuyg'ular rivojlana boshlaydi. Inson bilan hayvonot olami orasidagi yana tafovut his-tuyg'ular orqali namoyon bo'ladi. Lekin

atrof-muhitdagi o'zgarishlarga nisbatan befarqlik har ikkala toifadagi mavjudodlarda hukm surmaydi, biroq tashqi ta'sirlar ijobiy yoki salbiy hissiy qo'zg'atishni vujudga keltiradi. Emotsional holatlar hayvonlarda ustuvor rol o'ynaydi, o'zlarining ularga munosabatlarini bildiradi. Biroq hayvonlardan farqli o'laroq odam o'zining yuksak his-tuyg'ulari (axloqiy, aqliy, nafosat, praksik-lazzatlanish) bilan jamiyatga va tabiatga nisbatan munosabatini bildiradi, jumladan, quvonch, g'am-g'ussa, mehr-muhabbat, achinish, hamdardlik, zavqlanish, faxrlanish, iftixor va boshqalar. Tabiat manzaralari, mehnat mahsuli, turmush lahzalari, ezgulik, armon insonni faolikka undaydi, har bir soniyadan maqsadga muvofiq foydalanish xohishlari motiv vazifasini bajarishga o'tadi. Yuksak his-tuyg'ular inson xulq-atvorining regulyatoriga aylanadi, Undagi vijdon, uyat, mas'ullik esa qadriyat tariqasida xizmat qiladi. His-tuyg'ularni boshqarish, nazorat qilish onglikni taqozo etadi, ko'zlangan maqsadni amalga oshirishning ta'minlashga yordam beradi.

Agarda psixikaning taraqqiyoti biologik evolyusion qonunlar ta'siri bilan ro'y bergan bo'lsa, inson ongining rivojlanishi ijtimoiy tarixiy taraqqiyot qonunlari tufayli amalga oshgan. Hayvon bilan odam psixikasidagi yana bir tafovut ularning rivojlanish shart-sharoitlarida ko'rinadi va muhit, munosabat, ta'sir orqali aks etadi. Shaxslararo munosabatga kirishmasdan turib, yuksak his-tuyg'ular shakllanmaydi, yuksak psixik funksiyalar rivojlanmaydi, inson shaxsi kamol topmaydi. Odam faqat ijtimoiy muhitda, shaxslararo munosabatda insoniy fazilatlarni egallab, til, aql, ong yordamida kamol topadi, xolos. Shunga qaramasdan, ong paydo bo'lishining biologik shart-sharoitlari mavjudligi to'g'risida mulohaza yuritish mumkin. Chunki dastlabki ijtimoiy munosabatlarning biologik shart-sharoiti ibtidoiy jamiyatdagi to'dadan iborat edi. Shaxsning biologik shartlangan jihatlaridan tashqari, uning ijtimoiy omillari ham mavjud bo'lib, u muayyan ma'noda ijtimoiy munosabatlar mahsulidir. Bunga ijtimoiy muhitdan tashqarida (o'rmonda) shakllangan inson farzandlarining qiyofasi yaqqol misoldir.

Muhitdagi keskin halokatli o'zgarishlar tufayli inson o'zining moddiy ehtiyojini qondirish maqsadida mehnat faoliyatini kashf etdi va u ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishiga, turmush shart-sharoiti yaxshilanishiga, ongning takomillashuviga, fikr almashish, axborot uzatish imkoniyatining tug'ilishiga olib keldi. Tartibsiz to'dalardan kishilik jamiyati paydo bo'lganga qadar bir qancha davrlar o'tdi,

odamning qo'li mo''jizakor ish qurollarini yasaydigan, ularni takomillashtiradigan, keyinchalik foydalanishi uchun asraydigan ongli mavjudodga o'sib o'tdi. Mehnat faoliyatida odamning ongi aks ettirishning yuksak shaklini egalladi, faoliyatning ob'yektiv xususiyatlarini farqlash, ularni maqsadga muvofiqlashtirish tufayli atrof muhitni o'zgartirish, unga ta'sir o'tkazish qudrati, qobiliyati, layoqati vujudga kela boshladi. U faqat qurollardan muvaqqat foydalanishdan voz kechib, avlodlarga qoldirish, asrashni ong ta'sirida ro'yobga chiqara bordi, buning natijasida insonning har xil shakldagi faoliyati ongli faoliyatga aylandi, o'zaro munosabatlar mazmuni, ko'lami kengaya boshladi, shaxsiy mehnat ulushi jamoa ehtiyojini qondirishning asosiy manbaiga aylandi. Tabiatga ta'sir o'tkazish, uni o'zgartirish to'g'risidagi maqsad o'z funksiyasini o'zgartirdi, qo'l esa yangidan yangi mo''jizalar ijodkoridan asta-sekin aks ettirish quroliga, sezish, payqash, paypaslash, his etish organi vazifasini bajarishga o'sib o'tdi.

Kishilik jamiyatida mehnat faoliyatining takomillashuvi, shaxslararo munosabatning yangi shakllarining paydo bo'lishi, til va nutqni vujudga keltiradi, ularning barchasini maqsadga muvofiq amalga oshirishni ta'minlovchi ong jadal sur'atlar bilan rivojlandi. Ong faqat faoliyat, xulq-atvor, muomala, his-tuyg'ular regulyatori emas, balki yakkahol shaxsning ijtimoiy psixologik xususiyatlarini to'g'ri amalga oshirishni asosiy manbai rolini bajara boshladi.

Shunday qilib, insonning ongi ijtimoiy tarixiy taraqqiyot mahsuli bo'lish bilan birga, u mehnat faoliyatida, ijtimoiy tajribani o'zlashtirishda, hamkorlikdagi o'zaro ta'sirda, tabiatga, jamiyatga nisbatan munosabatlar mohiyatida vujudga kelgan. Buning mahsulasi, shakli sifatida individual, guruhiy, etnik (milliy), ijtimoiy ong namoyon bo'lgan va ularning barchasi taraqqiyot tufayli o'zining yangi bosqichlariga o'sib o'tgan hamda keyinchalik fan, texnika yaralishiga puxta zamin hozirlagan.

1.1. Ong mohiyati

Psixikaning yuqori bosqichi faqat insongagina xos bo'lgan, uning eng yuksak darajasi hisoblanmish ongda o'z aksini topadi. Ong psixikani yaxlit tarzda ifodalovchi yuksak shakli hisoblanib, insonning yakka va hamkorlik faoliyatining (muloqot nutq, til vositasida, ijtimoiy tarixiy taraqqiyotning mahsuli sifatida yuzaga kelgandir. U ijtimoiy mahsul bo'lishidan tashqari, unga muayyan munosabat

bildirish maqsadni ko'zlash, o'zlikni anglash kabilarni namoyon etish imkoniyatiga egadir. Quydagi mulohazalarimizda ongning tarkibiy qismlarining mohiyatini yorituvchi va ularning hukm surishiga ta'sir etuvchi omillarga doir ayrim manbalar xususiyatini tavsiflashga harakat qilamiz. Odatda inson ongi uni qurshab turgan tevarak - atrof haqidagi bilimlar majmuasidan iborat bo'lib, uning tuzilishi tarkibiga shunday bilish jarayonlari kiradiki, qaysiki ularning bevosita yordami bilan shaxs o'z axborotlari ko'lamini uzliksiz ravishda boyitib boradi. Insondagi bilimlar sezgi, idrok, xotira, tafakkur, xayol singari bilish jarayonlari bilish asta - sekin ular anglashinish darajasiga ko'tariladi, keyinchalik esa muayyan turkumlarning tarkibiga kiradi. Harakatli hissiy tub ma'nodagi hissiy bilish bosqichlariga taalluqli sezgi, idrok, appersepsiya, sepsiya, tanish bilib olish va tasavvur kabi bilish jarayonlari ko'magi asosida miyaga bevosita ta'sir o'tkazuvchilarning aks ettirishi natijasida inson ongida borliqning mazkur daqiqasida shaxsning tasavvurida ularning hissiy manzarasi yuzaga keladi. Xotira jarayoni ongda o'tmishdagi narsa va odialarining obrazlarini esga tushirsa u yoki bu bosh miya katta yarim sharlarining bo'limlarida aks etgan muayyan izlarni jonlantirish imkoniyatiga ega bo'lsa, xayol jarayoni esa ehtiyoj obekti hisoblangan favquloddagi davr hukmiga kirmagan obrazlar modelini namoyon etadi. Bilishning yuksak darajasi bo'lmish tafakkur jarayoni umumlashgan, ijtimoiy xususiyatli, bilvosita va so'z orqali ifodalanuvchi bilimlarga asoslangan holda gavdalanuvchi muammolar echimini hal etishni ta'minlaydi. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan bilish jarayonlarining unisi yoki bunisi aks ettirish imkoniyatidan mahrum bo'lishi, buzilishi yoki ularning qaysinisidir xususiyati batamom, qisman izdan chiqishi ongni tubdan barbod ettirish sari etaklaydi.

Psixika voqelikning kishi miyasida aksi sifatida har xil darajalar bilan farqlanadi. Psixikaning odamga xos bo'lgan oliy darajasi ongni tashkil etadi. Ong psixikaning, uni, yaxlit bir holga keltiruvchi shakli bo'lib kishining mehnat faoliyatida, boshqalar bilan (til yordamida) doimiy muloqot qilish jarayonida shakllanishini ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlari natijasi hisoblanadi. Shu ma'noda ong, olimlarning ta'kidlashicha, ijtimoiy mahsul bo'lib, anglagan borliqdan bo'lak boshqa narsa emasdir.

Ogning tuzilishi, uning muhim psixologik ta'rifi qanday?

Ogning birinchi ta'rifi nomining o'zidayoq berilgan bo'lib ong deganidir.

Kishining ongi bizning tevarak atrofimizni qurshab turgan olam haqidagi bilimlar majmuasidan tarkib topdi. "Ongning yashash usuli va ong uchun nimaningdir borligi – bilimdir". Shunday qilib, ongning tuzilishiga muhim bilish jarayonlari kiradiki, ular yordamida odam o'z bilimlarini doimo boyitib boradi. Bu jarayonlar qatoriga sezgilar va idrokni, xotirani, xayol va tafakkurni qo'shish mumkin. Sezgilar va idrok yordamida miyaga ta'sir o'tkazuvchi qo'zg'atuvchilarning bevosita aks etishi natijasida ongda borliqning o'sha lahzada kishi tasavvurida hosil bo'lgan hissiy manzarasi gavdalanadi. Xotira ongda o'tmish obrazlarini qaytadan gavdalanitrsa, xayol ehtiyoj ob'yekti bo'lgan, ammo hozirgi paytda yo'q narsaning obrazli modelini hosil qiladi. Tafakkur umumlashgan bilimlardan foydalanish yo'li bilan masalaning hal etilishini ta'minlaydi. Aytib o'tilgan psixik bilish jarayonlaridan istalgan birining batamom barbod bo'lishi u yoqda tursin, buzilishi yo izdan chiqishi ham ongning barbod bo'lishiga olib keladi.

Ongning ikkinchi ta'rifi - unda sub'yekt bilan ob'yekt o'rtasida aniq farqlanishning o'z ifodasini topishi, ya'ni odam "men" degan tushunchaga nima tegishli ekanini aniq biladi.

Tirik organizmlar dunyosi tarixida birinchi bo'lib unda ajralib chiqqan va o'zini atrof muhitiga qarama-qarshi qo'ygan inson o'z ongida ushbu qarama-qarshilik va tafovutni saqlab kelmoqda.

Jonli mavjudotlar ichida uning o'zigina o'zini bilishga, ya'ni psixik faoliyatini o'zini tadqiq etishga yo'naltirishga qodirdir. Odam o'z xatti-harakatlarini va umuman o'zini-o'zi ongli ravishda baholaydi. "Men"ning "men emas"dan ajratishi har bir kishi bolaligida boshdan kechiradigan yo'l bo'lib, uning o'zini-o'zi anglashi jarayonida yuz beradi.

Ongning uchinchi ta'rifi - odamning maqsadni ko'zlovchi faoliyatini ta'minlashdir.

Faoliyatning maqsadlarini yaratish ongning funksiyasiga kiradi. Bunda faoliyat motivlari yuzaga keladi va chamalab chiqiladi, irodaviy qarorlar qabul qilinadi, harakatlarni bajarishning qanday borishi hisobga olinadi, unga tegishli tuzatishlar kiritiladi va hokazo.

Inson tabiat tomonidan berilgan narsaning formasini o'zgartirish bilangina cheklanmaydi, tabiat tomonidan berilgan narsalar bilan birga o'zining ongli maqsadini ham amalga oshiradi, bu maqsad, qonun sifatida, kishining ish usulini va bu ishning xarakterini belgilab beradi va kishi o'z irodasini ana shu maqsadga bo'ysundirishi lozim.

Maqsadni ko'zlovchi faoliyatning amalga oshishida va yunalishida kasallik oqibatida yoki biron-bir boshqa sabablarga ko'ra har qanday buzilishning yuz berishini ongning buzilgani deb qaramoq kerak.

Ongning to'rtinchi ta'rifi - uning tarkibiga muayyan munosabatning kirganligidir. "Insonning muhitiga bo'lgan munosabati uning ongidir"

Kishi ongiga muqarrar ravishda his - tuyg'ular olami kirib keladi. Unda murakkab ob'yektiv eng avvalo odamni o'zi ham jalb etilgan ijtimoiy munosabatlar o'z aksini topadi. Bu o'rinda ham (jalb etilgan ijtimoiy) boshqa ko'pgina hollarda bo'lgani kabi patologiya normal ongning mohiyatini yaxshiroq anglab olishga yordam beradi. Ayrim ruhiy kasalliklarga chalinganda ongning buzilganligi aynan his-tuyg'ular va munosabatlar sohasidagi buzilish bilan belgilanadi: bemor bunga qadar behad sevgan onasini suymaydigan bo'lib qoladi, yaqin kishilari to'g'risida zarda bilan gapiradi va hokazo. Ongning yuqorida ko'rsatib o'tilgan barcha o'ziga xos xususiyatlari, shakllanishi va nomayon bo'lishining muqarrar sharti til hisoblanadi. Nutq faoliyati jarayonida odam bilimlar hosil qiladi, kishi dunyoga kelguncha qadar uning uchun insoniyat yaratib bergan, tilda mustahkamlab, unga etkazgan inson tafakkuri boyliklari bilan o'z hayotini boyitadi.

A.I Gersen shunday deb yozgan edi: "Har bir kishi ildizlari sol bo'lmasa odam ato zamonlariga borib etadigan dahshatli shajaraga tayanadi: soxil bo'yidagi to'lqin kabi orqamizda butun boshli okean - butun bir dunyo tarixining shiddati his etiladi; shu daqiqada bizning miyamizda barcha asrlarning g'oyalari gavdalanadi. Til alohida obektiv sistematik unda ijtimoiy tarixiy tajriba yoki ijtimoiy ong aks etgandir. Konkret odam tomonidan o'zlashtirilgan ekan, til ma'lum bir ma'noda uning real ongi bo'lib qoladi. Til - amaliy, haqiqiy ondir, boshqalar uchun ham mavjud bo'lgan va huddi shu tufayli men uchun ham mavjud bo'lgan ondir." - deb qayd etgan edi. Ong tushunchasi psixologiyada, psixiatriyada va boshqa fanlarda uning yuqorida keltirilgan asosiy ta'riflariga mos keladigan ma'noda ishlatiladi. Psixiatorlarni bemorda ong bor yoki yo'qligi, yo bo'lmasa buzilganligi masalalari doim qiziqtiradi, shu tufayli ular ong deganda bemorning o'z o'ziga qardaligi, vaqt qachonligi, tevarak-atrofdagi vaziyat qandayligi to'g'risida o'z shaxsiy holati ham harakatlari haqida hisob berish imkoniyatlarni tushunadilar. Ong yaxshi saqlanib

qolgan odam miyaga kelayotgan yangi axborotga o'zidagi mavjud bilimlarni hisobga olgan holda baho beradi va o'zini tevarak-atrofdagi muhitdan alohida ajratib, boshqa odamlarga va faoliyat vaziyatga nisbatan tarkib topgan munosabatlar sistemasini saqlab qoladi hamda ana shu barcha ma'lumotlar asosida o'z xatti-harakatini idora qiladi. Ong ijtimoiy mahsul bo'lib, faqat odamlarga xosdir. Hayvonlarda esa ong bo'lmaydi. Psixikaning quyi darajasi ongsizlikdan iboratdir. Ongsizlik - kishini o'zini tuta olmaydigan qilib qo'yadigan ta'surotlar bilan bog'liq psixik jarayonlar harakatlar va holatlar yig'indisidir. Psixik holat sifatidagi ongsizlik voqelikni aks ettirishini shunday bir shakli hisoblanadiki, bunda harakat vaqti va o'rnini mo'ljal qilish yaxlitligi yo'qoladi hatti harakatining nutq yordamida boshqarilishi buziladi. Ongsizlikka quyidagi psixik hodisalarni kiritish mumkin: uyqu paytida yuz beradigan psixik hodisalar (tush ko'rish), sezilmaydigan, lekin haqiqatda ham ta'sir ko'rsatadigan qo'zg'atuvchilarga javob reaksiyalari: oldinlari ong harakat bo'lib lekin takrorlanaverib, avtomatlashib ketgan va shunga ko'ra endilikda anglamaydigan bo'lib qolgan harakatlar faoliyatiga undovchi, ammo maqsad hissidan anglamaydigan ayrim mayllar va hokazo. Ongsizlik hodisalariga bemor kishining psixikasida ro'y beradigan ba'zi bir patologik hodisalarni anglash, ko'ziga yo'q narsalar ko'rinishi va shu kabilarni ham qo'shishi mumkin. Shularga asoslanib ongsizlikni onga qarama-qarshi deb hisoblash, uni hayvonlar psixikasiga tenglashtirish noto'g'ri bo'lar edi. Ongsizlik - bu kishining huddi ong kabi o'ziga xos psixik qiyofasidirki, u kishi miyasida borliqning etarli darajada bir xil bo'lmagan qismlar aksi tarzida inson hayotining ijtimoiy shart-sharoitlari bilan bog'liq holda paydo bo'lgandir.

Ongning yuqorida ta'kidlab o'tilgan barcha funksiyalarini namoyon bo'lishining muqarrar sharti til va nutq hisoblanadi. Shaxs nutq faoliyati yordami bilan bilimlarini o'zgartiradi, ajdodlar tomonidan ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti davomida yuzaga keltirilgan tajribalar majmuasi tilda mustahkamlanadi, u o'zining tafakkuri orqali hayoti va faoliyatini boyitadi. Til alohida ob'yektiv tizim sifatida namoyon bo'lib, unda ijtimoiy tarixiy jarayonlarda vujudga kelgan an'analar, marosimlar, qadriyatlar, g'oyalar majmuasi tariqasida ijtimoiy ongda aks ettirilgandir. Psixologik talqinlarga qaraganda, alohida, yakkahol shaxs tomonidan egallangan til boyliklari, qoidalari ma'lum ma'noda uning yaqqol, individual ongi sifatida yuzaga keladi, shaxsiy hayoti va faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishda muhim

rol o'ynaydi. Til bilan nutq borliqni anglashning aloqa quroli hamda vositasi funksiyasini bajarib, shaxsning boshqa mavjudodlaridan farqlash sharti hisoblanadi va unda til bilan tafakkur birligi ong uchun moddiy negiz vazifasida ishtirok etadi, qaysidir ma'noda mexanizm rolini bajarishi ham mumkin.

Shunday qilib, ontogenezdagi ongning paydo bo'lishi ("Men" davrining boshlanishi), uning taraqqiyoti, tarkibiy qismlari, unda ijtimoiy muhitning, zarur shart-sharoitlarning roli, biologik va ijtimoiy shartlanganlikning ta'siri, tarbiyaning ustuvorligi to'g'risidagi ilmiy tadqiqot ishlari mazkur muammoning psixologik tavsifini ishlab chiqishga muhim negiz yaratadi.

1.2. Tanlash erkinligi yoki tashqi olamni anglash

Ajdodlarimiz his qilgan chegaralanishlarga nisbatan biz cheklanishsiz yashaymiz, ya'ni qiziqishlarni har xilligi va faoliyat turini tanlashda. Zamonaviy hayot to'siqlarni bilmaydi: inson ovozi yorug'lik tezligi darajasida hohlagan joyga bora olishi, televideniya orqali hozirgi vaqtda qaerga nima bo'layotganligi bilish oson bo'lib qoldi. Endi kishidagi ovchilik qobiliyatini yo'qligi ovqat topishga halaqit bermaydi. Endi bizning ixtiyorimizga har xil magazinlar oziq-ovqat va emak etkazib beradi.

Bu shunchaki paydo bo'lmadi, ya'ni biz bilan tabiiy muhit o'rtasidagi kechgan qarshiliklar natijasida sodir bo'ldi. Shu bilan birga ma'lum bir bilimlarni egallashga bizga to'siq qolmadi. Biz xohlagan kasbni qiziqishimizga qarab tanlashimiz va xohlagan dinni qabul qilishimiz mumkin. Ong taraqqiy etib inson endi o'z organizmini fiziologik va ximik tarkiblarini o'rgana boshladi va yangicha yondoshuvni paydo qildi.

Inson faoliyati yo'lidagi chegaralanish endi tabiat tomonidan emas, sivilizatsiya tomonidan belgilanmoqda. Inson o'z atrofini o'zi yaratgan mashinalar va ixtirolar bilan o'rayapti. Tabiatdan halos bo'lish parallel ravishda mashinalarga ehtiyojni kuchayishi bilan kechayapti. Inson erkin fikrga ega bo'lishi uchun bizning xulqimizga ta'sir qilayotgan faktorlarni anglashimiz va bu avtomatlashganda ular o'yab qilingan va individualga aylangan bo'lishi kerak. Rene Dyubon "Qaror qabul qilish shartligi – inson hayotining eng anglangan jihati – bu uning ustunligidir deb ta'kidlaydi.

Anglash – O‘z hayotini anglash, tabiat belgilagan taqdiriga qarshi chiqish –insonni hayvondan ajratuvchi ya’na bir xususiyatdir. Anglash darajasi insonni individual xususiyatlari va shaxsiy sharoitlaridan kelib chiqadi. O‘z harakatlarini anglash bu juda ahamiyatga moyildir, shuning uchun biz bu qobiliyat bilan ekonomik ravishda fodalanamiz. Misol uchun yurish, biz bolalagimizdan qiynchilik bilan o‘rganamiz, o‘rganganimizdan so‘ng u bizning xayolimizga kelmaydi. Yura turib biz boshqa fikrlar bilan ham yuramiz. Bu faoliyatga avtomatlashib ketib, qaysidir jihatdan ular individualdir.

Keyin biz diqqatimizni biror bir masalada fazoda yig‘ishimiz mumkin va mexanizmini o‘zgartirishimiz mumkin. Xohlasak yurishlarimizni chiroylilash tiramiz, misol uchun matroslarga o‘xshab harakat qilamiz, tez –sekin yuramiz va boshqalar. Biz qizil chiroqda to‘xtashimiz uchun qaror qabul qilishimiz shart emas, bu ko‘nikma va shartli refleks bo‘lib qolgan. Avtomatlashgan harakatlarda tanlash bo‘lmaydi. Hozir aytganlarimiz dvigatel aktivligiga o‘xshaydi, shu bilan birga emotsional reaksiyalar va jamiyatdagi xulqqa o‘xshaydi.

Ko‘rib chiqayotgan mexanizmni bilganimiz uchun ham biz uni yaxshi anglaymiz. Misol tajribali shafyor –motordagi kamchilikni uning tovushidan yaxshi anglaydi. Motorni bilganligi uni halokatni ko‘ra olishi va uni oldini olishini ta’minlaydi.

Bizni harakatlarimiz qaysidir ma’noda avtomatlashlashgan reaksiyalardan iborat. Agar bizdagi genetik faktorlar mexanizmini bizning xatti-harakatlarda xususiyatlarini bilganimizda, biz ta’sirlarni boshqara olardik. Natijada avtomatlashish pasayib onglanish kuchayadi. Anglash xatti-harakatlarga individual javobgarlikni oshiradi.

Javobgarlik (ma’suliyat)- Qadimgi odamlar nima bilan shug‘ullanay degan savol bilan boshlarini qotirishmagan. Ovqat qidirish va yashash uchun kurash ularni hamma vaqtlarini egallagan. Hozirda oldimizda har xil faoliyalar turganligi uchun biz anglab turib hozirda qaysi biri bilan shug‘ullanish kerakligini bilamiz.

Anglangan qoida bitta xatti-harakatlarni bajarishni o‘zi qancha javobgarlikni talab qiladi. Bu jarayonlarda avtomatlashgan mexanizmlar emas, yoki atrof muhit ta’siri ishtirok etmaydi. Aqliy fikrlash individumning shaxsiy xususiyatlaridan kelib chiqadi. Qaror qabul qilib inson o‘ziga katta ma’suliyatni yuklaydi. Qanchalik yuqori ongli bo‘lsa, shunchalik katta erkinlik va shunchalik

javobgarlik kuchli bo'ladi. Rivojlangan organizmlarda bir necha kishining qaror qabul qilishi juda ko'p insonlar taqdirini belgilaydi.

Inson hukmronligining kuchayishi - Texnik rivojlanish ko'rinmaydigan bunyodkor va vayronkorlik imkoniyatlarini yaratib berdi. Biz daryolar, tog'larni egallab bo'ldik ular bizning faoliyatimizga to'sqinlik qila olmaydi. Yadroviy qurollarni shunchalik ko'p to'pladikki, butun er yuzini barbod qilib yuborishga etadi.

Biz yaratgan mashinalar bizdagi sezgi organlarimiz sezgisidan ming barobar kuchlidir. Ma'lumotlarni bizdanda tez ko'rib chiqqa oladi. Biz material tomonidan bilibgina qolmasdan, resurslardan foydalanishni o'rgandik. Bizning moddiy va intellektual boyligimiz juda katta, shuning uchun har bir qaror fanni rivojlanishida katta ahamiyatga egadir. Nafaqat fan, iqtisod sivilizatsiya balki insoniyat mavjud bo'lishida ham.

Moddiy madaniyat rivojlanish va ma'naviy rivojlanish o'rtasidagi disgarmoniya - Birlamchi falsafa va tabiatshunoslik fanlari Platon aytishicha "haqiqatga etishish" bo'lgan. Tabiatni o'rganish uslublaridan biri bo'lgan kuzatish - bu ko'rganlarni ratsional tushuntirishda aks etgan. Bu holat texnikani rivojlantirib boshqa uslublarni paydo bo'lishiga olib keldi.

Metodlarni falsafa birlashtira olmaganidan so'ng tabiatshunoslik undan ajralib chiqib ketadi. Bu holatda ong va qalbni o'rganish falsafa tarkibiga kirdi. Keyinchalik psixologiya vujudga kelib ruhiyat va materiya oralig'ini o'rgana boshladi.

Matematika, fizik, ximiya fanlari asta-sekin eng asosiy yo'nalishlardan biriga aylana bordi. Shu tariqa eksperiment uslublari biologiyada o'z mahsuldorligini ko'rsatdi va bu olimlarning eng qiziqqan sohasiga aylandi.

Bir necha asrlardan buyon psixologiya o'rganilib kelinayotgan bo'lsa-da bundan 20-30 yil oldin ham ong qandaydir "qora quti" sifatida qaralib kelingan. Psixologiya insondagi ta'sirlar va xatti-harakatlarni o'rganib ularning miyadagi amalga oshish xususiyatlari dastlab e'tibordan chetda qolgan.

Miyani o'rgangan olimlar uni narkoz ta'sirida o'rgangan bo'lib, uxlagan neyronlar o'rganilib uyqudagi miya xususiyatlari o'rganilmagan. Texnikani modellashishi va insonni o'z xatti-harakatlarini boshqarishi juda katta xavf to'g'irayapti. Biz juda katta vayronkor kuchlar inson qo'lida bo'lgan davrda yashayapmiz.

Inson ongi esa hali takomillashmagan, iqtisodiy va g'oyaviy nizolarni hal qila olmaydi. Shuni inobatga olish kerakki, bir necha minglab yillar oldin era davrida dinozavrlar va gigant hayvonlar o'z hukmronligining cho'qqisida bo'lgan.

Ular juda katta tana tuzilishiga ega bo'lgan bo'lsada, kichik miyaga ega bo'lgan. Shu sabab ta'sirlardan tanasini asray olmagan va organizmni ozuqa bilan ta'minlay olmaganligi uchun qirilib ketishgan. Agar insonga ta'sir etganda biror tashqi ta'sir va kasallik (masalan vabo, toshqin) u tushkunlikka tushib ilohiy kuchlardan yordam kutgan. Hozirgi zamonda esa bu ofatlarni oldini olishga, o'z aqlini ishga solib qutulmoqda. Tabiat haqidagi bilimlarning kengayishi bizda uni boshqarishni va o'zimizga bo'ysundirishni kuchaytirmoqda.

Zamonaviy biologlarni tayyorlash simfoziumida mashhur tadqiqotchilar o'z fikrlarini bildirdi. Qiyin masalalardan bizni davrimizda atrof muhitdan foydalanish va anglashda emas, balki o'z xatti-harakatdari mexanizmini anglashdadir va uni boshqara olishdadir. Agar inson yashab qolmoqchi bo'lsa, u o'zini o'rganib o'z xatti-harakatlari boshqaruvchisi bo'lishi kerak. Fan oldindan ko'ra olish imkoniyatini yaratishi kerak. Agar u bilimlarni bera olsa, jamiyat aqlli bo'ladi deb aytgan. Vaqt o'tib inson ongi shiddat bilan o'sib borib biz o'chun noma'lum bo'lgan barcha hodisalarga yangi qarashni va boshqarishni ketirib chiqardi. Misol uchun biz imkoni yo'q masalalar; dengizlarda faoliyat olib borish, daryo va uzanlarda ko'priklar va to'g'onlar qurish, mashina yaratish, teleskop, radio shunchaki bo'lmadi, biz uning uchun ma'lum bir bosqichlarni bosib o'tdik va kerak bo'lsa qurbon bo'ldik. Yaratish - bu insonning ongi taraqqiyoti bilan, ya'ni biz oldin faqat ta'sirotlarni bir doirada qabul qilgan bo'lsak, endi hammasi zanjirsimon kechmoqda. Sezgilarimiz idrokka, idorkimiz xotiraga va undan so'ng tafakkurga o'zatmoqda. Shuni unutmaslik kerakki, ular faqat ijtimoiy muhitdan shakl olmadi balki, ular o'zining irsiy qonuniyati bilan ham ajralib turadi. Shuning uchun ham hozirgacha yaqinga qadar inson ongi bilan bog'liq fikrlar juda paradoks holda ko'pchilikni jalb etib kelgan ya'ni bu tabiiy fan va psixolog olimlar qiziqishi maydoni bo'lgan.

Biz shunchalik murakkab yaralganmiz-ki, oddiydan murakkabga qarab mo'ljal olamiz, kerak bo'lsa dunyoni barbod qilamiz. Bunga sabab barcha narsaning mohiyatiga kirib borishimiz va uni yangicha ifodalashimizdir.

Ong nima (evolyusiya misolida) - Ong tushunchasini butunlay mazmuniga tabiatdagi evolyusiya va fandagi taraqqiyot orqali yangicha qarash paydo bo'ldi. Bundan oldin antik davr olimlari Suqrot va Platonlar qarashlari ilmiy fanga mos kelmasdi. Ular qancha bahs qilmasin ongning ayrim xususiyatlarini ocha olmaganlar. Lekin ong nazariyasini falsafaning yirik vakili Anaksagor 5-asrda fanga kiritgan. U ongni "Nous" tushunchasi bilan atab cheksiz, boshqaruvchi va hech qanday substansiyalar bilan solishtirilmaydigan harakat maydoni kabi tushunchalarda talqin qilishga harakat qilgan.

"Nous" - tushunchasi bu erda umumlashtirilgan intellekt sifatida tushuntirilib kosmosni boshqaruvchisi deb olingan. Biroq ushbu nazariya Aristotel va Platon fikricha Anaksagor tomonidan kiritilmagan, aksincha undan keyin boshqa allomalar tomonidan ishlatilgan. Bu orada Aristotel ham ong haqida ba'zi fikrlarini bayon etad. Uningcha ong bizdagi barcha psixik jarayonlardan alohida faoliyat olib boradi va qandaydir aniq mazmunni paydo qiladi. Umuman olganda biz ong haqida qancha bahs –munozara qilmaylik shuncha cheksizlikka ketaveramiz va u chegarani bilmaydi. Yuqoridagilardan xulosa qilar ekanmiz, endi biz ong haqidagi bir qancha aniqliklarga to'xtalib o'tamiz.

1.Ong- nerv to'qimasida tashkillashtirilgan jarayonlar guruhi bo'lib, ular ishtirok etuvchi intropsixik va ekstropsixik voqe'alarga javob beruvchilardir. Ushbu intropsixik va ekstropsixik hodisalar ma'lumotlarni idrok qiladi, klassifikatsiya va transformatsiya qiladi, shu bilan birga kordinatsiya qiladi.

2.Ongni – avvallari xotira, tafakkur, maqsad yoki ko'zlash, fikrlarni yo'naltirish, iroda-hissiyot, extiros bilan solishtirishgan va o'xshatishgan. Bu ham izlanishdagi paradokslarni aniqlashga va ong mazmuniga oydinlik olib kelishga yaqinlashish bo'lgan. Endi shunchaki falsafiy qarash emas miya mexanizmida aniq tabiiylik borligi oydinlashdi. Bu bizdan uni aniq usullar bilan o'rganishni talab etadi. Qarashlardagi ijtimoiylik – tabiiylik bilan chuqur uyg'unlashib bordi.

3.Ong - bu butun psixik jarayonlarning tashkillashtirilgani, onglangan, onglanmagan indopsixik miyaning tuzilmasiga javob beruvchi tuzilma.

4.Ong - organizm jarayonlarining umumiy tashkillashtirilgani. Ular orqali ong bir butunlikda faoliyat olib boradi. Ya'ni bizni mazmunga etaklaydi va onglaymiz.

5.Ong - bizni tetiklashtiruvchi a'zo, uning asosiy ko'rinishi idrok, hissiyot, tafakkur, xotira va hokazo. Bu psixik ko'rishlar bo'lib, ular tajribamizning mahsuli.

6.Ong – Bu yuqori darajada tashkil topgan apparat. Qaysiki u yordamida insonlar tashqi va ichki ta'sirlarga baho beradi.

7.Ong - Bu kelajak va o'tmishga xotira orqali aloqa jarayonlarning sistemali bog'lanishi. Demak ong, huddi materiya kabi jarayonlar sistemasi- dan tashkil topgan.

8.Ong - tetiklik bilan sinonim kabi namoyon bo'ladi. Tetiklikni biz bu erda tartibli miqdor ya'ni ko'p sezgilar va idrok bilan bog'lashimiz mumkin. Shu qatorda ko'rgazmali, taktil, eshitish, ko'rish, hid bilish sezgilarini ajratib o'tishimiz mumkin.

1.3. Chaqaloqda ongning paydo bo'lishi

Chaqaloqlardagi psixik funksiyalar ko'p marotaba bahs va munozaraga sabab bo'lib, ayrim psixologlar ulardagi uchta dastlabki emotsiyalarni ajratib o'tadi. Ular "Qurquv", "Nafrat", "Sevgi"lardan iborat. Shu qatorda olimlar, boshqa tashqi muhit ta'sirida, shartli reflekslar mexanizmi orqali keyinchalik yuqoridagi 3-asosdan keyin yuzaga keladi deb aytadi. Biroq ushbu nazariya o'ziga yarasha kamchilikka ega. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, chaqaloqlarni video orqali kuzatganlarda ulardagi emotsional harakatlarni bir fikrda izohlay olmaganlar. Demak, nazariyalar hali ham to'xtamagan va bu holatni shaxdamlik bilan tahlil eta olmaymiz. Undagi ong tushunchasiga kelsak, u bizning ong tushunchasini qanday tahlil etishimizga bog'liq. O'zi ong bir qancha funksiyalarda namoyon bo'lib, u chaqaloqlarda kurtak shaklida namoyon bo'ladi.

Olimlar nazariyalaridan va qarashlaridan kelib chiqib, chaqaloqlarda ong tabiatini ifodalaydigan oddiy shartli reflekslar bog'lami mavjud ekan. Endi faktorlarga o'tadigan bo'lsak, bu holatga ilm tomonidan 4-ta shart qo'yilgan. Shartlar bizga hamma organizmlarda aqlli xulq-atvor mavjud bo'lishi mumkinligi tan olinishi, ya'ni bu bizga yordam beradi.

- 1.Bosh miya po'stlog'ining funksiyalari yig'indisi;
2. Funksiyali distant retseptorlar yig'indisi;
- 3.Tananing vertikal joylashuvi;
- 4.Simvolik yoki o'rin egallovchi xulq-atvor.

Bu kretiriyalardan kelib chiqsak, chaqaloq xatti-harakatlarini ongli harakat deb ayta olmaymiz. Uning harakatli aparatini psixik

faoliyat yig'indisi dagi belgilar sifatida talqin qila olmaymiz. Chaqaloqlar chiroq dog'larini 2-haftadan so'ng harakatlarini ajratishi aniqlandi. Shartlangan ovozlariga shartli reflekslarni uyg'otish esa 2-oyda paydo bo'lishi kuzatildi. Shu qatorda ularni o'rganishda davom etar ekanmiz, ko'p neyrofiziologlar fikricha chaqaloqlarda miyaning po'stloq qismi mavjud emas ekan. Qisqa qilib aytganda, chaqaloq dunyoga kelganda o'tish davrini boshidan kechiradi va bu o'tish davrida uning miya tizimi funksiyalashadi. Va shundan so'ng unda aktivlik oshib boradi. O'tish miyaning boshqa bo'limlari bilan aloqa o'rnatilmaguncha davom etaveradi. Umuman olganda chaqaloqlarni o'rganish olimlarda bir qancha savollar tug'dira bordi. Nima uchun ularda ongni aniqlash mumkin emas? U bekutilgani uchunmi yoki neyronlar ichida uyqu holatidami degan qabilida turlicha savollar qo'yila bordi. Yoki umuman miya yo'qmi chaqaloqlarda? Yuqoridagilar olimlarni ikki gipoteza bo'ldi.

1. Inson zoti hayvonlarga nisbatan kamroq rivojlangan holda to'g'iladi. Negaki, u anatomik va fiziologik etuk emas va unga ma'lum vaqt kerak bo'ladi rivojlanishiga. Ya'ni o'z potensial imkoniyatlarini reallikka olib chiqishga. Bunday holatda ongning paydo bo'lishiga bir qancha elementlar lozim bo'ladi. Bular ma'lum bir genetik omillar bo'lib, insonning tug'ilishi bilan mavjud bo'lgan. Ular rivojlanishi va namoyon bo'lishi uchun ma'lum bir vaqt va jarayon kechishi kerak bo'ladi. Demak ong mavjud, hattoki uni namoyon qilish mumkin bo'lmasa ham.

2. Keyingi nuqtai-nazar shundan iboratki, bunda - miyaning tuzilishi psixik funksiyalarni yuzaga chiqarish uchun etarli emas. Miya bu faqat yaxshi tashkillashtiruvchidir. U tashqi muhitdagi ma'lumotlarni individga spetsifik retseptorlar va o'tkazuvchi yo'llar orqali etkazib beradi. Ushbu farazga asosan, eksterotserebrol omillarni idrok qilish, hayotiy tajriba, ongni paydo bo'lishida ahamiyatli rol o'ynaydi. Va uning rivojlanishini asosiy elementi bo'lib xizmat qiladi. Lekin, instinktiv xulq-atvor tajriba yo'qligida ham mavjud bo'lishi mumkin. Psixik faoliyatda esa hech qachon namoyon bo'lmaydi. Bu mulohazalar ikki gipoteza mohiyatiga qaratilgan bo'lib u psixikani o'ziga xos talqin etadi.

Katta insonda ong va sensor ma'lumot - Psixik funksiyalarni rivojlanishida va paydo bo'lishida sensor ma'lumotlarni, idrok qilish birinchi o'rinda degan fikr namoyondalari ko'pchilikni tashkil qilsada, boshqa fikr egalari katta insonlarda ong shakllanib bo'lgan, tashqi

ta'sirlarga bemalol javob bera oladi degan fikrdalar. Inson individualligi, irodasining mustaqilligi, qarorlarni qabul qilishida yoki inkor qilishida va u yoki bu harakatlarni amalga oshirishida namoyon bo'ladi. U birlashib tafakkur qilishga va mohiyatga etishga olib keladi. Zamonaviy insonni tarbiya qilish va boshqarish ijtimoiylasha boraveradi. Shaxs-bu o'zboshimcha va mustaqil mavjudot. Individuum esa o'z taqdiriga ega, ya'ni u o'zi o'rab turgan muhitdan uzoqda bo'lsa ham masalan kosmosda bo'lsa ham, mavjudligini saqlab qoladi.

Biroq reallikni detal analizi shuni ko'rsatadiki, miyaning faoliyati ma'lum bir darajada sensor yoki yozilishdan iborat. Albatta. Bu tashqi muhitdan kelayotgan sensor yozilish bo'lib u nafaqat tug'ilishdan boshlanib balki, umrining oxirigacha davom etadi. Ushbu sensor tizimdagi yozilishning mavjud bo'lmasligi, normal psixik funksiyalarni buzilishiga olib keladi. Etuk miya o'zining boy o'tmishi bilan bog'liq ma'lumotlarni, orttirgan ma'lumotlarni tafakkur jarayonida aks ettira olmas ekan. Hattoki, tetik va reaksiya ham bildira olmas ekan, agar sensor ma'lumotlarni ola olmasa.

Yuqoridagi bu fikrlar psixolog va neyro fiziologlar tadqiqotlaridan kelib chiqib tasdiqlangan ekan. Neyrofiziologlar tadqiqotlarida mushuklarni sinashgan. Mushuklarning o'rta miyani yuqori bo'limini lateral qismini buzganlar. U erda asosiy sezgi yo'llari joylashgan bo'lib, olimlar kuzatishicha ushbu buzilgan joyda yuqori darajada buzilgan sezgi kuzatilgan. Aniq qilib qilib aytganda, tajribadagi mushuklarda agressiya, qoniqish va boshqa emotsional reaksiyalarni yo'qotganlar, hattoki erkalashni ham.

Hayvonlar bundan tashqari ovoz chiqarmagan va tashqi muhitga nisbatan ishtiroksiz bo'lgan. Ularda minimum tarzda vegetativ reaksiyalar qisqargan ekan. Biroq passivlikka qaramay u tinimsiz orqa oldiga qarab yurgan va erdan nimanidar hidlab qidira boshlagan. Umuman olganda ularda gallyusinatsiya hodisasi kuzatilgan va. Shunday qilib sensor ma'lumotlarimiz normal inson bo'lishimiz uchun etarli emas, ya'ni miyadagi funksiyalarsiz. Lekin, bu ma'lumotlar, tajribalarimiz ong bilan mavjud bo'lsa ham tushunish uchun etarli emas, agar bizda yangi idrok hosil bo'lmasa. Bu psixikamizda jiddiy bo'zilishni keltirib chiqaradi. Fikrlarimizni qiziqroq tavsiflamqochi bo'ladigan bo'lsak, biz inson miyasini tuzilishini o'zgarmaganligini tan olishimiz lozim bo'ladi. Miya faqatgina ma'lumotlarni qabul qiladi va funksiyalar orqali boshqaradi, qaysiki fiziologik qonuniyat asosida. Shu qatorda g'orda yashovchi

inson bilan, hozirgi zamon olimi orasidagi farq genetik shartlanmagan balki tashqi muhit ta'siri va qadriyatlar asosida qurilgandir.

Ong va uning eksperimental tadqiqotlarida ishchi farazlar- Hozirgi kunda bizning maqsadimiz, nafaqat ongni neyrofiziologik mexanizmi tushunchalarini kengaytirish, balki fizik uslublar orqali ularni tadqiq etish hamdir. Bizning ishchi gipotezamizni quyidagicha shakllantirish mumkin.

1. Miyaning fundamental mexanizmlari mavjud bo'lib, ular barcha psixik funksiyalarga javobgardir. Ular o'z ichiga, ya'ni psixik funksiyalarni, idrokni, emotsiyani, mavhum tafakkurni, ijtimoiy xulq-atvorni ko'rinishlarini qamrab oladi;

2. Ushbu mexanizمنى oshkor qilish, analiz qilish (ta'sir qilish, tasvir o'tkazish orqali) mumkin. Ayrimlarini fizik uslub va ximik uslublarni qo'llash orqali almashtirish ham mumkin. Yuqoridagi yondoshuv sevgi yoki tafakkur kabi tushunchalar neyrofiziologik kuzinishga ega degan mazmunni bermasligini ta'kidlab o'tishimiz kerak. Ushbu nazariya orqali kelib chiqadiki, miya mexanizmlarini o'rganmay turib hech bir jarayon to'g'risida original fikrlash bo'lmasligidir;

3. Miyaga to'g'ridan - to'g'ri ta'sir qilish orqali bashorat qilish mumkin bo'lgan, psixik xulq - atvorni keltirib chiqarish mumkin;

4. Maqsadsiz avtomatik reaksiyalarni, ongli va maqsadli miya faoliyati bilan almashtirish mumkin.

Eksperiment natijalarini ochar ekanmiz, tajribalarda o'tkazgan uslubikalar bilan bog'liq tomonlarini unutmasligimiz lozimdir. Psix reaksiyalar va xulq-atvorni har doim ham neyrofiziologik uslublar yordamida o'rganib bo'lmaydi. Bu erda har tomonlama etuk yondoshuv va jalb qilingan uslubikalar zarur. Jalb qilingan uslubikalar deyilganda, biz asosan ilmning har xil yo'nalishlarida ishlatishadigan uslubikalarni nazarda tutamiz. Bir nota bilan qo'shiq yaratib bo'lmagandek, bir neyron bilan ham psixik faoliyat yaralmaydi. Buning uchun avvalo ko'plab neyronlarning ta'siri lozim bo'ladi. Masalan oddiy "g'azab" uchun ma'lum bir elektroximik, vegetativ, sensor, va motor o'zgarishlar xarakterlidir. Ushbu jarayonlar esa albatta, ijtimoiy munosabatlarda namoyon bo'ladi.

Yangi uslublarni ishlab chiqish, tabiiy shart-sharoitlarda, miyaning tubini o'rganishga imkon beruvchi omillar, ongning eng muhim "sereberal" mexanizmlarini analiz qilishga va ular faoliyatini boshqarishga imkon yaratadi. Ushbu uslublar o'zida mukammal

qurolni aks ettiradi. Ya'ni psixikani material va funksional asoslarini ochib beradi. Albatta, hali shunday vaqtlar keladi-ki, neyronlarni o'rganuvchi fiziologlar, psixikani o'rganuvchilar bilan miyani inkor qilgan holda, hamkorlik olib boradi.

1.4. Miyani tadqiq etishda qo'llaniladigan uslublar (aparatlar)

1. **EKG** - elektrokardiogramma, bu aparat yurakning elektr aktivligini, elektr zaryadlarni qayd etishni aniqlab, hayvonlardagi psixika tabiatini xulq-atvor ko'rinishlari orasidagi bog'liqlikni aniqlaydi.

2. **EEG** - elektroensefalogramma, ushbu uslub bosh terisiga ko'plab elektrodlar kirgizish orqali miyaning chuqur qismi va undagi biotokni aniqlash imkonini, qo'zg'alish uchoqlarni xususiyatlarini ochishga yordam beradi.

3. **ERM** - Miyaning elektr qo'zg'alishi, ta'sirotda nisbatan jabob xususiyatini aniqlash.

4. **Rentginogramma** - Miyaning peshona bo'limi va ko'ruv do'ngligi xususiyatlarini o'rganuvchi aparat (bir necha elektrodlar aqasi orqali).

5. **Radioaloqa** - Miyaga ikki tomonlama radio aloqa o'rnatish. Bunda maymunlar sinalib ulardagi miyaning tabiiy xususiyatlari o'rganilgan. Maymunlar richagni bosish bilan ozuqaga etgan, ularda refleks hosil qilingan. Vaqt o'tmay ulardagi miyaning tabiiy funksiyasi bo'zilgan. Ular ba'zi harakatlar va xulqlarini almashtirib yoki, unutilib qo'yish holatlari kuzatilgan. Insonlardagi tadqiqotlarni neyroxirurg Monreale Penfild va uning ishchilari tajribalarida ko'rish mumkin. Ikki tutqanoq kasaliga uchragan va xulq-atvorida buzilish bo'lgan qiz ustidagi tajribasi bunga misoldir. Radiotelemetrik ta'sir orqali biotokni qayd qilish holati ko'zatilgan. Hattoki ikki yilga qadar ularning miyasida o'rnatib qo'yilgan. Bu ulardagi kasallik bilan bog'liq xususiyatlar miyaning qaysi bo'limi bilan yoki hayotiy tajribalarini kuzatib borgan. Masalan travma yoki kasallik o'chog'i, patologik funksiyalar tabiati miya funksiyasi bilan solishtirib borilgan.

Shu narsa aniqlanganki, palatadagi oddiy yumushlar ham ular uchun og'ir va og'riq bilan kechishi aniqlangan. Kerak bo'lsa, ulardagi ma'lumotlar vrachlar tomonidan nazorat qilib borilgan va pilyonkalarda yozib borilgan. Bu esa neyroxirurglar uchun aniq

ma'lumotlar manbai sifatida xizmat qilgan. Ta'sirotka nisbatan miyaning chuqur bo'linmalari javobi, tabiiylik xususiyatlari, yaniki miyaning neyrofiziologik funksiyalari aniqlangan. Metodlarni qo'llash chog'ida potsientlar bilan suhbat olib borish uning vaqti (sekund) ham qayd etilgan.

Bundan tashqari retikulyar formatsiya va uning qo'zg'atuvchilarga ta'siri, uyqudagi ma'lumotlarning yozilishi, elektr aktivlikni oshirish orqali xulqni kuzatish ko'roq maymunlarda sinab ko'rilgan. Misol uchun Djonston va Uollesom, Berdlilar tajribalarida None va Suzi nomli maymunlarda "Miyadagi funksiyalarning regulitsiyasi" qonuniyatini sinashgan.

Shu qatorda miyaning elektrik qo'zg'alishi, harakat reaksiyalari ERM (aparati) yordamida mushuklarda va maymunlarda tajriba sifatida qo'llanilgan. Miya qavatlariga etilgan ta'sir orqali tana harakatlari tok orqali o'zgargandan so'ng u harakatlarga moslashib hattoki ular eksperiment o'tkazuvchi bilan o'rtoqlashish va erkalanish holatlari kuzatilgan. Tokni kuchaytirish va kamaytirish (milliamper) orqali tana harakati va signalga javobni chaqirish (miyaga borish, qaytish) harakat kordinatsiyalari elektrik ta'sir orqali kuzatilgan.

Tadqiqotchilar agar normadan yuqori tok bersalar hayvonlarda buzilish kordinatsiyasi kelib chiqqan. Hattoki ularning bo'yniga vaqtini o'lchash sekunderlari ham o'rnatilib borilgan. Metodlarni qo'llash chog'ida potsientlar bilan suhbat olib borish uning vaqti (sekund) ham qayd etilgan. Miya faqatgina ma'lumotlarni qabul qiladi va funksiyalar orqali boshqaradi, qaysiki fiziologik qonuniyat asosida.

Bundan tashqari retikulyar formatsiya va uning qo'zg'atuvchilarga ta'siri, uyqudagi ma'lumotlarning yozilishi, elektr aktivlikni oshirish orqali xulqni kuzatish ko'roq maymunlarda sinab ko'rilgan. Tadqiqotlar doirasi kengayib olimlar insondagi eslash, gallyusinatsiya, illyuziya, qoniqish, his qilish, kechinma nima o'zi degan savolga (ERM) orqali o'rganilgan. Tekshiruvchilar kasallar bo'lib, ular travma yoki epilepsya kasalliklari bilan og'rigan, ular ayollar bolalar va o'smirlardan tashkil topgan.

1954 -yil miya tadqiqotlari uchun ko'pgina ma'lumotlarni aniqlash yili bo'ldi. Xirurglar, neyropsixologlar, fiziologlar ongni amaliy yo'l bilan o'rganishga harakat qildilar. Ular uchun bizning gapirishimiz, eshitimiz, ko'rishiz, o'ylashimiz, sezishimiz va javobimiz kabi holatlar emas ularning asosi qiziqtirib qo'ydi. Ya'ni ular nima uchun bo'zilmaydi, adashmaydi, xato ketmaydi degan

talqinda. Ular qandaydir funksiyalar tizimidan yoki genetik shartligidan paydo bo'ladimi kabi savollar bosh maydonga qo'yildi. Oxir oqibat fizik uslublar bu masalaga oydinlik kiritdi. miyada hamma harakatlar tizimli u qaysiki insonda, rivojlanish davomida murakkab tus ola boradi. Ya'ni gapirish, yurish-turish va harakat kordinatsiyalarini boshqarish. Agar biz muammoga bir nuqtai-nazar nazariy qaraydigan bo'lsak, hamma narsa biz uchun paradoks bo'lib kelaveradi. Biz mohiyatga etmaymiz, qolaversa boshqalarning fikriga qaram bo'lib qo'shib ketamiz, agar uslublar orqali tekshirib ko'rmasak. Qo'yidagilar tajriba samarasi sanaladi.

1. Tajriba uchun uslubni tanlash - maqsaddan kelib chiqish;
2. O'rganilayotgan ob'yektning aniqligi (Hayvon yoki inson misolida);
3. Fizik uslublarda bir usulni ikkinchi usul orqali sinab ko'rish;
4. Tadqiqotni to'liq qurollantirish (qaysiki mexanik va fizik qurilmalar);
5. Organizmga xos tabiiy va ijtimoiy xususiyatlarni uyg'unlashtiri;
6. olingan natijalar protokollashtirish yoki yozib olinishi(video plyonka, zapis qilish);
7. Eksperimentni qayta ishlash va xulosalar berish;
8. Miyaning tabiiy xususiyatlarini inobatga olish;
9. Fizik uslublarni tabiatini hisobga olish;
10. Miyani tadqiq etishda tirik organizmlarga xos funksiyalarni aniqlash;

Eksperiment natijalari (fizik uslublar tahlil)

1. Qurbaqada muskullar qisqarishi normal ta'sir Elektr toki 1800 galvanik da sodir bo'lishi aniqlandi (Dyubua Reymon ishlari).

2. Narkoz orqali o'yqu hosil qilish va xulq-atvorni boshqarish va yozib qolish (Frich va Gitsig ishlari).

3. O'rta miyani elektrod orqali qitiqlanishi tetik hayvonlarda masalan(mushuklarda) – emotsional reaksiya va harakatlar aktivligini yaxshi tashkillashtirgan (1932-yil Gess ishlari).

4. Miyaga elektrod yuborish yoki ta'sir maymunlar, mushuklar, kalamushlarda o'rganish qobiliyati, shartli refleks, og'riq, qoniqish, yaqinlik kechinmalari paydo bo'lishi kuzatilgan (Delgado 1954-yil, Olds va Milner ishlari).

5. Miya- tabiiy shartlangan.

Yuqoridagi tajribalardan kelib chiqib quyidagicha xulosa qilishimiz mumkin.

1. Tiriklikka kuch mavjudotlarga shart emas, u biologik shartlangan;

2. Miya qo'zg'alishga ega va shartlangan;

3. Elektr ta'sir miya po'stlog'ida harakat reaksiyalarini keltirib chiqaradi;

4. Miyaga ta'sir yuborib psixik protseslarni boshqaruvchi miya bo'limlarini aniqlash mumkin;

5. Qo'shimcha kuchli ta'sir tirik organizmlarda miya faoliyatini harakatga keltiradi yoki funksiyalarni o'zgartiradi;

6. Agar radio ta'sir orqali mushuklar va maymunlarga miya ta'sir etganda bu hol qo'yidagilarni keltirib chiqaradi. Agrissivlik, egalik qilish hissi, o'zaro munosabatlarda o'zgarish ham kuzatiladi;

7. Xirurgik usuldagi operatsiyada miyaga elektrod orqali yuborilgan ta'sir qisqa muddat ichida tafakkurda dam olish, nutqdagi kuch va harakat reaksiyalari ko'chayishi, yoki boshqa holatlarda kulgi, qoniqish hissi, qo'rquv, hayrat, gallyusinatsiya, eslashni keltirib chiqaradi (Delgado, Penfild va Djaspir 1954 yil).

Inson psixik funksiyalariga miyaning aniq bo'limlari orqali ximik, fizik ta'sir ko'rsatish mumkin. Qo'zg'atuvchilar organizmda qoniqish yoki bezovtalik olib kelishi mumkin. Har bir qo'llangan usul baholanishi va tadqiqotga uyg'unlashtirilishi lozim. Aytish mumkinki, bugungi meditsina va psixologiya inson miyasi ya'ni uning formasi ongni tabiatini mohiyatan o'rgandi. Biz faqat nazariyalar bilan emas. Olimlar tili bilan aytganda o'tmishda inson ongi falsafiy qarash bilan tushuntirilgan bo'lsa, endilikda psixologiya mustaqil fan sifatida bu masalaga oydinlik kiritdi va bu psixologiya masalasi bo'lib qoladi.

Mavzu yuzasidan tayanch tushinchalar:

Sensor tizim, Tropizmlar, Fototropizmlar, Nerv Timi seskanuvchanlik, sezuvchanlik, Aks ettirish, Refleks, Sezgi, Ong Evolyutsiyasi, Ong, Nous, Anglash, Ongsizlik, Orqa miya, Oldingi miya, Ketingi miya, Miyacha, Oraliq miya, "Men"ni anglash, Ontogenez, Filogenez Neyropsixologiy, Psixofiziologiya.

Nazorat savollari:

1. Psixologiyada ong evolyutsiasi muammosi?
2. Ong fenomen tushuncha sifatida?

3. Aks ettirish formalari va ularning psixofiziologik tabiati?
4. Psixika –miya mahsuli ekanligi?
5. Reflekslar nazariyasi va uning mohiyati tavsifi?
6. Inson miyasining nerv-fiziologik asoslari?
7. Miya faoliyatining eksperimental tadqiqi?
8. Psixofiziologiya fan sifatida?
9. Inson ongi va miyasining hozirgi zamon nazariyalari?
10. Inson miyasini tadqiq etish uslublari tavsifi?

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T., Ma'naviyat, 2008.
2. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: O'zbekiston, 2011.
3. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T.: O'zbekiston, 1997.
4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston-NMIU, 2017.
5. Mirziyoyev Sh.M. Erikni va farovon, demoktarik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq. – T.: O'zbekiston-NMIU, 2017.
6. Hergenhahn B.R., Tracy B. Henley "An Introduction to the History of Psychology". – 2014 Wadsworth, Cengage Lyerning.
7. Ярашевский М.Г. История психологии. – М., 1997.
8. Ждан Н.Ж. История психологии. – М., 1995.
9. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. – T., 2010.
10. G'oziyev E.G'. Psixologiya metodologiya. – T., 2013.

II BOB. PSIXOLOGIYANING TA'BIY VA ANIQ FANLAR TIZIMIDA VUJUDGA KELISHI

2.1. V.Vund tajribasi va uning ilmiy ahamiyati

Ma'lumki, XIX va XIX asrning 70-yillarida psixika haqidagi tarqoq bilimlarni bitta ilmiy yo'nalishga birlashtirish ehtiyoji yuzaga keldi. Fiziologlarning laboratoriya ishlari bilan bir qatorda evolyusion biologiya va meditsina amaliyoti yangi psixologiyani tayyorlay boshlagandi. Boshqa tabiiy faktlar kabi psixik hodisalarni ham ob'yektiv o'rganish imkoniyati mavjud bo'lgan psixik hodisalar dunyosi ochildi. Shu narsa aniqlandiki, bu psixik dunyoda psixologiyaning o'z qonuniyatlari va sabablari bor. Bu esa psixologiyaning fiziologiyadan ham, falsafadan ham ajralib chiqishiga turtki bo'ldi.

Garchi, eksperimental psixologiya to'liq yaratilgan bo'lmasa-da, eksperimentlarni ilk bor tashkil etish tadqiqotchilar, fiziolog Veber va fizik Fexnerlar amalga oshirdilar. Veber va Fexnerning maqsadi tashqi ta'sirotlar (fizik omillar) va ularning muvofiq sezgilarning o'zaro munosabatlari sohasidagi qonuniyatlarni topishdan iborat edi.

Fexner eksperimental uslublar asosida sezgilarning ortib borishi bilan ularni qo'zg'atuvchi ta'ssirotlar ta'siridagi qiyosiy munosabatni aniqlab, sezgi qo'zg'atgich logarifimasiga proporsionaldir degan psixo-fizik qonunni kashf etadi. Veber va Fexnerlar o'tkazgan tajribalar "Psixofizika" degan alohida fanning paydo bo'lishiga olib keldi.

Veber va Fexner ishlarining ahamiyati shundan iboratki, ular birinchi bo'lib psixologiyani tabiat fanlari singari, eksperimental fanga aylantirish mumkin ekanligini isbotladilar. Shu vaqtgacha faqat kuzatish, asosan, o'z - o'zini kuzatishdan foydalanib kelayotgan psixologiya endi aniq, fanlardagi ob'yektiv uslubdan foydalana boshlaydi.

Ayniqsa eng katta muvaffaqiyatga taniqli nemis psixologi, fiziolog va faylasufi Vilgelm Vundt erishdi. Uning "fiziologik psixologiya asoslari" nomli asari yangi fanda yo'lboshchi vazifasini o'tadi.

Ayniqsa, XVIII asrning oxiri XIX asrning boshlaridayoq, psixologlar o'rtasida psixik hodisalarni o'rganishda eksperimentni tatbiq qilish mumkin emasmi degan masala keng maydonga chiqdi.

Bu g'oya ilk bor faylasuf Kant tomonidan aytili. Uni fikricha, psixologiyada eksperimentning bo'lishi mumkin emas, chunki psixik hodisalarni o'lchash mumkin emas, ularga matematikani tatbiq qilish mumkin emas.

Psixik hodisalarni o'lchashning mumkinligi, binobarin, psixologiyada eksperimentning bo'lishi mumkinligi haqida nemis psixologi I. Gerbart ijobiy fikr aytgan. U "psixologiyada matematikani tatbiq qilish mumkin va zarurligi haqida" shunday degan: "Mening tekshirishlarim amalda faqat, psixologiyaning o'zi bilan cheklanib qolmasdan, balki fizikaga va umuman tabiat fanlariga ham qisman aloqadordir".

Gerbartning fikricha, asosiy psixik element tasavvurdir, qolgan barcha jarayonlar – hissiyot, iroda, tasavvurlar kombinatsiyasidan va munosabatlaridan iboratdir. Ruhiy holatlar doimo o'zgarish jarayonida bo'ladilar. Tasavvurlarning bu doimiy o'zgarish va almashish jarayonida ma'lum darajada doimiylik qonuniyati bor. Bu doimiylik miqdori tomonini o'lchash mumkin. Shuning uchun ham, Gerbartning fikricha psixologiyaga matematikani tadbiq qilish mumkin.

Gerbart, garchan psixologiyada eksperimentdan foydalanishning zarurligi va foydaliligini isbotlagan bo'lsa ham, lekin uning o'zi bu uslubdan foydalanmadi.

Vil gelm Vund eksperimental psixologiya asoschisi

Psixologiya fanining eksperimental sohasi masalalarida nemis fiziologi va psixologi Vilgelm Vundning ishlari katta ahamiyatga ega bo'ldi. V.Vundgacha faqat ichki tajribadan va o'z-o'zini kuzatishdan foydalanib kelgan psixologiya faqatgina tasviriy fan edi. V.Vundt eksperiment va o'lchash uslublarini zarur deb topib, psixologiyani izohli fanga aylantirishni maqsad qilib qo'ydi.

V.Vund psixologiya uchun klassik uslublar bo'lib qolgan bir qancha uslublarni, ya'ni qo'zg'atish uslubi, ifodalash uslubi va reaksiya uslublarini kashf etdi hamda rivojlantirdi.

V.Vund 1879-yili Leypsig universitetida birinchi eksperimental psixologiya laboratoriyasini kashf qildi. Oxir-oqibat V.Vund o'z xulosalariga tayanib, Berlin universiteti huzurida eksperimental psixologiya institutini tashkil qildi.

Ta'kidlash joizki, V.Vund shug'ullangan masalalardan biri o'sha vaqtda astronomlar tomonidan ochilgan diqqatni bir vaqtda ikkita har xil o'tkazgichga to'plash mumkin emasligi haqidagi masala edi. Bu hodisani aniqlash uchun V.Vund laboratoriya tashkil qilinganga qadar 1861 yilda alohida mayatnik ish o'ylab chiqardi (Vund mayatnigi). Bu mayatnik graduslarga bo'lingan yoy atrofida harakatlanadi va har bir

ma'lum vaqtdan keyin shing'irlaydi. Bu psixologik eksperimentlar uchun kashf etilgan birinchi asbob edi.

Psixologiya fanining ilmiy uslubologik qiymatini ko'rsatish uchun V.Vund qo'shimcha vosita sifatida yondosh fanlar, ayniqsa fiziologiya, astronomiya, etnografiya, tarix, mifologiya va boshqa fanlardan olingan ma'lumotlardan foydalanish zaruriyatni ilgari surdi.

V Vund psixologiyaning mustaqil fan sifatidagi dasturini ishlab chiqdi. birinchi eksperimental psixologiya laboratoriyasini ochib, keyinchalik birinchi maxsus psixologiya institutiga asos soldi va fiziologlardan o'tgan mavzular – sezgilar, reaksiyalar tezligi, assotsiatsiyalar, psixofizik qonuniyatlarni o'rganish bilan shug'ullandi.

V.Vund maktabini 136 nafar nemis, 14 nafar amerikalik, 10 nafar angliyalik, 6 nafar polyak, 3 nafar rus, 2 nafar fransuz mutaxassislari tugatdi. Bu maktab psixolog-eksperimentatorlar birinchi avlodini etishtirib chiqardi.

Psixologiyaning noyob uslubi sifatida "bevosita tajriba", asosiy uslubi sifatida introspeksiya tan olindi. V. Vundt ong muammolarini chuqur tahlil qildi. Uning fikricha ong xossasiga fenomenalizm, ong ko'lami, birinmasi, idrok chegaralari, kuchlanish, jadallik, ta'ssurotlar aniqligi, ong chegarasi kiradi.

Affekt uning fikricha hissiyot va tasavvurlarning bir o'rin almashinishi va bir vaqtda birikmasi hamdir. Kayfiyat hissiyotlarning past jadalligida va katta davomiyligida yuzaga keladi. Affektlar irodaviy jarayonlarning tarkibiy qismlaridir.

Irodaviy jarayon – barcha qismlarni o'z ichiga olgan to'liq jarayon hisoblanadi. Ong fenomenlari assotsiatsiyalar va appersepsiya yo'li bilan shakllanadi.

Appersepsiya – ongning alohida funksiyasidir. U insonning irodaviy xulqini belgilab beradi. Shunday qilib, belgilangan dastur asosida laboratoriyada sezgi, reaksiya vaqtlari, assotsiatsiyalar, diqqatning, insonning eng sodda hissiyotlari o'rganildi. Ular asosida V.Vund psixik hayot qonuniyatini shakllantirdi va ulardan ba'zilarini tamoyillar deb atadi.

Olim Leypsig laboratoriyasi va institutidan namuna olib, Germaniyaning boshqa universitetli shaharlarida ham, shuningdek boshqa mamlakatlarda ham, jumladan Fransiya, Angliya va Amerikada laboratoriya hamda institutlar tashkil qilindi.

XIX asrning oxirida Rossiyada ham bir qancha eksperimental psixologiya laboratoriyalari tashkil qilindi. Moskvada Tokarskiy,

Qozonda Bexterev, Odessada Langerlar tomonidan shunday laboratoriya ochildi. 1911 yil Moskva universiteti huzurida, mahsus ko'rilgan binoda professor Chelpanov rahbarligida eksperimental psixologiya instituti tashkil qilinadi.

Tadqiqotchi A.F.Lazurskiy tomonidan eksperimental uslubning alohida turi tabiiy eksperiment uslubi ishlab chiqilgan. Eksperimentning bu turidan bizda bolalar psixologiyasini o'rganishda, pedagogika masalalarini, ayniqsa, ta'lim psixologiyasi masalalarini ishlab chiqishda keng va unumli foydalanilmoqda.

Eksperimental uslubning tatbiq qilinishi psixologiya fani taraqqiyotiga juda unumli ta'sir ko'rsatdi. Bu uslubning yordamida oddiy kuzatish yoki o'z - o'zini kuzatish yo'li bilan aniqlash qiyin bo'lgan yoki butunlay mumkin bo'lmagan ko'p ma'lumotlar aniqlandi.

Eksperimental analiz yo'li bilan murakkab psixik jarayonlar (idrok, xotira, tafakkur)ning alohida komponentlari tarkibiy qismlari ajratilgan, psixik jarayonlarning fiziologik hodisalar bilan, shuningdek tashqi fizik muhit hamda ijtimoiy muhit bilan bo'lgan bog'lanishlari ochilgan.

Eksperimental tekshirishlarning yakunlari, shuningdek, eksperimental uslubning usullaridan foydalanish amaliy faoliyatning turli sohalarida o'quv tarbiya ishlarida, meditsinada, mehnatni tashkil qilish va ratsionalizatsiyalashda, sud ishlarida, san'atda juda ko'p foyda keltirdi.

Eksperimental psixologiya – empirik tadqiqotlar rivojlanishining omili sifatida

V.Vund tajribasi o'z - o'zidan psixologik tadqiqotlar o'tkazishga bo'lgan zaruratni kuchaytirib yubordi. Bu holat psixologiya tarixida psixologik testlar, shaxs so'rovnomalari, intellekt testlari kabilarni ishlab chiqish bilan bog'liq izlanishlarda ko'zga tashlana bordi. Eksperimental tadqiqotlardan keyingi ba'zi qilingan ishlar fan tarixida qilingan ilk empirik tadqiqotlar sanalib, uning mazmuni psixologiyaning amaliy sohasi tarixini yoritishda e'tiborli sanaladi.

Psixologiyada empirik ishlar qanchalik muvaffaqiyat bilan rivojlanib borganligi, psixologiya doirasida o'rganiladigan hodisalar maydoni qanchalik kengayib borgan bo'lsada, psixologiyaning ongni tushuntirishdagi o'zligi yaqol namoyon bo'lib bordi. Yangi

biologiyadagi yirik muvaffaqiyatlar organizmning hayotiy funksiyalari, jumladan psixik funksiyalarga nisbatan qarashlarni tubdan o'zgartirib yubordi. Tadqiqotlar natijasiga ko'ra, idrok va xotira, ko'nikma va tafakkur, ustanovka va hissiyotlar ya'ni hayotiy vaziyatlarda organizmni qurollantiradigan oliy psixik funksiyalar deb hisoblandi.

Tabiiy fan bo'lgan, biologiya psixikani o'rganishni rivojlanish nuqtai nazaridan olib borishga yo'naltirdi. Bu bilan introspektiv tahlil uchun mumkin bo'lmagan ob'yektlarni bilish zonasi radikal ravishda kengayib bordi. Psixologiyaning predmeti va uslublari haqidagi birlamchi tasavvurlarning barham topishi aniq bo'lib qoldi. Psixologiyaning kategorial apparati ham chuqur o'zgarishlarni boshidan kechirdi. Uning asosiy bloklari haqida eslatib o'tamiz: psixik obraz, psixik xatti-harakat, psixik munosabatlar, motiv, shaxs.

Ilk tadqiqotlar xulosasiga ko'ra, psixikaning birlamchi elementi sezgilar hisoblanardi. Shu narsa isbotlandiki, psixik obrazlar – geshaltlardan iboratligi nemis psixologlari tomonidan belgilab berildi. Shu tariqa geshaltpsixologiya yuzaga keldi. Psixik harakatga kelsak, uning kategorial mavqei o'zgardi. Ilgari u sub'yektning ichki, ma'naviy aktlari qatoriga kiritilar edi.

Organizm va muhit o'rtasidagi munosabatlarni o'rganishda ob'yektiv uslublarni qo'llash muvaffaqiyatlari psixika sohasi tashqi tana harakatini ham o'z ichiga olishini isbotlab berdi. Uni psixologiya predmetiga kiritgan kuchli psixologik maktab ham vujudga keldi. Bu yo'lni tanlagan "bixeviorizm" maktabi ham yuzaga keldi. Psixologiyada ochilgan yana bir soha onga birlamchi emas, ikkilamchi ahamiyatni berdi. Z.Freyd tomonidan psixoanaliz yo'nalishiga asos solindi, mazkur maktab namoyandalari psixik hayotni ongsizlik mayllari (motivlar) boshqaradi, u xulqni harakatga keltiradi va shaxsning murakkab dinamikasi tuzilmasini belgilab beradi deb hisobladi.

Ayniqsa, Fransuz tadqiqotchilari odamlar o'rtasidagi ruhiy munosabatlarni tahlil qilishga asosiy e'tiborni qaratdilar. Bir qator nemis psixologlari ishlarida shaxsning qadriyatlar tizimiga kiritilishi mavzusi markaziy bo'lib qoldi. Dunyoviy psixologik fikr tarixida alohida novatorlik rolini xulqning madaniyat aossida yuzaga kelishi haqidagi g'oya egalladi.

Shu tariqa turli maktablar yuzaga kela boshladi, ulardan har biri kategoriyalarning butun markaziga obraz yoki harakatni, motiv yoki

shaxsni qo'ydi. Bu esa o'z navbatida har bir maktabga o'ziga xos profil berdi.

Kategoriyalardan biriga dominanta sifatida yo'nalitirilish va boshqa kategoriyalarga bo'ysunuvchanlik funksiyasini berish psixologiyaning bir-biriga qarama-qarshi yo'nalishlar – maktablarga bo'linib ketishiga olib keldi. Ana shu manzara psixologiyada inqirozga olib keldi. Biroq turli maktablar o'rtasida qarama-qarshiliklar yuzaga kelmaganida psixologiya ham rivojlanib ketmas edi.

Biz bilamizki har qanday inqiroz rivojlanishga olib kelishi mumkin. Psixologiya tarixida ham shunday hodisa yuz berdi. Yigirmanchi asrning boshlarida dunyoning ko'pgina mamlakatlaridagi turli universitetlarda o'nlab eksperimental psixologiya laboratoriyalari ish olib borardi. AQShning o'zida bunday laboratoriyalar 40 dan ortiq edi. Ularning tadqiqot mavzulari turlicha – sezgilar tahlili, psixofizika, psixometriya, assotsiativ eksperimentlar edi. Ishlar juda izchillik bilan amalga oshirildi, biroq ahamiyatli yangi faktlar va g'oyalar yuzaga kelmadi.

V.Djems shu narsaga e'tibor qaratdiki, mavjud bo'lgan tajribalarning ko'pchiligidagi natijalar harakatlarga mos kelmaydi. Lekin "Umumiy psixologiya arxivi" jurnalida bir nechta maqolalar yoritildi. Mazkur maqolalar ichida O.Kyulpe rahbarligidagi yosh olimlar guruhining ishlari ahamiyatga molik edi. Ma'lumki, O.Kyulpe Vyursburg psixologik maktabi asoschisi bo'lib, V.Vundtdan ta'lim oladi, keyinchalik uning yordamchisi bo'lib ishlaydi. Vyursburgdagi laboratoriyani boshqarayotib, u o'z ustoziga qarshi chiqadi. Vyursburg maktabining muhim muvaffaqiyatlaridan biri shundaki tafakkurni o'rganish psixologik konturga ega bo'la boshladi. Avvallari tafakkur qonunlari individual ongda bajariladigan mantiq qonunlari deb baholanardi. Vyursburg maktabi vakillari psixologik tafakkurga ustanovkani (motivatsion o'zgarish), vazifani (maqsad) va undan kelib chiquvchi determinatsiyalashgan tendensiyalarni kiritdi.

N.Ax o'z eksperimentida Kyulpening tekshiriluvchi topshiriqni bajarishga avvaldan tayyorgarlik ko'rish haqidagi taxminini isbotladi. Bunday avvaldan tayyorgarlik ko'rishni u "determinatsiyalashgan tendensiya" yoki "ong ustanovkasi" deb atadi. So'nggi termin paradoksal tarzda jarangladi, chunki tajribalardan ma'lumki bu ustanovka anglanmaydi.

N.Ax onging alohida nosensor mazmunini anglanganlik termini bilan izohladi. Karl Byuler eksperimental amaliyotiga yangi

yo'nalishni olib kirdi, bu esa V.Vund tomonidan qattiq tanqidga uchradi. Metodika shundan iborat ediki, tekshiriluvchi oldiga murakkab vazifa qo'yilgan edi va u xronoskopdan foydalanmasdan turib uning ongida qaror qabul qilish jarayonida nima yuz berayotganini aytib berishi kerak edi.

XX-asr Amerika psixologiyasi qiyofasini belgilab bergan yana bir yo'nalish bixeviorizmdir. Mazkur yo'nalish psixologiya predmetini ong emas, xulq tashkil qilishini e'tirof etadi. Bu yo'nalish asoschilaridan bo'lgan E.Torndayk 1898 yildan o'zining "Hayvonlar intellekti, hayvonlardagi assotsiativ jarayonlarni eksperimental tadqiq etish" nomli doktorlik dissertatsiyasini taqdim etdi. Bixeviorizmning nazariy liderlaridan biri Dj.Uotson "Psixologiya bixeviorist nuqtai nazarida" nomli maqolasini e'lon qiladi. Bixeviorizmning shiori xulqning organizmning tashqi va ichki stimullarga nisbatan reaksiyalar tizimi sifatida baholanishi bo'lib qoladi.

Pozitivizm ta'siri ostida Dj.Uotson shuni isbotladiki, bevosita kuzatish mumkin bo'lgan narsalar va xodisalar haqqoniydir. Uning rejasiga ko'ra butun xulq-atvorni jismoniy qo'zg'atuvchilarning organizmga ta'siri va uning reaksiyalari o'rtasidagi munosabatlar bilan tushuntirish mumkin.

Shu tariqa bixeviorizm uchun ramziy belgi hisoblangan S-R formulasi vujudga keldi. Unga ko'ra xox fiziologik bo'lsin, xox psixik jarayonlar ana shu formula asosida yuz beradi. Xulqda yagona realliklar tanadagi reaksiyalarning turli shakllari deb e'tirof etilgan. Barcha reaksiyalarni, intellektual yoki emotsional reaksiyalarni boshqarish mumkin va psixikaning rivojlanishi muammolarning turli usullarda o'rganilishiga bog'liq.

Haqiqiy psixodiagnostikaga ilk bor e'tibor, fransuz psixologlari A.Bine, va T.Simonlarning intellektni o'lchash borasida ishlab chiqqan intellekt testlari bilan bog'lanadi.

Bu holat XIX asr oxiri va XX asr boshlarida kechib, psixologik testlar borasidagi tadqiqotlarga yo'l ochib berdi. Psixologlardan R.Kettel, D.Raven, L.Frank, G.Rorshax, G.Myurrey, G.Ayzekn, T.Veksler, L.Sond, Dj.Morenolar psixologiyaning turli sohalari bo'yicha har xil mazmundagi testlar ishlab chiqdilar va shu sohaning ilmiy jihatini asoschisiga aylandilar.

Oxir-oqibat psixologiya tarkibidan psixodiagnostika fani ajralib chiqdi va amaliy tadqiqotlar ko'lami yanada kengaya bordi.

Mavzu yuzasidan tayanch tushinchalar:

Eksperimental psixologiya, V.Vund ishlari, Veber va Fexner qonuni, F.Galtoning tadqiqoti, Eshitish va ko'rish reaksiyalari, Idrok obrazlari, V.Vund mayatnigi, Kongnitiv o'lchov birlik.

Nazorat savollari:

1. Eksperimental psixologiya fan sifatida?
2. V.Vund eksperimental psixologiya asoschisi?
3. Sobiq sovet psixologiyasida eksperimental psixologiyaga oid tadqiqotlar?
4. Laboratoriya uslubi tavsifi?
5. Eksperimental tadqiqod bosqichlari?
6. Psixologiya fanining sohalari talqini?
7. Shaxsni tadqiq etishning kompleks dasturi tavsifi?
8. Amaliy psixologiya va unig istiqbol rejalarini?
9. A. F. Lazurskiyning eksperimental tekshirishlar tadqiqoti tavsivi?
10. Psixologik maktablar paydo bo'lishining nazariy masalalari?

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T., Ma'naviyat, 2008.
2. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: O'zbekiston, 2011.
3. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T.: O'zbekiston, 1997.
4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston-NMIU, 2017.
5. Mirziyoyev Sh.M. Erikni va farovon, demoktarik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq. – T.: O'zbekiston-NMIU, 2017.
6. Hergenhahn B.R., Tracy B. Henley "An Introduction to the History of Psychology". – 2014 Wadsworth, Cengage Lyerning.
7. Ярашевский М.Г. История психологии. – М., 1997.
8. Ждан Н.Ж. История психологии. – М., 1995.
9. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. – T., 2010.
10. G'oziyev E.G'. Psixologiya metodologiya. – T., 2013.

IKKINCHI BO'LIM.
XORIJ PSIXOLOGIK MAKTABLARI VA ULARNING
PSIXOLOGIYA FANI TARAQQIYOTIDAGI ROLI

III QISM. XORIJ PSIXOLOGIYASI. PSIXOLOGIK
MAKTABLAR VA ULARNING PSIXOLOGIYA FANI
TARAQQIYOTIDAGI RO'LI

I BOB. PSIXONALIZ MAKTABI TA'LIMOTI

Insonga xos ongsiz mayllar, "libido", "sublimatsiya", "katarsiz" kabi tushunchalarning asoslanishi ilk bor psixoanaz ta'limotida paydo bo'lgan bo'lib, hali-hanuz fanda qiziqarli va bahsbop mavzu sifatida qaralmoqda. Bu ta'limotning asoschisi Z.Freyd hisoblanadi. U 1856 yilda Frayburgda, o'sha paytdagi Avstriya-Vengriya imperiyasining hozirgi kundagi Chexiya Respublikasiga taaluqli joyida tug'ildi.

Serqirra ijodkor olim, meditsina fanini Venada o'rgandi va Avstriyani natsistlar 1938 yilda anneksiya qilgunlariga qadar yashadi. Yahudiy sifatida u vatanini tashlab ketishga majbur bo'ldi va Londonga borib o'rtnashdi, o'sha erda 1939 yilda vafot etdi. Tibbiyotni yaxshi bilsada, uzoq yillar davomida u bedavo saraton kasalligi bilan kurashib yashadi. Uning psixologiya fani sohalariga doir eng mashhur asarlari quyidagilar: "Tushlarning ta'biri", "Psixoanalizga kirish bo'yicha ma'ruzalar", "Lazzat tamoyili ortida", "Bir illyuziyaning kelajagi", "Madaniyatdan norozilik", "Muso va monoteizm".

Z.Freyd psixoanalizning asoschisi hisoblanadi. Ko'pchilikning fikriga ko'ra bu sohadagi yutuqlari Darvin va Eynshteyn kabi olimlar bilan bir qatorda turadi. U o'ziga qadar inson haqida mavjud bo'lgan tasavvurlarni ag'dar-to'ntar qilib tashladi. Dekart, Lokk va Kant fikriga ko'ra tabiat har bir individni iroda erki bilan ta'minlagan. Erkin tanlovni amalga oshirish layoqati individning eng asl mohiyatini bildiradi va ongli "men" bilan bog'langan bo'ladi. Inson psixikasi haqidagi fikrni Freyd illyuziya sifatida talqin qiladi. Ongli "men" qudratli, beong mental hayotning faqat cho'qqisi xolos.

Shunday qilib, Z.Freyd sub'yekt haqidagi bizning tasavvurlarimizda inqilobni amalga oshirdi. Ongli mental hayot insonning umumiy mental hayotida faqat kichkina bo'lak hisoblanadi. Bizning ongimizdagi jarayonlar beong omillar bilan qa'tiy

determinatsiya qilinadi. Bu holatni illyustratsiya qilish uchun ko'pincha aysberg bilan qiyoslashadi. Barcha ongli jarayonlarni aysbergning suv ustidagi qismiga o'xshatilsa, unda ongsizlik muzning ancha katta, ko'rinmas suv ostidagi qismiga o'xshatiladi. Aynan mana shu ko'rinmas massa ham og'irlik markazini, ham aysbergning harakat yo'nalishini aniqlaydi. Shunga o'xshash ongsizlik ham bizning individualligimiz negizi hisoblanadi.

Asr boshida yozilgan ikki muhim asarida Z.Freyd barcha individlarda beong mental jarayonlar mavjudligi haqida gapiradi va psixoanaliz kundalik hayotning beong sabablarini aniqlab berishga qodir ekanligini ko'rsatadi. Bu o'z navbatida inson ruhining yangi va har tomonlama nazariyasini ishlab chiqishga olib keladi. 1900 yilda yozilgan "Tushlar ta'biri" asarida tushlar mazmunga ega ekani va anglanmagan mayllarning onga buzilgan va o'zga shaklda bostirib kirishlari natijasiligi yozilgan. Tushlarga yashiringan ongsizlik mazmunini faqat murakkab talqin jarayoni yordamidagina aniqlash mumkin. "Kundalik hayot psixapatologiyasi" asarida kundalik hayotdagi nutqdagi adashishlar va xotiradan ko'tarilib qolishlar kabi xatoliklar tadqiq qilinadi.

Z.Freydning fikricha bunday fenomenlar tasodifiy va ma'nosiz emas, balki ongsizlik va niyatlarni ifodalaydi. Masalan: biz o'zimizga yoqmay qolgan kimsadan olingan ta'assurotni yo'qotamiz yoki esdan chiqarib qo'yamiz.

Mana shu yerning o'zidayoq aytish mumkinki, psixoanaliz insonni yangicha tushunishni taklif qiladi, bizning tushlarimiz, noadekvat reaksiyalarimiz, hazillarimiz va asariy "alomatlar" ortida aksariyat hollarda beong (ko'pincha seksual) motivlar bo'lishini ta'kidlaydi. Boshqacha qilib aytganda, Z.Freyd mulohazalariga amal qilsak, sub'yektning ongli motivlari va niyatlari asnosida tushunarli bo'lgan narsalar ongsizlikni psixoanalitik tadqiq qilish natijasida yangi ma'no kasb etishi mumkin. Bir qarashda tushunarsiz va ma'nosiz bo'lgan "alomatlar", ularga beong motivlar va niyatlar ifodasi sifatida qaralsa, ma'no kasb etadi. Demak, biz Freyd "shubha germenevtikasi" ni asoslayapti deb aytishimiz mumkin.

Asabiy xastalikka uchragan bemorlar bilan muloqat qilar ekan, Z.Freyd ular o'zlarining "ichki xorish"i bo'lgan beongligini anglamayotganliklarini aniqladi. Shu bilan birga bemor psixoanalitikni o'zidagi asabiylik alomatlari deb tushunishga olib kelishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, alomatlar mazmunga ega,

biroq bu alomatlarining egasi ham, doktor ham bu mazmun haqida bevosita bilimga ega emas. Shu o'rinda talqin zarur bo'lib qoladi.

Z.Freyd fikricha, yashirin yoki xavotirli seksual mayllar ma'nisiz ko'rinadigan simptomlar yoki tushda ko'rinishi mumkin. Xo'sh nima uchun bunday mayllar ong ostiga siqib chiqariladi? Z.Freyd fikricha emotsional kechinmalarni psixikaning xotira etib bora olmaydigan qismlariga siqib chiqarish mexanizmlari mavjud. Namoyon bo'lishi jihatidan almashtirilgan kechinmalar travma, yani yara bo'ladi. Yaraning kelib chiqishi oxir oqibat ilk bolalikkacha tekshirilishi mumkin. Muhokamaning o'ziga xos, "erkin assotsiatsiyalar" usulidan foydalanib, bemor va psixoanalitik travmaning ildizlarini aniqlashadi. Demak, psixoanalizning terapevtik maqsadi ong osti va siqib chiqarilgan axborotni qayta tiklash va uni ego tasarufiga uzatishdan iborat.

Ongostini turli usullar bilan o'rganish mumkin. Jumladan ana shunday usullardan biri "erkin assotsiatsiyalar" bo'lsa, ikkinchisi tush va yanglish harakat larni chuqur germenevtik talqin qilishdir. Freyding o'zi tushlarning ta'biriga markaziy o'rinni ajratgan edi.

Tushlarni ta'birlash ongsizlikni bilish "shoh qasriga yo'l" bo'lib, psixoanalizning eng asosi va har qanday tadqiqotchi ishonch va ma'lumot oladigan sohadir. Mendan, qanday qilib psixoanalitik bo'lish mumkin, deb so'rashsa, men doimo o'z tushlaringizni o'rganish orqali, deb javob beraman.

Tadqiqotchi "Tushlar ta'biri" asarida tushlar psixozlar bilan tashqi o'xshashlik va ichki o'zaro aloqadorlikka ega, deyiladi. Biroq ular sog'lom va normal holat bilan to'la mos kelishi mumkin. Umuman, tush "alomat" sifatida talqin qilinishi mumkin, biroq nimaning alomati sifatida? Z.Freyd yosh bolalar o'zlarida bir kun oldin (kunduzgi fantaziya) paydo bo'lmagan lekin qondirilmagan istaklar va mayllar haqida tush ko'rishlarini aytib o'tadi. Tush, shunday qilib, ular istaklarining ro'yobga chiqishidir. Kattalarning tushi ham "kunduzgi fantaziyaning" muayyan qismiga ega, biroq bu erda vaziyat murakkabroq.

Kattalarning tushlari ko'pincha tushunarsiz va kunduzgi mayllarni qondirishdan juda uzoq (dahshatli tushlar va vahimalar).

Z.Freyd fikricha, bunday tushlar ong ostiga siqib chiqarilish ob'yekti bo'ladilar. Tushlar qo'rqinch bilan birga bo'lsa, bu ularning siqib chiqarilgan, ego ma'qullamaydigan va ma'n qilingan istaklarini qondirish maqsadida vujudga keladi.

Tushni tushunish uchun uning ochiq mazmunini va yashirin ongsiz mazmunni, tushdagi yashirin fikrlarni farqlashimiz kerak. Birinchisi biz uyqudan uygʻongandan keyin ozmi-koʻpmi eslashimiz mumkin boʻlgan narsalar. Ikkinchisi, ong osti sathida yoki boshqa qavatda tushning ochiq mazmuni uning siqib chiqarilgan va anglanmagan mazmunining oʻrniga vujudga keladi. Siqib chiqarish bizning mental murvatlarimiz taʼsiri natijasidir. Uygʻoqligimizda bu murvatlar bizning ongimizga ong ostidagi va siqib chiqarilgan mayllarning kirib kelishiga yoʻl qoʻymaydi. Biroq uxlaganimizda, ular bizning psixikamizga niqoblangan holda kirib keladilar.

Demak, uxlayotgan odam tushlarning maʼnosini huddi nevrotik oʻzidagi alomatlar maʼnosini tushuna olmaganiday tushunmaydi. Biz eslaydigan (ochiq mazmunli) tushlar siqib chiqarilgan mayllarning buzilgan holda roʻyobga chiqishidir. Tushdagi yashirin ong osti fikrlarini buzib koʻrsatuvchi jarayonni Z.Freyd “tushning ishi” deb ataydi. Koʻp jihatdan u siqib chiqarilayotgan komplekslarni nevrotik alomatlariga aylantiradigan muvaffaqiyatsiz siqib chiqarish jarayoni bilan bir xil kechadi. “Tush ishi”ning murvatli tushlarni boʻrttirish, oʻrni almashtirish, dramatiklashtirish va timsollashtirishdir. Bundan tashqari tushning ikkilamchi ishi ham mavjud. Ong osti shunday qilib, “artistic” vositalardan foydalanishga harakat qiladi. Shu maʼnoda biz barchamiz tushlarimizda ham aktyorlarmiz.

Boʻrttirish masalan: tushdagi voqea (esda qolgan) bir necha turli xil istaklardan iborat boʻlishi mumkin. Oʻrin almashtirish shunday jarayonki, tushimizda biz uchun juda zarur boʻlgan hodisa yoki shaxs juda kichik ishora yoki bizga notanish narsa sifatida namoyon boʻladi. Huddi shunday, hodisa mazmun jihatdan juda oddiy hodisa ifodalangan tushimiz qoʻrqinch yoki kuchli hissiyotlar bilan bogʻlanishi mumkin. Boʻrttirish yoki oʻrin almashtirish oʻz ishini qilib boʻlgandan keyin, psixoanalitik anglanmagan mazmunni aniqlash va tadqiq etish uchun “erkin assotsiatsiyalar” usulidan foydalanadi.

Shunga oʻxshash timsollashtirish buzishning bir varianti boʻlib chiqadi. Masalan: erkaklarning genitaliysi unga shakl jihatdan oʻxshash boʻlgan obʼyektlar. Masalan, konserva bankasi, zontik, pichoq va revolver kabi narsalar bilan almashtirilishi mumkin. Ayollarning genitaliysi boʻsh joyni oʻrab turgan obʼyektlar (gʻor, quti, xona, bino va boshqalar) yordamida timsolan taqdim qilinish mumkin. Tushning ikkilamchi ishi tushni mantiqiy qarama qarshiliksiz, ogʻzaki ifodalashga harakat qilishimizdan kelib chiqadi. Freyd fikriga koʻra,

tushning ochiq mazmuni juda ko'p turli elementalni qamrab oladi. Aytish mumkinki u o'ta aniq. Shunga o'xshash tarzda turli sabablar zanjiri va omillar psixologik alomatlarni o'ta aniqlab beradi.

Z.Freyd aytishicha, tushning yashirin fikrlari senzurdan o'tkaziladi. Soddaroq qilib aytsak, siqib chiqarilgan va man qilingan mayllar ongda namoyon bo'lish uchun "senzurdan" o'tishlari kerak. Tanqidni chetlab o'tish uchun tushning ishi tushdagi yashirin fikrlarni tushning ochiq mazmuniga aylantiradi. Biz eslaydigan tushimiz maxfiy, kodlashtirilgan axborotga ega bo'lib u ongimizga kontrabanda yo'li bilan olib kiriladi. Biz tushimizning ochiq mazmuniga echish lozim bo'lgan rebusga qarganday qarashimiz mumkin.

Psixoanalitik kodni ravshanlashtirgandan keyingina tushning yangi mazmuni paydo bo'ladi. Mahfiy ma'no nima? Z.Freyd aytishicha, kattalarning tushlari ko'pincha seksual tomonga yo'naltirilgan va erotik mayllarini ifodalaydi. (Bu xulosa Freyd keyinchalik agressiya yoki o'lim unikal instinkti haqidagi tushunchani kiritgandan keyin muammoli bo'lib qoladi). Tushlarni ta'birlashning asosiy qoidalarini quyidagi tarzda ifodalaymiz:

-tushdagi yashirin fikrlar va ochiq ma'no o'rtasidagi tafovut tushning mazmunini tushunishda kalit bo'lib, xizmat qiladi;

-tushning ochiq mazmuni- undagi yashirin fikrlarni buzilgan ifodasi bo'lib, ta'bir joiz bo'lsa, tush ishining mahsulidir;

-tushlarni tahlil qilish uchun Z.Freyd "erkin assotsiatsiyalar" uslini qo'llaydi, bu usuldan psixoterapiyada ham foydalanish mumkin.

Z.Freydning tushlarning talqin qilishga yondoshuvi bizga inson mental holatlarining boy manzarasini namoyon qiladigan psixologik modelning asoslarini ifodalaydi;

-Z.Freydning tushlardagi yashirin ma'noni aniqlashga urinishi ong osti ba'zi "Grammatik" qoidalarga mos tarzda ishlashi yoki ong osti "til"ga o'xshab tuzilmalashtirilganini (tushni rebus sifatida tushunish bilan taqqoslang) tushunishga olib keldi.

Ba'zi sabablarga ko'ra, Z.Freydning mental "apparat" to'g'risidagi nazariyasini tushunish qiyin.

Birinchidan psixoanalizni ishlab chiqishning turli bosqichlarida Z.Freyd o'zining inson psixikasiga nisbatan psixikaga bo'lgan qarashlarini o'zgartirib, kengaytirgan. Garchi ularning hammasining birlashtirishga intilsa ham uning konsepsiyasida noaniq holatlar ko'p.

Ikkinchidan, Freydning fiziologik va juda antropomorf (insonga o'xshash) atamaları ko'p ma'nolidir. U "ego" "uch xo'jayinga" (tashqi

dunyo, id va super ego) xizmat qiladi deganda, u mental funksiyalarni ob'yektivlashtirib personifikatsiyalashtirmoqda, Gilbert Rayl "mashina ichidagi ruh" deb atagan narsani kiritmoqchi degan tasavvur paydo bo'lishi mumkin.

Z.Freydning birinchi "topografik modeli" (psixika yoki inson shaxsi tuzilmalari haritasi) mental hayotning uch lokalizatsiyasini farqlaydi. Soddaroq qilib aytganda, mental apparat maydonda uch sohaga bo'lingan: ongsizlik, oldong va onglilikka bo'lingan, deyish mumkin. Ongni individ bevosita anglayotgan barcha narsalar, deb tavsiflash mumkin. Oldong - individ xotirada tiklashi yoki eslashi mumkin bo'lgan barcha narsalar sohasi. Z.Freyd ongsizlikni onnga ancha harakatlar bilan chiqadigan mental jarayonlar sifatida belgilaydi.

"Psixoanalizga kirish bo'yicha ma'ruzalar" asarida aytilganlarni tushunishga yordam beradigan misol keltiradi. Mehmon katta dahlizda (ongsizlik) va mehmonxonaga (oldong)ga kirmoqchi. Biroq bu ikki xona o'rtasidagi koridorda qorovul (senzor) bor va u mehmonlarni tanlab o'tkazadi. Agar mehmon qorovulga yoqmasa, u haydab yuboriladi yoki siqib chiqariladi. Mehmon mehmonxonaga kirgan taqdirda ham, unga uyning egasi darov e'tibor qaratadi, degan ma'noni bildirmaydi. Bu oldongdagi g'oyalar anglanmaganini, biroq anglanishi mumkinligi haqidagi tasavvurlarga mos keladi. Ongsizlikdagi g'oyalar anglanishi uchun ular avvalo mehmonxonaga yoki oldongga kirishlari kerak.

Mening fikrimcha, agar mehmon haydab yuborilgan bo'lsa, keyingi safar u niqoblangan holda bo'ladi. Bunday mehmon "alamat" sifatda qabulga qo'yilishi, xo'jayin uning mohiyatini bila olmasligi mumkin. Bu qiyoslar qorovul individning ongsizlikni anglashiladigan narsaga aylantirish uchun mos keladi. Qorovul charchaganda (yoki individ uxlayotganda) niqoblangan mehmonning kirib olishi (ya'ni, tushning ochiq mazmuni ko'rinishida) osonlashadi. Bunday siqib chiqarish jarayoni xo'jayin anglamagani holda yuz berishi mumkin.

Oradan oz fursat o'tib, 1920 yillardan keyin Freyd topografik modelni o'zgartirdi va id, ego va super ego atamalarini kiritdiki, ular turli psixik istansiyalarni ifodalaydi. Psixikaning mana shunday uch ko'rinishga - id, ego va super egolarga bo'linishi boshqa super analitiklarning (masalan: fransuz psixoanalitigi Jak Lakan) shuningdek, fan falsafasi vakillari tomonidan qarshilikka uchradi.

Popper bir kuni bunday bo'linish Gomer tomonidan, Olimp tog'ida yashovchilar haqidagi afsonalar kabi ilmiy mavqega ega degan edi.

Z.Freyd tomonidan mental apparatni tushunishni biz metapsixologik pozitsiya sifatida talqin qilishni afzal ko'ramiz. Bu esa bizga uning odamni o'rganishdagi nuqtai nazarini tavsiflash, uning klinik amaliyotda aniqlagan hodisalar konseptual karkasini aniqlashga harakat qilishimizda yordam beradi. Epistemologik atamalaridan foydalanib, biz bu metapsixologik karkaz psixoanaliz "tadqiqot dasturining" markaziy qismi deb aytay olamiz. Aynan mana shu mental apparat, mental quvvat va instinktlar g'oyasi yordamida Freyd irratsional qo'rqinch va miyaga o'rnashib qolgan harakatlarga qarshi kurashda ratsional dallillar ojiz ekanini tushuntirmoqchi bo'ldi. Bizning instinktlarimiz, tashqi olamga munosabatimiz va vijdonimiz (ichki ovoz) o'rtasidagi nizoni tushunish uchun u bizning mental hayotimiz (id, ego va super ego) modelini ishlab chiqdi. Z.Freyd bu o'rinda tushunchalar, mohiyatlar va to'qib chiqarilgan holat chegarasida ish yuritdi.

Avvalo, uning mental hayotimizga bo'lgan o'z qarashlarini qanday bayon qilganini ko'rib chiqaylik. "Makonda joylashgan, ong hodisalari faqat muayyan nuqtada sharoitlarda belgilaydigan hayot ehtiyojlar asosida ratsional tuzilmalashtirilgan, rivojlangan psixik apparat to'g'risida biz qabul qilgan faraz bizga boshqa har qanday fan, masalan, fizika poydevoriga o'xshash psixologiya poydevorini yaratish imkonini berdi".

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, Z.Freyd psixoanalizni fizika fani qonuniyati kabi ko'radi. Bunday talqin uning ba'zi tayanch metopsixologik tahlillari bilan bog'liq. U mental hayotni mental kuchlar va mental quvvat bilan determinatsiya qilinadigan hodisa sifatida tushunadi. Demak, tadqiqotchi psixoanalizni tabiiy fan deb aytishi mumkin.

Mental kuchlar va mental quvvat eng qadimgi mental soha bo'lgan idda topilishi mumkin. U inson instinktlarining mental jihatlari ega. Z.Freyd idni "sharaqlab qaynab turgan choynak"ka o'xshatadi. Bizning instinktlarimiz har doim bizning ehtiyojlarimizni qondirishga intiladi. Ular lazzat tamoyili, deb ataladigan narsaga bo'ysunadilar. Id (u) individni faollashtiradigan boshqa funksiyalari ham mavjud. Ular oldingi siqib chiqarilgan, biroq odamni faollashtirishda davom etayotgan g'oyalar harakatlar va tuyg'ularni

“xotirlash” haqida gap yuritadi. Bu funksiyalar mantiqiy tashkil etilmagan holda harakat qiladi. Ular mantiqiy emas.

Biroq muayyan ma’noda baribir inson ongiga kirishadi: sabab va oqibatlarni tushunmasak, ular bizni harakatga undaydi, depressiya holatiga olib keladi yoki xayol va fantaziyalarni keltirib chiqaradi. Shunday qilib, ongsizlikgi oliy mental sifat hisoblanadi.

Psixoanalizdagi eng muhim holatlar jumlasiga ongsizlik yoki id (u)dagi jarayonlar bizning ongli hayotimizni boshqaruvchi qonunlardan farq qiladigan boshqa qonunlarga bo’ysunishi haqidagi farazlardir. Z.Freyd bu “qonunlarni” birlamchi jarayonlar deb ataydi. Tush ishini muhokama qilishimiz ongsizlikda yuz berayotgan jarayonlarning g’alati va chalkash xususiyatlariga ishora qiladi. Masalan undagi qarama qarshiliklar ayniyat sifatida talqin qilinadi.

Tashqi olamning ta’siri tufayli id unikal taraqqiyotning boshdan kechirdi. Unda id va tashqi olamni o’zaro bog’lab turuvchi muayyan mental soha paydo bo’ldi. Mental hayotning bu sohasini Z.Freyd ego deb atadi. Egoning eng muhim vazifasi - o’zini saqlash. Bundan tashqari u ehtiyojlarni xavfsiz qondirishni ham ta’minlash kerak. Ego instinktlarni siqib chiqarish yoki to’xtatib turish to’g’risida qaror qabul qiladi. U reallik tamoyiliga bo’ysunadi.

Demak ego idning talablari va tashqi dunyo o’rtasida vositachi bo’lishi kerak. Ego kuchsiz va kam rivojlangan paytida o’z oldidagi vazifalarni u hech qiynalmasdan bajaradi. Instinktlarimizning talablari va tashqi olam talablari travmaga olib kelishi mumkin. Nochor ego keyinchalik o’rinsiz bo’lib qolishi mumkin bo’lgan siqib chiqarishlar yordamida o’zini muxofaza qiladi. Ana shunday siqib chiqarishlarda ego super egodan yordam oladi.

Z.Freyd bir nechta marta sub’yekt o’ziga ob’yekt sifatida qaray olishi va shu asosda o’ziga nisbatan tanqidiy va sog’lom ustanovkalar ishlab chiqishga hayrat bilan qaragan edi. Bunday qobiliyat, deb o’ylagan edi u, egoning boshqa qobiliyatlardan keyingiroq bosqichda paydo bo’ladi. U bolalardagi ijtimoiylashuv jarayonlarda asta sekin paydo bo’ladi. Super ego ota onalar me’yorlari va ideallarini anglamasdan internarizatsiya (o’zlashtirish) natijasidir. Bir muncha kengroq ma’noda jamiyat va an’ana o’zlarining axloqiy hokimiyatini biz vijdon deb ataydigan narsa yordamida amalga oshiradi. Aytish mumkinki, super ego egoni nazorat qilib turadi, unga “tavsiyalar” berib turadi va jazolash bilan “po’pisa” qiladi.

Super egoning faqat o'z xatti - harakatlari to'g'risida emas, hattoki fikrlari va hoxishlari to'g'risida ham hisobot berishini talab qiladi. Demak, super ego ego hisobga olishi lozim bo'lgan uchinchi kuchdir. Z.Freydning vijdon nazariyasi to'g'ri va noto'g'ri haqidagi tug'ma yoki mutloq tasavvurlar bo'lishi mumkinligini inkor qiladi. Shu nazariyadan foydalanib, Z.Freyd Xudo haqidagi g'oya bolaning otasiga proeksiyasining natijasi, degan xulosaga keldi.

Mashhur topografik modelni rivojlantirishga harakat qilib, Z.Freyd "dinamik" nuqtai nazarini taklif qildi. U, Z.Freyd fikricha, bizning mental hayotimiz kuchlari o'yinning natijasi bo'lgan mental nizolarni tushunish uchun muhimdir. Ular qanday ishlayotganini tushuna boshlaganimizdan keyin biz mental hodisalarga dinamik qarashni akllantiramiz. Z.Freyd ta'kidlashicha, biz xulqni insonni turli tomonlarga tortayotgan tamoyillar o'rtasidagi kelishuv deb bilsak, bu kuchlarni identifikatsiyalashga asoslangan dinamik yondoshuv asosida tahlil qilinishi lozim, deb hisoblagan ko'rinadi.

Boshida dinamik nuqtai nazar inson instinktlariga aloqador edi. Biroq u shunchalik ko'p o'zgarishlarni boshdan kechirdiki, endi u dastlabki konsepsiyaning rivojimi yoki uning o'rniga kelgan yangi konsepsiyami ekani har doim ham ravshan emas. Z.Freyd ko'pincha instinktlar to'g'risida kelib chiqishi somatik bo'lgan mental tasavvurlar, deb fikr yuritgan. Instinktlar cheksiz ko'p maqsadlarga ega bo'lishi va ular o'zaro nizoga kirishishi mumkin. Biroq ularning namoyon bo'lishi ijtimoiy yoki madaniy jihatga ega bo'lishi kerak: odamlar hamma joyda ham ochlik hissini sezadi, biroq uni qanday qondirish ijtimoiy determinatsiya qilinadi.

Z.Freyd o'zining keyingi asarlarida hayot instinkti (eros) va o'lim instinkti (tanatoz)ni birg'biridan farqladi. Uning ta'kidlashicha, bu ikki asosiy instinkt g'oya yunon faylasuflariga ham ma'lum edi. Alohida o'lim instinkti haqida Z.Freydning g'oyasi psixoanalitik doiralarda qattiq qarshilikka duch keldi va hozir ham u haqda munozaralar davom etmoqda. Z.Freyd ilmiy iste'molga o'lim instinkтини kiritar ekan, agressiya va urushlar singari hodisalarni izohlamoqchi bo'ldi. Uning yana ta'kidlashicha, seksual agressiyaning haddan tashqari bo'lishi o'ynashni o'z ehtirosi predmetining qotiliga aylantirib qo'yishi ham mumkin. Agressiya shuningdek internalizatsiyalashgan (o'z ichiga qaratilgan) bo'lishi va o'zini emirib tashlashai ham mumkin. Butun erotik quvvatni Z.Freyd libido deb ataydi. "Libido" bir ob'yektdan ikkinchisiga o'tishi yoki muayyan

ob'yektlardan jamlanishi mumkin. Topgrafik modelni yanada batafsilroq ishlab chiqish Z.Freydni "energiya" nazariyasiga olib keldi. Uning mohiyati barcha mental hodisalarni energiyaga bog'lashdan iborat. Z.Freyd har bir odam katta, lekin cheklangan miqdordagi mental energiyaga ega ekanini, bu energiyalar g'oyalar va ob'yektlardan olinishi yoki ularga berilishi mumkinligin ta'kidlaydi. Bu energiyani o'lchash usullari hozir mavjud bo'lmasa ham, umuman uni o'lchash mumkinligi haqida Z.Freyd qat'iy fikr bildiradi.

Ko'pchilik odamlarning hayotiy kechinmalari yoki bu ma'noda mental energiya atamaları yordamida bayon qilinishi mumkin. Kundalik hayotda biz, masalan, "ko'ngil ochish" ehtiyoji yoki salbiy quvvatdan halos bo'lish zaruriyati to'g'risida gapiramiz. Biroq Z.Freyd bunday energiyaning qanday xususiyatlari borligi to'g'risida hech narsa demaydi va faqatgina uning qanday effektlarga olib kelishi mumkinligi to'g'risida fikr yuritadi.

Bir necha tahlillarda Z.Freyd tushni illyuziyalar va noratsional belgilar bilan kuzatiladigan psixozlar sifatida tavsiflaydi. Uyqu paytida ego kuchsizlanadi va hukmronlik qiladi, chunki mental apparatdagi funksiyalarni buzilishi nevroz va psixozlarda ifodalanadi. Bunda egoning voqelik bilan aloqasi buziladi va qisman to'xtatiladi. Bunday tushunish psixoanalizning terapevtik maqsadi uchun asos yaratadi.

"Analitik vrach va unga kelgan bemorning kuchsizlangan "Men"i (egosi) real tashqi dunyo asosida dushman U (id)ning instinktiv talablari va super Men (super ego) ning o'ngli talablariga qarshi birlashishi kerak".

Shu munosabat bilan psixoanalizning terapevtik maqsadi va Nitsshening supermen nazariyasi o'rtasida o'xshashlik borligini aytish mumkin. Z.Freyd uchun ham Nitsshe uchun ham asosiy muammo standart giper ahloq va instinktlar talablari o'rtasidagi nizoni bartaraf qilishda. Nitsshening supermeni o'zini nevroitik huddi muvaffaqiyatli psixoanaliz seansida o'zini o'zi enggani kabi engadi.

Yuqorida ta'kidlangan strukturalizm, funksionalizm, bixeviorizm, freydzizm oqimlari jahon psixologiya ilmining shakllanishiga asso bo'lgan bo'lsa, ular ta'sirida shakllangan boshqa o'nlab yo'nalishlar - assatsiativ psixologiya, geshtaltpsixologiya, gumanistik psixologiya, ekzistensial psixologiya, kognitivizm, ramziy - simvolik interaksionizm kabilar uning qator masalalarini hal qilishga o'z hissasini qo'sha oldi. Eng muhimi - XX asrga kelib,

psixologiyaning tatbiqiy sohaları paydo bo'ldiki, endi qo'lga kiritilgan yutuqlar bevosita ta'lim, tarbiya, sanoat, biznes, marketing xizmatlari, boqaruv, sog'liqni saqlash, huquqbuzarlikni oldini olish sohalariga dadil joriy etila boshlandi.

XXI asrning birinchi yarmiga kelib, psixologiya nazariy va tahliliy fandan bevosita amaliyotni ehtiyojlarini qondiruvchi fanga aylandi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Z.Freyd inson psixikasini nafaqat onglilik xarakterini balki ongsizlik jihatini ham tushuntiraoldi. Garchi, uning ta'limoti fanda qattiq tanqidlarga uchragan bo'lsada, hanuzgacha psixologiyaning tabiiy fanlar bilan aloqadolik jihatlarini isbotlab turadi.

1.1. Bixeviorizm maktabi ta'limoti

Psixologiya tarixida xulq-atvor va uning namoyon bo'lish muammosi bilan amaliy tadqiqot olib borgan va xulq - atvor nazariyasiga asos solgan ta'limot bixeviorizm hisoblanadi. XIX asrning oxirida bir qancha amerika psixolog va fiziologlari, jumladan, E. Torndayk, Dj Uotson, K. Leshli , A. Veys va boshqalar empirik psixologiyani tanqid qilib chiqdilar. Ular, avvalo, bu psixologiya foydalanib kelayotgan o'z - o'zini kuzatish uslubi (sub'yektiv uslub) haqiqiy ilmiy bilimlar bera olmaydi, chunki uning xulosalari sub'yektiv xarakterga egadir.

Haqiqiy ilmiy bilimlar ob'yektiv va aniq bo'lmog'i kerak. Psixologiya falsafaga emas, balki hozirgi zamon tabiatshunosligiga tayanmog'i va boshqa tabiat fanlari, masalan, fizika, ximiya, biologiya singari, tashqi tajriba dalillari asosida ko'rilmog'i kerak. Shuning uchun ham psixologiya o'z - o'zini kuzatish uslubini ulotirib tashlashi va faqat ob'yektiv (tashqi) uslubdan foydalanishi kerak, ya'ni psixik hayotni har kim o'z - o'zida emas, balki boshqa kishilarda hayvonlarda tashqi kuzatish va eksperiment yo'li bilan o'rganmog'i kerak. Psixologiya faqat ob'yektiv uslub qamrab oladigan narsalarnigina, ya'ni tashqi sezgi organlari yordamida idrok qilinadigan narsalarnigina o'rganmog'i kerak.

Psixik hayotni ob'yektiv uslub bilan o'rganishda, aftidan, ongning sub'yektiv hodisalari, inson shaxsining ichki psixik kechirmalari (ya'ni empirik psixologiya o'rganishi lozim deb hisoblagan hodisalar) qamrab olinmay qolsa kerak.

Ob'ektiv uslub bilan faqat organizmning harakatlarini, ya'ni mimika, imo -ishoralar, nutq va boshqalarnigina o'rganish mumkin. Amerika psixologiyasidagi bu oqimning vakillari ham psixolog organizmning faqat tashqi ifodali harakatlarini, inson va hayvon hulkinigina o'rganmog'i kerak deb da'vo qildilar.

Dj.Uotson shuning uchun ham o'zining psixologiya sohasidagi asosiy asarini "Psixologiya xulq haqidagi fan" deb nomladi. "bixevior" degan so'z inglizcha xulq, demakdir. Amerika psixologiyasidagi bu yo'nalish shuning uchun ham "bixeviorizm" xulq psixologiyasi deb ataladi. Organizmning turli - tuman harakatlarini va umuman hayvonlar hamda inson xulqini keltirib chiqaradigan sabablar nimadan iborat degan savolning tug'ilishi tabiiydir.

Biz odatda, organizmning harakatlari – mimika, imo - ishoralar, nutq ichki ruhiy kechirishlarning faqatgina tashqi zohiri deb bilamiz. An'anaviy – ratsionalistik va empirik psixologiya ham bizning harakatlarimizning ko'pchiligi ichki psixik kechinmalarining faqat tashqi ifodasidir deb ta'kidlagan.

Lekin bixevioristlar inson xulqining bunday tushuntirishini ilmiy emas deb rad qildilar. Ularnng da'vosiga ko'ra, fizik va qonuniyatlariga bo'ysunmaydigan fiziologik jarayonlar inson xulqiga ta'sir qiladigan va uni boshqaradigan hech qanday alohida psixik faoliyat yoki ong faoliyatining bo'lishi mumkin emas.

Psixika va ong haqida Uotson¹: "Agar bixeviorizm fanda qandaydir ko'zga ko'rinarli o'rin olinishini hohlasa aniq, ob'yektiv uslub sifatida bo'lsa ham, u "ong" tushunchasini mutlaqo rad qilmog'i kerak. Ong va uning tarkibiy elementlari – bularning barisi quruq gapdan iborat" deb aytgan.

Shuningdek, bixevioristlar psixologiyaning oddiy terminologiyasini ham uloqtirib tashlaydilar. O'sha Uotsonning o'zi yana shunday deydi: "sezgi, idrok, diqqat, iroda, xayol kabi tushunchalardan, biror kimsa to'liq tushungan holda foydalana olishini men mutlaqo bilmayman va unga ishonmayman ham¹¹".

Hayvon va insonning har bir harakati tashqi qo'zg'ovchilarning ta'siri tufayli ro'y beradi. Inson va hayvonning xatti - harakatlari tashqi ta'sirotlarga berilgan reaksiyalardir. Bu reaksiyalar tug'ma va turmush jarayonida hosil qilingan bo'lishi mumkin. Tug'ma

¹¹ Hergenhahn B.R. Tracy B. Henley An Introduction to the History of Psychology. – 2014 Wadsworth, Why Study the History of Psychology. 373- bet.

reaksiyalarga reflektor harakatlar (instinktlar) kiradi. Hosil qilingan reaksiyalarga esa har xil malakalar kiradi. Masalan, barcha irodaviy harakatlar nutq va boshqa murakkab xulq formalari shunday harakatlardir.

Bixeviorizmning asoschisi Torndayk kuzatish uslubi va mahsus eksperimentlar o'tkazish bilan hayvonlarda (asosan, kalamushlarda) malaka hosil qilish jarayonini o'rgangan.

Torndayk hayvonlar psixikasini o'rganishdagi huddi shu ob'yektiv uslublarni inson psixik hayotini o'rganishga ham ko'chirish (tatbiq qilish) mumkin deb hisobladi. Inson xulqi reaksiyalar yig'indisi sifatida bitta emas, balki butun bir qo'zg'ovchilar sistemasi bilan vujudga keltiriladi.

Organizmning javob harakatlari yig'indisini (xulqini) ro'yobga chiqaruvchi barcha qo'zg'ovchilarning murakkab yig'indisi bixevioristlar vaziyat (tashqi sharoit) deb ataydilar.

Bixeviorizm nuqtai-nazaridan, inson xulqi ong faoliyati bilan emas, balki tashqi qo'zg'ovchilarning yig'indisini bo'lgan vaziyat bilan belgilanadi.

Isonning psixik hayoti butunlay organizm reaksiyalarining yig'indisiga tenglashtirib qo'yiladi. Psixik hodisalar, psixik jarayonlar tushunchalari o'rniga ham an'anaviy psixologik tushunchalar hisoblangan sezgi, idrok, iroda, xayol, tafakkur kabi tushunchalar o'rniga ham har xil nom olgan reaksiyalar ishlatiladi.

Psixologiyaning vazifasi avvalo, organizm har xil qo'zg'ovchilarni qabul qilib olishga xizmat qiluvchi va shu qo'zg'ovchiga javob beruvchi apparat va mexanizmlarni o'rganishdan iboratdir. Psixologiya muayyan reaksiya tashqi muhitning inson organizmiga ta'sir qilib turgan qanday predmet va hodisalari bilan ro'yobga chiqarilishini ham o'rganmog'i kerak.

Binobarin, psixologiya inson reaksiyalarini faqat tasvirlabgina qolmasdan, balki qo'zg'ovchi bilan organizmning javob harakati o'rtasidagi qonuniy bog'lanish va munosabatlarni ham qidirib topishi va aniqlashi, xulqning situatsiyaga bog'liqligini belgilab berishi lozim.

Tadqiqotchilar ta'kidicha, tashqi qo'zg'ovchi bilan inson xulqi o'rtasida qonuniy, faqat mexanik bog'lanish bor: qo'zg'ovchi (situatsiya) qanchalik kuchli va murakkab bo'lsa, reaksiya (xulq) shunchalik kuchli va murakkab bo'ladi va aksincha, qo'zg'ovchi (situatsiya) qanchalik kuchsiz va oddiy bo'lsa, reaksiya (xulq) shunchalik kuchsiz va oddiy bo'ladi. Demak, bixeviorizmning asosiy

qoidalaridan biri shuki, inson xulqi hamma vaqt muhit bilan qat'iy muvozanatda bo'ladi.

Bixevioristlarning ta'limotiga ko'ra, inson shaxsi faqat organizm yoki aniqroq qilib aytganda, eng murakkab mashina bo'lib, u o'zining barcha (elementar yoki murakkab) harakatlari bilan muhitning shart-sharoitlari va o'z organizmining strukturasi bilan qonuniy ravishda belgilangan (determinlangan)dir.

Insonning butun faoliyati, uning butun xulqi harakatlardan iborat bo'lgan fizik, mexanik protsess deb qaraladi: insonniig psixik hayoti nerv sistemasida, mushak va ichki sekretsiya bezlarida ro'y beradigan harakat va o'zgarishlarga tenglashtirib qo'yiladi.

Agar empirik (sub'yektiv) psixologiya ruhning o'zini o'ranishdan voz kechganligi sababli uni ba'zan "ruhsiz psixologiya" deb atagan bo'lsalar, ob'yektiv psixologiyani esa "Psixikasiz psixologiya" deb atadilar. Texnika sohasida fizika qanchalik ahamiyatga ega bo'lsa, ijtimoiy tuzum sohasida psixologiya ham shunchalik ahamiyatga ega bo'lmog'i kerak.

Uotsonning fikricha, psixologiyaning oldiga shaxs va muhitni shunday tashkil qilish vazifasi qo'yilmog'i kerakki, bu bilan jamiyatda oqilona va baxtli hayot kechirish uchun zaruriy shart - sharoitlar yaratilgan bo'lsin"

Bixeviorizm nuqtai - nazaricha, xususan psixologiyaning oxirgi vazifalari insonning yoki butun bir jamiyat (sinf) ning zaruriy xulqini tashkil qilishdan iboratdir. Psixologiya u yoki bu odam, butun bir jamiyat har qanday sharoitlarda ham qanday xatti - harakat qilishini oldindan mumkin qadar aniq va ilmiy jihatdan asoslab aytib bermog'i kerak.

Bixeviorizm ta'limoticha, ta'lim va tarbiyada tarbiyalanuvchilar va o'quvchilar ongiga tarbiyachi yoki o'qituvchi tomonidan ta'sir qilishdan emas, balki tegishli situatsiya (sharoit) tashkil qilishdan iboratdir. Bu holat (qo'zg'ovchilar va stimullar) organizmga bevosita ta'sir qilib, inson xulqini kerakli tarzda shakllantirmog'i kerak. Ta'lim va tarbiya jarayonining o'zi esa, kerakli malakalar (ichki va tashqi harakatlar) hosil qilishga tenglashtirib qo'yiladi, boshqacha qilib aytganda, ta'lim va tarbiya jarayoni zichlashgan qilib qo'yiladi. Ushbu ta'limotning eng katta xatosi "psixika" ni havon va inson nuqtai-nazardan tenglashtirgan holatda tushuntirishi sabab bo'ldi. Vaqt o'tib ushbu ta'limot ko'p tanqidlarga uchragan bo'lsada, hozirga

qadar fanda psixikaning tashqi ta'siriga nisbatan javob reaksiyasini asoslovchi yagona ilmiy yo'nalish sifatida gavdalanmoqda.

1.2. Vyursburg maktabi ta'limoti

Ma'lumki, XX asrning boshlarida Germaniyada Vyursburg maktab psixologiyasi deb atalgan alohida yo'nalish paydo bo'ldi. Bu ta'limotning asoschilari O. Kyulpe, K. Byuller, A. Messer, N.Ax va boshqalardir. Ular assotsiativ psixologiyani tanqid qilib chiqdilar va tekshiriluvchilariing o'z - o'zini kuzatishlariga asoslangan mahsus eksperimentlar o'tkazish yo'li bilan, yuksak psixik jarayonlarni, asosan, tafakkurni sodda psixik elementlarga sezgilar va tasavvurlarga bo'lib qo'yish bu murakkab psixik jarayonlarni shu elementlardan tarkib topadilar deb ta'lim berish mumkin emasligini isbotlashga intildilar. Bu eksperimentlarning tashabbuskorlari va uyushtiruvchilari bo'lgan Kyulpe, Messer, Byuller va boshqalar psixologik eksperimentlarini o'zlari ustida sinab ko'rganlar.

Tadqiqotchilar o'z eksperimentlari natijalari kelib chiqib, tafakkur yuritish aniq o'lchash mumkin bo'lgan vaqtni talab qiladi, deb ta'kidlashga intildilar. Biroq, tafakkur jarayonining mazmunini esa "ilintirib olish" ham mumkin emas ekan, bu protsessning tarkibidagi sezgilarni, tasavvurlarni, so'zlarni va boshqa yaqqol elementlarni "ilintirib olish" mumkin emas ekan. Tafakkur ham, sezgi singari, birlamchi hodisa ekan: u o'z tabiatiga ega bo'lib, tajribaga bog'liq emas degan xulosaga keldilar.

Vyursburg maktabining vakillari tafakkur funksiyasining birlamchiligi va o'ziga xosligi haqidagi ta'limoti bilan, tafakkur ruhning alohida qobiliyatidir degan tafakkur hukmidagi sxolastik ta'limotni, ruhni alohida moddiy bo'lmagan mohiyatdir deb ta'riflovchi metafizik ta'limotni faqat boshqa iboralar bilan ifodalagan holda qaytadan takrorladilar, xolos.

Bu ilmiy oqim xulosalari psixologiyadagi o'ta ketgan idealizmning vakillari, xususan, professor Chelpanov tomonidan yuqori baholandi. Chelpanov bu xulosalardan insonda moddiy bo'lmagan alohida substansiya sifatidagn ruhning borligini isbotlovchi eng kuchli dalillardan biri sifatida foydalandi.

Keyinchalik, bu maktab psixologlarining asarlari va ularning tafakkurning mohiyati haqidagi xulosalari chet el psixologiyasida, ayniqsa sovet psixologiyasida qattiq. tanqid qilindi. Vyursburg

maktabi psixologlarining asarlari psixologiyada idealizmni mustahkamlashga qaratilgan muvaffaqiyatsiz urinishlardan biridir.

Vyursburg maktabi psixologlari qarashlarining ilmiy jihatdan asossizligi, bixevioristlar va refleksologlarning qarashlari singari, sovet psixologlarining tanqidiy asarlarida to'la isbotlangan.

K.Byuller, A.Misserlar hayvon psixikasi va inson ongining genetik birligi hamda sifat jihatidan farqi haqidagi, inson ongining mehnatda paydo bo'lganligi va tarixiy taraqqiyoti haqidagi ta'limotni asoslab berib, psixika va ongni tushunishdagi idealistik va mexanistik qarashlarni mukammal tanqid qilindi. Materializm namoyondalari inson ongining taraqqiyotida ijtimoiy – tarixiy hayot formalarining ahamiyatini ko'rsatdilar va tarixda inson ongining faolligini isbotlab berdilar.

Ularning ta'kidicha, metafizik ma'noda psixolog ruh nima degan narsa haqida mulohaza yuritgan. Bunda usulning o'ziyiq behuda edi. Aynan psixik jarayonlarni tushuntirmasdan turib, ruh haqida mulohaza yuritish mumkin emas: bu erda progress huddi shundan iborat bo'lmog'i kerakki, ruh nima, degan masalalar haqidagi umumiy nazariya va falsafiy uydirmalarni uloqtirib tashlash va ma'lum psixik jarayonlarni xarakterlaydigan faktlarni o'rganishni ilmiy zamirida ko'ra bilishga erishishdir.

Xulosa qilib aytganda, vyursburg ta'limoti e'tiborli jihatdan tafakkur psixologiyasi borasida tadqiqot olib borgan ilk yo'nalish sifatida fan tarixida iz qoldirdi.

1.3. Assotsiativ maktabi ta'limoti

Insonda tasavvur, obrazlar va ularning voqe'likni aks ettirishdagi roli, tasavvur elementlari masalasi, ma'lumotlarni esda olib qolish, eslash, unutish, mnemotexnika qonunlarini ochish masalalari tadqiqotchilar Bekon va Gobbs izlanishlarida ilk ko'zga tashlandi. Tadqiqotchilar ushbu psixik jarayonlarda psixik elementlar murakkab struktura (tarkib) va jarayonlarga birikishida bo'ysunadigan qonunlarni topishga intildilar. Gobbs o'z xulosalarida psixik hodisalar intilish va kochish qonuniga bo'ysunadi deb hisoblagan.

XVIII asrning ikkinchi yarmida ingliz psixologlari Yum va Gartli har xil psixik hodisalar tasavvurlarning yaxlit bo'lib birlashishining asosiy qonuni sifatida assotsiatsiyalar haqidagi ta'limotni ilgari surdilar. Assotsiatsiyalar haqidagi bunday ta'limot bir

vaqtda idealistik, ham materialistik yo'nalishda paydo bo'ldi. Idealistik yo'nalishning vakili (assotsiativ oqimning asoschisi) David Yum (1711 – 1776 y.) edi. Uning ta'limotiga ko'ra, ongning barcha murakkab hodisa va mahsullari va o'zining “men” nini anglash, o'zaro tashqi bog'lanishlar – assotsiatsiyalar bilan bog'langan “tasavvur birikmalari” deb ta'kidlaydi.

Tadqiqotchi Gobbs va Gartlilardan farqli ravishda materialistik oqimning vakillari David Gartli (1705– 1757 y.) va uning shogirdi Djozef Pristli (1733–1804 y) edilar. Ular assotsiativ tasavvurlarni miyadagi fiziologik bog'lanishlarga tenglashtirib qo'ydilar. Gartli psixologiyaga ruhning fizikasi deb qaradi.

Ayniqsa, J. Pristli barcha psixik jarayonlar miyaning tبرانishlaridir, deb bahslarga chek qo'ydi. U psixik va fizik hodisalar o'rtasidagi tamoyilial farqni inkor qildi va psixologiyaga fiziologiyaning bir qismi deb qaradi.

Psixologiya tarixida assotsiatsiyalar va ularning inson psixik faoliyati tarkibidagi muhim roli haqida ta'limot XIX asrda juda keng tarqaldi. Empirik psixologiyaning ichida “assotsiativ psixologiya” deb atalgan alohida oqim paydo bo'ldi, Bu oqim XIX asr mobaynida hukmron mavqei egallab qoldi.

XIX asrda assotsiativ psixologiyaning tarafdorlari sifatida Angliyada Djems Mil (1773–1836 y.), Djon Styuart Mil (1806–1873 y.), Aleksandr Ben (1818–1903 y.), Gerbert Spenser (1820–1903 y.) edilar. Bularga Fransiyada T. Ribo (1829–1916 y.), Germaniyada Teodor Sigen (1862–1950 y.) larni va Yulius Ebbingauzni (1850–1909 y.) kiritish mumkin¹.

Bu ta'limot namoyondachilari murakkab psixik jarayonlar (xotira, tafakkur va nutq, xayol va iroda) bir xil birlamchi psixik elementlar bo'lgan sezgilardan va ularning nusxasi bo'lgan tasavvurlardan hosil bo'ladilar deb da'vo qildilar. Ayrim sezgi va tasavvurlar assotsiatsiyalarning qonunlariga binoan, o'zaro mexanik bog'lanishlar bilan birlashadilar. Masalan, xotira jarayonlari assotsiatsiyalarga tenglashtirib qo'yiladi, ya'ni esda qoldirish yangi assotsiatsiyalar hosil qilishdir, esga tushirish esa avval mustahkamlangan assotsiatsiyalarning jonlanishidir. Inson tafakkuri ruhning alohida bir qobiliyati yoki mahsus psixik qobiliyati emas, tafakkur ham faqat tasavvurlarning assotsiatsiyalar qonuniga bo'ysunshidir. Biror bir vazifada muhokama faqat ikkita tasavvurning

assotsiatsiyaga binoan bog‘lanishidir. Bunda ongning boshqa holatlar yo‘q.

Xulosa chiqarish ikki yoki bir qancha xukmlarning assotsiatsiyasidir, bulardan ham assotsiatsiya bo‘yicha yangi hukm hosil qilinadi, ya‘ni xulosa chiqarildi. Tushunchalar ham so‘zlarning bir qancha o‘zaro o‘xshash tasavvurlar bilan bo‘lgan assotsiatsiyasi (bog‘lanishi)dir deb ta‘riflanadi.

Assotsiativ psixologiya vakillarining fikricha, nutq ham tasavvurdir. Tadqiqotchi Ebbingauzning aytishicha, nutq bu “ikki elementning” mustahkam assotsiatsiyalari bo‘lib qo‘shilishidir; bir tomondan, so‘z va gaplarning ularning ma‘nolari bilan, ikkinchi tomondan, esa so‘z va gaplarning narsalar bilan birikishidir. Gap va so‘zlarning haqiqiy mohiyati nutq organlari faoliyati tufayli hosil bo‘ladigan, “ohang va shovqinlar”dan va bu faoliyat natijasida harakat va holatni sezishdan, ya‘ni eshituv va kinestetik yoki nutq, ta‘sirotlaridan iboratdir. Qayd qilingan har ikkala so‘z elementlari ham o‘zaro mustahkam assotsiatsiyalar bilan bog‘langan, deb ta‘kidlaydi Ebbingauz. Nutq jarayonlarida, ya‘ni fikrning shakllanishida, fikrni o‘zgalarga bayon qilishda va o‘zgalarning fikrini o‘zlashtirishda assotsiativ jarayonlar, alohida tasavvurlar, xususan so‘zlarning asosiy elementlari bo‘lgan harakat (kinestetik) tasavvurlar bilan tovush tasavvurlari o‘rtasida bog‘lanishlar hosil bo‘ladi. Nutq mahsus funksiya sifatida tafakkur bilan tashqi assotsiativ bog‘lanishlardan tashqari hech qanday munosabatda bo‘lmaydi.

Bu yo‘nalishga binoan diqqat ongimizda qolgan barcha tasavvurlarni siqib chiqargan, qandaydir bitta tasavvurlar gruppasining hukmron bo‘lishi bilan izohlanadi, emotsiyalar hush va nohush hislarni anglash bilan birlashgan sezgi hamda tasavvurlarning yig‘indisidir va hokazo. Assotsionistlar inson shaxsining o‘zini ham o‘z tanasini sezishga va shunga mos keladigan tasavvurlarga (tasavvurlar birikmasi) ga asoslangan ancha barqaror va doimiy psixik hodisalar komplekslari deb tushundilar.

Assotsiativ psixologiya vakillarining xizmati shundan iboratki, ular ongning yuksak murakkab jarayonlarini, ya‘ni tafakkur, nutq, va irodalarni tajriba asosida (asosan o‘z - o‘zini kuzatish yo‘li bilan) o‘rganishni diqqat markazida tutdilar.

Vaqt o‘tib, assotsiativ psixologiya vakillari va boshqa psixologlarning bu ta‘limoti amalda o‘zining yaroqsizligini ko‘rsatdi.

Psixik hayotning murakkab hodisalarini faqat assotsiativ jarayonlarga tenglashtirib qo'yish mumkin emasligi ma'lum bo'ldi.

Tafakkur jarayonini har tomonlama analiz qilish shuni ko'rsatdiki, tafakkurda mavjud bo'lgan ba'zi momentlarni tasavvurlarning oddiy assotsiatsiya yo'li bilan oddiy bog'lanaverishlariga tenglashtirish mumkin emas va shu momentlar bilan tafakkur oddiy assotsiativ jarayonlardan tubdan farq qiladi.

Tahlillarda assotsiativ jarayonda dastlab biz, tasavvurlar harakatini ko'ramiz, bunda ongimizda yangidan hosil bo'lgan har qanday tasavvur avvalgi tasavvurlar yoki idrok tufayli hosil bo'ladi. Lekin, bir xil turtki (idrok yoki tasavvur;) orqali birin ketin paydo bo'lgan tasavvurlar o'z yo'lida har xil yo'nalishga ega bo'lishlari mumkin.

Birinchiidan, tafakkurda ham albatta, tasavvurlar yoki boshqa psixik mahsullarning harakati sodir bo'ladi. Lekin bu erda bu harakat avvalgi idrok va tasavvurlar turtkisi sodir bo'lmasdan, balki dastavval qo'yilgan maqsad va vazifa bilan belgilanadi va boshqariladi. Tafakkur maqsadga muvofiq yo'naltirilgan protsessdir. Tafakkur jarayoni hamma vaqt birorta masalani hal qilishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Ikkinchiidan, assotsiativ jarayonlar esa passiv jarayonlardir. Assotsiatsiv qonunga binoan tasavvurlar harakati go'yo o'z - o'zicha ro'y beradi, bu harakat oldindan belgilanmasdan, ongli kuch sarflamagan holda boraveradi. Agar tasavvurlarning assotsiativ oqimida faollik bo'lsa ham, u beixtiyor faollikdir.

Bu o'rindagi beixtiyor faollik shaxsning emotsional holati bilan yoki mavjud tasavvurlar tufayli ro'y beradigan emotsional momentlar bilan belgilanadi.

Tafakkur esa, aksincha, oldindan ongli kuch (diqqat) sarflash yo'li bilan sodir bo'ladigan aktiv jarayondir. To'g'ri, tafakkur jarayonlaridan ham passiv momentlar bo'ladi, lekin ular bu o'rinda faqat qo'shimcha va yordamchi ahamiyatga ega bo'ladilar. Passiv momentlar tafakkur mohiyatini belgilab bermaydilar, ular birlamchi emas, balki ikkilamchidir, ko'pincha aqliy taraqqiyotning yuksak bosqichlarida paydo bo'ladilar.

Uchinchiidan, assotsiativ jarayonlarda faqat esga tushirish tajribadan hosil bo'lgan, sezilgan va idrok qilingan narsalardan nusxa ko'chirishgina bordir. Tasavvurlar assotsiatsiyasi faqat reproduktiv

(takrorlovchi) jarayondir. Bu jarayonlar ongimizda yangi mazmun hosil qilinmaydi.

Xuslosa qilib aytganda tafakkur mahsuldor jarayondir. Bu jarayonda ongimiz yangi mazmunga, yangi mahsulotga ega bo'ladi. Yangi mahsulot ob'yektiv bog'liqning shunday momentlarini aks ettiradiki, bu momentlarni bevosita sezgilar, hattoki tasavvurlar bilan ham anglab bo'lmaydi. Yuqorida ko'rsatilgan maktablardan tashqari boshqa yo'nalish psixologik maktablari ham paydo bo'ldi.

Geshtalt psixologiya - yoki boshqachasiga struktura, yaxlit psixologiya. Bu yo'nalishning asosiy vakillari X.Erenfels (1859-1932y.), V.Keller (1887y.), K.Kofka (1886-1941y.) lardir. Bu psixologlar barcha murakkab psixik protsesslar elementlar hodisalardan sezgilardan tarkib topadi deb hisoblangan assotsiativ psixologiyaning tanqid qilib chiqdilar. Geshtalt psixologiyaning vakillari bu ta'limotga qarama-qarshi o'laroq, har bir psixik hodisaning mazmuni uning tarkibiga kirgan qism va elementlarning yig'inidisiqa nisbatan mazmundorroqdir. Ayrim element va qismlarning yig'indisi butunning mazmunini belgilamaydi, aksincha, butun (yaxlit struktura) qism elementlarning hususiyatlarini belgilab beradi. Bu psixik strukturaning yaxlitligi nazariyasi, avvalo idrok faktlari, asosida ishlab chiqilgan edi. Idrok - bu sezgilarning yig'indisi emas, balki yaxlit obrazdir, deb ta'kidlanadi. Psixik maxsullar va strukturalarning yaxlitligi haqidagi bu ta'limot keyinchalik xotira, tafakkur va iroda hodisalariga ham tatbiq qilingan edi.

Bu alohida - alohida yo'nalish va oqimlar, bir qancha umumiy hususiyatga ega bo'lgan holda (ayniqsa muhim momentlarda) "Empirik psixologiya" degan umumiy nom ostida birlashdilar.

Psixologiyaning predmeti va uslublarini bir xilda tushunish bu barcha oqimlarning birlashuviga sababchi bo'ldi.

"Empiriklar" psixologiyani ruh haqidagi fandir, deb emas, "ruhiy hodisalar" yoki "ong hodisalari" yoki bo'lmasa faqatgina ong hakidagi fandir deb ta'kidladilar. Bu "ruxsiz" psixologiyadir (N.N.Lange), "hech qanday metafizikasiz psixologiyadir" (A.I. Vvedenskiy).

Empirik psixologiyaning tarixiy xizmati shundan iboratki, uning vakillari ilmiy jihatdan o'rganish predmeti sifatida ruhni inkor qildi. Bu holatni psixologiyaning metafizik va idealistik qarashlardan holi bo'lish yo'lidagi katta qadam deb hisoblash mumkin.

Yuqorida aytilganiday, empirik psixologiyaning asosiy uslubi kuzatish, tajribadir. Lekin tabiat fanlaridan psixologiya sohasiga ko'chirilgan bu uslub ichki uslub ichki tajriba sifatida boshqacha tus oladi.

Empirik psixologiyada ob'yektiv kuzatish uslubidan ham, eksperiment uslubidan ham ham foydalanilgan: psixik hodisalar har bil maxsus asboblardan yordami bilan maxsus laboratoriyalarda o'rganildi; materiallarni tekshirish va yakunlashda matematik statistika (korrelyatsiya) uslublaridan foydalanildi.

Empirik psixologiyaning psixologiya fani tarixidagi ikkinchi katta xizmati tajribadan foydalanishda, psixologik eksperimentlar o'tkazishning uslub va texnikasini ishlab chiqishdan iborat.

Psixologiya tomonidan eksperimentning tadbiriq qilinishi tufayli inson psixologiyasi sohasida boy materiallar to'plangan. Bu materiallarning ko'pchilik qismi hozirgacha ham ahamiyatini yo'qotmagan (masalan, Vundt va Ebbingauzning eksperimental ishlari). Empirik psixologiya aniqlagan ma'lumotlar va ishlab chiqqan eksperimental uslub va usullar amaliyotda ham, masalan, meditsina va pedagogika sohasida foydali bo'lib chiqdi.

Intellektual psixologiya - bu psixikaning asosiy elementi va psixologik faoliyatning asosiy funksiyasi aql - intellekt deb hisoblaydigan yo'nalish. Intellektualistlarning fikricha, turli - tuman psixik protsesslar, shu jumladan emotsional va iroda protsesslari ham sezgi, tasavvur va tushunchalarning qo'shilishidir deb tushuntiriladi. Assotsiativ psixologiyaning vakillari ham intellektualistlarga kiradi, chunki ular ham birlamchi va asosiy element tasavvurlardir deb hisoblaganlar. Psixologiya va pedagogikada intellektualizmning eng ko'zga ko'ringan vakili Gerbart hisoblanadi.

Volyuntaristik psixologiya, intellektualizmdan farq qilib psixik hayotning asosi sifatida shaxsning irodasini, faolligini ilgari suradi. Barcha murakkab psixik protsesslar, xusususan, tafakkur ham insonning irodaviy faolligi deb talqin qilingan.

Volyuntaristik psixologiyaning vakillari G.Linne (1889-1941y), G.Myunsterberg (1863 -1916y.) edilar. Vilgelm Vund ham, garchand irodaning asosi hislardir deb hisoblagan bo'lsa ham, volyuntarist edi.

Mavzu yuzasidan tayanch tushinchalar:

Psixoanaliz ta'limoti, Z.Freyd, Libido, Katarsis, Sublimatsiya Ego, Super Ego, Id, Bexiveorizm, Stimul, Labirint usul, Xulq - atvor, Reaksiya, Proeksiya, Proektiv test, Geshtalt, Obraz, Timsol, Persepsiea.

Nazorat savollari:

1. Eksperimental psixologiya fan sifatida?
2. V.Vund eksperimental psixologiya asoschisi?
3. Bixiviorizm maktabi ta'limoti?
4. Stimul Reaksiya formulasiga ta'vsif bering?
5. Eksperimental tadqiqod bosqichlari?
6. Psixologiya fanining sohalari talqini?
7. Shaxsni tadqiq etishning kompleks dasturi tavsifi?
8. Amaliy psixologiya va unig istiqbol rejalarini?
9. Geshtalt psixologiya yo'nalishiga ta'vsif bering?
10. Psixologik maktablar paydo bo'lishining nazariy masalalari?

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T., Ma'naviyat, 2008.
2. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: O'zbekiston, 2011.
3. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T.: O'zbekiston, 1997.
4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston-NMIU, 2017.
5. Mirziyoyev Sh.M. Erikn va farovon, demoktarik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majilisdagi nutq. – T.: O'zbekiston-NMIU, 2017.
6. Hergenhahn B.R., Tracy B. Henley "An Introduction to the History of Psychology". – 2014 Wadsworth, Cengage Lyerning.
7. Ярашевский М.Г. История психологии. – М., 1997.
8. Ждан Н.Ж. История психологии. – М., 1995.
9. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. – T., 2010.
10. G'oziyev E.G'. Psixologiya metodologiya. – T., 2013.

II BOB. PSIXOLOGIK TADQIQOTLAR VA ULARNING PSIXOLOGIYA FANI TARAQQIYOTIDAGI O'RNI

Agar psixologik testlar, so'rovnomalar tairixi XIX-asr oxiri va XX-asr boshlari deb olsak, ushbu holatda o'sha davrda yaratilgan testlar tarixi bizning muammomizga oydinlik kiritadi deb ayttsak ehtimoldan holi emas. Lekin, ularga to'xtalishdan oldin eksperimental psixologiya bilan bog'liq masalalarga to'xtalib o'tamiz.

Ma'lumki, 1861 yilda Vilgelm Vundt psixik jarayonlarni tadqiq qilish uchun dastlabki uskunani yaratdi. Ingliz antropologi va psixologi Frensis Galton (Charlz Darvinning amakivachchasi), "Nasledstvennost talanta, ee zakoni i posledstviya" kitobida ancha shov - shuvga sabab bo'lgan, laboratoriyada o'tkazilgan aqliy testlar haqida yozadi. Shu jumladan, Dj. Kettel o'zining "Aqliy testlar va o'lchash" kitobida 50 ta testni namuna sifatida keltiradi.

Tadqiqotchiladan A.V. Batarshev fikriga ko'ra, 1895-1896 yillarga kelib, AQShda ikkita milliy qo'mita testologiyani kuchaytirish maqsadida tuziladi. 1905 yilda fransuz psixologi A.Bine T.Simon bilan hamkorlikda bolalar iste'dodini o'rganish uchun testlar seriyalarini ishlab, ko'llay boshladilar. Bunga sabab, XIX asrning oxirida umumta'lim maktablarining ochilishi sababli muammolar tug'ila boshlaydi. Ular test orkali sog' va nosog'lom bolalarni ajratib olish va shu sog'lom bolalar ichidan intellekti yuqori bolalarni ajratish kerak bo'lgan. Bu esa o'z - o'zidan boshqa masalalarga ham yo'l ochib berdi. Endi maktab ta'limiga qabul qilingan bolalar va ularning intellekt ko'rsatgichi masalasi edi.

Shunga ko'ra:

1905 y - 3 yoshdan -11 yoshgacha

1908 y - 11 yoshdan -13 yoshgacha

1911 y - 16-17 yoshdagi bolalar uchun 30 dan ortiq masalalar asosida testlar yaratadi. Keyinchalik testlarning yangilanishiga sabab:

- me'yorning o'zgarishi (akseleratsiya);

- kerakli va keraksizlarni ajratish;

- yoshini cho'zish (11-13 yoshgacha, 13-16 yoshgacha testlar bilan ta'minlash);

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, A.Binening olib borgan ishlari yanada masalaga oydinlik kiritadi. 1911 yilda A.Bine "aqliy yosh" va "intellekt ko'rsatkichi" terminlarini kiritgan holda bolalar intellektini baholash uchun testlarni qo'llay boshladi. Har bir yosh

uchun testlar to'plamini tuzib, bolalarning xronologik yoshi (SA- Chronological Age); aqliy yosh (MA- Mental Age); unga hamohang holda intellekt ko'rsatkichini (IQ- Intelligence Quotien) formula asosida keltirdi. (Bunda IQ ni chiqarish uchun aqliy yoshni xronologik yoshga bo'lib, 100 ga ko'paytiriladi).

Lekin, boshqa tadqiqotchilardan avval dastlab Bine Simonning standartlashtirilmagan testlarini AQShda qo'llagan tadqiqotchi Genri Goddard hisoblanadi. Bine - Simon testlarini G.Goddarddan so'ngra amerikalik olim Lyuis Medison Termen X.D.Chayldz bilan birgalikda testlarni adaptatsiya qilish bilan shug'ullana boshladi. Ko'pgina toshiriqlar modifikatsiya qilindi va ayrim topshiriqlar esa qo'shildi.

Termenning mulohazalariga ko'ra, IQ ning 90 dan 109 ko'rsatkichlari o'rtacha intellekt darajasini, 70 dan pasti esa aqli pastlikni, 140 dan yuqorisi esa daholikni ifodalaydi. Termen tomonidan adaptatsiya va modifikatsiya etilgan test varianti (Stenford versiyasi hisoblanadi) AQShda aqliy qobiliyatlarni aniqlashda qo'llanila boshlandi. AQShda birinchi jahon urushi arafasida keng ko'lamda testlashtirish ishlari amalga oshirildi.

Birinchi jahon urushi vaqtida Psixologik testlar instrumentariysining rivojlanishi o'ziga xos o'rin tutdi. P.Fressning fikricha, "testlarni yaratishga" asos solindi. Amerikada Bosh Komitet tomonidan armiyada psixologik tadqiqotlar uyushtirildi. Komitetga DJ. Kettell, G.Stenli Holl, Torndayk va boshqa etakchi psixologlar jalb etildi. Ushbu davrda ikkita test batareyalaridan foydalanila boshlandi. B-testlar va V-testlardan foydalanila boshlandi. Harbiy xizmatni o'tayotgan 1726 000 nafar askar test sinovlaridan o'tkazildi. Ulardan 500 000 nafari savodsiz, 8000 nafri esa aqliy zaif sifatida armiya safidan chiqarildi, 20 000 nafari esa maxsus qismga xizmatga yo'naltirildi.

Birinchi jahon urushidan keyin AQShda Stenford shkalasidan tashqari Kulman (1922 yil), Yerks (1923 yil), Gering (1922 yil), aqliy qobiliyatni o'rganishga mo'ljallangan CAVD (1925yil) shkalasi (Torndayk rahbarligida) ishlab chiqildi. Evropada intellekt diagnostikasi borasida Richard Meyli samarali izlanishlar olib bordi. U intellektning analitik testi (1928 yil), intellektni to'rt omilli: etarlicha murakkab, plastik, yaxlitlik va ravonligi va hakozi. Dj.Stenkvishton tomonidan umumiy mexanistik qobiliyatlarni terma testi (1923 yil), Florens Laura Gudinaf Odam rasmini chizish testini (1926 yil) ishlab chiqdi. Bu testlarda olimlarni uchta muammo

bezovta qildi: 1) katta yoshdagilarni intellektual taraqqiyotini belgilash uchun individual foydalanish shkalalarning mavjud emasligi; 2) go'daklarning aqliy taraqqiyotini aniqlash uchun qulay shkalalarning zarurligi; 3) intellekt va shaxs muhim psixologik konstruktlar sifatida psixologik testlarni ishlab chiqishning umumiy nazariyasini yaratish.

Bolalarning aqliy rivojlanishi borasidagi eng e'tiborga sazovor ishlarni Arnold Lyusius Gezellning (1925 yil) ishlarida uchratish mumkin. Bu borada uning "Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy taraqqiyoti" mavzusidagi ishini alohida ko'rsatib o'tish o'rinli. Tadqiqotchi Gezell fikricha bolalarning xulq-atvorini o'rganish uchun kinomotografiyadan foydalanish samarali sanaladi, va bu ontogenetik taraqqiyotni aks ettiradi. O'zining kuzatishlari asosida "Go'daklik va inson kamoloti" (1929 yil) asarida, bolaning rivojlanish holatini 3 oylikdan 30 oylik davrini 195 ta mezon bilan o'lchash mumkinligini qayd etib o'tdi.

Intellekt testlarni ishlab chiqish bilan bir qatorda shaxsni nokognitiv sohasini o'rganishga qaratilgan uslubikalar (shaxsni o'rganish testlari) ham yaratilishiga e'tibor qaratildi. Shaxs savolnomalari borasida Robert Session Vudvorts (1917 yil) anormal xulqni o'rganishga mo'ljallangan testni ishlab chiqdi. Ammo psixologiyada shaxsni o'rganish so'rovnomalari borasida dastlabki savolnomalarni birinchi bora, 1909 yilda gollandiyalik olimlar G.Xeymans bilan E.Virms tomonidan ishlab chiqilgan degan mulohazalar bor. Ular "Shaxsiy ma'lumotlar varog'i" tarzidagi bir necha savolnomalarning mualliflari sanaladilar.

So'ngra shaxs savolnomalari borasida Floyd va Gordon Ollport shaxs fazilatlar reytingini (1921-1922 yillar) taklif etdilar. Folker tomonidan shaxsni baholash testi (1921 yil). Shuningdek psixodiagnostik testlar borasida German Rorshaxning (1921 yil) va Trumen Li Kellining (1928 yil) xizmatlarini ham hisobga olish lozim.

Shuningdek, 1936 yilda eng etakchi testlar sifatida quyidagi beshta testlar e'tirof etildi: Stenford - Bine, Rorshax testi, Bernteytyerning shaxs savolnomasi, Sishoning musiqiy talantni aniqlash testi, Strongning professional qiziqishlar blanki.

1938 yilda buyuk Britaniyada psixologiyada keng ko'lamda qo'llaniladigan Ravenning progressiv matritsalar testi ishlab chiqildi. Uning mualliflari Dj.Raven va L.Penros edi Ular umumiy intellektni o'rganish testiga asos solgan edilar.

Intellektning susayishini o'rganishga erishgan David Veksler, o'zining shkalasini yaratdi. Unda 11 sub'test mavjud bo'lib, intellektning turli qirralarini o'rganishga qaratilgan.

1937-yilda Kaliforniya universitetida aqliy etuklikni aniqlash testi e'lon qilindi. Uning mualliflari Edvard Li Torndayk va Luis Lion Terstoun hisoblanadi. 1938-yilda Terstoun o'zining birlamchi aqliy qobiliyat testlarini e'lon qildi, shu yillardagi yana bir muvaffaqiyatli izlanishlarni Uristian Morgan va Genri Aleksandr Myurrey amalga oshirdi. Ularning 1935-yilda "Shaxs tadqiqotlari" kitodida psixologik proeksiya to'g'risidagi nazariy g'oya xususida to'xtalangan edi. So'ngra u asosida Tematik appersepsiya testi (TAT) vujudga keldi.

Shuningdek, ushbu yillarda proektiv uslubikalarning yaratilishida tub burilish yuz berdi, deyish mumkin. Chunki, venger-shvetsariyalik olim Leopold Sondi testi psixologiya olamiga kirib keldi. Uning testida 6 seriya har xil psixik kasallikdan azoblanayotgan bemorlarning (har bir seriyada 8 tadan portretlar) fotografiyalar bo'lib, tekshiriluvchilarga har bir seriyadan o'zlariga eng ko'p yoquvchi va eng kam yoquvchilaridan ikkitasini tanlash tavsiya etilgan.

1940-yillarda Oskar Burosning "Psixik o'lchashlarning yilnomasi" nashrida psixologik testlar haqida ma'lumotlar taqdim etila boshlandi. Bunda 325 test sharhlanib, 200 test faqat sanab o'tilgan edi. Psixolog A.Anastazi ta'kidlashicha testlarga zarurat holati birinchi jahon urushi davridayoq ko'zga tashlana bordi.

Birinchi jahon urushi singari, ikkinchi jahon urushi arafasida ham AQShda yangi testlar ishlab chiqila bordi. Amerikalik olimlar yana asosiy e'tiborni armiya uchun zarur guruhliy testlarni yaratishga kirishdilar va Harbiy xizmatning umumiy klassifikatsiyalovchi testiguruhliy testi yaratildi. Unda 10 miliona yaqin harbiy xizmatchilar testdan o'tkazildilar. Shuningdek, harbiylarda Rorshax, TAT ning qisqartirilgan varianti, vaziyatli testlar ham tatbiq etila boshlandi. Buyuk Britaniyada esa Ravenning progressiv matritsalar harbiy klassifikatsiyalashda qo'llanila boshlandi.

1940-yillarda erishilganlik Stenford testi, Otisning klassifikatsion testi, Kyudyerning 168 topshiriqli savolnomasi, shuningdek, Katrin Briggs va uning qizi Isabel Mayers tomonidan "Mayers - Briggsning tiplar indikatorini" ustida ishlar olib borilib, 1962 yildagina ushbu test e'lon qilindi. Ushbu yillarda ko'pchilikni e'tiborini Minnesotning ko'p jabhali shaxsni o'rganish savolnomasi (MMPI) o'ziga jalb etdi. G.Yu.Ayzenkning Moudsleysk tibbiyot savolnomasi

yaratildi. Shuningdek, Gilford "Temperament sharhi" deb nomlangan testni ishlab chiqdi.

Urushdan so'ng Saul Rozensveyning frustratsiyaga reaksiyani aniqlash proektiv testi (24 ta suratdan iborat) vujudga keldi. 1950-yillarda Vekslyerning katta yoshdagilarni intellektini o'rganish shkalasi yaratildi. R.Kettellning intellektni aniqlashning erkin madaniy testi va 16 faktorli shaxs savolnomasi yaratildi (1958 yil). D.J.Teylorning bezovtalanishning namoyon bo'lishini aniqlash uslubikasi (1953 yil) keng ko'lamda tadqiqot maydoniga kirib keldi.

1920 - yillarning boshida shveysar psixologi G.Rorshax yangi tipdagi proektiv testlarni kiritdi. U matematik qayta ishlashni talab etmasdan, shaxsning yashirin xususiyatlarini namoyon eta olardi. Hozirgi kunda uning asosida kengroq yaratilgan TAT- "Tematik appersepsiya testi" mavjud. U 30-40-yillarda Myurrey tomonidan taklif etilib, noaniq kartinadan iborat bo'lib, sinaluvchi undan o'zi hohlagan hikoyasini tuzishi so'ralardi. Proektiv testlarning zaif tomoni shu ediki, ular tasavvur va qiziqishni tajribadan kam darajada ochib berardi va shaxs haqida butunlay muhokama qilolmasdi.

Testologiyaning G'arbda keyingi rivojlanishi quyidagicha bordi. 1925-yilda AQShda harbiy havo kuchlarida kasb tanlash boshlandi. Armstrongning yozishicha, ikkinchi jahon urushi muqarrar vaqtida uchish ta'limiga qobiliyatni aniqlashning ob'yektiv uslubiga qiziqish ancha ortdi. Natijada D.Flanogan rahbarligi ostida ommaviy eskperimentlar seriyasi o'tkazila boshladi. Birdan to'qqizgacha balli "test batareyalari" ishlab chiqildi. Bu ballar uchuvchilik xizmatiga qobiliyatini aniqlash uchun mo'ljallangan ya'ni uchuvchi, shturman, bombardimon-qiruvchi, radist-qiruvchi kabi. 1961-yilga kelib, ushbu testning qoniqarsizligi oshib ketadi, uning yangicha talqini yaratilmaydi. Bundan tashqari ko'pgina testlar ishlab chiqiladi, ammo muvaffaqiyatsizlikka uchrab qayta takomillashmay qoladi.

Salohiyatni aniqlash maqsadida 1939-yil Veksler-Bellvyuning intellekt shkalasi nomi bilan mashhur bo'lgan testi nashrdan chiqadi. Vekslyerning aytishicha, undan oldin chiqqan intellekt testlari asosan maktab o'quvchilari uchun mo'ljallangan edi, kattalar uchun faqat shu testning murakkab varianti taqdim etilardi. Bu esa ularda qiziqish uyg'otmasdi. Shuning uchun ushbu testni tayyorlashning asosiy maqsadi kattalarni testdan o'tkazish bo'lgan.

1955-yilda chiqqan Veksler shkalasi o'zida 11 ta subtestni mujassam etib, 6 tasi verbal shkalani, 5 tasi esa harakat shkaladan iborat bo'lgan. Ya'ni verbal shkala:

1. Bilimdonligi (29 ta turli bilimlarni talab etadigan savollarga javob berish)

2. Tushunishi (14 ta topshiriqda ayrim odatlardan kelib chiqqan maqollarning mazmunini tushuntirish so'raladi)

3. Arifmetika (14 ta topshiriqni og'zaki ishlash)

4. O'xshashlikni topish (13 ta topshiriqda ikki predmetning o'xshashligini tushuntirish)

5. Raqamlarni eslab qolish (dastlab 3 dan 9 gacha bo'lgan sonlarni, keyin 2 dan 8 gacha bo'lgan sonlarni teskari sanash og'zaki)

6. So'z boyligi (40 ta so'z ko'rsatiladi oddiydan murakkabgacha, sinaluvchi mazmunini tushuntirish berish kerak)

Harakat shkalasi

1. Raqamli simvollar (sinaluvchi 1,5 min. Ichida raqamlarni joylashtirish kerak)

2. Rasmlarni tugallash (sinaluvchi 21 ta kartochkadagi rasmlardagi kamchiliklarni topadi)

3. Bloklarni ko'rish (kartochkada chizilgan chizmalar bo'yicha)

4. Rasmlarni joylashtirish (30 ta kartochkadagi rasmni joylashtirib, undan ketma-ketlikda mazmunli hikoya tuzish)

5. Ob'ektlarni yig'ish (qog'ozda tasvirlangan bo'lak rasmlardan tanish predmetni yig'ish)

Bundan tashqari Vekslyerning maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalar uchun ham mo'ljallangan huddi yuqoridagi kabi ikki shkala asosida intellekt testi ishlab chiqilgan. Ba'zi xorij testologlari testi yordamida yuzaga chiqqan mavjud qobiliyatlar faoliyatning kaysidir turida muvaffaqiyatni aniqlab berishiga asoslandilar. Bunga tanqidiy munosabatda bo'lib, bir qator kasbga yaroqlilikning sabablarini keltirib o'tish mumkin:

Birinchidan, ko'pgina tadqiqotchilar ko'rsatishicha, ko'psonli odamlar tomonidan testlashtirishga yomon munosabat shakllangan. Bunga sabab testlarni qo'llashning noloyiq o'rin tutishidir.

Ikkinchidan, kasbga yaroqlilik ilgaridan mavjud bo'lmasdan, balki faqat faoliyat doirasida shakllanadigan shaxsning xususiyati deb qaralishidir. Kasbga yaroqlilikning shakllanishiga ko'pgina omillar ta'sir qiladi, va qobiliyat rivojlanishining aniq darajasini ular hal

qiluvchi hisoblanmaydi. Ya'ni kasbiy tayyorgarlik ko'pgina boshqa qobiliyatlarga bo'liq, ulardan, motivatsiya, kasbga qiziqish o'z ishiga muhabbat va e'tiborlilik. Eng muhimi jamoada o'zaro munosabatga kirisha olishlikdir. Bunday omillar testli tekshiruvlarda umuman hisobga olinmasligi mumkin.

Uchinchidan, barcha mavjud uslublarning amalda prognozligi quyi darajada hisoblanib, ularda yuqori darajada etarlilik etishmaydi.

Sobiq sovet psixologlari ko'pincha testlarni kasbiy maslahat, kasb tanlash bo'yicha amaliy ishlarda instrument sifatida qo'llashgan. Ularning tadqiqotlarining farqli muhim ahamiyati - aniq kasbga yaroqlilikda testlashtirishning cheklangan imkoniyatini tushunishlaridir.

Testlarning nafaqat o'quv maqsadlarida, balki davlat muassasalarida va ishlab chiqarishda ham keng qo'llaniladi. Xozirgi kundagi testlar bilan oldingi testlar o'rtasidagi tafovuti, asosan testlarning tarkibiy tuzilishidir.

Yuqorida keltirganimizdek, qobiliyatlarning o'rganilishi yillar davomida takomillashib, o'rganish tamoyillari, uslublari va yondoshuvlari o'zgarib, har bir davr talabi, taqozosi asosida bo'lgan. Psixologik testlashtirish - bu psixologik testlar yordamida shaxsning ma'lum xususiyat va sifatlarini tadqiq etishdir. Odatda psixologik testlashtirish ta'lim va tarbiyani samaradorligini oshirish, ishga qabul qilishda tanlov, psixoterapiyada, psixologik konsultatsiyada va psixokorreksiya qilish maqsadlarida foydalaniladi. Bu maqsadlarga muvofiq, guruhlarga ajratish mumkin bo'lgan turli - tuman testlar ko'p. Jumladan:

1. Testlashtirish predmetiga ko'ra (intellektual, shaxs va shaxslararo);

2. Test topshiriqlarining xususiyatlariga ko'ra (amaliy, obrazli va verbal);

3. Sinaluvchilarga tavsiya etiluvchi materiallarga ko'ra (blankli va kompyuterli);

4. Baholash ob'yektiga ko'ra (protsessual, holat va xususiyat);

Shaxs so'rovnomalari - Shaxs so'rovnomalari insonning individual shaxs xususiyatlari psixodiagnostika bilan bog'liq. Bular xarakter, temperament, emotsiya, qobiliyat, motivatsiya testlari bo'lishi mumkin. Shaxs xususiyatlariga alohida testlar ko'p tomonlama xarakteristika berishi mumkin. Shaxs xususiyatlarini

baholab beruvchi testlar uning emotsiyasi, xarakteri, motivlari, bezovtalanishi (shkala Spilberger-Xanin), agressivlik (savolnoma Bassa-Darki), muvaffaqiyatga erishish motivini aniqlash (test motivatsii dostijeniy) - bular xususiy test bo'lib, ularni monomer deb atashadi.

Kompleks testlari – mnogomer deyiladi. Masalan, Kettell, Shmishek, Strelyau, Ayzenk testlari.

Psixologik testlashtirishning maqsadi. Psixologik testlashtirish oldida turgan asosiy vazifa - bu maxsus tanlangan savollar za topshiriqlarga shaxsning bergan javoblarini o'rganish yo'li orqali ma'lumot olishdir. Bunda ushbu testlashtirish qanday maqsadga asoslanganligini bilish zarur: testlashtirish shaxs xususiyatini oddiygina o'rganadi, yoki psixodiagnostika qiladi. Ularning farqi nimada?

Psixodiagnostik testlashtirish odatda baholash maqsadida baholanadi va aniq sifatiy va miqdoriy xarakteristika beradi. Bunday maqsadga ega bo'lmagan uslublar sof tadqiqiy hisoblanadi. Masalan, Kettell so'rovnomasi psixodiagnostik test hisoblanadi va shaxsning alohida xususiyatini standart ball asosida baholash imkonini beradi. Testlashtirishning tadqiqiy uslublar juda murakkab bo'lganligi uchun ba'zan shaxs unga adekvat baho berolmaydi.

Testlashtirish natijalarining ishonchliligi - Psixologik-pedagogik testlashtirishda ishonchli natijalar olish uchun ilmiy asoslangan, validlik, ishonchlilik, aniqlik talab qiladigan psixodiagnostik uslublardan foydalanish zarur. Keltirilgan mezonlardan eng asosiysi - validlik va ishonchlilikdir.

Validlik - bu sinaluvchi shaxsning psixologik xususiyatini baholash uchun yaroqliligi va muvofiqligi hakida guvohlik beradi.

Ishonchlilik - test yordamida olingan barqaror ko'rsatkichlarni xarakterlaydi, bu barqarorlik o'lchov instrumentiga bog'liq.

Aniqlik - testlashtirish jarayonida amalga oshadigan baholanadigan shaxs xususiyatining o'zgarishiga aniq bo'ysunadigan qobiliyatini aniqlab beradi.

Psixologik testlarning XX asrning boshlarida rivojlanishining tarixiy ildizlari borasidagi dastlabki mulohazalarimiz A.Bine va

T.Simonning izlanishlari bilan boshlangan bo'lsada, ammo XX asrning boshlarida izlanishlarning ko'p qismi AQShda keng olib borildi. Dastlab Bine Simonning standartlashtirilmagan testlarini AQSh da qo'llagan tadqiqotchi Genri Goddard hisoblanadi. Bine - Simon testlarini G.Goddarddan so'ngra amerikalik olim Lyuis Medison Termen X.D.Chayldz bilan birgalikda testlarni adaptatsiya qilish bilan shug'ullana boshladi.

Ko'pgina toshiriqlar modifikatsiya qilindi va ayrim topshiriqlar esa qo'shildi. Termenning mulohazalariga ko'ra IQ ning 90 dan 109 ko'rsatkichlari o'rtacha intellekt darajasini, 70 dan pasti esa aqli pastlikni, 140 dan yuqorisi esa daholikni ifodalaydi. Termen tomonidan adaptatsiya va modifikatsiya etilgan test varianti (Stenford versiyasi hisoblanadi) AQShda aqliy qobiliyatlarni aniqlashda qo'llanila boshlandi. AQShda birinchi jahon urushi arafasida keng ko'lamda testlashtirish ishlari amalga oshirildi. Shunday qilib psixodiagnostikada shaxsni tadqiq etish bilan bog'liq testlar va savolnomalar tarixi umumiylikda kechdi. Har bir davrda testlar va uslubikalar mukammallashib borib yangicha tuzilishni kasb eta bordi. Bu esa uslubikalarni mezonga.

Mavzu yuzasidan tayanch tushinchalar:

Intelekt, shaxs so'rovnomalari, kompleks testlari, psixologik testlashtirish Validlik, Ishonchlilik, aniqlik, aqliy yosh, psixodiagnostika, zamonaviy testologiya.

Nazorat savollari:

1. Amaliy psixologiya tarixi?
2. Psixologiyada intellektni o'lchash muammosi?
3. 3.Psixologik tesnlashtirish ?
4. 4.Psixologiya kasb sifatida ?
5. 5.Kasbiy psixologiya muammolari ?
6. 6. Pedagogik psixologiya?
7. 7.Psixologiyaning nazariy uslubologik masalalari?
8. 8.Psixologiyada ochiq inqiroz davri?
9. 9. Proyektiv psixodiagnostika ?
10. 10.Psihologivistik tadqiqotlar?

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T., Ma'naviyat, 2008.
2. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: O'zbekiston, 2011.
3. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T.: O'zbekiston, 1997.
4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston-NMIU, 2017.
5. Mirziyoyev Sh.M. Erikn va farovon, demoktarik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majilisdagi nutq. – T.: O'zbekiston-NMIU, 2017.
6. Hergenhahn B.R., Tracy B. Henley "An Introduction to the History of Psychology". – 2014 Wadsworth, Cengage Lyerning.
7. Ярашевский М.Г. История психологии. – М., 1997.
8. Ждан Н.Ж. История психологии. – М., 1995.
9. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. – T., 2010.
10. G'oziyev E.G'. Psixologiya metodologiya. – T., 2013.

III BOB. PSIXOLOGIYA FANI TARAQQIYOTIGA HISSA QO'SHGAN XORIJ OLIMLARI HAQIDA MA'LUMOT



Frensis Bekon¹² (1561-1626) Ingliz faylasufi

Frensis Bekon 1561 - yilning 21 - yanvarida Londonda tug'ildi. U Angliyaning siyosiy hayotida ko'zga ko'rinarli o'rin egallagan dvoryan oilasiga mansub bo'lib, otasi Nikolas Bekon qirolicha Elizavetaning birinchi vaziri va muhrdori edi. Bekonning onasi Anna Kuk qirol Eduard VI ning

tarbiyachisi bo'lib xizmat qilgan. 1573 - yilning bahorida 12 yoshli Bekonni Kembrijdagi Trinit kollejiga tahsil olish uchun jo'natadilar.

Frensis Bekon 16 yoshdan boshlab ingliz diplomatlari tarkibida bir necha yil Farangistonda xizmat qiladi. U erda Farangiston madaniyati, ilm fanining taniqli namoyondalari bilan tanishadi.

F.Bekon 18 yoshida otasidan ayriladi. 23 yoshida qirolicha Elizavetaning nufuzli a'yonlaridan sanalgan amakisi lord Berli ko'magida mamlakat parlamentiga saylanadi.

F.Bekon Angliyaga qaytgach, huquq ilmini o'rganishga kirishadi. U huquqshunoslik uyushmasining rahbari lavozimiga tayinlanadi.

Bekon keng miqyosdagi sud amaliyotlarini olib boradi va huquqshunoslik masalalariga doir asarlar yozadi. F.Bekonning sud jarayonidagi yuksak mahorati hamda sud hakamlari yig'ilishidagi so'zamolligi va aql farosati barchani xayratga solgan. Hech kim uningchalik aniq, qisqa, zalvorli, ayni damda o'ta ma'nodor gapira olmagan. U so'zlayotganda tinglovchilar har bir so'zni jon quloqlari bilan tinglab, kiprik qoqmay o'tirishgan.

F.Bekon 52 yoshida Angliyaning bosh prokurori etib saylanadi. 1617 - yildan esa qirol Yakov I ning muhrdori bo'lib xizmat qiladi. Keyinroq lord - kanslerlik martabasiga ko'tariladi.

1621-yilda F.Bekon parlament tomonidan fitnachilik va poraxo'rlikda ayblanib sud qilinadi. Sud Bekonga 40 ming funt sterling jarima solish va Tauer qal'asiga bandi etish haqida hukm chiqaradi. To'g'ri, ikki kundan so'ng bu hukmning ayrim bndlari bekor qilingan bo'lsada, ammo Bekonning davlat arbobi sifatidagi faoliyati butkul barham topadi. Lordlar palatasining hukmiga muvofiq

¹² Hergenahn B.R. Tracy B. Henley An Introduction to the History of Psychology. - 2014 Wadsworth, Why Study the History of Psychology. 107-108-bet

u qirol saroyiga yaqinlashmaslik va 12 mil uzoqlikda yashashga mahkum etiladi.

Uning psixologiya fani taraqqiyotiga qo'shgan hissasi juda katta. F.Bekon psixologiyada empirik psixologiyaning vazifalaridan biri psixik hodisalar tarkib topgan elementlarni aniqlashdan iborat degan fikrni ilgari surdi.

Yuqorida aytilganidek, F.Bekon tasavvur hamda sezgini shunday elementlardir deb hisoblaydi. Shuning uchun psixologlar, psixik elementlar murakkab struktura (tarkib) va protsesslarga birikishidan iborat qonuniatlarni F.Bekon g'oyalaridan topishga intiladilar.

Faylasuf hayotini so'ngi yillarini betoblik va qashshoqlikda o'tkazadi. Manbalarda keltirilishicha F.Bekon 1626 - yilning bahorida u tovuq go'shti qor ostida qanday saqlanishini sinab ko'rish uchun uni qo'llari bilan qorga ko'madi va shu bahona bo'lib, qattiq shamollaydi. Bir necha hafta hastalanib yotgach, vafot etadi.



Galileo Galilei (1564 - 1642) Italiyalik qomusiy olim riyoziyotchi, falakiyotshunos, faylasuf, tabiiyotshunos alloma Galileo Galilei Piza shahrida dunyoga keldi. U obro'li, biroq kambag'allashgan aslzoda oilaga mansub edi. Otasi Galileyning hakim (vrach) bo'lishini orzu qilardi. Shu bois u Piza dorilfununining tibbiyot yo'nalishiga o'qishga kirdi. Lekin Galileydagi riyoziyotga bo'lgan qiziqish ustunlik qildi. Galiley avval ibodatxona maktabida, keyin dorilfununda o'qidi. U Arximedni o'ziga ustoz deb bilgan.

1589 - yilda Galiley Piza dorilfununida professor ilmiy unvonini oldi. U dorilfununda dars berish bilan bir vaqtda mexanika va falakiyotshunoslikka oid qator tadqiqot ishlarini olib borib, jismlarning tushishi, ularning qiyalik sirtidagi harakati qonunlarini o'rgandi. Shuningdek, osmon jismlarining harakatini kuzatdi.

Galileo Galilei o'z tadqiqotlariga tayangan holda Arestotelning koinot tuzilishi va mexanik holatiga doir ta'limoti xato ekanini ma'lum qildi. Dorilfunun o'qituvchilari va din peshvolari uning bu fikriga qarshi chiqishdi. Oqibatda olim Pizani tark etishga majbur bo'ldi.

G.Galiley 1592 - yildan 1610 - yilgacha Paduan dorilfununining riyoziyot kafedrasida ishladi. Olim 1609 - yilda teleskopni ixtiro qildi. Bu ilk teleskop orqali osmon jismlarini 30 baravar kattalikda ko'rish

mumkin edi. G.Galiley 1610 - yildan Florensiya gersogi saroyida xizmat qila boshladi.

G.Galiley Oydagi kraterlar va tog' tizmalarini aniqladi. Mushtariyning yo'ldoshi, Quyoshdagi dog'lar, Zuhra sayyorasi fazalari, Zuhalning xalqalarini kashf etdi.

1633 - yilda ruhoniylar Galileyning "Olamning ikki tizimi haqidagi suhbatlar" nomli asarini muhokama qilib, unda ilgari surilgan fikrlarni (Yerning Quyosh atrofida aylanishi, Quyoshning esa tinch turishi) rad etdilar. Rim papasi Galiley ustida sud olib borish to'g'risida ko'rsatma berdi. Yoshi 70 ni qoralab qolgan xasta G.Galileyni Rimga keltirib, zo'rlik bilan sayyoralar olamiga oid fikrlaridan voz kechishga majbur qildilar.

Sud tugagandan keyin G.Galiley Florensiyaga qaytadi va reaksiyon ruhoniylarning ta'qibiga qaramay, ilmiy tadqiqotlarini davom ettiradi.

Olim 1642 - yili shogirdlari Viviani va Torrichelli qo'lida jon beradi. Katolik cherkovi 1671 - yilga kelibgina Galiley ustidan chiqarilgan ayblov hukmini bekor qildi. Bir so'z bilan aytganda G.Galiley barcha fanlar taraqqiyoti rivojlanishida o'z ilmiy g'oyalari va ishlari bilan buyuk hizmat qilgan allomadir.



Tomas Gobbs (1588 - 1679) Ingliz faylasufi

Tomas Gobbs Angliyaning janubidagi Vesport qishlog'ida tug'ilib o'sdi. Uning onasi sodda dehqon ayoli, otasi ruhoniyy edi. Tomas 15 yoshida Oksford dorilfununiga o'qishga kirdi va ikki yildan so'ng uni bitirib, mantiq ilmidan ma'ruza qila boshladi. 1608 - yilda u Uilyam Kavendishning o'g'liga murabbiylik qila boshladi. Gobbs 1610 - yildan boshlab uch yil davomida Farangiston va Italiyada yashaydi. 1613 - yilda u siyosatchi va faylasuf Frensis Bekonga kotiblik qiladi. 1636 - yilda faylasuf Italiyaga jo'naydi va u yerda Galiley bilan uchrashadi. Tomas Gobbs handasa ilmini juda katta qiziqish bilan o'rgangan.

Uning quyidagi asarlari ma'lum: "Falsafa asoslari" (1640-1658), "Fuqaro haqida" (1642), "Jism haqida" (1655), "Inson haqida" (1658), "Leviatan" (1658).

1646 - yilda Gobbs Karl I ning o'g'li shaxzoda Uelsskiyga (bo'lg'usi Karl II) riyoziyotdan saboq bera boshlaydi.

T.Gobbs psixologiya fani taraqqiyotiga juda katta hissa qo'shgan. Moddiy narsalar Gobbs fikricha, organizmga ta'sir etib,

sezgini hosil qiladi. Inersiya qonuniga ko'ra, sezgidan uning kuchsiz izi sifatida tasavvurlar paydo bo'ladi.

Ular esa fikrlar zanjirini hosil qiladi va bu fikrlar sezgilar qanday ketma - ketlikda almashgan bo'lsa, shunday tartibda joylashadi. Bunday bog'lanish keyin assotsiatsiya nomini oldi.

Agar avvalgi harakat yana takrorlansa va ustunlik qilsa, keyingilari harakatlanuvchi materiya bilan bog'liq bo'lgandan tekis stolda tomchi harakatlanganda suv ham harakatlanganidek uning ketidan harakatlanadi.

Asosiy psixologik fenomenlardan biri sifatida assotsiatsiyalarni Dekart, Spinoza ham tan olishgan. Lekin tafakkur va irodaga nisbatan bilimning quyi shakli deb qaragan. Gobbs birinchi bo'lib assotsiatsiyani psixologiyaning universal qonuni sifatida ta'riflaydi.

O'zining qobiliyatlar haqidagi ta'limoti bilan Gobbs Dekartni "Tug'ma g'oyalar" haqidagi gipotezasini qattiq tanqid qildi va odamlarda tug'ma bir - biridan ustun belgilari bo'lmasligini isbotlashga intildi. T.Gobbs bevosita F.Bekonning davomchisi sifatida empirik yo'nalish namoyondasi sifatida tanildi.

Faylasufning atrofida uni ko'rolmaydiganlar ko'p edi. Shu bois Tomas Gobbsni keksaygan chog'ida dahriylikda ayblaydilar. Uning "Fuqaro haqida" va "Leviafan" nomli kitoblari ruhoniylar tomonidan taqiqlangan adabiyotlar ro'yxatiga kiritiladi. Tomas Gobbs so'qqaboshlikda hayot kechirgan.



Rene Dekart (1596 - 1650) Farangistonlik faylasuf, riyozatchi, tibbiyotshunos olim va uslubiy nazariyotchi Rene Dekart Turen muzofotining Lae shaharchasida dvoryan oilasida dunyoga keldi. 1606 - yil bahorida otasi Dekartni La - Fleshdagi diniy kollejga o'qishga jo'natadi. 1618 - yilda Dekart Gollandiyaga jo'naydi va o'z hoxishi bilan armiyaga yollanib, ispan - avstriya qo'shinlariga qarshi kurashda ishtirok etadi. 1619 - yildan boshlab Dekart falsafa bilan jiddiy shug'ullanishga kirishadi. 1625 - yilda Dekart Parijga keladi va olimlar bilan tanishadi. Faylasuf bu yerda tarixda "odam jurnal" deb nom qoldirgan Mersen Maren bilan yaqin do'st tutinadi.

Rene Dekart tabiatan qiziqqon bo'lsada, bahs va tortishuvlar chog'ida doimo o'zini munosib tuta bilgan. U birinchi bo'lib, "Efir" atamasini va u haqidagi g'oyani fan olamiga olib kirdi.

“Fikrlayapman, demak mavjudman¹³”, - degan falsafiy iborani ham Dekart o‘ylab topgan. Shuningdek, u birinchi bo‘lib, kamalakning paydo bo‘lish sabablari va uning tabiatini tushuntirib berdi.

Rene Dekart La - Flesh kollejida sxolastik falsafani o‘rgandi. Unda kitobiy olimlikka shubha juda erta uyg‘ondi, zotan uning fikricha, ko‘pgina fanlarda ishonchli asos mavjud emas edi. Kitoblarni tashlab u sayohat qila boshladi. Garchi Dekart katolik bo‘lsada, ma‘lum vaqt o‘ttiz yillik urush davrida protestantlar tarafida qatnashdi. Uning qiziqishlari doirasiga chavandozlik, musiqa, qilichbozlik va raqs kirar edi. 23 yoshida u Germaniyada o‘z uslubining asosiy g‘oyalarni ta‘rifladi.

Oradan o‘n yil o‘tib, u tinchlik va osoyishtalikda tadqiqotlar bilan shug‘ullanish uchun Gollandiyaga ko‘chib keldi. 1649 - yilda u Stokgolmgga qirolicha Kristina huzuriga tashrif buyurdi. Shvetsiya qishi Dekartga haddan tashqari og‘irlik qildi, u betoblanib yotib qoldi va 1650 - yilning fevralida vafot etdi.

Uning asosiy asarlari jumlasiga Metod haqida mulohazalar va Metafizik fikr - mulohazalar kiradi. Boshqa asarlaridan falsafa asoslari va aqlni boshqarish qoidalarini qayd etish mumkin. Metod haqida mulohazalar fransuz tilida yozilgan dastlabki falsafiy asarlardan biri hisoblanadi. Dekart ham lotin, ham fransuz tilida ijod qilgan.

Aynan u o‘zining ong haqidagi ta‘limoti bilan Aristotelning ruh haqidagi ta‘limotidan psixika to‘g‘risidagi tushunchalarning ajralib chiqishi uchun asos yaratdi. U avtomat kabi mexanik ishlovchi organizm modelini tanlaydi va u bilan o‘sha kunlargacha ruh bilan boshqariluvchi bo‘lib hisoblangan tirik tanani uning ta‘siridan “xolos etdi”. Shu davrda Garve tomonidan qon aylanishining kashf qilinishi “organizm mexanik mashina” degan fikrni rivojlantirdi. Unda yurak qon o‘tkazuvchi nasos bo‘lib hisoblanadi va bu jarayonda ruhning hech qanday funksiyasi yo‘q deb ta‘lim berildi. Dekartgacha barcha faoliyat jarayonlari, yerdagi hayot tashqarisidan energiya oluvchi maxsus agent ruh bilan boshqariladi, deb hisoblab kelindi. Ammo Dekartdan boshlab, tana mexanika qonunlariga asosan tuzilgan avto sistemadir, undagi organlarning ishlashi ham tananing faoliyati ham, boshqa tanalar bilan aloqasi ham, ruhga muhtoj emas, deb takidlandi. Lekin bu bilan ruh “ishsiz” bo‘lib qoldimi? Yo‘q, Dekart ruhni hech narsaga bog‘liq bo‘lmagan oliy substansiyagacha ko‘tardi. “Ruh

¹³ Hergenhahn B.R. Tracy B. Henley An Introduction to the History of Psychology. - 2014 Wadsworth, Why Study the History of Psychology. 107-108-p.

ongning uzluksiz bo'lmagan hodisalari - fikrlaridan iborat" deb aytdi olim. Ruhning birdan bir asosiy belgisi uning fikrlashidir. Fikrlashdan to'xtash ruhning yo'q bo'lishiga olib keladi, deb hisoblaydi. Dekartning tana va ruh substansiyalarini o'zaro taqqoslashi shunga olib keladiki, Dekart tana o'z tabiatiga bo'linuvchi, ruh esa bo'linmas, shuning uchun u turli xil narsa degan xulosaga keldi. Dekart dualizmning ma'nosi shuki, tana va ruh mustaqil substansiyalardir. Ularning har qaysisi mavjud bo'lishi uchun o'zidan boshqa hech narsaga muhtoj emas. "Ruh butunlay mening tanamdan butunlay ayru bo'lib, u tanamsiz ham mavjud bo'la oladi". "Bizdagi issiqlik va harakat fikrga bog'liq bo'lmagani uchun ular faqat tanamizga tegishlidir" deb yozadi Dekart.

Buni Dekart ruhsiz tanalar ham, masalan, olov issiqlikka ega bo'lishi va harakatlanishi bilan isbotlashga harakat qiladi.

Dekartning fikricha, hayotni ruh bilan bog'laganlar xato qiladilar. Negaki "o'lim hech qachon ruh tufayli sodir bo'lmaydi, balki tananing muhim qismidagi buzilishi tufayli ro'y beradi".

Dekartga ko'ra asoslarning asosi shubhlanishdir. Uning fikricha hamma tabiiy va g'ayri tabiiy narsalardan shubhalanish kerak. Chunki shubhalanganda odam fikrlaydi. Bunda Dekartning mashhur aforizmi "Men fikrlayapman, bundan chiqdi mavjudman" ni keltirish mumkin. O'zining asosiy fikrlarini Dekart "Aqlni boshqarish qoidalari", "Ruhlar ehtiroslari", "Odam haqida" nomli asarida bayon etdi.

XVIII asrning eng yirik kashfiyotlari qatoriga refleks tushunchasining paydo bo'lishini kiritish mumkin. Refleks tushunchasi Dekart fizikasida paydo bo'ldi. Agar Garvey o'z kashfiyoti bilan ruhni ichki a'zolarini boshqaruvchisi sifatida inkor etgan bo'lsa, Dekart ruhni tashqaridan ta'sir etish xususiyatidan mahrum qildi. U fanga fiziologiya va psixologiyada fundamental bo'lgan refleks tushunchasini (terminini emas) kiritdi. U davrda nerv sistemasi to'g'risidagi bilimlar ham oz edi. Dekart uni ingichka quvurchalar-"trubkachalar"dan iborat deb tasavvur qildi. Dekartning tasavvurida go'yo shu trubkachalardan mayda engil havosimon zarralar harakatlanadi. Bu zarralarni Dekart "hayvon ruhlari" deb nomladi. "Men ruh deb atagan narsalar kichiklik va tez harakatlanishdan boshqa hech qanday xususiyatga ega bo'lmagan tanachalardan o'zga narsa emas. Bular qonning eng harakatchan zarralari bo'lib, doim miya tomonidan harakatlanadi", deb tushuntirmoqchi bo'ldi Dekart. Uning refleks shemasiga ko'ra tashqi

impuls nerv trubkachalari ichida joylashgan nerv "iplarining" uchiga tasir qilib, ular shu "ip" chiqqan miyaning qismini go'yo arqonning bir uchi ikkinchisini harakatga keltirganidek qo'zg'atadi. U erdan "hayvon ruhlari" nerv orqali tegishli muskulga o'tib, qisqarishga majbur qiladi. Shu tariqa harakat ro'y beradi. Shuning uchun qaynoq buyum qo'lni kuydirib tortib olishga majbur qiladi. Bunda huddi yorug'lik nurining ko'zgudan qaytganidek reaksiya sodir bo'ladi. Hatti harakatlarning reflektor tabiatni ruhga murojaat qilmay ochib berib, Dekart umid qiladiki, kelajakda ancha murakkab hodisalarni ham u ta'riflab bergan fiziologiya mexanika qoidasiga ko'ra tushuntirish mumkin bo'lar: "Masalan, it o'ljani ko'rgach, unga tashlanadi, lekin o'q ovozi eshitsa, albatta qochadi. Shunga qaramay ovga o'rgatilgan itlar o'ljani ko'rgach to'xtaydi. Aqlsiz hayvonlar miyasida shunday o'zgarish hosil qilib, ularni o'rgatish mumkin ekan, ehtimol odamga biror narsani o'rgatishda bundan ham yaxshiroq narsalarga erishsa bo'lar", deb taxmin qildi Dekart.

Bundan u shunday xulosa chiqardiki, "ruhning kuchi emas balki mexanika qoidalari asosida ro'y beruvchi tanadagi o'zgarishlar asosida inson avvalo o'z tabiatining, qolaversa tashqi olamning xukmdoriga aylanishi mumkin".

Dekartni fikricha: "Kuchli va oliyjanob odamlarning kayfiyati xotirjamlik onlarida ham, kulfatga ro'baro bo'lganda ham o'zgarmaydi". Sen taqdiri azalni emas, avvalo o'zingni yengishga harakat qil. Dunyoni tartibga solishga urinma, eng avval o'z istaklaringni boshqara bil. O'zlikni anglashdan ko'ra sermahsulroq mashg'ulot yo'qdir.



Barux (Benedikt) Spinoza (1632-1677).

Spinoza Amsterdamda, Portugaliyadan inkvizitsiya ta'qibidan qochib kelgan yahudiy oilasida tug'ildi. U yahudiylarning Amsterdamdagi 7 yillik maktabiga o'qishga bordi. Ammo o'qishni tamomlashga ulgurmasi. Chunki otasiga savdo ishlarini yuritish uchun yordamchi kerak edi. Otasining o'limidan keyin Spinoza bir necha yil savdogarlik bilan mashg'ul bo'ldi. Lekin u juda yoshligidanoq falsafa ilmiga mehr qo'ygandi, lotin tilini juda yaxshi bilardi.

Shu tufayli oradan ko'p o'tmay Spinoza Amsterdamda kichik falsafa to'garagini ochdi. Ilm fan olamiga chuqur kirib, dunyoqarashi kengaygan yosh Spinoza yahudiy dini peshvolarini vijdon erkinligiga

rioya etmaslikda aybladi. Spinoza shu taqlid ilm fan olamiga qancha yaqinlashgani sayin yahudiy ruhoniylaridan shunchalik uzoqlasha bordi. Natijada 1656 - yilda din peshvolari Spinozani murtaqlikda ayblab, unga bir umrlik la'nat tamg'asini yopishtirdilar. Shundan so'ng Spinoza yahudiylar bilan aloqani butkul uzib, o'zini falsafaga bag'ishladi.

U bir umr o'pka xastaligidan azob chekib yashadi. Spinoza o'z o'limini tor, faqirona xonaga o'rnatilgan qup - quruq yog'och chorpoyada qarshi oldi.

Dindorlarning ayblovini bilan bor budidan ayrilib, qashshoqlikka mahkum bo'lgan donishmand ajali yetganini sezib, qo'shni ayoldan yoniga bitta ham ruhoniyni qo'ymaslikni iltimos qiladi. Chunki u jon talvasasida raqiblariga yon bosib, o'z qarashlaridan voz kechishi mumkinligidan cho'chigandi.

O'smirlik chog'ida Spinoza iudaistik falsafa bilan teologiyani o'rgandi. Ammo mustaqil fikrlashga moyillik, tabiiy fanlar va Dekartning falsafasini o'rganishga qiziqish Spinozada juda erta paydo bo'ldi.

Uning mustaqil va tanqidiy pozitsiyasi yahudiylar jamoasi bilan ixtilof chiqishiga olib keldi. Iltimoslar bilan ham, tahdidlar bilan ham uni falsafadan voz kechishga majbur qila olmadilar, natijada u 24 yoshida tavqi la'nat bilan jamoadan haydaldi.

Shundan sung Spinoza bir maromda kamtorona hayot kechirdi. Optik uskunalar uchun linzalarni silliqlash bilan tirikchilik qildi. Bu unga erkin va mustaqil bo'lish imkonini berdi.

U universitetda professor lavozimini egallash haqidagi taklifni rad qildi va o'zini butkul falsafa bilan shug'ullanishga bag'ishladi. Spinozaning falsafasini ateistik va materialistik deb aybladilar, ammo hech kim uning turmush tarzini tanqid qilmadi. Uning dunyoviy ehtiros va hoyu - havaslardan uzoq hayoti o'z ta'limoti bilan to'liq uyg'unlikda yashovchi buyuk faylasufning turmush tarzini ifoda etadi.

R.Dekartning birinchi opponenti bo'lib Spinoza chiqdi. Gegelning fikricha B.Spinoza Dekart falsafasidagi dualizmni olib tashladi. Unga ko'ra yagona va abadiy ajralmas xususiyatlarga ega bo'lgan substansiya - bu tabiat. Shuning uchun odamni substansiyalar uchrashadigan "joy" sifatida Spinoza inkor etadi.

Odam bir butun moddiy va ruhiy mavjudot deb biladi. O'zining eng mashhur psixologik asari "Etika"da faylasuf dastlab substansiyalar masalasida to'xtaladi. Shu yerdanoq uning qarashlari

Dekartning qarashlaridan uzoqlashadi. Dekartdan farqli ravishda Spinoza monistik ta'limotni ilgari surdi.

Substansiya deganda Spinoza bizdan tashqarida joylashgan tabiatni tushunadi. Bu substansiya o'z navbatida bir qancha xususiyatlarga ega bo'lib, inson ularning faqat ikkitasi - tana va fikrni biladi. Shuning uchun ruh va tana bitta individualni, ya'ni fikrleydigan tanani tashkil etadi.

Alohida ruhiy substansiyaning borligini Spinoza inkor etadi, lekin materiya va tafakkur birligi muammosini oxirida ochib berolmadi. Substansiyalar ta'limoti asosida Spinoza insoning hissiy holatlari ko'proq affektlar masalasini yoritib berdi.

Spinozaning affektlar haqidagi ta'limotida affektlarning paydo bo'lishi va ularning tabiati odamlarning affektlarga qulligi va affektlarning kuchi; inson ozodligi va inson aqlining kuchi masalalari yuzasidan to'xtaldi.

Affektlarni Spinoza tabiiy hodisa deb biladi. Affektlar orasidan Spinoza uchtasini alohida ajratib ko'rsatadi. 1. Xohlash. 2. Qoniqish. 3. Qoniqmaslik. Qolgan barcha emotsiyalar shulardan paydo bo'ladi, deb hisoblaydi. Spinoza affektlar butunlay inson irodasiga bog'liq va ularni to'liq boshqarish mumkin, degan fikrga qo'shilmaydi.

Bu borada u affektlarni inson ustida o'tkazadigan hukmronligi haqida fikr yuritadi. Barcha affektlar Spinozaning fikricha insonni shunday holatga olib keladiki, bunda u o'z - o'zini boshqara olmaydi.

Tasodiflarga qaram bo'lib, aniqlik ko'z oldida, noaniqlik tomon boradi, ozodlik esa affektlarga ergashishda emas, balki ularni aqlga bo'ysundirishdir.

Spinozani fikricha qalblarni qurol bilan emas, mehr muxabbat va oliyjanoblik vositasida zabt etish mumkin.

Spinoza psixologiyasi ongning psixologik ob'jekt sifatida shakllanishi yo'lidagi Dekartdan keyingi muhim qadam bo'ldi. Spinoza o'pka sili bilan hastalanish oqibatida 45 yoshida vafot etdi.



Jon Lokk¹⁴ (1632-1704). Ingliz faylasufi

Angliyaning janubi - g'arbidagi somerset grafligiga qarashli Rington shaharchasida puritanlar oilasida tug'ildi. Uning otasi advokat bo'lib, Kromvel armiyasining otliq eskadroniga qo'mondonlik qilgan. Jon Lokk

¹⁴ Hergenbahn B.R. Tracy B. Henley An Introduction to the History of Psychology. – 2014 Wadsworth, Why Study the History of Psychology. 126-p.

Oksford dorilfununi qoshidagi diniy kollejda ta'lim oldi. Keyinchalik tibbiyot ilmini o'rgandi.

1656 - yilda u Oksford dorilfununining bakalavrlik, 1658 - yilda esa magistrlik ilmiy darajasiga sazovor bo'ldi. U kimyogar Robert Boyle bilan do'stlashadi. Bu do'stlik unda faylasuflar Dekrat va Gassendi ta'limotiga qiziqish uyg'otadi.

Jon Lokk oliy hukumat idoralarida xizmat qilib, mansab pog'onalaridan tez yuqorilab boradi va Angliya hukumatining lord kansleri lavozimiga erishadi.

Jon Lokk 39 yoshidan boshlab falsafa ilmini ishtiyoq bilan o'rganishga kirishadi. 1682 - yilda olim hukumatda yuz bergan siyosiy tanglik tufayli Angliyani tashlab Niderlandiyada yashaydi. 1689 - yilda u vataniga qaytadi va birin - ketin horijda yozgan asarlarini chop etadi.

J.Lokkda sxolastik falsafaga tanqidiy munosabat va tabiiy fanlarga, ayniqsa tibbiyot va kimyoga qiziqish juda erta paydo bo'ldi. J.Lokk o'z oldiga intellektual "tozalash"ni amalga oshirish, ya'ni bilishni tanqidiy tekshirishni maqsad qilib qo'ydi.

U aynan diniy va ahloqiy muammolarga doir tuganmas bahslar uni qo'llanuvchi tushunchalarning ko'pchiligi umidsiz darajada noaniq va noto'g'ri emasmi, degan savolni berishga majbur qilganini tan oladi.

J.Lokk faylasuflar ham tabiat hodisalarini tadqiq qiluvchi olimlar singari, tajriba yordamida qadamba - qadam olg'a yurishlari kerak, deb hisoblaydi. "Buyuk" muammolarni ko'rib chiqishga o'tishdan oldin o'z, vositalarimiz, ya'ni o'z tushunchalarimizni o'rganib chiqishimiz kerak. Shuning uchun J.Lokk bilishni tanqid qilish va tilni tahlildan o'tkazishdan boshlaydi.

Ammo "vositalar"ga bo'lgan qiziqish uning aniq muammolar bilan shug'ullanishiga ham halaqit bermaydi. J.Lokk pedagogika va siyosiy nazariyaning klassiklaridan biri hisoblanadi.

Bundan tashqari Empirik psixologiyaning asoschisi hisoblanadi. Uning "Inson aqli haqidagi tajriba" asari psixologiyaning keyingi taraqqiyotiga kuchli ta'sir etdi. Lokkning maqsadi inson bilishining paydo bo'lishi va rivojlanishining tajribaviy o'rganishdan iborat edi.

Bunda u "tug'ma g'oyalar" g'oyasini inkor etib, bilimlarning manbai individning hayotiy tajribasi deb biladi.

Tajribaning o'zida esa Lokkning fikricha ikkita manba bor: sezgi va refleksiya. Sezgining ob'yektdagi, tabiatdagi barcha moddiy

narsalar bo'lib, ularning mahsuloti fikrlardir. Ya'ni "biz sariq, oq yashil, issiq, sovuq, yumshoq, qattiq, shirin, achchiq va boshqalar haqidagi fikrlarni shu manba orqali olamiz" deb hisoblaydi Lokk. Refleksiyaning obekti aqlimiz faoliyati bilan egallangan va biz tashqaridan ololmaydigan fikrdir. Ongning ob'yekti shu fikrdir, chunki ong Lokkning bergan ta'rifiga ko'ra aqlimizda ro'y berayotgan narsalarni idrok etishdir. Lokk tajriba manbalarini o'zaro farqlasada, ularni bir - biridan ajratmaydi. Uning fikricha, sezgi bilimning boshi, refleksiya sezgi asosida paydo bo'ladi. Buni u shunday ta'riflaydi: "Aqlda birorta narsa ham yo'qki, u sezgida ham mavjud bo'lmasa". J.Lokka ko'ra, fikrlar 2 xil, oddiy va murakkab, bo'ladi. Oddiy fikr faqat bitta bo'ladi. Oddiy fikr faqat bitta tushunchani o'zida saqlaydi. Boshqa fikrlar parchalanmaydi. Murakkab fikrlar oddiy fikrlarni qo'shish, taqqoslash, umumlashtirish va abstraktlashtirish natijasida paydo bo'ladi. Oddiy fikrlar yig'indisi ongni tashkil etadi. Murakkab fikrlarning hosil bo'lish manbalaridan biri sifatida Lokk assotsiatsiyani keltiradi. U birinchi bo'lib "fikr assotsiatsiyasi" degan atamani kiritadi.

Bilimlarimiz - deydi, Jon Lokk barcha mushkulotlarni qamrab olish va hamma savollarga javob topish qudratidan maxrumdir.

Ilm olmoqlik yaxshi ruhiy sifat egalarida ezgu fazilatlarining yanada ravnaq topishiga xizmat qiladi. Yaxshi ruhiy sifatlardan mahrum odamlar esa qancha ko'p ilm olsalar, shuncha ahmoqroq va bema'niroq bo'lib boradilar.

Boshqaruv haqida traktat asarini liberalizmning bibliyasi deb ataydilar. Uning birinchi qismi absalyutizm ideologi ser Robert Filmyerni tanqid qilishga bag'ishlangan. Ikkinchi qismida J.Lokkning davlat va tabiiy huquq haqidagi o'z g'oyalari ko'rib chiqilgan. Bu asarni Vilgelm Oranskiy konstitutsion monarxiyasining asoslanishi sifatida baholaganlar, ammo unig g'oyalari Fransiyada ham, Amerikada ham inqilobiy rol o'ynagan. J.Lokk shuningdek diniy bag'rikenglik, tarbiya haqida o'ylar, Xristianlikning aqlga muvofiqligi asarlari hamda insonning bilishi haqida tajriba nomli epistemologik asar muallifidir.

Uning quyidagi asarlari ma'lum: "Tabiat qonunlariga doir tajribalar" (1662-1664 yillar), "Din erkinligini e'tirof etishga doir tajriba" (1667 y), "Tibbiyot sa'nati haqida" (1669 y), "Inson taffakuriga doir tajribalar" (1689 - yil, olim bu asar ustida 20 yildan ziyod mehnat qilgan), "Tarbiyaga oid ba'zi fikrlar" (1693 y.) va hokazo.



Gotfrid Vilgelm Leybnits (1646-1716). Asli millati nemis bo'lib, qirol-oftob Lyudovik XIV (1638-1715) davrining faylasufi bo'lgani bois, asosan fransuz tilida hamda lotin tilida ijod qilgan. Leybnits tom ma'nodagi dunyoviy inson bo'lib, uning uyi butun Evropa hisoblangan. Uning qobiliyati turli nazariy va amaliy sohalarida namoyon bo'lgan. Masalan: u konchilik, siyosiy islohotlar, moliya, qonunchilik, optika transport muammolari va ilmiy hamjamiyatlarni



tashkil qilish bilan shug'ullangan. Bundan tashqari, Leybnits juda ko'p sayohat qilgan va o'zidan 15 mingdan ortiq xatdan iborat epistolyar meros qoldirgan. U turli qirol saroylari bilan aloqa qilgan va qirol naslidan bo'lgan shaxslar bilan tanish bo'lgan. Nazariy miqiyosda u falsafa, teologiya, huquq, fizika, tibbiyot, tarix va filologiya sohalarida faoliyat ko'rsatgan. U ayniqsa Nyuton bilan bir vaqtda va unga bog'liq bo'lmagan holda yaratgan o'zining differensial hisoblash kashfiyoti bilan mashhur. Ko'plab asarlaridan faqat ikkitasini tilga olib o'tamiz. Teoditseyada Xudo va iblisning o'zaro aloqasi masalalarini ko'rib chiqadi va mumkin bo'lgan dunyolarning eng yaxshisi hisoblangan bu dunyodagi yomonliklar uchun javobgarlikdan Xudoni halos etishga urinadi. Monadologiyada asosiy va fundamental elementlari "monadalar" bo'lgan olamning tuzilishi muhokama qilinadi. Leybnits shuningdek Lokkning epistemologiyasini inson bilishi haqidagi yangi tajribalarda tanqidiy tahlildan o'tkazgan.



Devid Yum (1711-1776). Ingliz faylasufi, psixolog olim va muarrix David Yum Shotlandiya poytaxti Edinburg shahrida, uncha boy bo'lmagan dvoryan oilasida dunyoga keldi. Uning otasi huquqshunos bo'lgan. Devid Yum Edinburg Universiteti va Lya - Flesh nomli Farang kollejida tahsil oldi. U kollejda ilk marta Rene Dekartning ilmiy qarashlari bilan tanishdi.

Devid Yum birinchi bo'lib, "sabab"ning mohiyatini hodisa va tushuncha sifatida jiddiy o'rganishga kirishdi. Uning bu boradagi mulohaza va xulosalari falsafa fanining asosiy yutuqlaridan biriga aylandi.

Faylasufning 1739 - yil "Inson tabiatiga doir mulohazalar", 1740 - yil "Ta'b me'yori haqida", 1742 - yil "Ahloqiy va siyosiy ocherklar", 1751 - yil "Ruhning barhayotligi to'g'risida", "Tabiiy din haqida so'zlashuv (dialog)" nomli asarlarini yozdi.

Devid Yum va Gartli har xil psixik hodisalar va elementlar g'oya tasavvurlarning yaxlit bo'lib birlashishining asosiy qonuni sifatida assotsiatsiyalar haqidagi ta'limotni ilgari surdilar.

Assotsiatsiyalar haqidagi bunday ta'limot bir vaqtda ham idealistik, ham materialistik yo'nalishda paydo bo'ldi. Idealistik yo'nalishning vakili (va umuman assotsiativ oqimning asoschisi) Devid Yum edi. Uning ta'limotiga ko'ra, ongning barcha murakkab hodisa va mahsullari va o'zining "men" ekanligi (o'z - o'zini) anglash, o'zaro tashqi bog'lanishlar - assotsiatsiyalar bilan bog'langan "tasavvur birikmalari"dir, xolos.

Kant Immanuil¹⁵ (1724-1804). Ma'lumki, XIX asr fizika, biologiya, fiziologiya, ximiya va boshqa tabiat fanlarining gullab yashnashi bilan xarakterlanadi. Fanda paydo bo'lgan eksperimental uslubning keng qo'llanilishi fanlarning rivojlanishiga turtki bo'ldi. XVIII asrning oxiri XIX asrning boshlaridayoq psixologlar o'rtasida psixik hodisalarni o'rganishda eksperimentni tadbiq qilish mumkin emasmi degan masala maydonga chiqdi.

Bu masala bo'yicha filosof I.Kant o'z fikrini aytdi. Uning fikricha, psixologiyada eksperimentning bo'lishi mumkin emas, ularga matematikani tadbiq qilish mumkin emas.

Germaniyalik mutafakkir Immanuil Kant Kyonigsberg shahrida hunarmand usta oilasida tug'ilib o'sdi. U oiladagi 9 nafar farzandning to'rtinchisi bo'lgan. Kant bolalik va o'smirlik chog'larida tez - tez kasalga chalingani sababli nimjon, jizzaki hamda vahimachi edi.

1745 - yilda u Kyonigsberg universitetining ilohiyot fakultetini tamomlagan. 1755 - yildan to 1797 - yilgacha shu erda metafizika, mantiq, ahloqiy falsafa, fizika, riyoziyotdan dars bergan. Umrining oxirigacha bo'ydoq o'tgan. 57 yoshida "Sof tafakkur tanqidi" deb nomlangan asosiy asarini yozib tugallagan.

Uning 1755 - yil "Osmonning umumiy tabiiy tarixi va nazariyasi", 1800 - yil "Mantiq", 1788 - yil "Amaliy mantiq tanqidi", 1798 - yil "Antropologiya" nomli asarlari mavjud. Bular Kantning eng yirik va mashhur asarlari sirasiga kiradi.

¹⁵ Hergenbahn B.R. Tracy B. Henley An Introduction to the History of Psychology. - 2014 Wadsworth, Why Study the History of Psychology. 126-p.

Olim shaxsiy hayotida falsafiy masalalar xususida suhbatlashishni xush ko'rmagan. Aftidan, u o'zining tinglashga emas, faqat o'qitishga qobiliyatli ekanini yaxshi anglagan. Hayotining har bir lahzasi muayyan tartibga solingan faylasuf har kecha roppa - rosa 10 da uyquga yotgan, tonggi soat 5 da uyg'ongan. U 30 yil davomida bir marta ham bu tartibni buzmagani. Roppa - rosa kechki soat 7 da sayrga chiqqan. Kyonigsbergda yashovchilar Kantga qarab soatlarini tekshirishgan degan faktlar bor.



Olport Gordon Uillard (1897-1967).

Amerikalik psixolog olim, u 1897 - yilda vrachlar oilasida tug'ildi. Psixologiyaga oid juda ko'p ilmiy asar va maqolalar muallifi hisoblanadi. Uning psixologiyada qilgan eng katta ishlaridan biri "shaxsni o'rganishga tizimli yondoshish nazariyasi" hisoblanadi. Shaxsni psixologiyada juda ko'p olimlar o'rgangan bo'lib, o'ziga xos tarzda yo'nalishlar va nazariyalarga asos solgan. Biogenetik, sotsiogenetik va biosotsiogenetik yo'nalishlar bo'lib, har qaysi psixolog olim shaxsning rivojlanishini qaysidir bir yo'nalish asosida yoritishga harakat qilgan.

G.U Olport shaxs nazariyasini "men" va "o'z - o'zini anglash" tushunchalariga asoslangan holda ishlab chiqqan. "O'z-o'zini aktuallash" nazariyasi shaxsning anglangan va hayotida muhim narsaga intilishini bildiradi.

Biologik ehtiyojdan kelib chiqadigan motivlar qondirilganda biologik asosga bo'ysunmaydigan xarakter kasb etishi mumkin (motivlarning funksional avtonomlashish tamoyili).

G.Olportning fikricha, "shaxs "ichki tizim", "dinamik qurilma", "men", "qandaydir metapsixologik men" o'zida oldindan maqsad va dispoziitsiyani aks ettiruvchi, inson tafakkuri va xulq - atvorida mutanosib ravishda qaror toptiruvchi jonzotdir". Huddi shu boisdan shaxsning sinfiy - tarixiy jihatdan yaqqol baholanishi ochilmay qoladi, ijtimoiy tahlil o'rnini psixologik talqin egallaydi.

G.Olport konsepsiyasida yaqqol ko'zga tashlanadigan eng muhim jihat, bu inson xulqini o'zgarish sabablarini ochishdir. Shuning bilan birga mazkur vaziyatga olib keluvchi motivlarning omillarini tekshirish ham alohida ahamiyatga ega ekanligini anglab olish qiyin emas. Bu borada individning javoblari o'ziga xosligi bilan o'zaro ta'sir o'tkazish o'rtasida qandaydir aloqa mavjudligini o'rnatish ham ikkinchi darajali narsa sifatida talqin qilinmaydi.



Jane Per Mari Feli (1859-1947). Serqirra ijodkor olim fransuz psixologi va psixiatridir. U o'zining psixologiyaga oid juda ko'p ilmiy tadqiqotlarida nevrozlar, psixastenik xarakter, psixik avtomatizmi tekshirish kabi mavzular bilan ilmiy ish olib borgan. Jan Per Mari Felining psixologiya fani taraqqiyotiga qo'shgan ulkan ishlaridan bir 1920-yillarda faoliyat kategoriyasi asosida umumpsixologik konsepsiyasini yaratgan. Har bir psixolog olimning konsepsisi o'ziga xosligi bilan ajralib turgani kabi, Jan Per Mari Felining ham konsepsisi o'ziga xosligi va takrorlanmasligi bilan alohidalikka ega. O'sha paytlarda ko'pgina yo'nalishlar psixologik maktablar g'oyalari asosida rivojlanar edi.

Jan Per Mari Felining konsepsiyasida psixologik maktablardan biri bo'lgan bixevioristlardan farqli o'laroq, psixikani ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan amaliy tashqi ta'sirlardan interiorizatsiyasining natijasi deb qaraydi.

Jan Per Mari Felining g'oyalari XX asr fransuz psixologiyasiga va Vigotskiyning madaniy - tarixiy konsepsiyasiga muhim ta'sir ko'rsatgan.



Maslou Abraham Harold (1908-1970). Amerikalik psixolog, u 1908 - yil 1-aprelda Nyu-Yorkda tug'ildi. Psixologiyada odomzod muammosi azaliy dolzarbligi bilan boshqa insonshunoslik kategoriyalaridan keskin ajralib turgan va bundan keyingi insonning ijtimoiy - tarixiy taraqqiyotida ham shunday nufuzga ega bo'lib qolaveradi. Inson shaxsini o'rganish masalasi bilan falsafa, psixologiya, pedagogika, tarix kabi ijtimoiy gumanitar fanlar shug'illangan.

Maslou Abraham Xorold muammoni inson, jamiyat, tabiat va turmush munosabatlari nuqtaiy nazaridan tekshirgan va ilmiy yo'nalishlar olib borgan olimlar sirasiga qo'shsak bo'ladi. U har bir turdagi va ko'rinishdagi kauzal, strukturaviy, operatsional, motivatsion, kongnitiv, fazoviy va makoniy aloqalar tizimi mavjudligini ta'kidlab o'tgan.

Maslou Abraham Xorold psixologiya tarixida gumanistik psixologiya asoschilaridan biridir. Motivatsiyaning tug'maligi va universalligiga asoslangan ierarxik model g'oyasi asoschisi.

Insonni shaxs xususiyatlari mustaqillik kreativlik (ijodkorlik) falsafiy dunyoqarash demokratiik maxsuldorlik kabi xususiyatlarni

ta'riflagan. Keyinchalik u ehtiyojlarni zaruriy va taraqqiyot ehtiyojlarga ajratish orqali o'zgartirgan. Uning ilmiy ishlari va g'oyalari psixologiya fani taraqqiyotida o'z o'rniga ega va bu hozirda ham yosh olimlar tomonidan o'rganilmoqda.



Rodgers Karl Renson (1902-1987).

Amerikalik psixolog u 1902 - yilning 8-yanvarda Rodgerslar oilasida to'rtinchi farzand bo'lib dunyoga keldi. Rodgers Karl Renson psixologiya soxasiga juda katta hissa qo'shgan olimlar sirasiga kiradi.

U ham A. Maslou kabi gumanistik psixologiya asoschilaridan biri hisoblanadi. Uning sohaga oid juda ko'p asarlari bo'lib, shulardan biri "Mijozga markazlashgan terapiya" asaridir.

Olim shaxs yadrosi sifatida "Men konsepsiyasi"ni ko'rgan bu "Men - real" va "Men - ideal" ning o'zaro ta'rif dinamikasidan iborat. Uning ta'rifiga ko'ra shaxsda kelishib ishlaydigan ikki instansiya mavjud:

Birinchisi individual tajriba va atrofdagilarning dolzarb bahosidan kelib chiquvchi odamning o'z tasavvurlari va o'zini baholashidan iborat bo'lgan "real men";

Ikkinchisi inson orzu qilgan ideal "men" mijozga qaratilgan ob'yektiv psixoterapiyani ishlab chiqdi. Uning asosida mijozga maslahat bermaslik va uning xulqini baholamaslik, lekin muammolarini hal qilishni talab qiluvchi ijodiy qobiliyat yotadi.

Uning ilmiy ishlari psixologiya fani taraqqiyotiga juda katta hissa qo'shgan va bu hozirda ham o'z o'rniga egaligi bilan ajralib turadi.



Uotson Djon Brodes (1878-1958).

Amerika psixologi, bexeviorizm (inglizcha behaviorism - xulq ma'nosini anglatadi) asoschilaridan biri. Bexeviorizm psixologiya maktabi psixologiya fanining predmeti psixikani emas, balki inson va hayvonlar xulqini o'rganishdan iboratdir, degan g'oyani ilgari suruvchi va himoya qiluvchi oqimdir. Ushbu psixologik maktab yo'nalishining o'ziga xos formulasi **S-R** (**S**-stimul, **R**-reaksiya) hisoblanadi. Dj.Uotson 1878 - yilning 9 - yanvarida Aqshda tug'ildi. Psixologiya fanida o'ziga ilmiy meros yaratgan. Qolversa, psixologiya fanini bevosita his qilindigan sub'yektiv hodisalar haqidagi fan deb qarovchi g'oyalarga qarshi chiqib, psixik hodisalarni o'rganishga yangicha yondoshishni targ'ib qildi. O'z nuqtai nazarini

1913-yil yozilgan ilmiy axborotnomasida aks ettirdi. Introspektiv psixologiyaga qarama - qarshi u, tabiiy fanlardagi kabi, ob'yektiv uslublarga tayanish, psixologiyaning predmeti sifatida odamning tug'ilgandan umrining oxirigacha bo'lgan xulqini o'rganishni taklif qildi. Dj. Uotsonning fikricha, psixologik tadqiqotlarning asosiy vazifasi xulqni oldindan aytib berish va uni nazorat qilishdan iborat. Uotsonning qarashlari stimuly-reaksiya g'oyasini rivojlantirdi. Bu yaxlit konsepsiya bo'lib, shakllanmagan yuqoridagi nazariyalar uchun ilmiy yo'l sifatida tushuntirildi. Amerika psixologiyasidagi bu oqimning vakillari ham psixolog organizmning faqat tashqi ifodali harakatlarini, inson va hayvon hulkinigina o'rganmog'i kerak deb da'vo qildilar. Dj.Uotson shuning uchun ham o'zining psixologiya sohasidagi asosiy asarini "Psixologiya xulq haqidagi fan" deb nomladi. "Bixevior" degan so'z inglizcha xulq, demakdir. Amerika psixologiyasidagi bu yo'nalish shuning uchun ham "bixeviorizm" (Xulq psixologiyasi) deb ataladi. Psixika va ong haqida Uotson: "Agar bixeviorizm fanda qandaydir ko'zga ko'rinarli o'rin olinishini xohlasa, u "ong" tushunchasini mutlaqo rad qilmog'i kerak. Ong va uning tarkibiy elementlari - bularning barisi quruq gapdan iborat" deb aytgan. Dj.Uotsonning yana shunday deydi: "sezgi, idrok, diqqat, iroda, xayol kabi tushunchalardan, biror kimsa to'liq tushungan holda foydalana olishini men mutlaqo bilmayman va unga ishonmayman ham".



Vilgelm Vund (1832-1920). 1832 - yilning 16 - avgustida tug'ildi. Psixologiyaning mustaqil fan sifatida taraqqiy etishiga ulkan hissa qo'shgan psixolog olimdir.

V.Vund eskperimental psixologiyaning yagona asoschisi, nemis psixologi, fiziologi, faylasufi, tilshunosidir. Fiziologik psixologiya fanida ongni elementlarga ajratish va ular o'rtasidagi aloqani o'rganish maqsadida laboratoriya tajribasi uslubini qo'llovchi alohida fan qilib qo'llash rejasini ilgari surgan.

V.Vundning⁵ 1873-1874 yilda yozilgan "fiziologik psixologiya asoslari" asari yangi fanda yo'l boshchi vazifasini o'taydi. U birinchi bo'lib, 1861 - yilda alohida mayatnik (Vund mayatniki) ishlab chiqdi. Bu mayatnik graduslarga bo'linadi va yoy atrofida harakatlanadi va har bir ma'lum vaqtda ovoz chiqaradi. Bu psixologik eksperimentlar uchun kashf qilingan birinchi asbob hisoblanadi.

U 1879 - yilda Vundt Leypsig Universitetida dunyoda birinchi eksperimental psixologiya laboratoriyasiga asos soldi va bu laboratoriya shu sohadagi tekshirishlarning xalqaro markaziga aylandi. Bu erda sezgi, assotsiatsiya, diqqat turli qo'zg'atuvchilarga reaksiyalarning paydo bo'lish vaqti o'rganilgan.

Vundt oliy psixik jarayonlarni tekshirishga harakat qildi, lekin uning fikricha bu ishlar boshqa uslublar yordamida amalga oshirilishi lozim, bu fikrlar uning "Xalqlar psixologiyasi" asarida aks ettirilgan (1900-1920 y).

Vundt dunyo psixologiyasining qad ko'tarishiga katta hissa qo'shdi. Uning qo'lida keyinchalik mashhur psixologlarga aylangan E.Titchener, F.Kryuger, G.Myunsterberg, St.Holl, V.M.Bexterev, N.N.Langelar ta'lim oldi.

Bir so'z bilan aytganda Velgelm Vund o'zining birinchi bo'lib ochgan eksperimental laboratoriyasi va ilmiy ishlari bilan psixologiya fanining taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan olim sifatida tarixda qoldi.

U tamonidan ishlab chiqilgan yo'nalish va tadqiqotlar hozirda ham psixolog olimlar tamonidan o'rganilib kelinmoqda.



Ebbinghaus German (1850-1909). "Psixologiya uzoq o'tmishga va qisqa tarixga ega¹⁶," so'zlarining muallifi Ebbinghaus German nemis psixologi, eksperimental psixologiya asoschilaridan biridir. U 1850 - yil 24 - yanvarda Germaniyada tug'ildi. Tadqiqotchi Fexnyerning psixofizik tajribalari bilan keng qiziqishi natijasida sonli va eksperimental tekshirishlarni faqat sezgi kabi psixik jarayonlarni emas balki, diqqatni o'rganishda ham qo'llashni amalda tatbiq qildi.

Bu tajribalar uchun boshlang'ich material qilib mazmunsiz bo'g'inlar hech qanday o'zaro mazmun assotsiatsiyasi bo'lmagan turli nutq elementlarining birikmalari olingan.

U 2300 mazmunsiz bo'g'inlardan iborat ro'yxat tuzib, o'zi ularni yodlagan va unutgan, shu yo'l bilan xotiraning xususiyatlari va qonuniyatlarini belgilovchi uslublarni ishlab chiqqan. Esdan chiqarish chizig'ini tuzgan, bunda material bevosita yod olishdan keyingi davrda ko'proq foiz esdan chiqarishni ko'rsatgan. Bu chiziq keyinchalik malaka hosil qilish, muammoni echish bo'yicha ham

¹⁶ Hergenhahn B.R. Tracy B. Henley An Introduction to the History of Psychology. - 2014 Wadsworth, Why Study the History of Psychology. 270-271-p.

chiziqlar tuzishga namuna bo'lib xizmat qilgan. U 1885 - yilda xotira bo'yicha eksperimental ishlar "Xotira haqida" asarida yoritilgan.

Ebbingauz shuningdek, eksperimental psixologiya bo'yicha shu qatorda ko'rish idrokining o'ziga xosligi haqida ishlar olib borgan. Bolalarning aqliy qobiliyatlarni o'rganishga alohida e'tibor bergan, buning uchun test ishlab chiqqan. Qisqa qilib aytganda u psixologiya faniga juda katta hissa qo'shgan olim sanaladi. G.Ebbingauz "Eksperimental psixologiya" bo'yicha ko'rish idrokining o'ziga xosligi bo'yicha bir qator tadqiqotlar olib borgan.

Bolalar aqliy qobiliyatlarni o'rganishga alohida e'tibor berib, muammoga doir test ishlab chiqqan.

Ebbingauzning aytishicha, nutq bu "ikki elementning" mustahkam assotsiatsiyalari bo'lib qo'shilishidir; bir tomondan, so'z va gaplarning ularning ma'nolari bilan, ikkinchi tomondan, esa so'z va gaplarning narsalar bilan birikishidir.

Gap va so'zlarning haqiqiy mohiyati nutq organlari faoliyati tufayli hosil bo'ladigan, "ohang va shovqinlar"dan va bu faoliyat natijasida harakat va holatni sezishdan, ya'ni eshituv va kinestetik yoki nutq, ta'sirotlaridan iboratdir.

Uningcha, qayd qilingan har ikkala so'z elementlari ham o'zaro mustahkam assotsiatsiyalar bilan bog'langan, deb ta'kidlaydi. G.Ebbingaus xotira jarayonlarini tadqiq etishda e'tiborli ishlar qoldirgan.



Freyd Zigmund (1856-1939). Psixologiyada ongsizlik (Psixonaliz) ta'limotiga asos solgan vrach, psixolog, tabiatshunos 1856 - yilning 6 - mayda Frayburgda, o'sha paytdagi Avstriya - Vengriya imperiyasining hozirgi kundagi Chexiya Respublikasiga taalluqli joyida tug'ildi. U Avstriya psixologi, psixiatri, nevropatolog bo'lib psixologiya tarixida qoldi. Uning psixologiya fani sohalariga doir eng mashhur asarlari quyidagilardir "Tushlarning tabiri", "Psixonalizga kirish bo'yicha ma'ruzalar", "Lazzat tamoyili ortida", "Bir illyuziyaning kelajagi", "Madaniyatdan norozilik", "Musso va monetizm".

Freyd Zigmund XIX asrning 80 - yillaridan amaliy tibbiyot sohasida ishlagan. Fiziolog va vrach nevropotolog sifatida ish boshlab ko'p kasalliklarning manbai bemor tomonidan anglab etilmagan komplekslardir degan xulosaga kelgan. Z.Freydning birinchi ilmiy ishi Y.Breyer bilan birga 1895 - yilda chop etilgan. Bu ish injiqliklarning

kelib chiqishi va uni gipnoz bilan davolash muammosiga bag'ishlangan.

Keyinchalik, Z.Freyd gipnozni qo'llashdan voz kechgan va psixoanaliz yordamida davolash usulini yaratgan, bunda assotsiativ tushlar bemorning noto'g'ri faoliyatlarini tushuntirishga asoslangan.

Olingan material asosida shaxs tuzilishi haqidagi konsepsiyani yaratgan va 3 ta darajani ajratgan: Ong, ong osti, ongsizlik. Z.Freyd ta'limoti XX asr boshlarida keng tarqalgan. Uning ko'plab shogird va izdoshlari keyinchalik yangi konsepsiya va nazariyalar ishlab chiqishgan. Lekin Z.Freyd ta'limotining ba'zi joylari izdoshlari tomonidan ham rad etilgan.

Z.Freydning inson hayotida seksuallik muammosi ko'plab tanqidlarga asos bo'lgan. Z.Freyd psixologiya tarixida o'ziga xos tarzda yo'nalish asoschisidir. Z.Freydning konsepsiyasida mayllar va instinktlar tushunchalari o'rtasida hech qanday tafovut yo'qdir. Ongsizli ta'limotining asoschisi Z.Freyd xulq motivalari va ehtiyojlari muammosini ishlab chiqayotir, motivatsiyaning manbai instinkt, utur va individning saqlanish shartidir deb taqdirlaydi. Mazkur holatni muallif individning energetik potentsiya sifatida talqin etadi. Eng asosiy masala shuki, Z.Freyd motivatsiya regulyatori va motivatsiya energiyasining irsiy manbai sifatida "u" tushunchasiga qanday ma'no yuklamoqchi. Uningcha, "u" tushunchasining mazmuni tug'ma va o'zgarmasdir. Huddi shu bois mantiq qonunlari va aql darajalari, ko'rsatkichlari unga hech qanday ahamiyat kasb etmaydi. Z.Freyd affektiv, impulsiv shakldagi mutlaqlashgan qo'zg'ovchilarni nazarida tutgan bo'lsa ajab emas. Ushbu qo'zg'atuvchilar (turtkilar) ning impulsivlik, taxminiylikning affektiv mohiyati, notanqiydiylik, ongli va irodaviy nazoratga itoat etishda qiyinlik kabilarning dinamik xususiyatlarini mutlaqlashtirish bo'lib, ularning asosida quyi genetik va strukturaviy darajadagi qo'zg'atuvchilar yotadi. Z.Freyd takidlab o'tgan dinamik xususiyatlar va xossalari mohiyatida motivatsiyaning chuqur asosiy manbasini ko'radi. Uning konsepsiyasida inson xulqi va harakatining dvigateli jinsiy instink hamda uning transformatsiyasi ustuvor o'rin egallaydi.



Kenon Uolter Bredford (1871-1954). Amerikalik fiziolog bo'lib, organizmdagi emotsional holatlar yani tana yuz tuzilishini va ichki organizmlarni o'zgarishi haqida tadqiqotlar olib borgan.

K.U.Bredford fiziologiya bilan birgalikda psixologiya fani taraqqiyotiga ham ulkan hissa qo'shgan olimdir. Uning 1915 - yilda yozgan "G'azablanish, qo'rquv, ochlik va og'riqda paydo bo'ladigan o'zgarishlar haqida" asari bunga yorqin misol bo'la oladi.

K.U.Bredford nerv sistemasi ichki organlarning sekretsiya bezlari va tanamizda emotsional holatlar inson hayotida katta rol o'ynashini isbotlab bergan. U birinchilar qatorida, har - xil emotsional kechinmalar tufayli inson vujudining tashqi tuzilishini va ichki organlar o'zgarishini bir - biriga o'xshash bo'lgan emotsional holatlarini dalillar asosida tavsiflab bergan.

Har bir individning hissiyotlarni kechirish jarayoni turlicha bo'lib, uning quyidagicha xususiyatlar ajratiladi:

Dominantlik - Individga ta'sir etgan kuchli qo'zg'atuvchi yuqori emotsional holatni yuzaga keltiradi. Ushbu emotsional holat inson ongida dominantlik darajasiga chiqish, ongni tormozlash va boshqa emotsional holatlarni inson ongiga kirishiga to'sqinlik qilgan holda uzoq vaqt saqlanish xususiyatiga ega.

Adaptatsiya - tashqi va ichki muhitda bo'lgan o'zgarishlarga moslashishni ifodalaydi.

Salbiy voqea-hodisalar, yolg'izlanish insonda qo'rquv, vahima hissi sifatida kechadi. Ushbu salbiy qo'zg'ovchilarning uzoq vaqt davomida takroriy ravishda ta'sir etishi taassurotga xos kechinmalar o'tkirligini pasaytiradi.

Xotirada saqlanish- Emotsional holatlar va hissiyotlar inson ongida uzoq vaqt saqlanish xususiyatiga ega. Bunga asosan xotiraning emotsional turi ajratiladi. Xotirada saqlangan kechinmalar insonni faoliyatga undovchi yoki to'xtatuvchi ma'lumot vazifasini bajaradi.

Ko'chirish - insonda paydo bo'lgan kuchli emotsional holat atrofda qilarga ko'chirilish xususiyatiga ega.

Tadqiqotchilar birinchilar qatorida har-xil emotsional kechinmalar tufayli inson vujudining tashqi tuzilishining va ichki organlarni o'zgarishining bir - biriga juda o'xshash bo'lgan.

Bu emotsional holatlarni ta'riflab bo'lmaydigan darajada insonni o'zgarishini dalillar asosida tavsiflab bergan. Inson psixologik holatlarining fiziologik asoslarini ilmiy tarzda ochib bergan.



Djems.Uilyams (1842-1910). Amerikalik faylasuf va psixolog.bo'lib, psixologiya fani taraqqiyotining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. Djems.Uilyams psixologik bilish jarayonlari hususida ilmiy ishlarni olib borgan va ulkan muvofaqiyotlarga erishgan. U psixologiyada idrok bilan bog'liq tadqiqotlar olib borib, idrokni nazariy jihatdan shunday deydi: "Idrok jarayoni miya markaziga qaratilgan". Uning o'ziga xosligi har bir psixologik jarayonlarni o'rganish bilan birgalikda uning fiziologik asoslarini ham ochib berishga intilgan. Uning tadqiqotlari va izlanishlari natijasida, tashqi muhitga moslashish bilan birga, inson psixikasiga ta'sirini, organizmdagi o'zgarishlarni o'rganib chiqdi. U tadqiqotlari davomida emotsiyani nazariy jihatdan o'rgandi. Shuningdek, qo'rquv, hursand bo'lishni, fiziologik o'zgarishlarni, ichki tuyg'uni isbotlab berdi. Bir so'z bilan aytganda umumiy psixologiya fani rivojiga o'ziga xos tarzda ulkan hissasini qo'shgan olimdir.



Edvard Li Torndayk¹⁷ (1871-1949). Fan tarixida Bixeviorizm asoschilaridan biri hisoblanadi. Olim 1874-yil 31-avgustda Massachusete shtatida (AQSh) Vilemsburg shahrida ruhoniy oilasida tavallud topgan. U o'zining ilk tajribalarini mehribonlik uylarining bolalari bilan o'tkazgan. Universitet ma'muriyati bolalar bilan tajriba o'tkazishni ma'n qiladi va u keyinchalik hayvonlar bilan tajriba o'tkazadi.

U dunyodagi birinchi eksperimental zoopsixologiya laboratoriyasini ochdi. U dastlab jo'jalar keyinchalik it va mushuklar bilan tajribalar o'tkazadi.

U o'z tajribalarining natijalarini 1898 - yilda "Hayvonlar intellekti yoki hayvonlardagi assotsiativ jarayonlarning eksperimental o'rganilishi" nomli doktorlik dissertatsiyasini yoqlab unda fanga doir quyidagi qonuniyatlarni kashf qildi:

1. Mashq qonuni;
2. Tayyorlik qonuni;

¹⁷ Hergenhahn B.R. Tracy B. Henley An Introduction to the History of Psychology. – 2014 Wadsworth, Why Study the History of Psychology. 354-355-p.

3. Assotsiativ ko'chish.

U o'zining izlanishlarida xulq motivatsiyasining "quyi darajalari" ni o'rganib, kalamushlarda tajriba ishlarini olib borib, jonivorda ochlik, tashnalik va ularning turlicha darajalarini reaksiya tezligiga nisbatan namoyon bo'lish xususiyatini ochishga intilgan.

E.Torndayk organizmning javob reaksiyasi yig'indisini - xulq, qo'zg'aluvchilarining murakkab tizimini vaziyat, tashqi sharoit ekanligini tushuntiradi.

Shuning uchun inson ongi bilan emas, balki vaziyat bilan boshqariladigan g'oyani ilgari surgan. Natijada inson ruhiy dunyosi mexanik ravishda reaksiyalar yig'indisi bilan tenglashib qoladi.

E.Torndayk 1912 - yil Amerika psixologlari assotsiatsiyasi prezidenti etib saylandi. U faoliyati davomida 500 dan ortiq ilmiy asarlar yozgan. U 1949 - yilda vafot etgan.



Mak-Dugall Uilyam (1871-1938). Mashhur ingliz psixologlaridan biri hisoblanadi. Psixologiyaning uch yuzdan ortiq tarmoqlari bo'lib, shulardan ijtimoiy psixologiya fanining asoschisi bo'lib, hisoblanadi. Ijtimoiy xulq - atvor instinktlari nazariyasi XX asrning boshida Angliyada shakllandi.

Uning asoschisi ingliz psixologi Uilyam Makdugall bo'lib, u o'zining 1908 - yilda yozgan "Ijtimoiy psixologiyaga kirish" kitobidagi inson xulq - atvorlarining motivi yoki uni harakatga keltiruvchi kuch instinktlardir, - deb yozgan. Keyinchalik u instinkt tushunchasi bilan birga layoqat, intilish iboralarini ham ishlata boshladi. Uning fikricha, xulq - atvorni ta'minlovchi narsa tug'ma, psixofiziologik tayyorlik holati bo'lib, u nasldan - naslga uzatiladi. Makdugall barcha harakatlarni refleksiv holda tushuntirishga intilib, refleksiv yoyga xos bo'lgan barcha qismlar - ya'ni efferent qabul qiluvchi, retseptiv bo'lim, efferent (harakat) va markaziy bo'limdan iborat tizim sifatida tasavvur qiladi. Barcha ijtimoiy harakatlar ham ana shunday refleksiv tabiatga egadir, deb uqtiradi u.

Mak - Dugall odamlarning ijtimoiy xulq - atvorini tushuntirib berdi va uning asosida irqning ustunligini ilmiy asosladi. U ilmiy genetikaga qarshi chiqib, orttirilgan alomatlarining nasldan - naslga o'tishini isbotlashga harakat qildi.



Jan Piaje (1896-1980). Shvedsar psixologi, Jeneva genetik psixologiyasi asoschisi Jan Piaje 1896 - yil 9 - avgustda Nevshotelda dunyoga keldi. Piaje asosiy diqqat - e'tiborini bolaning fazo, vaqt, son va sabab to'g'risidagi tasavvurlari hamda qabul qilishi va ahloqiy rivojlanishiga qaratgan holda, bolalardagi nutq va fikrlash jarayonlarini o'rganishga bag'ishlanadi. Keyinchalik u intellektning rivojlanishini o'rganishga e'tibor qaratdi.

Psixologiya faniga oid olim tomonidan quyidagi asarlar yaratilgan: "Bolalar intellektining paydo bo'lishi" (1936 yil), "Bola tomonidan reallikni tuzish" (1937 yil), "Bola nutqi va fikrlashi" (1923 yil), "Genetik epiotemologiyaga kirish" (1949-1950-yillar), "Strukturalizm" (1968 yil), "Genetik psixologiya muammolari" (1972 yil).

Piaje o'smir va bolaning intellektual rivojlanishidagi bosqichlar gipotezasini ilgari surdi. Uning faraziga ko'ra, intellektual rivojlanishni quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin: sensomotor intellekt (2 yoshgacha), deoperator intellekt (6-7 yoshgacha), formal amallar (15 yoshgacha). Jan Piaje 1980 - yil 17 - sentyabrda Jenevada vafot etadi. J.Piaje intellekt nazariyasi ikkita muhim jihatga ajratilgan bo'lib, u intellekt funksiyalari va intellektning davrlari ta'limotini o'z ichiga qamrab oladi. Intellektning asosiy funksiyalari qatoriga uyushqoqlik (tartiblilik) va adaptatsiya (moslashish,ko'nikish) dan iborat bo'lib, intellektning funksional invariantligi deb yuritiladi.

Muallif shaxsda intellekt rivojlanishining quyidagi bosqichlarga ajratadi:

- 1) sensomotor intellekti (tug'ilishdan to 2 yoshgacha),
- 2) operatsiyalardan ilgari tafakkur davri (2 yoshdan to 7 yoshgacha),
- 3) konkret operatsiyalar davri (7-8 yoshdan 11-12 yoshgacha),
- 4) formal (rasmiy) operatsiyalar davri.

J.Piajening g'oyalari davom ettirgan psixologlarning bir guruhini kognitiv - genetik nazariyaga birlashtirish mumkin. Bu yo'nalishning namoyandalari qatoriga L.Kolberg, D.Bromley, Dj.Birrer, A.Vallon, G.Grimm va boshqalar kiradi.



Sele.Gans (1907-1982). Sele Gans mashhur Kanada biologi va vrachi hisoblanadi. U umumiy moslashuv sindromi tushunchasiga asos solib "stress" haqidagi ta'limotni ishlab chiqqan. Psixologiya faniga stress tushunchasini olib kirgan olim kanadalik

fiziolog G. Sele (1936 yil) sanaladi. U stressni tadqiq qilishda moslashuv alomati (adaptatsion sindrom - yunoncha syndrome belgi, alomat, ko'rinish moslashuvi demakdir) masalasiga, uning faoliyatga ijobiy hamda salbiy ta'sir etishiga alohida ahamiyat bergan. Shuningdek, ekstremal (lotincha extremus favquloddagi holat, eng oxirgi vaziyat ma'nosini anglatadi) vaziyatlardagi, murakkab jarayonlardagi stressning o'ziga xosligi, faoliyatni qayta tashkil qilishgacha (dezorganizatsiya lotincha de organisation fransuzcha tashkilot, tuzilma ma'nosini bildiradi) olib borishi, shunga o'xshash sharoitlarda shaxs xulqini bashorat etish (prognoz yunoncha prognosis ma'nosini anglatadi) imkoniyatlari G. Sele tomonidan o'rganilgan.

Tadqiqotchi U. Kennonning gomeostazis (yunoncha o'xshashlik, stasis ma'nosini bildiradi) haqidagi ta'limotida stress holati har tomonlama o'rganilgan. Ushbu termini u psixologiyaga 1929 - yilda olib kirgan. Gomeostazis mexanizmida moslashish xususiyatlari yaqqol o'z ifodasini topadi. Uning mulohazasicha, faoliyat shakllarini amaliyotga tatbiq etish jarayonida nerv sistemasi va miya funksiyasini oqilona ta'minlab turishda hamda saqlashda gomeotazis muhim rol o'ynaydi.

Stress holatida shaxsning xatti - harakatlari o'ziga xos tarzda o'zgaradi, unda qo'zg'alishning umumiy reaksiyasi paydo bo'ladi, uning harakatlari tartibsiz ravishda amalga oshiriladi. Stressning kuchayishi esa teskari reaksiyaga olib keladi, natijada tormozlanish, sustlik, zaiflik, faoliyatsizlik ustuvorlik qila boshlaydi. Lekin stress holatida fiziologik o'zgarishlar tashqi tomonidan qariyb ko'zga tashlanmasligi mumkin. Biroq muammoni echishdagi qiyinchilik, diqqatni taqsimlashdagi sarosimalik stressning tashqi ifodasi deb taxmin qilinsa bo'ladi. Shaxs stress holatida telefon nomerini adashtiradi, vaqtni chamalashda yanglishadi, ong faoliyati engil tormozlanadi, idrok ko'lamini torayadi va boshqalar.

Bu organizmning psixofiziologik resurslarining qiyin sharoitga moslashtiruvchi neyroqumoral reaksiyalar yig'indisi ekanligini ko'rsatgan. Tajribalarda ekstremal sharoitlarda Sele ta'limoti asosida stress turli shakllarga ajratilgan va shu bilan birga psixologik stress tushunchasi shakllantirilgan.



Alfred Adler (1870-1934). Avstriya psixologi, psixoanalitik yo'nalishning yirik namoyondasi. U 1870 - yilda Avstriya shahrining chekka qishlog'ida tavallud topgan. Psixologiya fanida olib borgan

tadqiqotlari va tajribalari tufayli 1895 - yilda Venada tibbiyot bo'yicha doktorlik dissertatsiyasini yoqlagan. 1902 - yildan 1911 - yilgacha Vena psixoanaliz jamiyatida faoliyat yuritgan. Uning eng mashhur asari "Individual psixologiya" deb nomlanib 1911 - yilda chop etilgan

A.Adler o'z ta'limotida shaxsning psixik hayoti, ichki yaxlitligi tamoyilini ilgari surdi. U onglik va ongsizlik o'rtasida aniq chegara yo'q deb ta'kidlaydi. O'z faoliyati bilan gumanistik psixologiya, bolalar va tibbiy psixologiya, defektologiya kabi sohalariga katta hissa qo'shgan. Faqat aktiv munosabatlar orqali inson faoliyati usulini yaratadi va shu orqali individullikni integral mos kelishi, kelmasligini aniqlanadi.

Ikkinchidan individuallik ierarxik darajasi sotsial-tipik sharoitlarsiz vujudga kelmaydi. Bioximik individuallikda qondagi steroidlarni ko'payib ketishi iqtisodiy va siyosiy hayotdagi sotsial - tipik stressli holatlar bilan bog'liqdir. Uniing aytishicha, individual farqlar ko'plab murakkab omillar, individda nasliy va atrof muhit ta'sirida vujudga keladi. Nasliylik xulqiy ko'p xususiyatlarini o'zida aks ettiradi. Lekin uning rivojlanishi uni o'rab turgan muhitga bog'liq.

Har qaysi inson betakror o'ziga xos xususiyatlarga ega. Individuallik shaxsning intellektual, emotsional va irodaviy sohalarida namoyon bo'ladi. Shaxsning tiplarga ajratish nazariyalari ichki xususiyat, shaxs xislati va sifati yoki uning tashqi namoyon bo'lishini masalan (xulq - atvor va xatti - harakat) o'zida mujassamlashtiradi.

A.Adler ta'limotida, insonlar bir - birlaridan farq qilib, shaxsni yaxlit tasavvur qilish uchun, uning o'ziga xos xislatlari va ularni rivojlanish darajasi, ijtimoiylashuv, hokimiyatga bo'lgan ustunlik kabi tarkiblarda tahlil etiladi.

A.Adler, Z.Freydning biologizatorlik nazariyasiga keskin qarshi chiqadi. Uning fikriga ko'ra, insonda asosan tabiiy instinktlar emas, balki "umumhissiyot" deb nomlangan jamoaviylik tuyg'usi mavjuddir. Bu tuyg'u tug'ma, biroq uni ijtimoiy jihatdan takomillashtirish kerak. Inson tug'ilganidanoq tajovuzkordir (agressiv), bu holatning mukammallashuvi tabiiy ehtiyojlar bilan determinatsiyalashadi. Adler Freydning inson shaxsini uch (Id, Ego va Mutlaq ego) qismga bo'lishini qoralaydi. Shaxs kamolotidagi determinatsiya A.Adler ta'limotida ustunlikka intilishdir. Biroq bu intilish doimo amalga oshavermasligi mumkin.

Zero, jismoniy kamolot jarayonida tanadagi qusurlar tufayli inson o'ksiy boshlaydi, ijtimoiy sharoitning yaxshi emasligi esa, bu

o'ksishning bolalikdan paydo bo'lishiga olib keladi. Inson bu qusurlilik hissini engish uchun har xil yo'llar qidiradi va turli xil kompensatsiyalarga murojaat qiladi. A.Adler ana shulardan biri - yuksak darajadagi kompensatsiyani vujudga keltirish imkoniyati to'g'risida gapiradi. Bu o'z kamchiligi tufayli paydo bo'lgan ta'sirlanish qobiliyatini qusurlilikni bildirmaslikka urinish orqali ifodalash holatidir. Yuksak darajadagi kompensatsiyani vujudga keltirish shunday natijaga olib keladiki, jismonan ojiz hamda erksiz odamlar mardona faoliyat ko'rsata boshlaydilar. Bundan tashqari Adler yuksak darajadagi kompensatsiyada ijodkorlik va faollik murvatlarini ko'radi.

A.Adler fikriga ko'ra, insonning fe'l - atvori uning "hayotiy uslubi" dan vujudga keladi. A.Adlerdagi fe'l - atvorning shakllanish shemasi Z.Freyd shemasiga o'xshab ketadi. Faqat ruhiy tahlil asoschisining istak - mayllar tushunchasi ostida ijtimoiylikka ziddlik yotsa, Adlerda bular o'z yo'nalishi bilan ijtimoiylikka qaratilgan istaklar haqidagi tasavvurga asoslanadi.

A.Adlyerning g'oyalari keyinchalik yangi Freydchilik oqimini vujudga keltirdi va Freydchilik ta'limotini yangilanishiga olib keldi.



Karl Gustav Yung (1875-1961). Mashhur shvetsar psixologi va psixiatri. Tadqiqotchi 1875 - yilda Shvetsariya shahrida tavallud topgan. O'z ilmiy faoliyatida K.G.Yung 1906 - yildan 1913 - yilgacha Z.Freyd bilan hamkorlikda ishlagan, keyinchalik klassik psixoanalizdan uzoqlashgan va shaxsiy analitik psixologiyani yaratgan. Assotsiativ tajriba uslubikalaridan birini ishlab chiqib, fanga "Kompleks" tushunchasini kiritdi. Ko'p yillik klinik tadqiqotlar natijasida "Odam ruhiyatida faqat indivudiallik emas, balki jamoadagi noixtiyoriylik ham katta rol o'ynaydi, lekin jamoadagi noixtiyoriylik mazmunini ajdodlardan qolgan arxiteplar belgilaydi" deb ta'kidlaydi. Shaxs tushunchasini tushuntirishda "Men", "Soya", "O'zlik", "Anima" tushunchalarni kiritadi. Ikki belgi asosida xarakter tipologiyasini yaratdi: maqsad yo'nalishi va hukmron funksiya (tafakkur, his - tuyg'u, sezgi, oldindan sezish). K.G.Yung "Ruhshunoslik va badiiy ijod" maqolasida ruhshunoslikni inson ruhiy holatidagi jarayonlar borasidagi ilm deb baholab, uni adabiyotshunoslik bilan bog'laydi. Zero, har qanday san'at asarining ibtidosi - ruhdandir. Albatta ijodkorning shaxsiy

ruhiyati uning asaridagi ko'p narsani aniqlashtirishi mumkin, ammo asarning o'zini tushuntirib berolmaydi.

K.G.Yung ta'limotining muvaffaqiyati ko'proq uning uch bobi to'laligicha estetikaga bag'ishlangan "Ruhiiy tiplar" kitobi bilan bog'liq. Unda K.G.Yung inson ruhiy hayotida san'atning katta o'rin egallashini ta'kidlagani holda, go'zallikni his qilish doirasi va go'zallikka bo'lgan turlicha ruhiy holatlarni qalamga oladi va bunday qarashlarni inson ruhiyatini alohida olam sifatida turlarga bo'lib o'rganish vositasida ilgari suradi. Asarlardagi empatiyalanishni go'zallik, mavhumlikni ulug'vorlik tarzida talqin etadi.

Shu asosda ularni ikki turga introvert va ekstravert turlarga ajratadi. Quyidagi bobda aynan shu tamoyil introvert va ekstravert ijodiy jaryonni o'zaro qiyosiy tahlillashtirish orqali ruhiy tahlilning estetik xususiyatlarini o'ziga xos tarzda ochib berishga harakat qilingan. Bunday yondashuv san'atkor, ijodiy jarayon va san'at asari borasida holisona yondashuv, qobiliyat, iste'dod va daho masalalariga to'g'ri baho berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Karl Yung ruhiy tiplarni turlarga bo'lib o'rganish tamoyiliga asoslangan omillardan foydalandi. "Asab kasalliklari bilan og'rigan bemorlar bilan tibbiy muolajalar olib borish mobaynida, bundan ancha burun, inson ruhiyatida ko'pgina individual farqlar bilan birga, bir turdagi qator (tipik) farqlar ham mavjudligiga e'tiborni qaratgan edim. Eng avvalo inson ruhiyatida ikki tipdagi ruh ajralib turadi va ularni men shunga monand ravishda introvert va ekstravert tiplar (shaxslar) deb nomladim". K.G.Yung avvalo, empatiya va mavhumlik, ekstraversiya va introversiya mohiyatan himoya va ko'nikma sifatida namoyon bo'lishini asoslashga harakat qildi. Ular ko'nikma imkoniyatini berar ekan, bu bilan insonni tashqi xavf - xatarlardan saqlaydi.

Zero ular mohiyatga yo'naltirilgan funksiyalar bo'lib, badiiy asarni estetik idrok qiluvchi insonga o'zini tark etish imkoniyatini beradi, uni tasodifiy mayllarni keltirib chiqaruvchi hamma narsadan forig'lantiradi, hatto himoyalaydi ham. K.Yung 1907 - yilda aqliy zaiflikning ilk davrlari haqida ilmiy maqola chop etib, Z.Freydga jo'natdi va shu yilning o'zida u bilan uchrashishga muvaffaq bo'ladi. Bu uchrashuvdan boshlangan do'stlik besh yil davom etadi. 1913 - yili ikki psixolog o'rtasida kelishmovchilik ro'y berdi. Buning sababi ilmiy izlanishlardagi o'zaro ziddiyatlar edi.

K.G.Yung hayotidagi yana boshqa muhim burilish urush yillarining oxirlarida ro'y berdi. 1944 - yili u uyog'ini sindirib oldi, ko'p o'tmay bu xastalikka infarkt ham qo'shiladi va keyinchalik 86 yoshda olamdan ko'z yumdi. Psixologiya tarixida K.G.Yung o'zining yo'nalishi bilan fan taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan.

Xorni Karen Klementina (1885-1952).



Amerika psixologi, neyrofreidizm vakili. 1932 - yilgacha Germaniyada klinik faoliyat olib borgan, so'ng Amerik Qo'shma Shtatlariga emigratsiya qilingan. U bezovtalik, tashvish, hadikka asoslangan nevrozlarning rivojlanishi insonlar orasidagi, ayniqsa, ota - onalar bilan bolalar o'rtasidagi qarama - qarshiliklarga asoslanadi. Agar hayotiy holatlar (qo'rqish, mehrning yo'qligi, haddan tashqari erkalash) bolani tashvishlanishiga olib kelsa, u holda o'zida ishonchsizlik atrof-dagilardan qo'rqish kabi turg'un xarakter xususiyatlari paydo bo'lishi mumkin. Olimaning fikricha har bir odam o'z shaxsini mukammallashtira oladi, lekin bu tabiiy xohishi tashqi ta'sir tufayli yuz bersa, nevrotik konflikt paydo bo'ladi.

K.K Xorning nuqtaiy nazaricha, inson son - sonoqsiz tug'ma kuchlarga ega bo'lib, uning negizi bolalarcha yordamga muhtojlikka qurilgandir, bu holatlar birlamchi bezovtalanish tuyg'usida va tug'ma qo'rqinch hissida o'z ifodasini topadi. Inson motivatsiyasini boshqa motivlar yordami bilan aniqlash mumkin, jumladan birlamchi bezovtalanish atrof - muhitga nisbatan dushmanlik hissini tug'diradi, havsizlikka ehtiyoj esa insonni boshqa odamlar tomonidan baholash va o'z - o'zini baholashga nisbatan ichki intilishni vujudga keltiradi. Uning, inson qanchalardir tug'ma kuchlarga ega bo'lib, uning negizi bolalarcha yordamga muxtojlikka qurilgandir, bu holatlar birlamchi bezovtalanish tuyg'usida va tug'ma qo'rqinch hissida o'z ifodasini topadi. Xorning takidlashicha, inson xulqining motivatsiyasi boshqa motivlar yordami bilan aniqlanishi mumkin, jumladan, birlamchi bezovtalanish (bolalarcha yordamga muxtojlik keltiruvchi) atrof - muhitga nisbatan dushmanlik hissini tug'diradi, xavfsizlikka ehtiyoj esa insonni boshqa odamlar tomonida baholash va o'z - o'zini baholashga nisbatan ichki intilishni vujudga keltiradi.



Bandura Albert (1925-1988) Amerikalik psixolog “ijtimoiy o‘rganish” nazariyasi muallifidir. 1949 - yilda Britaniya Kolumbiyasi Universitetini tugatgan, so‘ng Ayova Universiteti magistri darajasini oldi (1951 yil) va Ayova Universiteti doktori bo‘ldi. Keyinchalik Stenford Universitetida psixologiya professori, 1973 - yildan psixologiyadan ijtimoiy fanlar professori bo‘ldi. Inson xulqida “Stimul reaksiya” modelini qo‘llash mumkin emas degan xulosaga keldi va xulq - atvorni yaxshiroq tushuntiradigan o‘z modelini yaratdi.

Ko‘plab tajribalar asosida mustahkamlash o‘rgatishning yagona determinanti emas, balki yordam beruvchi omil deb qarash kerak degan xulosaga keldi. Insonning o‘rgatishning determinanti o‘zgarar xulqi va uning oqibatlarini kuzatishdir. O‘rganish tezligi taqlid qilinayotgan predmetning yaqinligi va kuzatilayotgan xulqni so‘z bilan ifodalashning natijasiga bog‘liq. O‘z tekshirishlariga asosan Bandura quyidagi xulosaga keldi: jahl agressiyani keltirib chiqaruvchi umumiy qo‘zg‘alish ifodasi bo‘lib, u faqat jahl reaksiyalari ijtimoiy jihatlardan mumkin bo‘lgan holatlarda yuzaga chiqadi.



Galton Frensis (1822-1888). Angliyalik psixolog va antropolog bo‘lib, qobiliyat, iqtidor muammolarini echishga eksperimental yondashish g‘oyasi asoschisidir. Matematik va eksperiment uslublar asosida differensial psixologiyaning asosi bo‘lgan, insonlar o‘rtasidagi individual farqlar mavjudligi haqidagi ta‘limotga birinchi bo‘lib asos soldi. O‘z tekshirishlarida Galton insonning rivojlanishiga ikkita omil: irsiyat va muhit ta‘sir qilishidan kelib chiqadi, degan g‘oyani ilgari suradi. Irsiyatning rolini o‘rganishda egizaklarni taqqoslash uslubini ishlab chiqdi.

Bundan tashqari F.Galton bir qator psixodiagnostik uslublar: ovozni eshitish darajasini tekshirishda xushtak, erkin assotsiatsiyalar uslub, anketa kabi uslublarni ishlab chiqqan. 1884 - yilda Galton Londondagi Xalqaro salomatlik ko‘rgazmasida antropometrik laboratoriyani tashkil qilgan. Bunda mijoz 3 pens to‘lab anketa to‘ldirib, o‘zining aqliy qobiliyati, muskul kuchi, og‘irligi, bo‘yini tekshirib ko‘rgan. O‘z tekshirishlari natijasida inson jamiyatida aqliy potensialni sun‘iy qo‘llab - quvvatlab turish zarur degan xulosaga kelgan, bu esa evgenika ta‘limotini ishlab chiqishga asos bo‘lgan.

Falsafa va tabiatshunoslikdagi umumiy yo'nalish ta'sirida psixologiyada ham psixik hayot hodisalarini o'rganishda genetik tamoyil qaror topadi. Bu tamoyil inson hamda hayvon, katta yoshdagi kishilar hamda har xil yoshdagi bolalar psixik hayotining xususiyatlarini yaxshi tushunish zaruriyati bilan taqozo qilindi. Jamiyatniig tarixiy taraqqiyotida inson ongi qanday paydo bo'ldi va qanday o'zgarib keldi degan masala ham o'zining hal qilinishini talab qilib turardi.

"Empiriklar" psixologiyani ruh haqidagi fan deb emas, "ruhiy hodisalar", yoki "ong hodisalari", yoki bo'lmasa faqatgina ong haqidagi fandır, deb ta'rifladilar.



Erix. Fromm (1900-1980). Amerika psixologi va filosofi bo'lib, neofreydizm namoyondalaridan biridir. Ilmiy tadqiqotidagi asosiy muammo inson borligidagi qarama - qarshiliklardagi va ular insonning tabiat, boshqa kishilar va o'z - o'zi bilan tabiiy, mutanosib aloqaning buzilishida namoyon bo'ladi deb bilgan. Gumanistik psixoanalizning psixoterapevtik uslubikasini ishlab chiqqan, bu uslub inson, tabiat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni uyg'unlashtirishga xizmat qiladi.

Insonning hayot kechirish muammosiga yagona mos javob, E.Fromm fikricha, insonning o'z "Men"ini topishga yordam berishga muxabbatdir. Bu nuqtai nazarni u "Muxabbat san'ati" asarida (1964 yil) aks ettirib, hozirgi jamiyatni sog'lomlashtirishga yo'l insonning ahloqiy yangilanishi va ruhan tozalanishida yotishini ta'kidlagan. O'sha davrdagi ko'pgina olimlar singari E.Fromm ham o'z qarashlarida libido masalasiga katta e'tibor bermaydi, chunki uni qiziqtirgan muammo inson xulqi jabhalarda ijtimoiy va psixologik omillarning o'zaro ta'sir o'tkazish jarayonidir. Insonni individualizatsiyalash unda tanholik hissini vujudga keltirishga olib keladi, shuningdek, o'z qadr - qiymatini anglash sari yetaklaydi. Tanholik hissiyotidan forig' bo'lishga intilish tuyg'u inson motivatsiyasini va uning xulq shakllarini aniqlaydi. E.Fromm ishlari hozirda ham o'z o'rniga egaligi bilan ajralib turadi.



Gelmgols German Fon (1821-1894). Nemis olimi, fizik, fiziolog va psixologi. 1821 - yilda Germaniyada dunyoga kelgan. G.F.Gelmgols ma'lumoti bo'yicha fizik bo'lib, tirik organizmlarni o'rganishda fizik uslublardan foydalanishga harakat

qilgan. "Kuchning saqlanishi" asarida u, energiyaning saqlanish qonunini asoslab, uningcha, tirik organizmlarda fizik - ximik muhit bo'lib, energiyaning saqlanish qonuni aniq amal qiladi. Olim birinchi bo'lib, qo'zg'alishning nerv tolalari orqali o'tish tezligini o'lchadi, va bu psixologiya fanida reaksiya vaqtini o'rganishga ilk qadam bo'ldi.

G.F.Gelmgols idrok nazariyasiga katta hissa qo'shib, idrok psixologiyasida ongsiz aqliy xulosalar konsepsiyasini rivojlantirdi. Bunda aktual idrok odamning odatiy qobiliyatlaridan kelib chiqadi va bu jarayonda muskul sezgilari va harakatlari tashqi olamning doimiy saqlanishida katta o'rin tutadi. Bu konsepsiyasi bilan u asosan makonni idrok qilish mexanizmini tushuntirishga urindi. M.V.Lomonosov kabi rangli ko'rinishning uch komponentli nazariyasini rivojlantirdi. Shuningdek, eshitishning rezonans nazariyasini ishlab chiqdi. Bundan tashqari Gelmgols dunyo psixologiya fani taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan buyuk psixologlar V.Vundt, I.M.Sechenovlarning shogirdlari bo'lgan.

Tadqiqotchi o'zining sezgilar haqidagi ta'limotida birlamchi va ikkilamchi sifatlarga ta'rif berdi. Narsalarning sezgi organizmlariga bevosita ta'sir etishi natijasida hosil bo'ladigan sezgi obrazlari birlamchi sifatlari yoki obrazlar deb ataldi.

Eksperimental analiz yo'li bilan murakkab psixik jarayonlar idrok, xotira, tafakkurning alohida komponentlari ajratildi, psixik jarayonlarning fiziologik hodisalar bilan, tashqi fizik muhit hamda ijtimoiy muhit bilan bo'lgan bog'lanishlarni aniqladi. G.Gelmgols eksperimental psixologiya taraqqiyotiga hissa qo'shgan olimlar sirasidandir.



Fexner Gustav Teador (1801-1887). Nemis fizigi, fiziolog va psixolog, psixofizika fani asoschisi. 1801 - yilda Germaniyada tavallud topgan. U o'z ilmiy faoliyatida psixofizik qonuniyat masalalariga katta e'tibor qaratdi va bu borada bir qator tadqiqotlar olib bordi. G.T. Fexner "Psixofizika elementlari" nomli asar muallifi (1860 yil). Eksperimental psixologiya fani asoschilaridan biri.

Bu asarda u "psixofizika" faniga asos solish g'oyasini ilgari surgan. Unga ko'ra fan predmeti bir - biri bilan funksional bog'langan ikki hodisa psixik va fizik jarayonlardir.

Bu g'oya eksperimental psixologiyaning taraqqiyotiga ulkan ta'sir ko'rsatdi, sezgilar sohasida olib borilgan tajribalari bir nechta

qonuniyatlarni, shu jumladan "Psixofizikaning" asosiy qonuniyatini asoslashga imkon berdi. G.Fexner sezgilarni o'lchash uslublarini ishlab chiqdi.

G Fexner quyoshni kuzatish yo'li bilan, sezgilarni tekshirish ishlaridan so'ng, qisman ko'r bo'lib qoldi va shundan so'ng falsafa bilan shug'ullandi.

Tadqiqotchilar nazaricha, Fexner har tomonlama komil inson edi. U "Doktor Mizes" tahallusi bilan bir necha adabiy satirik asarlar yozgan. Fexnyerning maqsadi tashqi ta'sirotlar va ularning muvofiqi - sezgilarning o'zaro munosabatlari sohasidagi qonuniyatlarni topishdan iborat edi.

Fexner eksperimental uslublar asosida sezgilarning ortib borishi bilan ularni ko'zg'atuvchi ta'ssurotlar ta'siridagi qiyosiy munosabatni aniqlab, sezgi ko'zg'atgich logarifmasiga proporsionaldir degan psixofizik qonunni kashf etadi.

Fexnerlar o'tkazgan tajribalar "Psixofizika" degan alohida fanning paydo bo'lishiga olib keldi. Shu vaqtgacha faqat kuzatish, asosan, o'z - o'zini kuzatishdan foydalanib kelayotgan psixologiya endi aniq, fanlardagi ob'yektiv uslubdan foydalana boshlaydi. Fexner bir so'z bilan aytganda psixologiya fanida eksperimental psixologiya sohasini har tomonlama rivojlantirdi va asosladi deyishimiz mumkin.



Levin Kurt (1890-1947). Psixologiya tarixida "Shaxsning dinamik" nazariyasiga asos solgan olim 1890 - yilning 2 - sentyabrda tug'ildi. U biologiya, fizika, matematika, san'at va adabiyotni chuqur bilgan. Biroq birinchi o'rinda doim psixologiya fani u uchun muhim edi. Uning g'oyalarini quyidagilarga bo'lish mumkin:

1. Voqea - hodisalar olami obrazi;
2. hozirgi vaqt obrazi;
3. psixologik qonuniyat tasdiqlovchi izamorfizm tamoyili.

Bunda Levin psixologik hodisalar tizimidan foydalangan. U "Affekt va psixologik harakatda Levin uslublari" deb nomlangan asar yaratdi. Shuningdek "Muhit ta'sirining samarasi" asari barcha tomonidan katta qiziqish bilan kutib olindi. U AQShda "Shaxsning dinamik nazariyasi" asarini yaratdi. Bundan tashqari "Urush dunyosining psixologik jihatlari" mavzusida tadqiqot ishlari olib bordi.

K.Levin tomonidan tavsiya qilingan "fazoviy zarurat maydoni" nazariyasi psixologiya fani uchun (o'z davrida) muhim ahamiyat kasb etadi. K.Levinning nazariyasiga ko'ra individning xulqi (xatti - harakati) psixologik kuch vazifasini o'tovchi ishtiyog' (intilish), maqsad (niyat) lar bilan boshqarilib turiladi va ular fazoviy zarurat maydonining ko'lami va tayanch nuqtasiga yo'naltirilgan bo'ladi. Geshtalpsixologiya maktabi namoyandalari uchun motivatsiya o'ziga xos talqinga ega bo'lib, uning moxiyatini eksperimental tarzda o'rganishga, ochib berishga intilish ko'rsatkichi bilan boshqalardan ajralib turadi. K.Levin motivlarni eksperimental o'rganish uslubikasini ishlab chiqib, ularni mutlaqo mustaqil holat sifatida tushuntirishga harakat qilgan va bu borada muayyan muvaffaqiyatlarga erishgan. Geshtalpsixologiya maktabining namoyondalariga obraz tushunchasi qanchalik o'ta ahamiyatli bo'lsa, K.Levinning maydon nazariyasi uchun motiv kategoriyasi huddi shunday muhim xususiyat kasb etadi. Obraz va motiv o'zaro aloqasiz hukm surishi ta'kidlanadi, motivatsiyani amalga oshiruvchi vaziyatning predmetli, ma'noviy mazmuni esa inkor qilinadi. K.Levin xalqni mana bunday izohlashga intiladi, muayyan muvaqqatli mikrointervalda shaxsning bevosita yaqqol muhit bilan munosabatlaridan kelib chiquvchi voqelikdir. Uning mazkur nazariyasida insonda har xil ma'no anglatuvchi ikkita motivatsion o'zgaruvchi hukm surishi tan olinadi, ularning bittasi tug'ma) hayvonlar turkisiga o'xshash va turmush davomida egallangan faqat insongagina xos bo'lgan. Geshtalt psixologlarning asarlarida shunday holatlar ham mavjudkim, ularda xulq motivatsiyasi muammolari shaxsning muhim (asosiy) xususiyatlarini tahlil qilish negizidan kelib chiqib qaraladi.



David Gartli (1705-1757). Ingliz mutafakkiri, varch, psixolog, assotsiativ psixologiyaning birinchi rasmiy yaratuvchisi hisoblanadi. U barcha psixik jarayonlarni miya tebranishlarining mahsuli deb tushuntirdi. Gartli fikricha, odamning psixik olami ularning assotsiyalari vositasi bilan (his etishning) "birlamchi elementlari"ning qiyinlashuvi natijasida sekin - asta yaralib boradi. Gartli psixologiya fanining ruhiyat fizikasi deb atashga harakat qiladi. Rivojlanishni yuzaga keltiruvchi kuchlar azoblanish va rohatlanishdir. Mexanistligiga qaramay Gartli ta'limoti psixikani materialistik tushuntirishda oldinga yirik qadam bo'ldi; u

etikaga, estetikaga, mantiqqa, pedagogikaga, biologiyaga ta'sir etdi. David Gartli ta'limotining maslakdoshi Dj.Pristli edi.



Frans Gall Yozef. Tadqiqotchi olim, vrach, psixolog 1758 –yilda Avstraliyada tug'ildi. Uning kasbi vrach bo'lib, asosan bosh miya funksiyalarini o'rgangan. U 1810-yildan boshlab miya yarim sharlari ustida tajriba o'tkazgan. F.Gall bosh miya haritasini yaratdi. Uning fikricha odamdagi har bir qobiliyat bosh miya qobig'ida joylashgan.

U miyadagi 37 xil ko'ngil qobiliyatini aniqlagan va ularni har birini miya qobiqidagi o'rnini o'rgangan. Affektiv qobiliyatlar 21 xil bo'lib, ular orqa miyaning turli joylarida joylashgan. Olim intellektual qobiliyatning 76 xilini aniqlab ular miyani oid nuqtalarida joylashganligini isbotlab berdi. Layoqatning tuzilishi va mahsuldorligi namoyon bo'lishiga qaraganda, uning nuqsonlari haqida ilmiy ma'lumotlar miqdori ko'pdir. Hozirgi davrda qobiliyat taraqqiyotining dastlabki tabiiy shartlari mohiyati yuzasidagi farazning ozmi yoki ko'pmi mahsuldorligi to'g'risida mulohaza yuritish mumkin. F. I. Gallning ta'limoticha, shaxsning barcha qobiliyatlari, "aql" va hissiyot sifatlari miya yarim sharlarida o'zining qat'iy markazlariga egadir. Uning fikricha, kalla suyaklari miyaning cho'nqir joylariga aniq mos tushish lozim. Gall tomonidan miyaning maxsus frenologik (yunoncha phren aql to'g'risidagi ta'limot degan ma'no anglatadi) haritasi tuzilgan bo'lib, unda bosh suyagi 27 bo'lakka ajratilgan. Go'yoki har bir bo'lakka muayyan psixik sifat mos tushadi. Shuningdek, layoqatning miya og'irligiga bog'liqligi haqidagi faraz ham noto'g'ri ekanligi ayon bo'lib qoladi. Shaxs layoqatlari miya burmalarining soni bilan belgilanadi degan taxmin ham o'z tasdiqini topmadi.

XX asrning ikkincha yarmida paydo bo'lgan layoqatni miyaning mikrotuzilishi va sezgi a'zolari bilan bog'lovchi faraz eng mahsuldor bo'lib hisoblanadi. Miya hujayralarini tadqiq etish iste'dodlari shaxs nerv hujayralarining morfologik va funksional xususiyatlarida farq borligini aniqlash mumkinligi faraz qilinadi. Layoqatlar bilan nerv jarayonlarining ayrim differensial xususiyatlari hamda oliy nerv faoliyatining tiplari o'rtasida bog'liqlik mavjudligi to'g'risida faraz ham haqiqatga yaqindir.



Bine Alfred (1857-1911). fransuz psixologi, amaliy psixologiya asoschilaridan biridir. Huquqshunoslik, u asosan tibbiyot, biologiya bo'yicha tahsil olgan. Olim 1889 - yilda Sorbonada, Fransiyada birinchi eksperimental psixologiyasi laboratoriyasiga asos solgan. 1894 - yildan shu laboratoriya direktori bo'lgan.

XX asr boshlarida T.Simon bilan birga bolalarning aqliy rivojlanish darajasini tekshiruvchi test yaratishga kirishgan. Bu holat intellektni dastlabki tadqiqoti edi. Bunda xotira, diqqat, tafakkurni o'rganish ishlari umumlashtirilgan. Aqliy rivojlanish darajasini ifodalovchi aqliy yosh tushunchasini kiritgan.

A.Bine test shkalasi o'tkaziluvchilar uchun har tamonlama yaxshi, qulay va ixcham qilib tayyorlangan. U barcha uchun tushinarli bo'lgan yo'riqnoma va miqdoriy jihatdan natijalarni ishlab chiqish, hisoblash ishlanmasiga teng.

Testlarning har birida uni o'tkazish yo'llari, vaqtning taqsimlanishi, tekshiriluvchining berilgan og'zaki yo'riqnoma va tegishli ko'rsatmalar, savollarni izohlash usullari batafsil aytib o'tilgan. A.Bine testi voyaga etgan odamlar va unchalik katta bo'lmagan shaxslar uchun ham ishonchliligi bilan boshqa testlardan ajralib turadi. Bundan tashqari shuni alohida ta'kidlash joizki, testga kiritilgan har bir savol topshiriq testning oldindan belgilangan maqsadini ochishga yo'naltirilgan bo'lib, pirovard natijada mazkur savollar oldindan ko'zlagan maqsadni darhaqiqat aniqlab beradi.

Shuningdek, u umri davomida ong va shaxs patologiyasi, aqliy toliqish, tushunchali tafakkur, xotira jarayonlarining individual farqlari kabi masalalar bilan shug'ullangan. Tabiiy sharoitda oliy psixik jarayonlarni birinchilardan bo'lib o'rgana boshlangan.



P'er de Kuberten (1863-1937). Bu ism o'z zamonasining iqtidorli, shijoatli, qiziquvchan, ajoyib va ta'biyki, zamonaviy Olimpiya o'yinlari bilan bog'liq inson ismi sifatida tarix sahifalaridan bir umr o'rin olgan. Psixologiya fani tarmog'i hisoblangan sport psixologiyasi nomi ana shu inson nomi bilan bog'liq. Bugungi psixologik adabiyotlar sport psixologiyasi rivojlanishining tarixiy jarayonlarini hanuzgacha to'la - to'kis qamrab olmagan. Umuman olganda, sport psixologiyasi fanining paydo bo'lishiga Germaniya, AQSh, Italiya, Kanada, Rossiya

va boshqa davlatlar olimlarining ilmiy ishlari sabab bo'lgan. Ayniqsa bu XIX asr oxiri va XX boshlarida, ya'ni psixologiya falsafadan ajralib chiqib, mustaqil eksperimental fan maqomini olgandan so'ng, yanada yaqqol sezila boshladi. Ayni shu davrlarda inson xulq-atvori va harakatlariga oid bir qator ilmiy ishlar paydo bo'ldi. (Vundt, Torndayk, Uotson, Byuxner va boshqalar.)

“Sport psixologiyasi” tushunchasi va bu sohadagi bilimlar ilk marotaba bugungi olimpiya o'yinlarining asoschisi P'er de Kubertenning maqolalarida, 1900 - yilda paydo bo'ldi. O'shanda u “Sport psixologiyasi” nomli maqola e'lon qilgan bo'lib, mazkur ish asosan falsafiy xarakterga ega edi. 1913 - yilda Lozanna shahrida P'er de Kubertenning tashabbusi bilan Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi tomonidan sport psixologiyasi bo'yicha maxsus kongress chaqirildi va shu tariqa ushbu soha “dunyoga keldi” hamda o'z maqomini oldi.

Biroq, u paytlarda hali sport psixologiyasi muammolarining haqiqiy ma'nodagi ilmiy ishlanmalari deyarli yo'q edi. Qolaversa, sport psixologiyasini hali ilmiy bilimlar sohasidagi maxsus yo'nalish sifatida tan olishmagan edi. Bu avvalo, sport o'sha davrlarda hali yaxshi rivojlanmaganligi bilan bog'liq edi. Sport psixologiyasining muammolari faqatgina ayrim jamoat arboblari va olimlarning qiziqishlari manbai edi, xolos. Shunday bo'lishiga qaramasdan, P'er de Kubertenning tashabbusi va Lozanna Kongressi sport psixologiyasi muammolarini o'rganishda ma'lum darajadagi turtki bo'ldi. Natijada XX asrning 20 - yillaridan keyin bu masalalar bo'yicha Fransiya, Germaniya, AQSh, Rossiya va boshqa mamlakatlarda faol ilmiy tadqiqotlar olib borila boshlandi.

Masalan, Fransiyada sportchining ijtimoiy psixologiyasi sohasida bir qator tadqiqotlar o'tkazilgan. Mazkur ishlarning mualliflari Yu. Karrara, M. Bernard va M. Buellar edi. Yu. Segal esa nevrozlarni hamda ularni davolash vositalarini o'rgangan.

Psixolog Riu rahbarligi ostida “Sport psixopedagogikasi” nomli to'plam e'lon qilingan. Germaniyada bu borada olib borilgan ishlarni Nyumanning “Sport va shaxs” (1957), “ Sportda motivatsiya” (1971) kabi asarlarining paydo bo'lishi bilan belgilash mumkin. Italiyada esa sport psixologiyasi sohasidagi eng katta ishlar sport psixologiyasi xalqaro jamiyatining birinchi Prezidenti F. Antonelli tomonidan amalga oshirilgan. Uning muallifligida “Psixologiya va sport psixologiyasi” nomli kitob nashr etilgan bo'lib (1960), unda

muallifning uzoq yillar davomida olib borgan ilmiy tadqiqotlari natijalari umumlashtirilgan.

Sport psixologiyasi fan sifatida eng taraqqiy topgan mamlakatlardan biri AQSh da jadal rivojlandi. Amerikalik olimlar X. Frenelik, A. Sleyter - Xemmel va boshqalar sport psixologiyasi fani rivojiga ulkan hissa qo'shdilar. Ularning tadqiqotlari markaziga sportchi shaxsi qo'yilgan edi. Asosiy usullari shaxs ko'rsatkichlari hamda testlardan iborat bo'lgan.

AQShning eng mashhur sport psixologi B. Krettidir. U 30 dan ortiq shu sohaga oid kitobning muallifidir. Uning kitoblari dunyoning ko'plab tillariga tarjima qilinib, sport murabbiylari tomonidan, MDH mamlakatlari olimlari, jumladan O'zbekiston olimlari tomonidan ham amaliyotda keng qo'llaniladi.

Kanadada Persival (Universitet direktori) ning ishlari ayniqsa mashhur bo'lib, ular asosan sport sotsiologiyasi sohasini o'rganishga yo'naltirilgandir. U sportchilarning sport murabbiylariga bergan baholarini o'rgangan.

Sharqiy Evropa mamlakatlarida MDH da qo'lga kiritilgan sport natijalarining keng ta'siri ostida sport psixologiyasi nihoyatda rivojlandi. Zero, bu mamlakatlarda sport psixologiyasi davlat darajasida taraqqiy ettirildi.

Sobiq Chexoslovakiyada psixolog olimlar motivatsiya muammolarini ishlab chiqqan bo'lib, ushbu masala sportchi va sport murabbiylarini psixodiagnostikadan o'tkazish usullariga asoslangan edi. (Vanek, Goshek, Svoboda, Motsak va boshqalar)

Bolgariyadagi olimlar sportchini psixologik jihatdan tayyorlash va guruhlar psixologiyasi bilan bog'liq muammolarni o'rgandilar. (F. Genov, Genova va boshqalar).

Kubada esa sportchilarni psixologik tayyorlashning turli jihatlari chuqur o'rganildi. (Martines, Raffael, K.Kanoti va boshqalar)

1913 - yildan so'ng, 1965-yilda Rimda sport psixologiyasi Kongressi qaytadan tashkil etildi. Ushbu kongressda Sport psixologlarining xalqaro jamiyati (SPXJ) tashkil topdi va u doimiy faoliyat yurituvchi organini, shuningdek jamiyat Prezidenti - F. Antonellini sayladi. (XOK - Xalqaro olimpiya komiteti prezidenti).

SPXJ o'z faoliyatini jadal rivojlantirib bordi. Rimda bo'lib o'tgan kongressdan so'ng yana bir qator kongresslar bo'lib o'tdi: 1968 - yilda AQShda, 1973 - yilda Ispaniyada, 1977 - yilda Chexiyada, 1985 - yilda Shvetsariyada, 1986-yilda Fransiyada va hokazo.

1970 - yildan buyon SPXJning rasmiy organi bo'lgan "Sport psixologiyasi" xalqaro jurnali nashr etib kelinmoqda.

SPXJ ning tashkil etilishi sport psixologlarining mintaqaviy birlashmalarining paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Masalan, 1967 - yilda sport psixologlarining Shimoliy Amerika jamiyati tashkil etildi, 1969 - yilda esa sport psixologlarining Evropa Assotsiatsiyasi FEPSAK, Shilling T. (Shvetsariya), Kunat (Germaniya) va boshqalar prezidentligida tashkil topdi. Shundan so'ng turli yillarda Kanada, Yaponiya, Germaniya, Angliya, Fransiya, Braziliya, Avstriya, Misr va boshqa mamlakatlarda ham sport psixologiyasining milliy jamiyatlari tuzildi. Bir so'z bilan aytganda P'er de Kuberten psixologiya fani taraqqiyotiga hissa qo'shgan olimlar sirasiga kiradi.

Mavzu yuzasidan tayanch tushinchalar:

Assotsiativ psixologiya, gumanistik psixologiya, individual psixologiya, tranzaksion analiz, XX asr psixologiyasi, maydon nazariya, musiqa psixologiyasi, stress, emotsiya, ijtimoiy qadriyat, ehtiyoj, motivatsiya, erkin assotsiatsiya, emotsiya, kognitiv psixologiya, ishtimoiy psixologiya, sport psixologiyasi, maxsus psixologiya.

Nazorat savollari:

1. Xotira psixologiyasi borasidagi tadqiqotlar.
2. Gumanistik psixologiyada shaxs tahlili?
3. A.Maslouning ehtiyojlar erarxiyasi va uning tavsifi?
4. Psixologiyada motivatsiya muammosi?
5. K.Levinning "Maydon nazariyasi" va uning mohiyat mazmuni?
6. Emotsiya borasidagi tadqiqotlar?
7. 7.Ishimoiy psixologiya borasidagi tadqiqotlar?
8. Jamiyat, Shaxs, tushunchalarining psixologik masalalari?
9. Krechmer va Sheldonlarning Konstitutsional nazariyasi tavsifi?
10. 10.Psixopedagogika fani va uning bahs mavzusi?

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T., Ma'naviyat, 2008.
2. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: O'zbekiston, 2011.
3. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T.: O'zbekiston, 1997.
4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston-NMIU, 2017.
5. Mirziyoyev Sh.M. Erikn va farovon, demoktarik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majilisdagi nutq. – T.: O'zbekiston-NMIU, 2017.
6. Hergenhahn B.R., Tracy B. Henley "An Introduction to the History of Psychology". – 2014 Wadsworth, Cengage Lyerning.
7. Ярашевский М.Г. История психологии. – М., 1997.
8. Ждан Н.Ж. История психологии. – М., 1995.
9. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. – T., 2010.
10. G'oziyev E.G'. Psixologiya metodologiya. – T., 2013.

**UCHINCHI BO'LIM.
SOBIQ SOVET PSIXOLOGIYASI**

**IV QISM. SOBIQ PSIXOLOGIYASI VA UNING O'ZIGA
XOSLIKLARI**

**I BOB. PSIXOLOGIK TADQIQOTLAR RIVOJIDA SOBIQ
SOVET OLIMLARINING RO'LI**

Sobiq sovet psixologiyasi taraqqiyotiga juda katta hissa qo'shgan olimlar juda ko'p bo'lib, ular psixologiyaning har qaysi sohasida o'ziga xos tarzda yo'nalishlarda yangiliklar ochib fan rivojiga katta hissa qo'shgan. Masalan shaxs rivojlanishi muammosiga Vigotskiy, Rubinshteyn, Leontov, Ananayev, Bojovich, singari yirik psixologlarning asarlarida o'z aksini topa boshlagan. Keyinchalik ushbu masala bilan shug'ullanuvchilar safi tobora kengayib ortib bordi. Psixologiya tarixi fanining ham maqsadi har bir davrda psixologik qonunlarning rivojlanishi va hozirgi kundagi holatini o'rganishdan iborat. Jumladan har bir olimning yaratgan nazariyalari masalan rivojlanishdagi inqirozga binoan (L.S.Vigotskiy), motivatsion yondashuv, (L.I.Bojovich), faoliyatga ko'ra munosabat (A.V.Petrovskiy), shaxsni tutgan pozitsiyasi hisobga olib (D.I.Feldshteyn) lar nazaryalarini ko'rishimiz mumkin.

A.G.Kovalyov fikricha shaxs – bu ijtimoiy munosabatlarning ham obekti ham sub'yektidir. A.N.Leontov ushbu masalaga boshqacharoq yondoshib, unga shunday ta'rif bergan “shaxs – bu faoliyat su'ektidir”.K.K.Platonovning talqinicha “jamiyatda o'z rolini anglovchi, ishga layoqatli, yaroqli,a'zosi shaxs deyiladi. Bumasalaga chuqurroq yondashgan olim S.L.Rubinshteyn “shaxs – bu ta'sirlar yo'nalishini o'zgartiruvchi ichki shar – sharoitlar majmuasidir. Ushbu davrda psixologiyaning turli tarmoqlarida ish olib borgan sobiq sovet olimlarining ayrimlarining qilgan ishlari yuzasidan mulohaza yuratimiz. Sobiq sovet davri psixologiya taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan olimlardan A.V.Petrovskiy inson taraqqiyotiga shaxsni tarkib toptirishning sotsial-psixologik nuqtai nazardan yondashib, o'ziga xos original klassifikatsiyasini yaratadi. Ushbu nazariya negizida yuksalish, etuklikka intilish g'oyasi yotganligi sababli bolalik, o'smirlik, o'spirinlik davrlari yotadi, xolos. A.V.Petrovskiygacha psixologlar taraqqiyotning bir tekis jihatini olib o'rgangan bo'lsalar,

bundan o'laroq, u shaxs shakllanishining prosotsial (ijtimoiy qoidalarga rioya qilib) va asotsial (aksijtimoiy) bosqichlari mavjud bo'lishi mumkinligini dalillab berishga harakat qiladi. Shuning uchun taraqqiyot uchta makrofazadan iborat ekanligini sharhlab, uning birinchi turi bolalik davriga to'g'ri kelib, ijtimoiy muhitga moslashish, ko'nikish (adaptatsiya), ikkinchisi - o'smirlarga xos individuallashtirish (individualizatsiya), uchinchisi - o'spirinlik, ya'ni etuklikka intilish davrida individual holatlarni muvofiqlashtirish (birlashtirish) xususiyatlari bilan tavsiflanadi. A.V.Petrovskiy shaxsning shakllanishini quyidagi bosqichlardan iborat bo'lishini ta'kidlab o'tadi.

1. Ilk bolalik (maktabgacha tarbiya yoshidan oldingi davr) - tug'ilgandan to 3 yoshgacha.

2. Boqcha yoshi davri - 3 yoshdan to 7 yoshgacha.

3. Kichik maktab yoshidagi o'quvchi davri - 7 yoshdan to 11 yoshgacha.

4. O'rta sinf o'quvchisi (o'smirlik) davri - 11 yoshdan to 15 yoshgacha.

5. Yuqori sinf o'quvchisi (ilk o'spirinlik) davri - 15 yoshdan to 17 yoshgacha.

A.V.Petrovskiyning klassifikatsiyasi qanchalik takomil darajada bo'lmasin, taraqqiyotning oraliq bosqichlari, ularning o'ziga xos xususiyatlari mavjudligini e'tirof etishga moyildir. Chunki ijtimoiy qoidalarga binoan o'sishmi yoki aksilijtimoiymi unga qaramasdan, har ikki yo'nalishning ham oraliq jabhalari bo'lishi ehtimoldan holi emas, lekin bu g'oyani chuqurroq sharhlab berish joiz.yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki A.V.Petrovskiy yosh davrlar psixologiyasining rivojlanish taraqqiyotiga o'ziga xos tarzdagi ulkan hissasini qo'shgan psixologdir.

Bundan tashqari yosh davrlar psixologiya sohasining rivojiga hissa qo'shgan olim D.I.Feldshteyndir. Uning klassifikatsiyasi ham shaxsga ijtimoiy yondoshuvga asoslangan bo'lsa ham, lekin u A.V.Petrovskiydan keskin farq qiladi. D.I.Feldshteynning fikricha, insonni shaxs sifatida shakllanish jarayonida ikkita katta taraqqiyot bosqichini bosib o'tadi, ulardan biri - "Men jamiyat ichida" degan pozitsiyadan iborat bo'lib, u o'ziga quyidagi yosh bosqichlarini qamrab oladi:

1) ilk bolalik - 1 yoshdan 3 yoshgacha,

2) kichik maktab yoshidagi o'quvchisi davri - 6 yoshdan to 9 yoshgacha,

3) yuqori sinf o'quvchisi davri - 15 yoshdan to 17 yoshgacha.

Shaxs taraqqiyotidagi ikkinchi pozitsiya "Men va jamiyat" deb nomlanib, u quyidagi yosh bosqichlariga taalluqlidir:

1) go'daklik - tug'ilgandan to 1 yoshgacha,

2) maktabgacha yoshdagi bolalar - 3 yoshdan 6 yoshgacha,

3) o'smirlar - 10 yoshdan to 15 yoshgacha.

D.I.Feldshteyn boshqa tadqiqotchilardan farqli o'laroq, o'smirlik davrini uch bosqichga ajratadi. Uning mulohazasiga ko'ra, birinchi bosqich (10-11 yosh) o'ziga munosabatni kashf qilishdan iborat bo'lib, o'zini shaxs sifatida his qilish va qat'iy qarorga kelish bilan yakunlanadi. Ikkinchi bosqich 12-13 yoshdagi o'smirlarni o'z ichiga olib, bir tomondan, o'zini shaxs sifatida tan olish, ikkinchi tomondan, o'ziga salbiy munosabatda bo'lish xususiyatiga ega. Uchinchi bosqich 14-15 yoshli katta yoshdagi katta o'smirlardan iborat bo'lib, tezkorlikda o'z-o'zini baholashga moyil munosabati bilan tavsiflanadi.

Bolalarda "Men jamiyat ichida" pozitsiyasi ilk bolalik, kichik maktab yoshidagi, yuqori sinf o'quvchilik davrlarida faollik keng ko'lamda quloch yoyadi, chunki mazkur taraqqiyot bosqichida faoliyatning amaliy predmetli jihatlari jadal o'sishda bo'ladi. Ularda "Men va jamiyat" pozitsiyasi vujudga kelishi maktabgacha tarbiya yoshi, o'smirlik davrlariga to'g'ri kelib, ular tomonidan ijtimoiy xatti-harakatlarning normalari va qoidalarini o'zlashtirish, shaxslararo munosabat o'rnatish, o'zaro muloqotga kirishish xususiyati bilan tavsiflanadi. Ana shu murakkab sotsial-psixologik holatlarga asoslangan holda D.I.Feldshteyn bolaning ijtimoiy taraqqiyotida uning jamiyatga nisbatan munosabatining asosiy (bosh) va oraliq toifalarga ajratadi. Bolada jamiyatga nisbatan oraliq munosabatning shakllanishi ijtimoiylashuv, individuallashuvning tarkibiy qismlarini egallash va bir davrdan ikkinchisiga o'tishi natijasida yuzaga keladi. Asosiy (bosh) munosabat - shaxsning rivojlanishida keskin siljish nuqtalarining paydo bo'lishi, ichki sifat o'zgarishlarining vujudga kelishi va unda yangi xislatlarni tarkib topishining mahsulidir.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, D.I.Feldshteynning shaxs rivojlanishi nazariyasi ontogenezda yuz beradigan barcha psixologik holat va fazilatni izohlab berish imkoniyatiga ega emas. Lekin u ta'lim-tarbiya sifatini oshirishga va takomillashtirish jarayoni (faoliyati) ga ijobiy ta'sir o'tkazish xususiyati bilan amaliy ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, hamdo'stlik mamlakatlari psixologlari tomonidan bir qator puxta ilmiy-uslubologik negizga ega bo'lgan shaxsning rivojlanishi nazariyalari ishlab chiqilgan. Ularning aksariyati ontogenezda shaxsning shakllanishi qonuniyatlarini ochishga muayyan hissa bo'lib xizmat qiladi, amaliy va nazariy muammolarni echishda keng ko'lamda qo'llaniladi. Ammo ontogenezda shaxsning shakllanishi va rivojlanishi xususiyatlarini aks ettiruvchi nazariya yaratish mavrudi etib keldi. Ushbu davrda psixologiya sohasi rivojiga ulkan hissa qo'shgan olimlarni sanab oxiriga etib bo'lmaydi. Shu narsani alohida ta'kidlab o'tish joizki, sobiq sovet psixologiyasi nafaqat evropa psixologiyasiga balki jahon psixologiyasi sohasi taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shgan.

1.1. Psixologiya fani taraqqiyotiga hissa qo'shgan sobiq sovet olimlari haqida ma'lumot



Pavlov Ivan Petrovich¹⁸ (1849-1936). Buyuk rus fiziologi. Nobel mukofoti lauriati, oliy nerv faoliyati ta'limoti asoschisi sifatida psixologiya fani tarixiga kirgan. 1904 - yil ovqat hazm qilish va qon aylanish bo'yicha olib borgan ishlari uchun Nobel mukofoti olgan. I.P.Pavlov o'z tekshirishlari jarayonida u atrof - muhiti ta'sirlari va hayvon faoliyati orasida o'zaro ta'sir borligini isbotlagan. Uning ta'limotida tashqi dunyoning muayyan (shartsiz) qo'zg'atuvchilarga javoban hosil bo'luvchi shartsiz tug'ma reflekslar va boshida farqsiz bo'lgan qo'zg'atuvchini shartsiz qo'zg'atuvchi bilan bog'lanishidan so'ng hosil bo'lgan shartli reflekslar faoliyat birliklari deb olinadi. Miya katta yarim sharlari faoliyatining umumiy qonunlari I.P.Pavlov tomonidan kashf etilgan. Hozirgi zamon fiziologiyasi ma'lumotiga qaraganda, miyada hosil bo'ladigan to'liqlar turli chastotadagi elektromagnit tebranishlariga o'xshab ketadi. Miyada elektroensofalogramma ko'rinishdagi kuchaytirgich yordamida yozib olish mumkin bo'lgan elektr toklari paydo bo'lishining kashf etilishi muhim ahamiyatga ega. Chunki kosmonavt miyasining biotoklari yozuvi uning markaziy nerv sistemasida yuz beradigan o'zgarishlar ko'satkichi bo'lib xizmat qiladi.

¹⁸ Hergenahn B.R. Tracy B. Henley An Introduction to the History of Psychology. – 2014 Wadsworth, Why Study the History of Psychology. 373- p.

Tadqiqotchi nazariy qarashlarni rivojlantirish va tajribalarni tahlil qilish natijasida ikkita signal sistemasi haqidagi nazariyani ishlab chiqdi.

Bunga ko'ra, birinchi signal sistema sensor, ikkinchi signal sistemasi nutqiy tovushlar bilan bog'liq. U analizator konsepsiyasini ishlab chiqdi, nerv tizimi tiplari haqidagi nazariyani ilgari surdi, xalqaro ilmiy maktab yaratdi.

I.P.Pavlov ham odamlarning, ham hayvonlarning tashqi muhit bilan o'zaro harakati miya bilan boshqarilishi qonunyatlarini ochgan edi. Uning mazkur qonunyalarga taalluqli qarashlari yig'indisi birinchi va ikkinchi signallar tizimi to'g'risida ta'limot tariqasida fan olamida arzigulik mavqe egalladi. I.P.Pavlov tabiri bilan aytganda hayvonlar birinchi signallar sistemasiga rioya etadi. Insonlar birinchi va ikkinchi signallar sistemasi asosida faoliyatni amalga oshiradi. Bir so'z bilan aytgan I.P.Pavlov psixologiya fani sohasiga juda katta his qo'shgan olim sifatida sanaladi.



Bexterev Vladimir Mixaylovich (1857-1927).

Mashhur rus fiziologi bo'lib, psixologiya fani taraqqiyotiga juda katta hissa qo'shgan olimdir. O'sha yillarda xorij psixologiyasida eng katta ishlar ekspremental lobaratoriyalar ochish va inson ustida fiziologik va psixologik eksprementlar o'tkazish fandagi yangilik edi. Sobiq sovet davridagi fiziolog va psixolog olimlardan bir nechtasi ushbu yo'nalishda ilmiy tadqiqod ishlarini olib borgan.

V.M.Bexterev ham 1885-yilda Rossiyaning Qozon shahridagi universitetda birinchi eksperimental laboratoriyaga asos solgan. Ushbu Qozon shaxrida joylashagan Universitetdagi laboratoriya Rossiyadagi birinchi psixologik laboratoriyaga bo'ldi. Ushbu laboratoriyada birinchi psixologik eksprementlar o'tkazilgan bo'lib, psixologiya fani taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan.

V.M.Bexterev psixologik jarayonlarning fiziologik asoslarini chuqur o'rgangan. Bundan ko'rinib turibdiki, har bir psixologik jarayonlarning fzialogiyasini ochib berishga yordam beradi.

V.M.Bexterevning 1907-1912-yillarda "Ob'ektiv psixologiya" kitobi nashrdan chiqdi. Kitob nemis, fransuz, ingliz tillariga tarjima qilinib zamonaviy psixologik bilimlar rivojida muhim o'rin egalladi. Ushbu kitob xozirgacha o'z qiymatiga ega bo'lib, johon psixologiyasi taraqqiyotiga hissa qo'shgan asarlar qatoridan joy olgan.

V.M.Bexterev tadqiqotlari natijasida ananaviy refleksologiyaning paydo bo'lishiga olib keldi. V.M.Bexterev psixologiyani faqat xulq - atvorni o'rganadigan fan deb hisoblamadi, aksincha ongni inkor etmagan holda unga katta imkoniyatlarni ochib berdi.



Kornilov Konstantin Nikolaevich (1879-1957). Psixologiya sohasiga ulkan hissa qo'shgan rus psixologlaridan biri hisoblanib, G.I.Chelpanovning kasbdoshi sifatida ilmiy faoliyatini boshlagan. G.I.Chelpanov asos solgan psixologiya institutida bir necha yil faoliyat ko'rsatgan va psixologiyaga oid ilmiy ishlarini ana shu yillarda amalga oshirgan. K.N.Kornilov 1921-yil "odam reaksiyalari haqidagi ta'limot" kitobini yozgan. Ushbu kitob psixologiya fani taraqqiyotiga hissa qo'shgan kitoblar sirasiga kiritish mumkin.

Psixologiya tarixida fan taraqqiyotidagi yo'nalishlar, materialistik va idealistik oqimlar asosida yoritilgan. K.N.Kornilov 1923 - 1924 yillarda materialistik psixologiyaning yaratilishi ustida ish boshlagan. Uning qarashlarida psixikani yuqori tashkil topgan materiyaning asosiy xususiyati, deb qarash markaziy o'rin tutgan. Bundan ko'rinib turibdiki, K.N.Kornilov ham o'z ilmiy g'oyalarini materialistik yo'nalishda yoritishga harakat qilgan.

Bu ish reaktologiya konsepsiyasini ishlab chiqishga olib kelgan. Bu konsepsiya o'z davrida juda katta munozaralarga sabab bo'lgan. 1931-yil reaktologiya borasidagi munozaralardan so'ng K.N Kornilov o'z qarashlaridan voz kechishga majbur bo'lgan. Keyinchalik psixologik jarayonlar iroda va xarakter muammolarini o'rgangan. Moskva psixologiya institutini boshqargan. O'sha yillarda juda ko'p ilmiy asarlar va maqolalar yozgan.



Uznadze Dmitriy Nikolaevich (1888-1950). Gruzin psixologi va faylasufi bo'lib, 1888 - yilda Kutais guberniyasiga qarashli Sakara qishlog'ida xristian oilasida tug'ildi. Psixologiya fanida uning nomi ustanovka nazariyasi bilan bog'liqdir. Tbilisi universitetini asoschilaridan biri va u yerda psixologiya bo'limini ochgan. Gruziya fanlar akademiyasida faoliyat olib borib, keyinchalik psixologiya instituti direktori bo'lgan. Ko'rsatma berish sub'yektning yaxlit nodifferensial va ongsiz holati bo'lib, u faoliyatdan oldin yuz beradi hamda psixika va jism orasidagi xalqa bo'lib xizmat qiladi. Bevositalikni yo'qotishga

imkon beradi. Ko'rsatma berish sub'yektini ehtiyoji bilan ehtiyojni qondirishni amalga oshiruvchi ob'yektiv holatini to'qnashuvidan hosil bo'ladi. Uznadze ko'rsatma berish o'zgarishlarining qonuniyatlarini o'rganagan. Psixotexnika, pedologiya, yosh va pedagogik psixologiya, zoopsixologiya masalalarini ishlab chiqqan. Tilni o'rganish tushunchalarini anglash ishlariga alohida e'tibor bergan. "Nazariy izlanishlar va tajribalari natijasida uning o'rnatish nazariyasining asosiy ko'rinishlari" 1961- yil, "Ko'rsatma berish psixologiyasining eksperimental asoschisi" 1966-yilda chop etilgan asarlarida aks ettirilgan.

Psixologiya fanida xulq - atvor va faoliyatga qaratilgan anglanilmagan mayllar orasida muayyan darajada tadqiq etilgani ustanovka (ko'rsatma berish, yo'l - yo'riq ko'rsatish) muammosi hisoblanadi. Ushbu umumiy psixologik masala gruzin psixologi D.N.Uznadze va uning shogirdlari tomonidan keng ko'lamda o'rganilgan.

Ustanovka inglizcha set deyilib, o'zbek tilida esa ko'rsatma berish, anglanilmagan mayllar, yo'l - yo'riq ko'rsatish ma'nosida qo'llanilib kelinadi. Lekin keyingi atamalar uning haqiqiy mohiyatini, ma'nosini o'zida mukammal aks ettirmaydi, shuning uchun terminni hech o'zgarishsiz qoldirsa ham bo'ladi.

Odatda, ustanovka deganda, bilish faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan ehtiyojni ma'lum uslubda qondirishga ruhiy jihatdan tayyor turishlik tushuniladi. Ustanovka shaxsning o'zi anglab etmagan muayyan ruhiy holati yoki maylidir. Bunday holatda shaxs biron bir ehtiyojni qondirish mumkin bo'lgan ma'lum faoliyatga nisbatan ruhan tayyor turadi. Ustanovkaning mavjudligi va uning qonuniyatlari eksperimental tarzda ta'kidlab o'tilgan ilmiy maktab namoyandalari tomonidan aniqlangan. Mazkur tajribada sinaluvchiga ikkita, bittasi katta, ikkinchisi esa kichikroq soqqachani uzluksiz ravishda bir nechta (10-15) marta ko'zi yuqum holda paypaslab taqqoslash taklif qilinadi. Eksperimentning navbatdagi bosqichida soqqachalar almashtirilib, baravar jismlar har xil tuyuladi, ya'ni sinaluvchida illyuziya (noto'g'ri aks ettirish) holati yuzaga keladi. Bunday psixologik voqeaning vujudga kelishiga asosiy sabab shuki, ob'yektiv jihatdan o'zaro teng soqqachalar taqqoslanganligida ular bir biriga teng emas, degan mayl bilan favqulodda sub'yektiv sharoitda ish tutilganligidir. Ushbu holat oddiyroq qilib tushuntirilganda, taqqoslash jarayoni ustanovka

(ko'rsatma berish, yo'l - yo'riq ko'rsatish) asosida amalga oshirilganligi uchun shunday oqibatga olib kelgan.

D.N.Uznadzening ta'kidlashicha, insonda ustanovka bilan bog'liq psixofiziologik holat markaziy nerv sistemasigina emas, balki uning periferik qismi faoliyatini ham mahsuli bo'lib hisoblanadi. D.N.Uznadzening tajribalarida sinaluvchining o'ng qo'liga navbat bilan avval katta, keyin kichik soqqachalar berib turiladi va bu vaziyat 10-15 marta takrorlanadi. Tajribaning oxirgi bosqichida sinaluvchining chap qo'liga bir - biriga teng soqqalar beriladi. Buning natijasida uning chap qo'lida ham ilyuziya, ya'ni noto'g'ri idrok qilish vujudga keladi. Ko'z bilan idrok qilishda ikkita o'zaro teng ob'yektlarni qayd qilishdagi ustanovka o'ng ko'zga ham o'z ta'sirini o'tkazgan. Eksperimental tarzda o'rganilgan ustanovkali vaziyatlarni takrorlash evaziga insoning o'ziga sezilmagan holda muayyan ob'yektlarda sub'yektga taalluqli "fiksial ustanovkalar" (qayd etilgan ustanovkalar) vujudga kelganligi aniqlangan. Demak, ustanovkani eksperimental tadqiqot etish natijasida anglanilmagan mayllar asta-sekin qayd qilinuvchi (fiksatsion) darajasiga o'sib o'tish mumkin.

Ijtimoiy turmushda D.N.Uznadzening natijalariga o'xshash qator ma'lumotlar shaxsda mustaxkamlanib qolganligi tufayli ustanovka funksiyalarini bajarib kelmoqda: 1) boshlang'ich sinf o'quvchilarining oldida turgan ustanovkalar huddi shunday toifaga kirganligi sababli o'qituvchining barcha topshiriqlarini darhol bajarishga tayyor turadilar; 2) hisobchilarga nisbatan qo'rs, rasmiyatchi, deyishlik; 3) olimlarga nisbatan parishonxotirlik; 4) savdo xodimlariga nisbatan uddaburonlik, daromat qilishga ustasi faranglik; 5) bolaning haqgo'yiligi, sir tutmasligi; 6) qariyaning so'zi tugaguncha - o'salning joni uzilishi to'g'risidagi fikr mulohazalar ustanovkaga yaqqol misol bo'la oladi.

Shuningdek, ba'zi jamoalarda, guruhlarda, oilalarda ustanovkaga asoslanish, ularga ishonch noxush oqibatlarga olib keladi. Avtoritar tafakkur, milliy stereotip, etnik rasm - rusumlar ham ustanovkaga misoldir.

Davolovchi shifokorning ustanovkalariga bemorning rioya qilishi irqchilik munosabatlari, ilmiy unvonli ziyolilarga berilgan super (orttirma) baholar va boshqalar ustanovkaning anglanilmagan shaklini o'zida mujassamlashtiradi. Shuni ta'kidlash joizki, ba'zi hollarda shaxs uchun anglanilmagan ustanovka o'z pozitsiyasini aniq

namoyish qilishda e'tiqot sifatida gavdalanadi, anglanilmagan omillar tariqasida aks etadi.

Gruzin psixologlari tomonidan ustanovkaning turlicha xislatlari (qo'zg'aluvchanlik, dinamiklik, statiklik, plastiklik-dag'allik, labillik - stabillik, irradiatsiya-generalizatsiya) va tiplari (diffuz, differensiallashgan, fiksatsiyalashgan) aniqlangan. Ularning fikricha, ustanovkaning ba'zi bir xislatlari mutanosibliigi uning har xil tiplarining vujudga keltiradi. Psixoz va nevrozlar ustanovkaning patologik o'zgarishlarida o'z ifodasini topadi. Shuningdek, ustanovka inson hukmronligini va qudratini tashkillatirishning yuksak darajasi sanaladi.

U xulq - atvorining batartibliigi va izchilligining asosi hisoblanadi. Ularning mulohazalaricha, ustanovka insoning muayyan shaklda munosabat bildirishga yuksak yo'sinda umumlashgan tayyorgarlik holati, reaksiyaning yaqqol natijasining kodlashtirilgan neyrodinamik modeli, mazkur reaksiya vaqtini oldindan payqash, qolaversa yaxlit faoliyat tuzilishining ajralmas jabhasi hisoblanadi. Shuning uchun ustanovka o'zgaruvchanlik va barqarorlik jips birligini aniqlashga xizmat qiladi. U o'zining o'zgaruvchanlik bilan munosabat bildirishi javob qaytarishning barqarorligini ta'milaydi.

Ustanovkaning yuksakroq bosqichi anglanish ko'rinishga ega bo'ladi. Guruhiy va jamoaviy munosabatlarda uning a'zolarini ishontirish (ularga ta'sir o'tkazish) orqali muayyan yo'nalishga safarbar qilish; fikrlarda umumiylikni vujudga keltirish holatlari bunga yorqin misoldir ishonish va ishontirish odamlarning xarakter xislatiga, xulq-atvoriga bevosita bog'liq. Bu holat psixologiyada eksperimental tarzda tadqiq etilgan. Masalan, sinaluvchilarga ma'lum vaqt oralig'ida soatiga qaramay, sekundlarini o'z ichida sanash orqali bir minutning cho'zilishini aniqlash imkoniyatiga ega bo'lganlar.

Keyinchalik bu sanash signal berish bilan tekshirilib turilgan, ba'zan "yolg'on" signallar, ya'ni lampochka yonish bilan tajriba bo'linishga yo'l qo'yilgan. Qatnashchilarda eksperimentatorga ishonch bo'lganligi sababli xatolarga yo'l qo'yishgan.

Ishonuvchanlikni aniqlashda "konformizm" (kelishuv, murosavut, madora) dan foydalanilgan. Ichki va tashqi kelishuvchanlik (konformizm), ichdan kelishmovchilik (nokonformizm) guruhiy ishonuvchanlik mohiyatini o'rganish uchun ob'yekt sifatida foydalanishgan. Bir guruh odamlarning ochiq ovoz berish konformizmning namoyon bo'lishidir. Lekin konformizm "soxtalik"ni

ham keltirib chiqarish mumkin, uning aks ettiruvchisi esa konformist deb ataladi.



Uxtomskiy Aleksey Alekseevich (1875-1942).

Mashhur rus fiziologi, u 1875 - yil 25 - iyunida Rossiya davlatining ilgari mavjud bo'lgan Ribinsk shahrida dunyoga keldi. U Sechenovning nerv - psixik aktlarning biologik va sistemalash xarakteri haqidagi g'oyalarini rivojlantirib, nerv markazi va xulq tarkibining asosiy ish tamoyili bo'lgan dominanta haqidagi ta'limotni ilgari surdi.

Bu ta'limot miyaga reflektor yoylarining yig'indisi deb qarovchi g'oyaga qarama - qarshi qo'yildi. Uxtomskiyning fikricha, har bir kuzatilayotgan harakat effekti po'stloq va po'stloq osti markazlariga bo'lgan dinamik ta'sir xarakteri organizmning aktual ehtiyojlari organizmning biologik tizim sifatidagi tarixi bilan belgilanadi. Miyani muhitni idrok qilish, his qilish va aks ettirish organi deb qarash lozim, degan fikrni ilgari suradi.

Dominanta inertlik xususiyatiga ega, ya'ni bu dominantani chaqirgan qo'zg'atuvchilar ta'sir qilmay qo'ygan va tashqi muhit o'zgargan holda u mavjud bo'lib va takrorlanib turaveradi. Inertlik xulqning normal boshqarilishini buzadi, lekin uning o'zi intellektual faoliyatning boshlang'ichi bo'lib xizmat qiladi. Avvalgi faoliyat izlari ko'plab potensial dominantalar ko'rinishida bir vaqtda mavjud bo'lishi mumkin. Ular orasida etarlicha kelishuv bo'lmasa, bu reaksiyalar konfliktiga olib keladi. Bu holda dominanta patologik jarayonning tashkilotchisi va kuchaytiruvchisi bo'lib xizmat qiladi. Uxtomskiy psixik hodisalar va ularning tavsifnomasining turli ko'rinishlarini dominanta mexanizmi bilan tushuntiradi. Masalan diqqat ularning yo'nalishi to'planishi tanlash va tafakkurning predmet xarakteri sifatida muhitning predmetlarga bo'linishini Uxtomskiy uch bosqichdan iborat jarayon deb ataydi. Mavjud dinamikaning mustahkamlanishi, organizm uchun biologik muhim qo'zg'atuvchilarni ajratib olish, dominanta va tashqi qo'zg'atuvchilar kompleksi o'rtasida adekvat aloqa o'rnatishdir.

A.Uxtomskiyning ishlari ko'plab yangi fiziologik va psixofiziologik nazariyalarni ishlab chiqish uchun asos bo'ldi. Diqqat yetishmovchiligi sindromi va giperaktivlik mavjud bo'lgan 6-7 yoshli bolalar miya po'stlog'i va po'stloq osti tuzilmalarining funksional etilish tezligi sustligi bois maktabda o'qishga tayyor bo'lmaydilar,

maktabdagi doimiy yuklamalar ularning markaziy nerv sistemalari kompensator mexanizmlarida uzilishlarga hamda o'qishdagi qiyinchiliklarda namoyon bo'luvchi maktabga moslashuvning buzilish sindromi rivojlanishiga olib keladi. A.Uxtomskiy xulosasiga ko'ra, tashqi muhit bilan aloqada bolalar kattalarning turmush tarzi, his - tuyg'usi, o'zaro muomala va muloqotlarining xususiyatlarini, o'ziga va o'zgalarga, atrof - muhitga munosabatini yaqqol voqelik tarzida ijro etish uchun turli o'yinchoqlardan shuningdek, ularning vazifasini o'tovchi narsalardan ham foydalanadilar.

Tadqiqotchi fikricha, ijtimoiy va maishiy voqelikning barcha jabhalarini qamrab oladigan rolli o'yin bolalarda birdaniga emas, balki turmush tajribasining ortishi, tasavvur obrazlarining kengayishi natijasida vujudga keladi va mohiyati hamda mazmuni jihatdan oddiydan murakkabga qarab takomillashib boradi. A.Uxtomskiy umrining oxiriga qadar diqqat va uning ontogenetik taraqqiyoti muammosi bilan tadqiqot olib borgan.



Teplov Boris Mixaylovich (1896-1965).

Mashhur rus psixologi u 1896 - yilning 20 - oktyabrda dunyoga keldi. Ilk faoliyati davrida idrok tasavvur va tafakkur bo'yicha ilmiy ish olib borgan. So'ngra individual farqlar ustida uzoq ilmiy ish olib borgan. Differensial psixologiya ilmiy maktabi asoschisi. Qobiliyatlar konsepsiyasini ishlab chiqqan. U I.P.Pavlovning oliy nerv faoliyati tiplari ta'limotiga asoslanib, odamning individual-psixologik farqlarining fiziologik asoslarini o'rganish dasturini ishlab chiqqan, natijada individual farqlar nazariyasini taklif qilgan. Rus psixologi B.M.Teplov va uning shogirdlari ishlarida oliy nerv faoliyati tiplarining xislatlari ta'siri tufayli shaxs qobiliyatlarining tuzilishida qandaydir sifat xususiyatlari paydo bo'lishini aniqlashga urinishgan. Jumladan, nerv sistemasining alohida sezgilari ma'lum qobiliyat nishonasi sifatida vujudga kelishi mumkin. Ta'kidlangan xususiyatlar oliy nerv faoliyati umumiy tipining sifatlariga va belgilariga mansubdir. Ammo qobiliyatlarning tabiiy asoslarini nerv sistemasining porsial (xususiy) deb nomlanadigan xislatlari bilan bog'lanuvchi farazlar yanada ko'proq ehtimol darajasiga egadir. Yirik rus psixologlaridan biri B.M.Teplov (1896-1965) va uning shogirdlari, maslakdoshlari I.P.Pavlovning tadqiqotlarini davom ettirib, inson nerv jarayonlari xususiyatlarining o'ziga xos tomonlarini ochishga muvaffiq bo'ldilar. Ular nerv-fiziologik jarayonlarning nozik

qirralarini o'rganishda maxsus moslamalar yordami bilan o'zgarishlarni qayd qilish hamda olingan natijalarni (omillarini) matematik statistika usublari orqali hisolashni tatbiq etdilar. B. M. Teplov ilmiy maktabi namoyandalari tomonidan olingan ma'lumotlarga qaraganda, insonda hosil qilinadigan shartli reflekslarning ba'zi bir individual xususiyatlari o'zaro uyg'unlikka egadir. Ularning ta'biricha, o'zaro bog'liq individual xususiyatlar tizimi nerv sistemasining muayyan xususiyati bilan tavsiflanadi. Jumladan, o'zaro bog'langan xususiyatlar, birinchidan, shartli qo'zg'ovchi mustahkamlanishi davom etishidan qat'i nazar, shartli reflekslar so'nishi darajasiga, ikkinchidan, qo'zg'ovchilarning kuchli yoki kuchsizligi bilan shartli reaksiyaning hajmi orasidagi tafovutlarga, uchunchidan, asosiy qo'zg'ovchi sezgirligiga begona (notanish) qo'zg'ovchini ijobiy (salbiy) ta'sir o'tkazish darajasiga, to'rtinchidan, boshqa ko'rinishdagi yoki kuchlanishdagi qo'zg'olish jarayonlarining kuchiga bog'liqdir. Ma'lumotlarning tahliliga binoan, tormozlanishning (to'xtalishning) kuchi bilan nerv jarayonlarining muvozanatlashuviga taalluqli shartli reflektor faoliyatining individual xususiyatlari turkumlari shunga o'xshash usul yordami bilan kashf qilingan. Shuningdek, B.M.Teplov ilmiy maktabining namoyandalari tomonidan ijobiy va tormozlovchi shartli reflekslarning hosil bo'lish tezligini tavsiflovchi individual xususiyatlar turkumi ham ta'birlab berilgan. Ushbu individual xususiyatlar mohiyatida ifodalanuvchi nerv sistemasining notanish xususiyati dinaminlik deb nomlangan ham tavsiflangan. Bundan tashqari, ular shartli reflektor faoliyatining bir guruh individual xususiyatlari qo'zg'olish jarayonining to'xtalishining tezligi mahsuli sifatida tahmin qilingan xususiyatni (yangi xislatni) labillik (ya'ni latincha labialis-beqarorlik atab boshlaganlar. Shuning bilan birga nerv sistemasining boshqa xususiyatlari mavjudligi to'g'risida ilmiy tahminlar ilgari surilgan, chunonchi: senzitivlik, reaktivlik va hokazo. B.M.Teplov ilmiy maktabi I.P.Pavlov Tadqiqotlarida aniqlangan nerv sistemasining xususiyatlari to'g'risidagi nazariya va tahminlar muayyan darajada kengaytirilgan hamda temperametning tub mohiyatini tushuntirishga qulay imkoniyatlar yaratilgan. Lekin shunday chuqur izlanishlar olib borilishiga qaramay, psixologlar tomonidan kashf qilingan xususiyatlarning kiyoviy va fizikaviy mohiyati to'hanuzgacha no'malum bo'lib qolmoqda. Huddi shu bois, nerv sistemasining xususiyati to'g'risidagi ilmiy mushohadalar faqat shartli reflektor

faoliyati bilan o'zaro bog'liq individual xususiyatlar turkumiga taalluqli umumiy sabablar bo'yicha talqin qilishni ifodalaydi, xolos. Bundan tashqari u tadqiqotlarida san'at psixologiyasi muammolarini o'rganishga alohida e'tibor bergan.



Rubinshteyn Sergey Leonidovich (1889-1960).

Rus psixologi va faylasufi. Olim 1889 - yil 18 - iyunda Odessada advokatlar oilasida tug'ildi. Psixologiyada faoliyat yondoshuv asoschilaridan biri bo'lib, filosofik va psixologik ta'limni Marburgda olgan. 1942 - yildan psixologiya instituti direktori bo'lgan. 1943 - yilda M.V.Lomonosov nomli MDU qoshida psixologiya kafedrasini, so'ng bo'limini ochgan, 1945 - yil Rossiya fanlar akademiyasi filosofiya institutida psixologiya sektorini ochgan. 1922 - yil yozilgan "Ijodiy havaskorlik tamoyili" maqolasida ong va faoliyat birligi tamoyilini ishlab chiqqan, bu tamoyil 30-yillarda faoliyatli yondoshuvi yo'nalishiga asos bo'lgan. Aynan shu nuqtai nazardan kelib chiqib, Rubinshteyn psixologiya yutuqlarini umumlashtirishga harakat qilgan. Olib borgan ishlari asosida 1940 - yilda "Umumiy psixologiya asoslari" asarida yakun topgan. S.L.Rubinshteyn o'zining ushbu asarida ong va faoliyat birligi tamoyilini ilgari surdi. Ongni faoliyat jarayoni bilan birlashtirib, S.L. Rubinshteyn uning bu jarayonda qanday tarzda shakllanishini tushuntirib berdi. Bu konkret tadqiqotlar istqbolini tubdan o'zgartirib yubordi. Insonning dunyo bilan murojaati to'g'ridan - to'g'ri va bevosita emas, balki uning bu dunyo ob'yektlari bilan real harakatlari vositasida amalga oshiriladi, degan g'oya ongga bo'lgan qarashlarni o'zgartirib yubordi. Uning tashqi predmetlarga emas, predmetli harakatlarga bog'liqligi psixologiyaning muhim muammolaridan biriga aylandi.

Ong maqsadlar qo'yib, sub'yekt faolligini rejalashtiradi va reallikni hisiy va aqliy obrazlarda aks ettiradi. Tahmin qilinadiki, ong tabiati dastlab ijtimoiy, ijtimoiy munosabatlar orqali taqozo qilingandir. Bu munosabatlar davrdan davrga o'tish bilan o'zgarar ekan, unda ong tarixan o'zgaruvchan mahsuldir. Hamma narsa inson psixikasida uning faoliyatida amalga oshirilishi haqidagi g'oya S.L.Rubinshteyn ong va faoliyat birligi prinsipida atroflicha mulohaza yuritib, faoliyat psixologiyasini yaratish zaruriyatini tushuntira oldi. Uningcha, mehnat psixologik emas, balki "ijtimoiy kategoriya", psixologiya esa "mehnat faoliyatining psixologik

jabhalarini” tatqiq etadi. Psixiklilikning namoyon bo’lishi yoki hukm surishining ob’yektiv shakli xulqda, faoliyatda ifodalanadi (aks ettirish harakati ma’nosida). Bu asar Davlat mukofoti bilan taqdirlangan, ilgor rus psixologlari tomonidan yuqori baholangan.

S.L.Rubinshteyn bo’yicha shaxs quyidagi tuzilishga ega:

1. Yo’nalganlik - ehtiyojlar, qiziqishlar, ideallar, e’tiqodlar, faoliyat va xulqning ustuvor motivlari hamda dunyoqarashlarda ifodalanadi.

2. Bilimlar, ko’nikmalar, malakalar - hayot va faoliyat jarayonida egallanadi.

3. Individual tipologik xususiyatlar - temprament, xarakter, qobiliyatlarda aks etadi.



Chelpanov Georgiy Nikolaevich (1862-1936).

Rus fiziologi va psixologi bo’lib, psixologiya fani tararqqiyotiga juda katta hissa qo’shgan. G.N.Chelpanov 1862 - yil 16 - aprelda Ekaterinburg guberniyasiga qarashli Mariupole shahrida dunyoga keldi. O’sha davrlarda inson psixologik jarayonlari, xususiyatlari va holatlari ustida eksprementlar o’tkazilib boshlagan edi. G.N.Chelpanov 1912 - yil Moskva universiteti qoshida, birinchi bo’lib eksperimental psixologiya institutini tashkil qildi. G.N.Chelpanov psixologiya fanini ommalashtirgan va psixologiya bo’yicha qator darsliklar muallifi. U tamonidan yozilgan darsliklar va maqolalar o’z davrida qolaversa hozirda ham ahamiyatini yo’qotmagan. 1900 - yilda yozgan “Miya va ruh” asarida umumiy psixologiya har qanday falsafadan ozod bo’lishi kerak deb uqtirgan. Bundan ko’rinib turibdiki, G.N.Chelpanov psixologiya sohasini mustaqil fan sifatida taraqqiy etishi tarafdori va fan fidoyisi bo’lgan.

1915 - yil G.N.Chelpanov “Eksperimental psixologiyaga kirish” asarini yozib, inson psixologik jarayonlari ustida qanday eksprementlar o’tkazish to’g’risida to’xtalgan edi. Ushbu asarda eksprement jarayonining nazariy va amaliy xususiyatlari ilmiy ochib berilgan. U fazo va vaqtni idrok qilish masalasi bilan jiddiy shug’ullangan. Shu bilan birga eksperimental psixologiya tararqqiyotiga ulkan hissa qo’shgan. 1915 - yil. Ko’plab ilmiy ishlarini psixofizik parallelizm konsepsiyasidan kelib chiqib olib borgan.

G.N.Chelpanov idrok va uning tavsifi bo’yicha keng ko’lamda tadqiqotlar olib borib, qo’yidagicha izohlagan. Uning fikricha,

idrokning sezgidan farqi, narsalarni umumlashgan holda, uning hamma xususiyatlari bilan birgalikda aks ettirilishidir. Idrokning muhim xususiyatlari uning predmetliliği, yaxlitliği, strukturaliliği, doimiyligi va anglashilganligidir. Idrokning predmetliliği ob'yektivlashtirish hodisasi deb atalgan hodisada, ya'ni tashqi olamdan olinadigan axborotlarning o'sha narsaga mansubligida ifoda qilinadi. Predmetlilik - idrokning belgisi sifatida xatti - harakatni boshqarishda alohida rol uynaydi. Biz narsalarga ularning ko'rinishiga qarab emas, balki ularni amaliyotda qay tarzda ishlatishimizga muvofiq holda, yoki ularning asosiy xususiyatlariga qarab ham baholaymiz. Predmetlilik persektiv jarayonlarning o'zini, ya'ni idrok jarayonlarning bundan keyingi shakllanishida ham rol o'ynaydi. Idrokning yaxlitliği - sezgi a'zolariga ta'sir qiladigan narsaning ayrim xususiyatlarini aks ettiradigan sezgilardan farqli o'laroq, idrok narsaning yaxlit obrazi hisoblanadi. Yaxlit obraz narsaning ayrim xususiyatlari va belgilari haqida turli xil sezgilar tarzida olinadigan bilimlarni umumlashtirish negizida tarkib topadi. Idrokning yaxlitliği va strukturaliliği manbalari, bir tomondan, aks ettiriladigan ob'yektlarning o'ziga xos xususiyatlaridir, va ikkinchi tomondan insonning konkret faoliyatida gavdalanadi, ya'ni analizatorlarning reflektor faoliyati natijasidir. Idrokning doimiyligi, konstantliği narsani idrok qilish sharoitlari o'zgarishiga qaramay, narsaga xos bo'lgan kattalik, shakl, rang va boshqa xususiyatlarning idrokimizga nisbatan bir xilda aks etishidir. Masalan, yoritish darajasi o'zgarishiga qaramay, biz qorni oq, ko'mirni qora narsa sifatida idrok qilaveramiz. Narsalarning shakli, katta kichikligi, rangini doimo bir xilda idrok qilish amaliy jihatdan nihoyatda katta ahamiyatga egadir. Idrokning konstantliği tevarak atrofdagi narsalarni aslida qanday bo'lsa shundayligicha ob'yektiv ravishda bilishga imkon beradi. Idrok bitta sezgi organining ishi bo'lavermay, balki boshqa bir qancha sezgi organlari, bir qancha analizatorlarning faoliyati mas'ulidir. Lekin har bir idrokda sezgi organlaridan biri eng muhim o'rin tutadi. Masalan, suratni idrok qilishda ko'rish organi, muzikani idrok qilishda eshitish organi bosh o'rinda turadi. Idrok ham sezgilar kabi, bosh o'rinda turadigan ana shu organlarga qarab: ko'rish, eshitish, hid, maza va boshqa idrok xillariga bo'linadi. Bulardan hayotimiz uchun eng muhimlari ko'rish bilan eshitish idrokidir. G.Chelpanov fikricha, idrokning yana aralash turi ham bo'lib, idrokning bu turida yolg'iz bir sezgi organi emas, balki ikki, uch sezgi organi baravar muhim o'rinda

turadi. G.Chelpanov rus psixologiyasida noana'naviy eksperimental tadqiqotlarga oid ko'plab ilmiy asarlar yozgan.



Vigostkiy Lev Semyonovich (1896-1934).

Rossiya psixologiyasining yirik namoyondasi, oliy psixik funksiyalar rivojlanishining madaniy - tarixiy konsepsiyasi asoschisidir. 1920 - yillarning 2 - yarmigacha san'at asarlarini idrok etish muammolarini o'rganish bilan shug'ullangan. U yoki bu san'at asarini idrok qilayotgan insonning his - tuyg'u doirasini turli yo'nalishdagi ikkita affektni ajratib ko'rsatgan va bu qarma - qarshilikning estetik reaksiyalarining asosi bo'lmish katarsisda namoyon bo'lishini o'rgangan.

Keyinchalik, "Ruhii inqirozning tarixiy mazmuni" asaridan boshlab psixologiyaning umumiy uslubologik muammolarini tahlil qilishni boshlagan va buning natijasida individning madaniy durdonani bilvosita umumlashtirib idrok qilishi jarayonida psixik funksiyalarning rivojlanishi haqidagi ta'limotni ishlab chiqqan.

Vaqt o'tib, L.S.Vigotskiy¹⁹ bolalar psixologiyasi bilan shug'ullanib, bolaning "Yaqin kelajakdagi rivojlanish zonasi" haqidagi nizomni o'z ichiga olgan yangi yo'nalishni yaratdi.

Amalda bu muammo defektologiya sohasini rivojlantirdi. 1925 - yilda L.S.Vigotskiy anomal bolalar psixologiyasi laboratoriyasini yaratdi. Bunda u anomal bolaning rivojlanish haqidagi yangi nazariyani shakllantirdi. O'zining ishlarining so'ngi bosqichida u tafakkur va nutqning o'zaro munosabatini, ontogenezning rivojlanishini egotsentrik nutqni o'rganish ustida ish olib bordi. Qisqa umr ko'rganiga qaramay, L.S.Vigotskiy Rossiya va dunyo psixologiyasiga katta hissa qo'shgan. Shuning uchun ham u psixologiyaning "Motsart"i deyiladi.

L.S.Vigotskiyning ko'p ishlari bizning zamonamizda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. L.S.Vigotskiy jahon psixologlari shaxsning tuzilishi va rivojlanishiga oid nazariyalarni tanqidiy tahlil qilib, kamolotni vujudga keltiruvchi ruhiy yangilanishlardan kelib chiqqan holda jarayonni quyidagi bosqichlarga ajratadi.

1. Chaqaloqlik davri inqirozi (krizisi).
2. Go'daklik davri - 2 oydan 1 yoshgacha. Bir yasharlik inqiroz.
3. Ilk bolalik davri - 1 yoshdan 3 yoshgacha. 3 yasharlik inqiroz.

¹⁹ Hergenhahn B.R. Tracy B. Henley An Introduction to the History of Psychology. - 2014 Wadsworth, Why Study the History of Psychology. 373-p.

4. Maktabgacha yoshdagi davr - 3 yoshdan 7 yoshgacha yasharlik inqiroz.

5. Maktab yoshi davri - 8 yoshdan 12 yoshgacha. 13 yasharlik inqiroz.

6. Pubertat (jinsiy etilish) davri - 14 yoshdan 18 yoshgacha. 17 yasharlik inqiroz.

L.S.Vigotskiy o'z asarlarida rivojlanishning har bir davrini o'ziga xos xususiyatlariga chuqur ilmiy ta'rif bera olgan. Tadqiqotchi shaxsning rivojlanishida eng muhim ruhiy yangilanishlar yuzasidan ham ilmiy, ham amaliy ahamiyat kasb etuvchi mulohazalar bildirgan.

Biroq uning fikrlari ichida o'ta munozarali, bahsbob o'rinlar talaygina. Hozirgi zamon psixologiya fanida

L.S.Vigotskiyning shaxsning rivojlanishi nazariyasi ilmiy, tarixiy, ijtimoiy ahamiyat kasb etadi, taraqqiyotni keltirib chiqaruvchi inqirozlarning roli to'g'risidagi mulohazalari va olg'a surgan g'oyalari shu kunning talabi bilan hamohangdir.

L.S.Vigotskiyning yana bir asosiy ilmiy faoliyatlaridan biri madaniy tarixiy rivojlanish konsepsiyasini ilgari surdi. U reaksiyalarga alohida e'tibor berar ekan, eng muhimi insondagi nutq reaksiyasi deb baholadi. Nutq tana harakatidir, biroq boshqa tana harakatlaridan farqli o'laroq, shaxs ongiga yangi o'lchovlarni berishini ta'kidlab o'tadi.

Birinchi dan nutq muomala jarayonida amalga oshadi, demak u boshdan bosh ijtimoiydir.

Ikkinchi dan u doim psixik jabha bor, u so'zning ma'nosidir. Uchinchi dan so'z sub'yektdan mustaqil ravishda madaniyat elementi sifatida mavjud bo'la oladi. Shunday qilib nutqli reaksiyada tana, ijtimoiylik (kommunikativlik), ma'noviy va tarixiy-madaniylik mujassamlashgan. Mana to'rtta koordinatalar tizimida (individ, muomala, ma'no, madaniyat)da Vigotskiy inson psixik hayotining har qanday fenomenini tushuntirib berishga intiladi.

Belgi (so'z) - "psixologik qurol", uning vositasida ong quriladi. Uning xususiyati shundaki muomala mehnat qurollari bilan taqozo qilinadi. Ular tashqi tabiatni ham, insonni ham o'zgartiradi.

L.S.Vigotskiy eksperimental tarzda shuni isbotladiki, bolalardagi egotsentrik nutq reallikdan uzoqlashgan mayllar va bola fantaziyasiga borib taqalmaydi. U amaliy harakatlar tashkilotchisidir.

O'z - o'zi bilan fikr yuritib bola harakatni rejalashtiradi. 1934 - yil "Mishlenie i rech" (Tafakkur va nutq) asarida Vigotskiy,

eksperimental tadqiqotlarga tayangan holda bolalarda tushunchalarning rivojlanishini tadqiq etdi. Vygotskiy fikricha faqatgina rivojlanishdan oldin keladigan ta'lim yaxshi natija beradi.

U "rivojlanishning yaqin zonasi" terminini kiritadi. Bu tushincha ostida bola kattalar raxbarligi ostida mustaqil echa oladigan masalalar darajalari o'rtasidagi tarqoqlik tushuniladi. O'qitish shunga o'xshash zonani yuzaga keltirib, o'z ortidan rivojlanishga olib keladi.



Bernshteyn Nikolay Aleksandrovich (1896-1966). Mashhur psixolog olim N.A.Bernshteyn 1896 - yilning 5 - oktyabrda Moskva shahrida tug'ildi. Uning otasi Rossiyaning eng ko'zga ko'ringan psixiatri bo'lgan. Rus psixofiziologi, mehnat qilish, sport bilan shug'ullanish va boshqa jarayonlarda inson harakatini o'rganuvchi yangi tajriba usullari –

kimotsiklografiya va siklogrammetriyani yaratgan va tatbiq qilgan.

Olingan natijalar tahlili, faollik fiziologiyasining va inson harakatining shakllanishini normada va potologiyadagi konsepsiyasini ishlab chiqishga asos bo'ldi.

Tajribalar jarayonida Bernshteyn "Reflektor doira" g'oyasini shakllantirdi. Uning nazariyasi asosida sportchilarda malaka oshirish ishlari olib borilgan.

N.A.Bernshteynning quyidagi nazariyasi mavjud bo'lib, hozirgi zamon psixologiyasida faoliyat, jarayon va xulq - atvorning faol boshqarilishi teskari aloqa aparatining ishlashini taqozo etadi.

Teskari aloqa tushinchasi kibernetika, fiziologiya, psixologiya fanlarida keng ko'lamda qo'llanilib kelinmoqda. Teskari aloqa fiziologiya va psihologiya fanlarida keng qo'llanib kelinmoqda.

Teskari aloqa N.A.Bernshteyn talqinicha, natijaga nisbatan obraz oldinroq paydo bo'ladi, voqelikning o'ziga xos modeli tarzida uning yuz berishi to'g'risida oldindan axborat, xabar, ma'lumot beradi ("bashorat ehtimolligi nazariyasi").

Uning nazariyasicha asoslangan holda psixikaning mavjudligi harakatning izchil dasturini tuzish, oldiniga ichki rejada sh bajarish, xulq-atvordagi ehtimol ko'rinishlarini tanlash, bosqichlarini amalga oshirish tufayli harakat qilish mkonini beradi.

N.A.Bernshteyn faollik, faoliyat, ish, mehnat tushunchalarini ma'nosiga ko'ra farqlagan bo'lishiga qaramay, u aksariyat hollarda faollikni faoliyat ma'nosida qo'llagan.

Psixofiziologiyada faoliyat faollikni fiziologik ma'nosi sifatida talqin qilingan bo'lsa, ish, mehnat faoliyati "mehnat faolligi" mazmunida qo'llanadi. Ijtimoiy psixologiyada "faoliyat-faollik-ish-mehnat", "faoliyat-xulq", "mehnat-xulq-faoliyat" ko'rinishlari juftligi uchrab turadi.

Bundan tashqari olimning ishlari EHM boshqaradigan qadam tashlovchi avtomotlarni yasashda qo'llangan. Bernshteyning harakatlar holati nazariyasi "Harakatlar tartibi" monografiyasida bayon qilingan (1947 yil).



Anoxin Petr Kuzmich (1898-1974). Mashhur rus fiziologi bo'lib, mustahkamlashning yangi mumtoz (I.P.Pavlov) nazariyasidan farq qiluvchi o'z shaxsiy nazariyasini taklif qildi. U mustahkamlashni shartsiz qo'zg'atuvchi ta'sirining natijasi emas, balki reaksiya haqidagi afferent signal deb qaraydi. Buning asosida u funksonal sistemalar nazariyasini ishlab chiqdi.

Anoxinning nazariyasi tirik organizmning adaptiv mexanizmlari tushunchasiga yordam beradi. P.K.Anoxin quyidagi nazariyasi mavjud bo'lib, hozirgi zamon psixologiyasida faoliyat, jarayon va xulq atvorning faol boshqarilishi teskari aloqa aparatining ishlashini taqozo etadi.

Teskari aloqa tushinchasi kibernetika, fiziologiya, psixologiya fanlarida keng ko'lamda qo'llanilib kelinmoqda. Teskari aloqa P.K.Anoxin talqinicha, organizm muayyan sikl bilan ish bajaruvchi yaxlit tizim mavjud.

Mazkur sistema markazdan javob harakatiga buyuruq berilishning birorta ham lahzasi teskari yo'nalishda (preferiyadan markazga qarab) haraktining natijasi haqida zudlik bilan axborat (teskari aloqa) yubormaguncha tugallanmaydi. Teskari aloqa natijasida inson o'z harakati obrazlar bilan taqoslaydi.



Aleksandr Fedorovich Lazurskiy (1874-1917). Mashhur rus fiziologi, psixologi A.F.Lazurskiy differensial psixologiyaning asoschilaridan biri bo'lib hisoblanadi. Sankt Peterburgda u Bexterev rahbarligida anatomo - fiziologik laboratoriyada davolash va amaliyot jarayonini bir - biri bilan qo'shib olib borgan holda psixik buzilishlarga muhtalo bo'lgan bolalar uyida ham faoliyat olib borgan.

A.F.Lazurskiy qiziqishlari intellektning tuzilishi anatomiyasi va fiziologiyasidan psixologik tadqiqotlarga ko'chgan. O'z eksperimental tadqiqotlarida u o'sha davr psixologiya muammolaridan hisoblangan xotira hajmini assosatsiyalarini paydo bo'lishiga e'tibor qaratgan.

A.F.Lazurskiy 1897 - yilda o'zining "Individual psixologiyaning hozirgi kundagi holati" nomli kitobi nashrdan chiqardi. Ushbu kitob jahon psixologiya sohasiga juda katta hissa qo'shgan kitoblar qatoridan joy olgan va bugungi kunda ham o'z qiymatini yo'qotmagan.

1906 - yilda "Harakterlar xususidagi ilk ocherk" nomli ilk yirik ishini ming nusxada nashr qilgan. Ushbu kitobda shaxs xarakteri va uning o'ziga xosligi nazariy jihatdan aniq ochib berilgan.

A.F.Lazurskiy tamonidan "Shaxs klassifikatsiyalari" nomli kitobi ayrim sabablarga ko'ra nihoyasiz qolib ketdi. Undan keyin ushbu asarni uning shogirtlari davom ettirishga harakat qildi lekin oxirigacha etkazaolmadi. Psixologiya fani taraqqiyotida shu narsa ma'lumki A.F.Lazurskiy tamonidan loyabatoriya eksperimenti fanga kiritildi. Psixologik eksperiment uslubi o'z navbatida tabiiy va loyabatoriya uslublariga ajratiladi. Tabiiy uslub psixologik - pedagogik masalalarni hal qilishda qo'llanadi.

Bu uslubning ilmiy asoslarini 1910-yilda A.F.Lazurskiy ta'riflagan. Tabiiy uslubdan foydalanishda ishlab chiqarish jamoalari a'zolarining, ilmiy muassasalar xodimlarining, o'qituvchilar, keksaygan kishilarning psixologik o'zgarishlari, o'zaro munosabatlari, ish qobiliyatlari, mutaxassislikka yaroqliligi muammolarini hal qilish nazarda tutiladi.

Tabiiy sharoitda inson psixikasini o'rganishda sinaluvchilar (bog'cha bolalari, maktab o'quvchilari, ishchilar, dehqonlar, xodimlar va hokazolar)ning o'zlari bexabar bo'lishi, ta'lim jarayonida berilayotgan bilimlar tadqiqot maqsadiga muvofiqlashtirilishi, katta yoshdagi odamlarga tarbiyaviy ta'sir o'tkazish kundalik mehnat tarzi doirasida amalga oshirilishi, zavod va fabrikada esa moddiy mahsulot ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilishi lozim. Bir so'z bilan aytganda

A.F.Lazurskiy ekspremental psixologiya sohasida o'z yo'nalishini ilmiy asoslab bergan olimlar sirasiga kiradi.



Pavel Petrovich Blonskiy (1884-1941).

P.P.Blonskiy mashhur rus psixologlaridan biri, psixologiya fanida o'ziga xos ilmiy yo'nalishga ega bo'lgan olimdir. P.P.Blonskiy 1884-yilning 16-avgustida Rossiya tavallud topgan. O'z ilmiy faoliyati jarayonida xotira muammosi va uni o'rganishga katta e'tibor berib, bir qator ilmiy monografiyalar, ilmiy asarlar yaratdi. Tadqiqotchi ko'proq bolalar va kattalar xotirasi va undagi fenomenal faqrlar, xotiraning psixologik mexanizmlarini kabi masalalarni ko'proq o'rganishga harakat qilgan. Xotira shaxs faoliyatining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, uning roli o'tmishda yuz bergan narsa va xodisalarni aks ettirish bilan cheklanib qolmasdan, balki ham hozirgi, ham kelgusida amalga oshiriladigan rejalarining ro'yobga chiqishini ta'minlaydi. P.Blonskiy fikricha, tabiatda va jamiyatda namoyon bo'ladigan har qanday toifadagi ruhiy xodisa o'zining tarkibiga kiruvchi har bir qismni muayyan tartibda o'zaro bog'langan tarzda saqlash qolinishini talab etadi. Turli ko'rinishga ega bo'lgan "bog'lanish"ga imkoniyat yoki shart - sharoit vujudga kelmasa, u holda rivojlanish to'g'risida so'z ham bo'lishi mumkin emas, chunki, I. M. Sechenov iborasi bilan aytganda, kishi "chaqaloqlik holatida" mangu qolib ketgan bo'lar edi. Yosh pedagogika va pedalogiya haqidagi ko'pgina izlanishlar ham uning ijodiga ta'luqlidir. U bola xotirasini o'rganishda to'g'ri yondoshish g'oyasini ilgari surgan. P.P.Blonskiy xotiraning filogenetik rivojlanishi muammosi va uni o'rganishga katta hissasini qo'shgan olimdir. Uning fikricha, ontogenezda xotiraning barcha turlari juda erta tiklanadi va uning aniqlik darajasi past bo'ladi, keyinchalik mantiqiy xotira tiklanadi va ish faoliyatini boshlaydi. P.P.Blonskiy "Pedagogiya", "Xotira va uning bolalik davrida rivojlanishi", "Bolada tafakkurning rivojlanishi" (1935 y.), "Xotira va tafakkur" nomli asarlarini yaratgan (1935 y). Bundan tashqari P.P.Blonskiy insonda fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun bir qancha ilmiy psixologik ishlanmalarni ishlab chiqqan. Uning tajribalari shuni ko'rsatadiki, esda olib qolish u yoki bu faoliyatdagina samarali bo'lish mumkin. Tadqiqot natijalariga qaraganda, insonga ikki xil faoliyat taklif qilinsa, birinchi holatda ma'noli matnni esda olib qolish nazarda tutiladi. Sinaluvchilar matnni yodlar ekanlar, materiallar ustida hech qanday faol ish olib bormaganlar. Ikkinchi holda esa esda olib qolish vazifasi qo'yilmaydi-yu, lekin matn ustida muayyan ish olib borish, unda

uchraydigan ma'noviy xatolarni aniqlash taklif etiladi. Ikkinchi holda esda olib qolish ancha samarali bo'lganligi aniqlangan.

P.Blonskiy xotira haqida fikr bildirar ekan, quyidagi fikrlarni qayd etadi, "ushbu fenomen jarayon psixologiya fanining chuqur tadqiq qilingan jarayonlaridan biri bo'lib hisoblansa-da, lekin fan va texnikaning taraqqiyoti ko'p jihatdan xotira muammolarining o'rganilishiga bog'liqdir. Xotira qonuniyatlarini ochish, "aqliy" va "sun'iy intellekt"li mashinalar mahsuldorligini oshirish, sifat darajasini ko'tarish uchun keng xizmat qiladi.

Hozirgi davrda olib borilayotgan ilmiy-tekshirish ishlari esda olib qolish, esga tushirish mexanizmlari va kognitivistik nazariyalarga bag'ishlangan. Lekin jahon psixologiyasi fanida assotsionizm, geshtaltizm, bixeviorizm, freydizm kabi ko'plab yo'nalishlar mavjud bo'lishiga qaramasdan, hanuzgacha xotiraning yagona va tugallangan nazariyasi ishlab chiqilmagan. P.Blonskiy o'z tadqiqotlaridan kelib chiqib, xotiraning mahsuldorligi ma'lumotini o'zlashtirish jarayonida, xotirlash natijasida unutish sekinlashib boradi. Muvaqqat asab bog'lanishlari susayishi natijasida qachonlardir sodir bo'lgan narssa va hodisalarning o'zaro aloqalari xotirada asta-sekin yo'qolib boradi. Matn ma'nosining noma'lumligi unga nisbatan qiziqish, bilishga intilish, mazmunini izlashga talabchanlik uyg'otadi. P.Blonskiyning nazariy qarashlari hozirga qadar xotira borasidagi fikr-mulohazalarga ilmiy nazariy asos bo'lib kelmoqda.



Simirnov Anotoliy Aleksandrovich (1894-1980). Mashhur rus psixologi hisoblanadi. U bilish jarayonlariga kiruvchi xotirani psixologik xususiyatlarini ilmiy ochib bergan. A.A.Simirnov xotira psixologiyasi sohasining yirik mutaxassisi bo'lib hisoblanadi. Bundana tashqari A.A.Simirnov umumiy psixologiya, yosh davrlar psixologiyasi, pedagogik psixologiya hamda psixologiya tarixi fanlari taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan mutaxassisdir. U 1945-yildan 1972 - yilgacha Rossiya Pedagogika fanlari Akademiyasining Psixologiya Institutini boshqargan. Uning umumiy psixologiyaga oid tekshirishlari jarayonida ixtiyorsiz va ixtiyoriy eslab qolish orasidagi xotira va tafakkur orasidagi o'zaro aloqalarni topgan. Ixtiyoriy eslab qolishning xarakteri sub'yektning faoliyat tarkibiga bog'liqligini tajribalarda isbotlagan. A.A.Simirnov 1948-yilda xotirani tajribalarda tekshirish natijalarida uning "Eslab qolish psixologiyasi", 1966-yilda "Xotira

psixologiyasi” asarlarida keng qamrovligi va ilmiyligi bilan ajralib turadi.



Leontov Aleksey Nikolaevich (1903-1979)

Mashhur rus psixologi 1920 - yillar oxirida Vigotskiy bilan birga hamkorlikda madaniy-tarixiy konsepsiya g'oyalarini amaliyotda qo'llab, oliy psixik funksiyalarni o'rganuvchi qator tajribalar olib borgan (ixtiyoriy xotira va xotira jarayonlari).

U 1930 - yillar boshida Harkov faol maktabini boshqargan va faoliyat masalasini nazariy va eksperimental ishlab chiqishga dastlabki qadamni qo'ydi. Natijada hozirgi zamon psixologiyasida tan olingan nazariy yo'nalishlardan biri bo'lgan faoliyat konsepsiyasini ilgari surgan. Dastlab u, L.Vigotskiy yo'lidan boradi. Keyinchalik esa, Basovning faoliyat morfologiyasi haqidagi g'oyalariga yuksak baho beradi. U faoliyati tashkil etilishi va darajalarda o'zgarishi borasidagi o'z shemasini taklif etadi: ya'ni bu jarayon faoliyat hayvonot dunyosi evolyusiyasi, kishilik jamiyati tarixi, shuningdek insonning individual rivojlanishida yuz beradi. ("Problemi razvitiya psixiki" 1959 yil).

Leontev fikricha, faoliyat – alohida butunlik. U o'z ichiga tuzilmaviy komponentlarni oladi: faoliyat, haraktalar, operatsiyalar, psixofiziologik funksiyalar. Faoliyat tuzilmasi komponentlariga motivatsion soha komponentlari mos keladi: motiv, maqsad, sharoit, shuningdek ong komponentlari – ma'no, ahamiyat, "hissiy to'qima". Ularni ajratib ko'rib bo'lmaydi.

Psixologiyada A.N.Leontev kiritgan faoliyat tuzilishi asosida yangi psixologik sohalarga asos bo'lgan barcha psixik hodisalar o'rganilgan. Psixologiya borliqning faoliyat jarayonida psixikada aks etishi, paydo bo'lishi va tuzilishi haqidagi fan deb qaralishi yuqoridagi konsepsiyaning mantiqiy davomi deb qaralgan.

A.N.Leontev faoliyatning psixologik nazariyasini yaratib, uning asosiy tushunchasi sifatida "predmetli faoliyat" so'z birikmasini fanga olib kirdi. Muallif tomonidan "odamning hissiy amaliy faoliyati" so'z birikmasi "ijtimoiy inson" sifatida talqin etiladi. Uning asarlarida "faoliyat", "xulq" tushunchalari har xil mazmunda ishlatiladi, jumladan, "teskari aloqalar vositasida xulqni boshqarish", "faoliyatning xalqali tuzilishi", "faoliyatni boshqarish", "qo'lning tuyush faoliyati", "persektiv faoliyat", "retseptor va effektorlar apparatlarning hamkorlik faoliyati" kabilar.

A.N.Leontevning fikricha, faoliyatning tuzilishi: maqsadga qaratilgan xatti-harakatlar va operatsiyalardan iboratdir. Odatda faoliyat o'zining predmeti va motiviga ega bo'lib, agarda motiv bilan predmet (jism, narsa) o'rtasida mutanosiblik (moslik) vujudga kelsa, demak shundagina u tub ma'nodagi faoliyatga aylanadi. Masalan, bir talaba imtihondan (reytingdan) o'tish uchungina birlamchi manbalarni o'qiydi, lekin boshqasi esa o'zini tekshirish va haqiqiy bilimlarni egallash uchun dars tayyorlaydi. Birinchi holatda talaba yoki o'quvchida motiv imtihonga qaratilgan bo'lib, o'quv predmeti mazmuni bundan mustasnodir, huddi shu boisdan uning faoliyati faqat xatti - harakatlar tizimidan iboratdir, degan xulosa chiqarishga imkon beradi. Ikkinchi holatda esa motiv o'quv predmetini o'zlashtirishga qaratilganligi sababli uning intilishi faoliyatiga o'sib o'tadi, degan fikrga kelishga kafolat beradi.

A.N.Leontev, tomonidan turli jabhalarda tadqiqot qilingan. Interiorizatsiya sharofati bilan inson psixikasi muayyan vaqt oralig'ida uning idrok maydonida yo'q narsalarning timsoli (obrazi)dan foydalanish qurbiga ega bo'ldi. Shu narsa ma'lumki, bunday o'zgarishlarning muhim quroli bo'lib so'z, o'zgarish vositasi sifatida nutqiy faoliyat xizmat qiladi. Shuning uchun so'zlarni to'g'ri ishlatishga odatlanish favqulodda buyumlarning muhim xususiyatlarini axborotidan foydalanishning usullarini o'zlashtirish demakdir.



Luriya Aleksandr Romanovich²⁰ (1902-1977).

Rus psixologi, u 1902-yil 16-iyulda Qozon shahrida vrachlar oilasida dunyoga keldi. Psixologiyaning turli jabhalaridagi muammolar bilan shu qo'llangan. Rus neyropsixologiyasi asoschisi. Psixologiya va meditsina fanlari doktori, professor, 500 dan ortiq ilmiy ishlar muallifi.

Vigotskiy bilan birga oliy psixik funksiyalar rivojlanishining madaniy-tarixiy konsepsiyasini yaratish ustida ish olib borgan va natijada 1930 yilda Vigotskiy bilan birga "Xulq - atvor tarixidan lavhalar" asarini yozgan. 1920 yillarda insonning affekt holatlarini tekshirish jarayonida affektiv komplekslarni tahlil qilishga mo'ljallangan, bog'langan motor reaksiyalarining psixofiziologik uslubikasini yaratgan. O'rta Osiyoga ko'plab ekspeditsiyalar

²⁰ Hergenhahn B.R. Tracy B. Henley An Introduction to the History of Psychology. – 2014 Wadsworth, Why Study the History of Psychology. 373- p.

uyushtirgan va qatnashgan. Bu ekspeditsiyalarda to'plangan material asosida odam psixikasidagi madaniyatlararo farqlarni umumlashtirib ko'rsatgan.

Luriyaning psixologiya fani taraqqiyotiga qo'shgan hissasi neyropsixologiyaning nazariy asoslarini ishlab chiqishi bo'lib, bu uning oliy psixik funksiyalarining sistemali dinamik lokalizatsiyasi va uning miya jarohatlangandagi buzilishlari haqidagi nazariyasida aks etilgan.

Luriya nutq, idrok, diqqat, tafakkur, ixtiyoriy harakatlar va faoliyat neyropsixologiyasi bo'yicha ilmiy ishlar olib borgan.

A. R. Luriyaning fikricha, intererretseptiv sezgilar asl, tub ma'nodagi sezgilar emias, balki emotsiyalar bilan sezgilar o'rtasidagi oraliq sezgilar sifatida namoyon bo'ladi. Psixologiya fanida mazkur sezgilarning sub'yektiv ravishda paydo bo'lishi etarli darajada chuqur o'rganilmagan, huddi shu bois ular "noma'lum hislar" doirasiga kiritilgandir.

Ular to'g'risidagi bilimlar bilan tanishish, o'zgarib borishlarini tekshirish "kasalliklarning ichki manzarasi"ni ifodalab berishda muhim rol o'ynashi mumkin. Ichki organlarning xastaligida vujudga keluvchi mazkur holatlar ichki kasalliklarni diagnostika qilishda alohida ahamiyat kasb etishi turgan gap.



Boris Gerasimovich Ananov (1907-1972).

1907-yil 1 avgustda Vladikavkaz shahrida tug'ilgan. Vaqti kelib, Leningrad Davlat Institutida ruhiyatni o'rganish bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi. Ananov Rossiyada birinchi bo'lib "Psixologiya" maktabini yaratdi.

Olim 1935-yil "Pedagogik bahoning psixologiyasi" nomli monografiyani yozdi. 1947-yilda esa "XVIII-XIX asrda rus psixologiyasi tarixining ocherki" nomli monografiyasini yozdi.

Ananov urush yillarida "Rus psixologiyasi an'anasining boshlanishi", "K.D.Ushinskiy - ulug' rus psixologi", "Xususiyat ishohatlarining muammolari" nomli asarlarini yaratdi. 1957 - yil 50 yoshida "Inson - zamonaviy fanning muammosi" nomli hamda "O'smirlik psixologiyasining to'zilishi" haqida asarlarini yaratdi.

U asarlarida birinchi asosiy e'tiborni yoshi katta insonlardagi psixofiziologik funksiyaning asosiy dinamikasini ko'rsatib o'tdi. U o'zining ko'p yillik faoliyati davomida inson shaxsini o'rganishga asosiy e'tibor qaratganligi tufayli mazkur tadqiqotlarni

umumlashtirish maqsadida 1962-1966 yillarda "Inson bilish predmeti sifatida" nomli kitobi ustida ishladi.

Ananev psixikani o'zganish uslubikasini to'rt guruhga ajratib ularni tashkiliy, empirik, natijalarni qayta ishlash yoki statistik, ya'ni natijalarni sharxlash usublari deb nomlagan. Bu guruhlar maqsadi va vazifalriga binoan bir necha turlarga bo'linadi.

Tadqiqot uslublarining birinchi – tashkiliy guruhiy o'z ichiga qiyoslash, longityud (uzliksiz), kompleks (ko'pyoqlama), deb ataladigan turlari.

Ikkinchisi - empirik uslublardan iborat bo'lib, bu guruhlarga kuzatish, eksperiment, test, anketa, so'rovnomma, sotsiometriya, suhbat kabilar kiradi.

Uchinchisi - tajribalardan yig'ilgan natijalarni qayta ishlashga mo'ljallangan bo'lib, ular statistik va psixologik tahlil turlariga bo'linadi.

To'rtinchisi – sharhlash guruhiy genetik va donalash uslubolaridan iborat

B.G.Ananev faoliyat psixologiyasini faollik psixologiyasi ma'nosida tushunadi. Uning fikricha, bilish va muomala faoliyatning birlamchi ko'rinishidir. Tadqiqotchi "inson faoliyati", "tashkiliy ish", "tashkilotchilik faoliyati", "xulq jarayonining algoritmlari" atamalaridan har xil ma'noda foydalanadi. 1962 yil mamlakatda birinchi bo'lib ijtimoiy psixologiya laboratoriyasini ochilishiga o'z hissasini qo'shdi.

Olim tomonidan quyidagi ilmiy dasturlar yaratildi:

- 1) Inson biologik mavjudot sifatida;
- 2) Insonning individ sifatida ontogenezdagi rivojlanishi;
- 3) Insonni shaxs sifatida o'rganish;
- 4) Insoniyat muammosi;

Ananev inson rivojlanish yo'nalishini qo'yidagilarga ajratadi:

1. Individ;
2. Shaxs;
3. Individuallik;

Bir so'z bilan aytgan Ananev Rossiya psixologiya maktabi qolaversa johon psixologiya fani taraqqiyotiga juda katta hissa qo'shgan.

Boris Fedorovich Lomov (1927-1989). Rus psixologi sanalib, u 1927 - yil 28 - yanvarda



Rossiyaning Gorkiy shahrida tug'ilgan. 1959 - yil mamlakatda birinchi bo'lib injenerlik psixologiyasi laboratoriyasini tashkil qilgan. "Psixologik jurnal"ning bosh muharriri hamda "Voprosi psixologi" jurnalida tahririyat a'zosi bo'lib ishlagan. 1968 - yildan 1983 - yilgacha Rossiya psixologlar jamiyatini boshqargan. Psixologiyaning umumiy nazariy muammolarini kompleks yondoshuv asosida o'rgangan. B.Lomov injenerlik psixologiyasi asoschilaridan biri. U psixologiya fanining uslubologik-nazariy muammolariga alohida e'tibor qaratadi., jumladan psixologiyaning kategorial apparatini tahlil qilishga, psixologik bilimlar ichki birligi va tuzilish tizimini ochib berishga, uning holatlari va rivojlanish tendensiyalariga, psixologik nazariyalarni qurish yo'llarini aniqlashga, psixologiyada nazariya, eksperiment va amaliyot o'zaro aloqadorligini tadqiq etgan.

Asosan, muhandislik psixologiyasi va bilish jarayonlari psixologiya sohalarida ilmiy tadqiqot olib borgan. Uning asosiy asarlari: 1959-yil "O'quvchilarda grafik bilim, malakalarni shakllantirish", "Bilish jarayonlari va mehnatda hid bilish", Lomovning asosiy ilmiy tadqiqotlari "Inson-texnika" tizimidagi o'ziga xos xususiyatlarni muxandislik faoliyatining muammolarini, xususan asabiy toliqishning mehnat samaradorligiga ta'siri, professiogrammalarini tuzish kabi muammolarni chuqur o'rgangan. B.F.Lomov faoliyatni tahlil etishning umumiy psixologiyada qabul qilingan shemasini ko'rib chiqib, bu faoliyatni bajaruvchi shaxsning boshqa shaxslar bilan hamkorligi boshqacha qurilishi zarurligini ta'kidlab o'tadi. Yakka shaxs faoliyatining psixologik tahlili faoliyat sub'yektining boshqa odamlar bilan aloqasini mavhumlashtiradi. Lekin bu mavhumlashtirish nihoyatda muhimligidan qat'i nazar, o'rganilayotgan hodisalarni bir tomonlama yoritish imkonini beradi. O'qituvchi va o'quvchining hamkorlikdagi faoliyatiga doir tadqiqotlarda, asosiy e'tibor o'zaro munosabatning rivojlanishini o'rganishga qaratilgan, o'qitishni guruhli tashkil qilish jarayoni bayon qilingan.

B.G.Ananev bilan birga Leningrad universitetida psixologiya fakultetini ochadi, bir necha yillar mobaynida dekan vazifasida xizmat qiladi. Uning ishlarining ko'pchiligi umumpsixologik muammolarni o'rganishga qaratilgan. U muomala psixologiyasi bo'yicha ("Obshenie i poznanie" 1984 yil) juda ko'p g'oyalarni ilgari suradi.



V.D.Nebilitsin (1930-1972). Sobiq sovet psixologiyasi vakillaridan biri hisoblanadi. O'sha yillarda inson psixikasi yuzasidan loyabatoriya sharoitida tajribalar o'tkazish ma'lum bir ma'noda rivojlangan edi. V.D.Nebilitsin psixologiya fani sohasida fiziologiya fanini tajribalariga tayanib, psixik jarayonlar ustida eksprementlar o'tkazgan. Ularning o'zaro muvofiq harakatlari ichki psixofizialogik mexanizmlar, fiziologik qonunyatlar, ob'yektiv va sub'yektiv shart-sharoitlar, omillar, negizlar, man'balar ta'siri ostida yuzaga keladi, ko'pincha insonning irodasidan tashqarida O'sha yillar orasida Nebilitsin tomonidan inson asab sistemasining ishlov tajriba qo'llanmasini o'ylab topgan.

Unga tegishli bo'lgan asosiy izlanish asab sistemasining insonlar xarakterida bir-biridan farq qilishi va ajralib turishidir. Psixofizialogiya deb atalgan fanning taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan olim hisoblanadi. Bundan tashqari differensial spihologiya deb atalgan termini 1963 yilada V.D.Nebilitsin tamonidan fanga kiritilgan. Psixofizialogiyasi ikkita asosiy tadqiqot yo'nalishi mavjud. 1. mustaqil amaliy tadqiqodlarda olingan fiziologik va psixologik natijalarni solishtirish, qiyoslash. 2. biron-bir faoliyatda fiziologik funksiyalar o'zgarishini o'rganish masalasidir.

Mavzu yuzasidan tayanch tushunchalar:

Birinchi va ikkinchi signallar sistemasi, prinsip, Bosh miya, Refleksalogiya, Ustanovka, Psixofizialogiya, Fiksial ustanovka, Konformizm, Dominanta, determinizm, biogenetik nazariya, sotsiogenetik nazariya, Reflektor doira.

Nazorat savollari:

1. P.Pavlov tajribasining psixologiya fani taraqqiyotidagi o'rni?
2. V.Behterev laboratoriyasidagi dastlabki tajribalar?
3. Uznadze ta'limotida ustanovka hislatlari?
4. B.Teplov defferensial psixologiya ilmiy maktabi asoschisi sifatida?
5. S.Rubinshteyn psixologiya fani taraqqiyotidagi o'rni?
6. G.CHelpanov eksperimental psixologiyaga kirish asari hususida?
7. L.Vigotskiy bo'yicha yosh davrlari?

8. Reflektor doira g'oyasi muallifi?
9. Birinchi laborotoriya uslubi asoschisi?
10. A.Leontov bo'yicha faoliyat irarhiyasi?

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T., Ma'naviyat, 2008.
2. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: O'zbekiston, 2011.
3. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T.: O'zbekiston, 1997.
4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston-NMIU, 2017.
5. Mirziyoyev Sh.M. Erikn va farovon, demoktarik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majilisdagi nutq. – T.: O'zbekiston-NMIU, 2017.
6. Hergenhahn B.R., Tracy B. Henley "An Introduction to the History of Psychology". – 2014 Wadsworth, Cengage Lyerning.
7. Ярашевский М.Г. История психологии. – М., 1997.
8. Ждан Н.Ж. История психологии. – М., 1995.
9. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. – T., 2010.
10. G'oziyev E.G'. Psixologiya metodologiya. – T., 2013.

TO'RTINCHI BO'LIM.
O'ZBEKISTONDA PSIXOLOGIYA FANI UNING TARIXI VA
XOZIRGI ISTIQBOLI

V QISM. O'ZBEKISTONDA PSIXOLOGIK
MAKTABLARNING VUJUDGA KELISHI

I BOB. PSIXOLOGIYA FANI O'ZBEK OLIMLARI
SIYMOSIDA

1.1. Milliy psixologiyaning paydo bo'lishi

O'zbek xalqining ruhiyati, mintaliteti va ta'lim - tarbiya soxasidagi tajribasi juda boy. Psixologiya tarixi fani o'zbek xalqining umummiy ruhiyati asosida, ta'lim va tarbiyaga oid fikrlarni o'zlashtirishga va avlodlarimiz qoldirgan boy psixologik manbalarni o'rganishga xizmat qiladi. Xalqimizning boy madaniy - ma'naviy merosi yosh avlod tarbiyasida mustaxkam poydevor vazifasini o'taydi.

Psixologiya tarixi turli tarixiy davrlarda insonlarning ruhiy dunyoqarashi, tarbiyasi taraqqiyotini davrlar talabi asosida o'rganib keldi. Har bir ijtimoiy tuzum, insoniyat istiqboli, kishilarning hayot va turmush darajasi fan va madaniyat taraqqiyoti bilan bevosita bog'liqdir. Bundan juda ko'p yillar ilgari ibtidoiy jamoa tuzumi vujudga kelgach, O'rta Osiyoda ishlab chiqarish kuchlari rivojlanib bordi. Jamoa a'zolari o'zlari uchun zarur bo'lgan oddiy ishlab chiqarish qurollarini yasay boshladilar. Jamoada muhim hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan ishlarni ayollar bajaradilar.

Bola tarbiyasining psixologik jabhalari va hayotiy muhim ishlar ayollarga topshirildi, shu asosda jamoada ayollarning mavqei ortdi. Keyinchalik jamiyatda ishlab chiqarish qurollarining mukammallashib borishi bilan jamoada mehnat taqsimoti o'zgardi. Erkaklar asosan chorvachilik, ov bilan bog'liq bo'lgan ishlarni bajaradilar va bora-bora iqtisodiy hayotda ular etakchi o'rinni egalladilar. Ibtidoiy davrdagi tarbiyaning psixologik ko'rinishlari asosan oilada, jamoa va mehnat maskanlarida kishilar orttirgan tajribalarni bolalarga o'rgatishdan iborat bo'lar edi. Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida kishilar mehnat jarayonida, borliqdagi narsalar va xodisalarga munosabatlari asosida o'z dunyoqarashlari va ruhiyatiga tayanib xalq og'zaki ijodi asarlarini yaratganlar. Ularning bir - biriga, atrof - muhitga munosabatlari haqidagi ilk fikrlar, mifologik asarlar timsoli bo'lmish

"Avesto"da ifodalangan. Undagi ma'buda va ma'budlar orqali ajdodlarimiz insonlarga yaxshilik qilish, erlarni obod qilish, ekin ekish, tabiatni asrash hususidagi mulohazalarini bildirganlar.

Jamiyatda ishlab chiqarishning rivojlanishi natijasida xususiy mulkchilik paydo bo'ldi, turli xildagi xo'jaliklar shakllana boshladi. Dehqonchilik, chorvachilikning taraqqiy etib borishi, ayrim jamoa, urug' oila xo'jaligida qo'shimcha ishchi kuchiga muxtojlik sezilishi oqibatida quldorlik, turli din va qoidalar paydo bo'ldi. O'rta Osiyo hususan bizning o'lkamizda dinning paydo bo'lishi psixologik qarashlarning rivojlanishiga sabab bo'ldi. Quldorlik tuzumi davrida va feodolizmning boshlarida yaratilgan "To'maris", "Shiroq", "Siyovush", "Rustam" kabi qahramonlik dostonlarida mehnatsevarlik, vatanparvarlik, fidoyilik kabi ijobiy ruhiy fazilatlar tarannum etilgan. Bu asarlarda insonni yoshligidan aqliy va jismoniy jihatdan tarbiyalab, matonatli, ajdodlar an'anasiga bo'ysunadigan, axloqan pok va ruhan barkamol qilib kamol toptirish masalalariga alohida e'tibor berilgan.

Eramizdan oldingi IV asr boshlarida ijtimoiy hayotda ziddiyatlar bo'lishiga qaramay, O'rta Osiyoda ilm - fan, madaniyat sohasida rivojlanish bo'ldi, tabiiy fanlarni rivojlantirishga e'tibor qaratildi. Eramizdan oldingi ikkinchi ming yillikda O'rta Osiyoni Xitoy va Yaponiya kabi mamlakatlar bilan bog'lagan "Buyuk ipak yo'li" faqat savdo emas, balki siyosiy - ijtimoiy va madaniy aloqa yo'li bilib ham xizmat qilgan. O'sha davrlarda O'rta Osiyo xalqlari o'rtasida o'rnatilgan madaniy aloqalar, o'zbek xalqining umummilliy ruhiyatiga oid fikrlar keyinchalik yanada rivojlanib kengayib bordi. Psixologiya tarixi jamiyat taraqqiyoti qonunlariga suyangan holda turli psixologik nazariyalarni o'rganadi.

O'tmishda bo'lgan ilg'or fikrlarning hammasidan ijodiy foydalanadi. Psixologiya tarixi, tarixiy psixologik hodisalariga davr talabi asosida yondashadi va inson ruhiy olamidagi o'ziga xosligini ochib beradi.



Zardushtiylik ta'limotidagi psixologik qarashlar VI asrlardan boshlab O'rta Osiyo xududida Zardushtiylik dinining ta'siri kuchaydi. Zardushtiylik dini xalq psixologisi, ijtimoiy - siyosiy tuzumi, madaniyati, urf - odati, kabi masalalarni aks ettirdi, o'z davri ma'naviyatining muhim yo'nalishini belgiladi. Zardushtiylik - dunyoviy dinlar orasida eng qadimgisi bo'lib insoniyat taraqqiyotiga bevosita va bilvosita juda

katta ta'sir ko'rsatgan. Shuning uchun uni o'rganish, zardushtiylik g'oyalarini tadbiq etish insoniyat ma'naviy dunyosi shakllanishi va ravnaqi haqidagi tasavvurlarni boyitadi va kengaytiradi. Zardushtiylik bo'yicha to'rt tomlik asar muallifi Meri Boys ham otashparastlar dinining muqaddas kitobi "Avesto" qadimgi Xorazm vohasida paydo bo'lganini qayd etadi.

Zardushtiylikda "yaxshi" va "yomon" xodisalar haqida gap boradi. Axura - mazda o'zining yaxshilikka asoslangan erini (mamlakatini) barpo etsa, Anxra Manu (Axrimon) yomonlikka asos soladi. Ana shu tariqa yaxshilik va yomonlik, yorug'lik va zulmat, hayot va o'lim o'rtasidagi abadiy kurash paydo bo'ladi. Zardushtiylikda ekin erlarni ko'paytirish shudgor qilingan joylarni asrab - avaylash uni muqaddas hisoblab sajda qilish shaxsiy nizom tusini olgan. Olovga sig'inish, er va olov xudosi Mitraga, yaylov xudosi Romanoga ibodat qilish, uy - joy qurish, uni olov bilan, uy hayvonlari, bola - chaqa bilan to'ldirish, o'simlik va daraxt ko'paytirish, yerni parvarish qilish zardushtiylik dinining asosini tashkil etgan.

Zardushtiylik ta'limotining qonun - qoidalari, zardushtiylik dinining muqaddas kitobi bo'lgan "Avesto"da o'z ifodasini topdi. Sharqning birinchi faylasufi, donishmandi, Markaziy Osiyo va Eron xalqlarining islomgacha bo'lgan zardushtiylik dinining asoschisi Zardusht eramizdan oldingi VII asrda yashagan. Xorazm hokimligiga qarashli Spitama urug'idan bo'lgan. Ular chorvachilik bilan shug'ullanganlar. Zardusht bolaligidan ot, tuya boqish bilan shug'ullangan, chorvador urug'larning urf-odatlarini, dinini chuqur o'rgangan. Urug'dagi dindor kishilar bilan ko'p suhbatlashgan. Qadimda dinda ko'pxudolik mavjud bo'lgan va ota-bobolarimiz unga oid rasm-rusumlarni bajarganlar. Har bir qabila o'z xudoriga qurbonlik qilgan. Ko'p qurbonliklar natijasida qabilalar orasida urushlar ham avj olib ketgan. Buni tushunib etgan zardusht yigirma yoshida o'zining nor tuyasiga minib qishloqqa - qishloq, shahar - shahar kezib, yakkaxudolik g'oyasini ilgari suradi. O'n yil deganda yagona xudo - Axuramazdani yaratadi, urug'chilik e'tiqodlariga qarshi yakkaxudolik g'oyasini targ'ib qilishni asosiy maqsad qilib qo'yadi. U o'z oilasini (uch o'g'il, uch qiz) xavf ostida qoldirib bo'lsada, bu yo'lda fidoyilik ko'rsatadi. Bu ishda u xalq she'riyatidan ustalik bilan foydalanadi. Zardusht ta'limoti tobora keng tarqalayotganini sezgan muholiflar unga qarshi kurash boshlaydilar. Hayoti xavf ostida qolgan

Zardusht Eronga qochib o'tishga majbur bo'ladi va o'zining ta'limotini o'sha erda davom ettiradi. Zardusht Eron shohi Vishtaspning e'tiborini qozonadi.

Shoxning farmoniga ko'ra Zardusht 1200 bobdan iborat "Avesto"ni oltin taxtachalarga yozib unga topshiradi va shoh Vishtasp Zardushtning tarafdoriga aylanadi. Bu haqda xabar topgan shoxning akasi Arjasp unga qarshi urush boshlaydi. Lekin, bu jangda Arjasp mag'lub bo'ladi va halok bo'ladi. Natijada Arjaspqa qarashli bo'lgan erlar ukasiga o'tadi va zardushtiylik dini bu joylarda ham tarqala boshlaydi.

Vishtaspning farmoniga ko'ra juda ko'p ibodatxonalar quriladi. Ulardan eng kattasi Balx shahrida barpo etiladi. Shu ibodatxonalardan birida Zardusht ibodat qilayotgan paytida u, Arjaspning sodiq navkari tomonidan o'ldiriladi. Zardushtning ta'limoti, uning vafotidan so'ng ham o'z kuchini yo'qotmadi va islom dini majburan qabul qildirilgunga qadar davom etdi. Hozirgi kunda ham Xindiston va shimoliy Eronda zardushtiylik dini o'z kuchini yo'qotmagan.

Zardushtiylik rivoyatlarga to'lib toshgan bo'lishiga qaramay har narsada insonparvarlikni, tinchlik va bunyodkorlikni birinchi o'ringa qo'yishi bilan ajralib turadi. O'zbek xalqining psixologik qarashlarini tarixiy taraqqiyotini ushbu ta'limotda ko'rishimiz mumkin. Ushbu yo'nalish Markaziy Osiyo xalqlarini ruhiy olamini o'rganishda manba vazifasini o'taydi. U insoniyat tarixida, xususan, O'zbekiston xalqlari tarixida buyuk ma'naviy meros sifatida benazir ahamiyatga egadir.



"Avesto" zardushtiylik dinining muqaddas kitobi Mustaqillik tufayli yurtimizda o'tmishda kechgan davlatchilik taraqqiyoti ijtimoiy - siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy hayotni atroflicha tahlil va tadbiiq etish imkoniyati vujudga keldi. "Eng mo'tabar, qadimgi qo'lyozmamiz "Avesto"ning yaratilganiga 3000 yildan oshdi, - dedi birinchi prezidentimiz I.A.Karimov tarixchi olimlar bilan uchrashuvida. Bu nodir kitob bundan XXX asr muqaddam ikki daryo oralig'ida, mana shu zaminda umrguzaronlik qilgan ajdodlarimizning biz avlodlariga qoldirgan ma'naviy, tarixiy merosidir".

"Avesto" ayni zamonda bu qadim o'lkada buyuk davlat, buyuk ma'naviyat, buyuk madaniyat bo'lganidan guvohlik beruvchi tarixiy hujjatdirki, uni hech kim inkor etolmaydi". "Avesto"ni kim tomonidan yaratilganligi ma'lum emas. "Zardushtnoma" dostonida Avestoni

Zardusht dunyoga keltirganligi, uning tug'ilgani va keyingi hayoti haqidagi kitob ekanligi bayon etiladi. "Avesto" umuman koinot va zamin, inson va hayot, ilm va abadiyot singari butun insoniyatga mushtarak jumboqlar, savollar haqida xikoya qiladi.

"Avesto"da dunyoning yaratilishi, insonning kamol topishi, ezgulik uchun yovuz kuchlar bilan kurashi, erkinlik, ijodkorlik va bunyodkorlik yo'lidagi orzulari o'z ifodasini topgan. "Avesto" faqat odamninggina emas, balki bir xovuch tuproq, bir qultum suv, bir nafaslik havoning ham muqaddas ekanligi haqidagi kitob.

"Avesto" yerning, daryolaru - bog'lar, tog'laru-buloqlar, ko'lu-saxrolar, otu-tuyalar uyuri, o'simligu giyohlarni bunyod etish tarixiga doir asardir. Tarixdan ma'lumki, Aleksandr Makedonskiy O'rta Osiyoga yurish qilgan davrda bu erda yuksak sivilizasiya mavjud edi. Bu taraqqiyot turli bosqichlar oqibatida ming yillarga to'xtatib qo'yilgandi.

Xaqiqatda, Avestoga qarshi xujum Aleksandr Makedonskiy davridayoq boshlangan edi. Abu Rayxon Beruniy bu haqida shunday deb yozadi: "Podshox Doro ibn Doro xazinasida o'n ikki ming qoramol terisiga tillo bilan bitilgan bir nusxasi bor edi. Aleksandr Makedonskiy otashxonalarni vayron qilib, ularda xizmat etuvchilarni o'ldirgan vaqtda uni kuydirib yuborgan".

Zardushtiylik ta'limoti va uning muqaddas Avesto kitobi ham yondirib yo'q qilib yuborilgan. Uzoq tariximiz va ma'naviy merosimizning bu noyob yodgorligi keyingi asrlardagi paxlaviy, fors tillaridagi talqini asosidagina bizgacha etib kelgan.

Zardushtiylik zamoni va undan keyingi o'tgan davr ichida xalqimiz ruhiyati va tasavvuridagi ayrim o'xshash jihatlar, haqiqatda tarixiy xalq xotirasi ekanligidan dalolat beradi. Masalan, yana bir narsaga e'tibor beraylik: Avestoning hozircha ma'lum nusxalarini olimlar 21 ta kitob (qism)dan iborat demoqdalar. Ulardan etti kitob Xudolar, koinotning paydo bo'lishi va insoniyat tarixiga doir, keyingi 7 kitob ibodat masalalari, ruhiyat, din dasturlari, xalqning yashash tarzini ifoda etadi, oxirgi 7 kitobda tibbiyot, astronomiyaga oid ma'lumotlar jamlangan. Tavsif va ilovalar esa rivoyatlar deb atalgan.

Xalqimiz hozir ham 7 raqamiga o'zgacha qaraydi. "Etti o'lchab bir kes" maqoli bunga yorqin misoldir. Avestoga doir ma'lumotlar, uning ayrim boblari, birinchidan, zardushtiylikning qadimdan tarkib topib, uzoq vaqt juda ko'p xalqlarning diniy qarashi sifatida

shakllangan bo'lsa, ikkinchi tomondan, bizgacha etib kelgan Avesto bo'laklarini ham asl nusxasi bilan mushtarak deb bo'lmaydi.

Necha zamonlar, mamlakatlar va xalqlar tasavvurida ardoqlangan, to'ldirilgan va qayta bunyod etilgan parchalar bizga aniq tarixiy ma'lumotlar bermasada, o'tgan bobokalonlarimiz dunyoqarashi, ongi va hayot tarzidan hikoya qilish bilan qimmatlidir.

Avestoda rivoyat qilinadigan voqealar silsilasi shundan dalolat beradiki, ibtidoiy odamlar darajasidagi qavmlar kun va tunning, hayot va o'limning almashinuvi, yaxshilik va yomonlikning barqarorligini kundalik hayotlarida idrok eta boshlaganlar hamda bunday qonuniyatning asl mohiyatini belgilovchi allaqanday kuch-iroda mavjudligiga ishonganlar. Bu gumonni tarqatuvchi ishonch, o'limni enguvchi hayot nafasi tarzida o'z tasavvurlarida Axuramazda kabi yaxshilik, yorug'lik va ezgulik amallarining timsolini yaratganlar.

Jahon olimlari bir narsadan mushtarak fikrga keldilarki, Avesto matnlari qadim zamonlarda bir-biriga yaqin va qo'shni xalqlar tomonidan avloddan avlodga meros qoldirgan ma'naviy qadriyatimizning nodir namunasidir.

Garchi bu kim tomonidan bunyod etilganini xozircha ochiq-oydin aytib berish qiyin bo'lsa-da, tarixchi, arxeolog va tilshunos olimlarning tadqiqotlarini umumlashtirgan holda uning Vatani Xorazm degan fikrni hech qanday shak-shubhasiz e'tirof etish mumkin.

Zardushtiylik ta'limotiga ko'ra, bir tomondan xudo yaratgan quyosh, oy, yulduzlar va "nur olami" mavjud bo'lib, ularning orasida erga eng yaqini yulduzlar, ikkinchisi oy satxi, uchinchisi quyosh va to'rtinchisi "jannat" makoni. Bundan tashqari, Avestoda qadimgi bobokalonlarimizning hayot va inson, axloq va odob, go'zallik va ijod, qishloq xo'jaligi va jamiyatdagi adolat to'g'risidagi falsafiy mushohadalari o'z ifodasini topgan.

Avesto matni, uning obrazlar dunyosi arxeologlar tomonidan O'zbekistonda topilgan va tadqiq etilgan xalq amaliy san'ati hamda insoniyat ijtimoiy-falsafiy va badiiy-estetik taraqqiyotining qadimiy davriga to'g'ri keluvchi bu obidalar o'sha davrning hayotga bo'lgan munosabatlarida diniy va badiiy tafakkurning mushtarak taraqqiy etganidan dalolat beradi.

O'zbekiston san'ati tarixi shundan dalolat beradiki, diniy tasavvurlar, afsonaviy rivoyatlar, falsafiy tushunchalar, axloqiy-estetik qarashlar odamlarning moddiy hayot tarzi va faoliyati bilan

chambarchas bog'liq bo'lgani odamlarning individual va ijtimoiy hayoti umumiy moddiy-ma'naviy faoliyati bilan qo'shilgan bo'lib, bu faoliyat esa insonni o'ragan voqelik, muhitdan oziqlanib turgan. Shuning uchun rivoyatlarda hayot, hayotda rivoyat ustunlik qilgan. Tabiat, jamiyat va hayotni inson uchun yaratilgan moddiy-ma'naviy ne'mat sifatida talqin etish, uni asrab-avaylashga da'vat etish qadimgi ma'naviy merosimizning buyuk gumanistik mazmunini tashkil etadi. Avesto - buning yorqin namunasidir. Avesto - nafaqat Sharq xalqlarining balki butun insoniyatning "bolalik" pallalari bilan bog'liq olam haqidagi e'tiqod, bilim va tasavvurlar qomusidir.



Abu Nasr Farobiy (873-950). Yurtimizning tarixiy-ijtimoiy taraqqiyoti davrida juda ko'p olim va mutaffakkirlar yashab ijod qilganlar. Ularning asarlarida inson ruhiyatiga oid ilg'or psixologik fikrlar ilgari surilgan, komil inson uchun ilm va xunar zarurligi ta'kidlangan. Endi ularning fikr va qarashlarini birma-bir ko'rib chiqamiz. Insonparvarlik g'oyalari Farobiyning inson ruhiyati haqidagi qarashlarida alohida o'rin tutadi. Farobiyning fikriga ko'ra, insonni tarbiyalash ikki usul bilan olib borilishi mumkin, bular: ixtiyoriy va majburiy. Agar tarbiyalanuvchi ixtiyoriy ravishda aqliy va axloqiy hislatlarni egallashga intilmasa uni tarbiyachi bu fazilatlariga o'rgatishi kerak bo'ladi. Farobiy inson tafakkuri va nutqining rivojlanishini ta'lim va tarbiyaning asosini tashkil etuvchi muhim jarayon deb hisoblaydi. Shunga ko'ra, u o'z asarlarida insonga tarbiya va ta'lim berish zarurligini aytadi. U insonning ma'naviy hayotida, asosan, uning ikki tomoniga: aql va axloqiga e'tibor beradi. Shuning uchun ta'lim va tarbiya insonni aqliy tomondan ham, axloqiy tomondan ham etuk, mukammal qilib etishtirishga qaratilishi lozim.

Olim (Farobiy) o'z asarlarida ta'lim va tarbiyani uzviy birlikda olib borish haqida ta'lim bergan bo'lsa ham, lekin har birining insonni kamolga etkazishda o'z o'rnini bor ekanligini alohida ta'kidlaydi. Ayni vaqtda ta'lim ham, tarbiya ham tajribali psixolog tomonidan tashkil etilishi, boshqarilishi lozim. Chunki maqsadga muvofiq amalga oshirilgan ta'lim-tarbiya insonni ham aqliy, ham axloqiy jihatdan kamolga etkazadi. Inson tabiat va jamiyat qonun qoidalarini to'g'ri bilib oladi va hayotda to'g'ri yo'l tutadi.

Farobiy ta'lim va tarbiyaga birinchi bo'lib ta'rif bergan olim hisoblanadi. Ta'lim - degan so'z insonga o'qitish, tushuntirish asosida nazariy bilim berish.

Tarbiya - nazariy fazilatlarni, ma'lum hunarni egallash uchun zarur bo'lgan xulq va amaliy malakalarni o'rgatishdir, deydi olim.

Xulosa qilib aytganda, Farobiy psixologik ta'limotining asosida komil insonni shakllantirish, yoshlarning ta'lim olishlari, hunar o'rganishlari, faoliyat ko'rsatishlari zarurligi haqidagi fikrlari yotadi.

Bu fikrlar hozirgi kunda ham g'oyat muhimdir.



Abu Rayhon Beruniy (973-1048). Buyuk qomusiy olim, faylasuf va shu bilan birga psixologiya tarixi sohasida o'ziga xos burilish qilgan. Beruniy psixologik ijodida inson va uning baxt-saodati, ta'lim-tarbiyasi, kamoloti bosh masala bo'lgan. Buyuk faylasuf olim tarbiyaning maqsadi, vazifalari, yosh avlodning rivojlanishi haqidagi fikrlari insonparvarlik asosida qurilgan.

Beruniy ta'lim jarayonining tabiatiga chuqur kirib borib, bolalarning yosh hususiyatlarini hisobga olish zarurligini uqtirdi va shu bilan yosh davrlar psixologiyasi sohasiga ham ulkan hissa qo'shdi.

U o'qitish jarayonida bolalarga tushunarli bo'lmagan so'zlarni quruq yodlashga qurilgan ta'limni qattiq qoralaydi. U "Tushunish yodlashdan afzaldir, kuzatishning ko'pligi ko'rilgan narsalarni eslab qolish qobiliyatini yaratadi" deb yozadi.

Beruniyning psixologik g'oyalari eng muhimi bilimni puxta va mustahkam egallash zarurligidir. Tarbiyashunos olim o'quvchiga murojaat qilib deydi: "Biliming shunday bo'lishi kerakki, u har qanday sharoitda ham o'zingda qolsin". U barcha illatlarning asosiy sababi ilmsizlikda deb biladi. Ilmlarni egallashda esa shaxsda intilish va qiziqish muhitni alohida ta'kidlaydi.

Bilim olishda tushunib o'rganish, jamiyatning ravnaqi ma'rifatning rivojiga bog'liq degan g'oyani ilgari suradi. Beruniy inson ruhiyatining go'zalligini axloqiy tarbiya bilan bog'laydi. Chunki, insonda komillikning muhim mezoni yuksak axloqiylikdir.

Olimning fikricha, axloqiylik insonning eng asosiy sifati bo'lishi kerak. Bu xislat birdaniga tarkib topmaydi. U kishilarning o'zaro muloqoti, ijtimoiy muhit - jamiyat taraqqiyoti jarayonida tarkib topadi.

Beruniy ham axloqiy tarbiyaga musulmon dini talablaridan kelib chiqqan holda ta'rif beradi. Ya'ni ahloqiylik yaxshilik bilan yomonlik

o'rtasidagi kurash natijasida namoyon bo'ladi va tarkib topadi deb ta'lim beradi. Insonning axloqiy kamolga etishi muammosi butun ta'lim-tarbiya tizimida markaziy masala bo'lib kelgan.

Olimning inson turmushiga xos xulq-odob qoidalari haqidagi fikrlari psixologik jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Inson ham ichki, ham tashqi tomondan go'zal bo'lsagina haqiqiy kamolotga erishishi mumkin deydi. U ozodalik va orastalikni oliyjanoblik bilan tenglashtiradi. Inson doimo bularga rioya etishi zarur deb ta'kidlaydi. Eng muhimi, mutafakkir inson kamolotida mehnat va mehnat tarbiyasi haqida muhim fikrlarni bayon etadi.

U har bir hunar egasining mehnatiga qarab turlarga bo'ladi. Og'ir mehnat sifatida binokor, ko'mir qazuvchi, hunarmand, fan sohiblari mehnatini keltiradi. Ayniqsa, ilm ahli-olimlar mehnatiga alohida e'tibor berishga chaqiradi, ularni ma'rifat tarqatuvchilar deb biladi.

Olim bolalarni mehnatga o'rgatish usullari, yo'llari haqida ham fikr yuritadi. Masalan, bolalarni eng kichik yoshidan mehnatga o'rgatish kerak, deydi.

Beruniy inson kamolotida uch narsa muhimligini ta'kidlaydi. Bu hozirgi davr psixologiyasi ham e'tirof etuvchi: shaxsning rivojlanishida irsiyat, muhit va tarbiyaning ahamiyatli ekanligini qayd etgan.

Olimlar inson kamolotiga irsiyat, muhitning ta'sirini inkor etib, faqat tarbiyani tan oldilar. Lekin Beruniy o'z zamondoshlari - buyuk olimlar Farobiy, Ibn Sinolar kabi inson kamolotida har uchchallasini ham muhim deb hisoblaydi.

Abu Rayhon Beruniy nazarida inson kamolga etishining eng muhim omillari ilm-ma'rifatli bo'lish va yuksak axloqlilikdir.

Beruniy ilmiy bilimga oid, ta'lim usullari haqidagi qarashlari bilan ta'lim nazariyasida o'ziga xos maktab yaratdi.

Demak, yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, Beruniyning komil insonni shakllantirishga oid bu fikrlari faqat o'z zamonasi uchun emas, hozirgi davr inson ruhiyati kamolotini takomillashtirishda ham katta ahamiyatga ega. Beruniy barcha fanlar singari psixologiya fani taraqqiyotiga ham juda katta hissa qo'shgan olim sifatida tarixda qolgan qomusiy allomadir.



Abu Ali Ibn Sino (980-1037). Buyuk tabib, mutafakkir Ibn Sino kamolotga erishishning birinchi mezonini sanalgan ma'rifatni egallashga chaqiradi. Chunki, ilm-fan insonga xizmat qilishi lozimligi, ma'rifatli kishi jasur, faqat haqiqatni bilishi uchun bilimga ega bo'lishi kerakligini, lekin har qanday bilim ham haqiqatga olib kelmasligi, inson o'z bilimining haqiqiylikini bilish uchun mantiqni ham bilishi zarurligini ta'kidlaydi. Ibn Sinoning inson ruhiyati haqidagi ta'limoti asosida bilimlarni egallashda mantiqiy tafakkurga, shaxsiy tajribaga tayanish kerak degan g'oya yotadi. Ibn Sino ta'limotida bilishda qaysi usullardan foydalanilmasin og'zakimi, tushuntirishmi, suhbatmi, insonda haqiqiy bilim hosil qilish, mustaqil, mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, olgan bilimlarini amaliyotga tadbiiq eta olish qobiliyatini tarkib toptirish asosiy maqsad bo'lgan. Ibn Sino insonning kamolga etishida uning axloqiy kamoloti muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi.

U axloqlilikning asosini yaxshilik va yomonlik kabi ikki tushuncha bilan ta'riflaydi. Insondagi ijobiy axloqiy sifatlarga: saxiylik, kamtarlik, aqllilik, qat'iyatlilik va boshqalarni kiritadi. Insondagi salbiy xislatlar sifatida: nodonlik, takabburlik, nafratni ko'rsatib o'tadi. Ibn Sino aqliy tarbiya turli bilimlarni o'rganish natijasida amalga oshsa, axloqiy tarbiya ko'proq yaxshi axloqiy xislatlarni mashq qildirish, odatlantirish, suhbat orqali amalga oshadi deb ta'lim berdi. Ibn Sinoning tarbiyaviy qarashlarida oila va oilaviy tarbiya masalalariga alohida e'tibor berilgan. Chunki inson avvalo oilada kamolga etadi.

Olim oilada ota-onaning vazifasi va burchiga katta e'tibor beradi. Oila munosabatlariga to'xtalar ekan, ayniqsa ota-onalarning oilada mehnatsevarligi bilan farzandlarini ham kasb-hunarga o'rgatishi borasida muhim fikrlar bayon etadi. Ibn Sino aqliy, axloqiy tarbiya bilan bir qatorda inson kamolotida jismoniy tarbiyaning muhim ahamiyatini ham nazariy, ham amaliy jihatdan tahlil etadi. Ibn Sinogacha insonning kamolga etishida jismoniy tarbiyaning ta'sirini haqida yaxlit ta'limot yaratilmagan edi. U birinchi bo'lib jismoniy tarbiyaning ilmiy pedagogik jihatdan bir butun tizimini yaratdi. Jismoniy mashqlar, to'g'ri ovqatlanish, badanni toza tutish tartibiga rioya qilish inson sog'ligini saqlashda muhim omillardan ekanligini ham ilmiy, ham amaliy jihatdan asosladi. Bundan tashqari olimning

psixologiya sohasidagi eng buyuk ishlaridan biri shaxs temperamenti haqidagi ta'limotidir.

Xulosa qilib aytganda, Ibn Sinoning ta'limiy-tarbiyaviy va ruhiy qarashlarida insonning ham aqliy, ham axloqiy, estetik tomondan rivojlanishi uning kamolga etishining asosiy mezoni sifatida talqin etiladi. Tarbiya tizimiga jismoniy tarbiyaning kiritilishi esa Ibn Sinoning tarbiya sohasidagi katta xizmatlaridan bo'lib hisoblanadi. Ibn Sino inson kamolotida aqliy, axloqiy, jismoniy tarbiyaning o'zaro aloqada amalga oshirish usullarini yaratib, ta'lim-tarbiya sohasida o'z o'rniga ega bo'ladi.



Amir Temur (1336-1405). "Muhammad Tarag'ay Bahodir o'g'li Amir Temur yoshlik chog'idan mard, dovyurak, g'ururli, o'tkir zehn va aql-idrok egasi bo'lib o'sadi. Turli dunyoviy ilmlarni, harbiy san'atni egalladi. Qur'oni Karimni yod oldi, hadis ilmini o'rgandi. Darhaqiqat, iymon-e'tiqodli, halol-pok inson bo'lib etishdi".

Buyuk sarkarda, sohibqiron, fan va madaniyat xomiysi Amir Temur davrida Mavoraunnahrda ilm-ma'rifat gullab yashnadi. Bu davrda diniy maktablar asosiy hisoblangan. Madrasalarda diniy va dunyoviy ta'lim berilgan. O'sha davrdagi maktablarda o'quvchilarga arab harflarini o'rgatishdan boshlab, yozish qoidalarini egallagach, "xaftiyak" (Qur'onning ettidan bir bo'lagi) o'qitilgan. Diniy marosimlar, ilmiy urf-odatlarini o'rganganlar.

Bu davrda oliy o'quv yurti vazifasini madrasalar o'tagan. Amir Temurning o'zi ham ikkita madrasa Muhammad Sulton va Bibixonim madrasalarini qurdirgan. Madrasalarda o'sha davrning ko'zga ko'ringan ulamo-olimlari mudarrislik qilishgan. Madrasalar asosan yirik shaharlarda: Samarqand, Buxoro, Hirot va Mavrda qurilgan va faoliyat ko'rsatgan.

Amir Temur bobomiz tarbiya sohasiga, islom dinining ravnaqiga juda katta e'tibor bergan. Uning dastlabki chiqargan farmoni madrasalar barpo etish, ilm toliblariga nafaqalar tayinlash kabi ishlarga safarbar etilgan. Sohibqiron qaerda bo'lmasin, o'sha erlik olimlar bilan uchrashuvlar, ular bilan suhbat qurib turli mavzularda bahslashar edi. Uning tarix, ruhiyat, tibbiyot, matematika, astronomiya, me'morchilik sohalaridagi chuqur bilimlari, uning nabirasi Mirzo Ulug'bek faoliyatida o'z aksini topgan.

Amir Temur tuzuklarida farzand-nabira amiru-vazirlar bilan munosabat tadbirlari bayon etilgan. Bular esa Amir Temurning farzandlar tarbiyasiga bo'lgan munosabatini anglatadi. Bundan tashqari "Amir Temur o'gitlari" asari pand-nasihatlaridan ham uning kimligini tushunish qiyin emas. Bular, el-yurt va fuqaroning tashvishi, vatanparvarlik, mehr-muruvvat va nihoyat mardlik va qahramonlik haqidagi hayotiy o'gitlardir.

Sohibqironning ibratli, hayotiy pand-nasihatlari va o'gitlarining mantiqan kuchliligi, ta'sirliligi, umuminsoniy qadriyatlar asosiga qurilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi, ularni axloq-odobga oid dasturlar deya olamiz.

O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I. A. Karimov "Amir Temur tuzuklarini o'qisam, huddi bugungi zamonning katta-katta muammolariga javob topgandek bo'laman", - deydilar. Darhaqiqat, milliy qadriyatlar va ma'naviyatimiz tiklanayotgan bir paytda yurtimizda buyuk sohibqiron qoldirgan merosni o'rganishga ehtiyoj ortmoqda.

Buyuk bobomiz hayoti va faoliyati davomida qoldirgan asarlari bilan o'gitlari insonlarni, ayniqsa yoshlarni iymonli, insof-diyonatli bo'lishga, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga yordam berishiga mutloq ishonchimiz komildir.

Amir Temurning faoliyatida axloqiy tarbiyaga oid chuqur falsafiy bilimlar mavjud. Ularni qunt bilan o'qisak, axloqiy tarbiya sifatleri (to'g'rilik, botirlik, qat'iylik, sabr-toqatlilik, insonparvarlik, adolatlilik, poklik) bilan tanishamiz. Shu bilan birga, Amir Temur ilm ahliga, olimu-fozillarga, tarbiyachilarga dargohini doimo ochiq qilgan, ularni hurmat qilgan, ulug'lagan.

Amir Temur oilaviy tarbiya masalasiga ham umumdavlat darajasida qaragan. U o'sha davrda davlatni boshqarish bilan birga o'z xonadonidagi oilaviy tarbiya masalasiga ham katta ahamiyat berib borgan.

Temur oilaviy tarbiya masalasiga to'xtalar ekan, oilada tarbiyaning ijobiy yo'lga qo'yilishi bevosita ota-ona bilan bog'liqligini ko'rsatib o'tdi. Avvalo ota-ona bir-birini tushunish, shu bilan birga har ikkisi ham ilmli, aqlli, toza qalbli, pok inson bo'lishi, birovning haqiga xiyonat qilishdan hazar qilishi kerakligini ta'kidlab o'tdi. Oilaviy tarbiya masalasining yaxshi yo'lga qo'yilganligi yana oilani boshqarayotgan boshliq-otaga ko'proq tegishlilikini aytib

o'tadi. U oilani kichik bir davlatga, otani esa uning hukmdoriga o'xshatadi.

Temur oilada ko'proq o'g'illari tarbiyasi bilan shug'ullangan. U o'z o'g'illariga otda yurishni, ov qilishni, xat-savodni, dini islom tartib qoidalarini o'rgatgan. Ota-onani, ilmi kishilarni, keksalarni hurmat qilish, Vatanni sevish, uning uchun kerak bo'lsa jonini fido qilish kerakligini uqtirgan.

Temur qizlari tarbiyasi bilan ham shug'ullangan, lekin Sharq udumlari bo'yicha qizlar tarbiyasi bilan ko'proq onalar shug'ullanishi lozimligini aytsa-da, bu ishdan o'zi ham xabardor bo'lib turar edi.

Demak, Amir Temurning o'z farzandlariga bergan o'gitlari, oila tarbiyasiga tegishli fikrlari, ayniqsa hozirgi davr yoshlar tarbiyasi uchun nihoyatda zarurdir. "Temur tuzuklari" asari podsholarning hayotini turmushini belgilovchi risoladir.

Bu asar hozirgacha o'z qimmatini yo'qotgani yo'q. Ushbu asar chet ellarda ham noyob durdona sifatida saqlanadi.

Amir Temur bobomizdek ulug' siymo bor ekan, uning qoldirgan madaniy merosi bugungi hayotimizga hamohang bo'lib, oldimizda turgan muammolarni echishda kelajagimiz davomchilari bo'lishi yosh avlodni ta'lim va tarbiyasida bizga juda katta yordam beradi.

Amir Temur bir so'z bilan aytganda harbiy psixologiyaning asoschisi sifatida qarasaq ham bo'ladi.



Alisher Navoiy (1441-1501). O'zbek adabiyoti-ning asoschisi, shoir, olim, ma'rifatparvar faylasuf, davlat arbobi Alisher Navoiy inson ruhiyati takomillashtirishga ham katta e'tibor bergan. U inson tafakkuri, aqli, bilimni yuksak qadrlagan. A. Navoiy bola tarbiyasiga va uni shaxs sifatida shakllantirishga katta ahamiyat berib, bolani "Hayot chirog'i" deb ta'kidlaydi. Bola oilaga baxt va saodat keltiruvchi ziyodir.

Alisher Navoiy bolalarga kichik yoshidanoq bilim ma'lumot va tarbiya berishlikni ko'rsatib o'g'il-qizlarni 6 yoshdan tarbiyachi muallimga berish lozimligini aytadi. Bolalar ilk yoshligidanoq fanlarni, xunarni egallab olmoqligi zarurligini ta'kidladi.

U ta'lim-tarbiya masalalariga alohida e'tibor berarkan, tarbiya jarayonining vositalarini, talablarini ko'rsatadi u ta'limda ilmiylik, asoslanganlik, tarixiylik kabi talablarni asos qilib oladi. U o'qituvchi haqida gapirar ekan, muallim o'z shogirdlarini ham, o'zi ta'lim berayotgan fanni ham sevgan bo'lishi zarur deydi. O'ziga ham,

baquvchiga ham talabchan bo'lishini uqtiradi. Navoiy o'qituvchini jamiyatdagi obro'li va hurmatga loyiq inson deb bilib, shogirdlar muallimni Vatandek hurmat qilishlarini, e'zozlashlarini uqtiradi. Uning asarlarida axloqiy va mehnat tarbiyasiga doir qarashlari asosiy o'rinini tashkil etadi.

Navoiy o'zining badiiy asarlarini komil inson obrazlarini yaratib, ta'lim-tarbiya to'g'risidagi fikrlarini ifodalagan bo'lsa, ta'limiy, axloqiy asarlarida esa komil insonni shakllantirishning mazmuni, yo'llari usullarini bayon etdi. Navoiy ilmni inson komoloti uchun eng zarur fazilatlardan deb biladi. U ilmni insonni nodonlikdan jaholatdan qutqaruvchi omil sifatida ta'riflaydi. Shunga ko'ra o'z asarlarida kishilarni

ilm-ma'rifatli bo'lishga undaydi. Ilm olish har bir kishining insoniy burchi deb hisoblaydi. Navoiy orzu qilgan komil inson faqat ilmi bo'lish bilan qanoatlanib qolmasligini, balki u yana sabr-toqat, sahiylik, himmatli, rostgo'ylik singari fazilatlarga ham ega bo'lishi lozimligini bir necha bor ta'kidlagan edi. O'z davridagi ta'lim-tarbiya talablariga ko'ra, tarbiya an'analariga binoan ham Alisher Navoiy asarlarida insonning har tomonlama barkamol bo'lib etishida kishilarning jismonan sog'lom va baquvvat bo'lishiga ham jiddiy e'tibor berilgan. Masalan, uning qahramonlari Farhod, Qays, Iskandar obrazlarga jismoniy baquvvatlik va o'qimishlilikni ko'ramiz. Bunday ta'lim-tarbiya qadim zamonlardan boshlab an'anaviy tarzda davom etib, takomillashib borgan. Navoiy bolalarga jismoniy jazo berish emas, balki hushmuomalalik bilan muomalada bo'lishni, lekin bunda ham me'yorida oshmaslik lozimligini uqtiradi. Bundan Navoiy o'qituvchini talabchan bo'lishga undagani, ammo har ikkalasiga ham ma'lum me'yorni bilish zarurligini uqtirgani ma'lumdur. Shunday qilib Navoiyning komil insonni shakllantirishga oid fikrlarni uning ta'limiy-axloqiy qarashlari pedagogik fikr taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Allomaning qarashlari o'zidan oldin o'tgan olimlarning bu boradagi ilg'or ta'limotiga shuningdek, komil insonni tarbiyalashga oid an'anaviy sharq xalqlari ta'lim-tarbiya yo'riqlariga asoslanadi.



Abdulla Avloniy (1878-1934). XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy hayotida va psixologik fikrlarning rivojida Avloniy alohida o'rin tutadi. U butun faoliyati davrida o'z xalqiga hizmat qiladigan komil insonni etishtirish uning ma'naviyatini shakllantirishga alohida e'tibor

berdi. Avloniy milliy madaniyatni, xalq ta'lim ishlarini yo'lga qo'yishda katta hizmatlar qilgan adib, iste'dodli pedagog psixologdir. Avloniy ijodining bosh masalasi barkamol insonni tarbiyalashdan iborat bo'lgan. Tarbiya bola tug'ilganidan boshlanadi va umrining oxirigacha davom etadi. Avloniyning ta'kidlashicha, tarbiya hususiy ish emas, milliy-ijtimoiy ishdir. Har bir xalqning taraqqiy qilish, davlatlarning qudratli bo'lishi avlodlar tarbiyasiga bog'liqdir. Avloniyning ijodiy faoliyati ko'p qirrali bo'lib, uning falsafiy-ijtimoiy dunyoqarashida millat istiqloli, kelajakdagi ma'naviy hayot alohida o'rin egallaydi. Avloniy tashkil etgan maktab O'zbek millatiga xos yangi usul edi. Bu maktablar erkin va insonparvarlik asosida tuzilganligini, dunyoviy ilmlarni bolalarga o'rgatish, ta'lim mazmunini ilmiylashtirib tovush uslubidan keng foydalanilganligi bilan eski maktablardan ajralib turardi. Maktablarda ta'lim tarbiya berishga alohida e'tibor berildi. Yangi maktablar uchun juda ko'p alifbo darsliklari yozildi. Avloniy o'z darsliklarida, xalq og'zaki ijodidan keng foydalangan, hamda boshqa xalqlar ijodidan namuna olib, uni tarjima qilib darsliklarga kiritgan. A.Avloniy boshlang'ich ta'lim mazmunini millatning istiqboliga qarab belgilagan. Unda xalq yaratgan so'z san'atidan durdonalar o'z aksini topgan, ajdodlarimizning madaniy merosi asosiy o'rin olgan.

Avloniy tarbiyani quyidagi qismlarga bo'lgan edi: fikr tarbiyasi, badan, axloq va inson tarbiyasi. U o'zining "Turkiy Guliston yohud axloq" asarida barkamol insonning axloqiy tarbiyasiga alohida e'tibor berdi. Axloq "Insonni yahshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilmdir. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar bilan bayon qiladurrgan kitobni axloq" deydilar.

Avloniy axloqiy tarbiyaning bosh masalasi insonning vatanga muhabbatidir deb hisoblaydi va har bir yosh qalbni Vatanida yashashga, uning baxtidan quvonishga o'rgatmoq lozimligini ta'kidlaydi. Avloniy aytganidek ilm olish sog'lomlikni talab etadi. "Badanning salomat va quvatli bo'lmog'i insonga eng kerakli narsadir, chunki o'qimoq, o'rganmoq va o'rgatmoq uchun insonga sog'lom vujud lozimdir, deb ta'kidlaydi. Avloniy badan tarbiyasi masalasida bolani sog'lom qilib o'stirishda ota-onalarga murojat qilsa, bolani fikr tomonidan tarbiyalashda o'qituvchilarning faoliyatlariga alohida e'tibor beradi. Avloniyning pedagogik psixologiya fanining asoschisi hisoblanadi.

Demak, Avloniyning psixologik qarashlari hozirgi kunda ham yangi insonni kamol toptirish yo'lida, vijdoniylik ruhida tarbiyalash borasida qimmatli tarixiy material sifatida e'tiborni o'ziga jalb qiladi. U o'zining butun kuch-quvvatini o'zbek pedagog psixologiyasining rivojlanishiga sarf qildi. Avloniyning faoliyati biz uchun qadrlidir.

Adabiyotlar:

11. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T., Ma'naviyat, 2008.
12. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: O'zbekiston, 2011.
13. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T.: O'zbekiston, 1997.
14. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston-NMIU, 2017.
15. Mirziyoyev Sh.M. Erikni va farovon, demoktarik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majilisdagi nutq. – T.: O'zbekiston-NMIU, 2017.
16. Hergenhahn B.R., Tracy B. Henley "An Introduction to the History of Psychology". – 2014 Wadsworth, Cengage Lyerning.
17. Ярашевский М.Г. История психологии. – М., 1997.
18. Ждан Н.Ж. История психологии. – М., 1995.
19. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. – T., 2010.
20. G'oziyev E.G'. Psixologiya metodologiya. – T., 2013.

II BOB. O'ZBEKISTONDA ZAMONAVIY PSIXOLOGIYA FANINING RIVOJLANISH TARAQQIYOTI

O'zbekiston tarixida psixologik fikrlar rivojlanishining bir necha davr va bosqichlari ajratilgan.

Birinchi davr - sovet tuzumigacha (1917-yilgacha) qator bosqichlarni qamrab oladi.

Islomgacha bo'lgan bosqich (VII asr oxirlarigacha), bu bosqichda psixologik bilimlar zoroastrizm, moniylik va mazdakiylik ta'limotlari ta'siri ostida shakllandi va ular folklor xalq og'zaki ijodi orqali qayd qilingan.

Islomiy bosqich (VII asr oxiri – XIX asr oxirlari), inson “qalb kuchi”ni o'rganish, olloh bilan birlashishga intilishi, “yaratuvchi”aqli bilan, tabiiy-ilmiy va materialistic yo'nalganligi bilan xarakterlanganligi farqlanadi. Ma'lum bir me'yorda bu bilimlar arab falsafasi fikri va islomning yangi din doktrinasi ta'sirida kelib chiqqan (mo'tazillik, so'fiylik).

Ma'rifatchilik bosqich (XIX asr oxiri – XX asr boshlari) O'zbekistonda psixologik fikrlar o'zlashtirilishi G'arbiy Yevropa madaniyati ilmiy yutuqlaridan farq qiladi.

Ikkinchi davr - (1917 yildan hozrgi vaqtgacha) – sovet davri, ikki bosqichni o'z ichiga oladi (urushgacha 1940 yilgacha) va urushdan keyingi (1945yildan keyin).

Urushgacha bo'lgan bosqich dialektik-materialistik psixologiya asoslari ishlari bilan xarakterlanadi, psixologik izlanishlar pedagogik amaliy vazifalarni yechish uchun mo'ljallanganligi psixologiyaning mustaqil tadqiqotlarini tasdiqlashga asoslangan.

Urushdan keyingi bosqich ilmiy-tadqiqot ishlari ko'lamini kengaytirish bilan bog'liq bo'lib, tashkil qilingan va kadrli asoslarni mustaxkamlash hamda O'zbekistonda tashkiliy psixologiyani mustaqil ilmiy tartibga keltirish ahamiyatga ega edi.

2.1. O'zbekistonda zamonaviy psixologiya fanining rivojlanish taraqqiyoti

Daslabki pedagogik va psixologik fikrlar markazi 1918 - yili Toshkent va keyinchalik Chimkent shahrida tashkil qilingan. Pedagogik muzey va pedagogik laboratoriya universal o'quv tarbiya muassasasi bo'lib ta'lim tarbiya bilan bog'liq bo'lgan hamma

vazifalarni qamrab oladi. Bu yordam ta'lim uslublari ishlab chiqarilgan, shu yerning o'zida sinalgan va respublikaning boshqa o'quv muassasalariga tarqatilgan. Ishning bunday tashkil qilinganligi tadbiq qilishga imkon bergan. Pedagogik laboratoriya haqida nizomda bu joy pedagogik fikr va ishning markazi bo'lishi lozim. Shuning uchun bir tomondan psixologik ishning har bir yangilik o'qitishdagi laboratoriyada to'plangan boy tajribadan foydalanish imkoniyati berilishi kerak, bu imkoniyat bevosita maktablarga berilishi kerak. Boshqa laboratoriya va kabinetlar bilan bir qatorda pedagogik laboratoriya va pedagogik muzeyda eksperimental psixologik laboratoriyasi ham mavjud bo'lib, bu erda turli xil psixologik tajribalar amalga oshirilgan.

1919-yili 1-aprelda Kavman Xorvat ma'orif komissariga xat yo'llab, davlatning ko'zi ojiz, gung, ruhiy kasal va psixologik taraqqiyoti hamda psixikasi muvozanatsiz bolalarni o'z tarbiyasiga olishi zarurligini ta'kidlagan. Huddi shu maqsadda butun bir maxsus muassasalar tizimini tashkil etishni taklif etgan. Xorvatning taklifi bir necha yo'nalish bo'yicha diqqatga sazovordir. Birinchidan, bu kompleks xarakterdagi ish bo'lib, biron bir psixonevrologik kasallik nazardan chetda qolmagan Ikkinchidan, bu rejada qattiq ketma-ketlikdan bir necha bosqich nazarda tutilgan.

1. Kasallik diagnostikasi (tadqiqot darajasi);
2. Kasallarni davolash (amaliy tibbiy darajasi);
3. Kasallarni tarbiyalash va ta'lim berish (amaliy ta'lim darajasi).

Birinchi darajani psixologik laboratoriya, ikkinchi darajani davolash maxsus muassasasi, uchinchi darajani maktablar amalga oshirish ko'zda tutilgan. Turkistondagi muassasalardan biri "o'zbek davlat ilmiy tadqiqot instituti", hozirgi Qori Niyoziy nomidagi pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti 1929 - yili tashkil qilingan bo'lib, hozirgi kunga qadar bu institut o'qitishning pedagogik konsepsiyalari maktab va maktabgacha tarbiya muassasalarida ta'lim-tarbiya nazariyasini yaratuvchi yagona markaz hisoblanadi. 30-yillar boshlarida institut tarkibida quyidagi kabinetlar mavjud bo'lgan:

1. Ijtimoiy gigiena.
2. Iqtisod.
3. Pedaloga pedagogik.
4. Psixologik laboratoriya.

Institut tashkil bo'lgan vaqtdan boshlab milliy mentalitetni va ijtimoiy muhitni chuqur tadqiq qilish bolalarning psixologik ijtimoiy-madaniy xususiyatini hisobga olgan holda darslarni yaratish bilan shug'ullandi. Institut faoliyatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat edi.

1. Ilmiy eskpeditseyalar uyushtirish;
2. Bolalar xarakterini o'rganish;
3. Pedagogik kadrlar tayerlash.

Ushbu institutning faoliyati Bendrikov, Leventuert, Zavarova, Yusupov, Tokanaev, Debenzov, Mirsharipov, Muxiddinov kabi olimlarning nomlari bilan chambarchas bog'liq. 30 yillarda bu institutda jahon psixologiya faniga katta hissa qo'shgan olimlardan biri Aleksandr Romanovich Luriya ishlagan. U o'z institut doirasida o'tkazgan tadqiqotlari asosida keyinchalik "Ob istoricheskome razvitie poznavatelnix protsessov" – "Bilish jarayonlarining tarixiy taraqqiyoti haqida" degan asarini nashr qildi.

O'zbekistonda psixologiya fanining shakllanishiga katta hissa qo'shgan olimlardan yana biri P.Ivanov hisoblanadi. 1927 - yil Samarqanddagi o'zbek pedagogika institutida (pedakademiya) eksperimental psixologiya laboratoriyasini tashkil qilgan. 1940-yilda u pedagogika institutlari talabalari uchun psixologiyadan birinchi o'quv qo'llanmasini nashr qilgan.

Keyinchalik 1934 - yili Samarqand pedagogika institutining o'zbek davlat universitetiga aylantirishi munosabati bilan Ivanov o'z laboratoriyasi bilan Nizomiy Nomidagi Toshkent Davlat pedagogika institutiga ko'chib o'tadi.

Pedagogika o'quv muassasalarida ilmiy pedagogik potensialning etishmasligi tufayli dastlabki psixologiya darslari ustida tarjimonlar yordamida olib borilgan keyinchalik bu tarjimonlarning o'zlari mustaqil ravishda psixologiyadan o'zbek tilida ma'ruzalar o'qiy boshlashgan.

Aliaskar Usmonov, Toxiriyxon Askarxo'jaev, Bayburova, Raxmatova va boshqalar bir bo'lib o'zbek tilida psixologiya o'qituvchilari bo'lishgan. Ivanovni (1891-1968 yillar) psixologiyadan 75 dan ortiq ilmiy ishlari nashr qilingan.

Uning 1927 - yilda nashr qilingan "Umumiy pedagogika" bo'yicha qisqa ocherk, "maktabshunoslik" tarbiyaning umumiy uslublari 1940-yillar va 1954-yillarda "Umumiy psixologiya", 1962-yilda "Ta'limning psixologik asoslari" kabi asarlari

O'zbekistonda psixologiya fani rivojlanishiga juda katta hissa qo'shdi. Sh.A. Boyburova, Usmonov kabilar bevosita uning rahbarligida faoliyat ko'rsatishdi. 1959 - yil uning rahbarligida M.G.Davletshin, Bekboev, Muzaffarovlar nomzodlik disertatsiyalarni himoya qilishdi.

1963-yil O'zbekistonda psixologiyadan birinchi bo'lib Krasnoboev Ilya Berovich (1896-1963) Toshkent Davlat universiteti filologiya fakulteti logika va psixologiya kafedrasini mudiri "Yuqori sinf o'quvchilarida e'tiqod, axloqiy tushunchalarni shakllanishi" mavzusidagi doktorlik ishini himoya qildi.

Krasnoboevni ilmiy faoliyati 20 yillarda O'zbekistonda tadqiqotlar bilan bog'liq uning rahbarligi ostida logika va psixologiya kafedrasini azolari: 3. Mo'minova, V.Ya. Maros, A. Abdusattorov, V.I. Sofer, A. Gulyamov, R.V. Gulyamov, A.A.Erstifirovlar turli xil ob'yektlarda psixologiya va logika bo'yicha ilmiy tadqiqotlarini olib bordilar.

Bu tadqiqotlar O'zbekistonda xalq ta'limi bilan bog'liq muammolarni hal qilishga yordam berdi. M.Voxidov (1927-1989 yillar) 1955 - yilda Leningradda nomzodlik ishini himoya qilgan.

Dastlab Andijon pedagogika institutida, so'ngra Qori Niyoziy nomidagi pedagogika ilmiy tadqiqotlar institutida ishlagan. 1966 yil Toshkent Davlat universiteti psixologiya kafedrasini mudiri etib saylangan. 1973 - yili Ministrlar Soveti topshirig'iga binoan tarix fakulteti tarkibida tashkil etgan. Zinin, L.I.Sofer ishtirokida va markazning iste'dodli olimlari yordamida bu erda o'quv eksperimental laboratoriya tashkil qilingan.

M.Voxidov tomonidan maktabgacha pedagogika bilim yurtlari uchun, pedagogika institutlari uchun darsliklar yozilgan, oxirgi yillarda M.Voxidov, A.Petrovskiy tahriri ostidagi "Umumiy psixologiya" darsligi tarjima qilingan va ayni paytda milliy va mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olgan holda o'zbek tilida darslik yaratish bilan mashhur bo'ldi.

M.G.Davletshin rahbarligida uning bevosita maslahatlari yordamida O'zbekistonda 100 dan ortiq nomzodlik va doktorlik ishlari himoya qilingan. O'zbekistonda har xil muammolar bo'yicha umumiy, yosh pedagogika, ijtimoiy psixologiya bo'yicha F.S.Ismoilova, D.Z.Zaynobiddinov, Majidov, B. Gappirov, I.Maxmudov, L.K. Saitova, M.I. Musaeva, V.G. Gorobets, D.D.Sharipov, R.K.Shoxnazarov, J.U.Mavlonov, A.Eshmatov,

A.V.Majitova, M.I.Sagatov, D.Egamberdieva, G. Abdusamatov, K.Sobirov, A. Sindarov va boshqalar etishib chiqdilar.

Bundan tashqari har xil muammolar bo'yicha 1992 - yilgacha 25dan ortiq ish himoya qilindi. Bulardan nutq psixologiyasi bo'yicha 7 ta ish: (P.P.Zamin, N.N.Nigmatov, A.I.Arjonova, X.Ochilova va boshqalar), xotira psixologiyasi bo'yicha 4 ta ish: (P.I.Ivanov, M.V.Voxidov, X.M.Gafurova, V.P. Ivanova); diqqat bo'yicha M.X. Raxmonova; ta'lim tarbiya bo'yicha 14 ta ish (G'oziev, Qodirov, Rasulov, Usmonova, Krasnoboev, Tokareva va boshqalar);

Mehnat psixologiyasi bo'yicha 4 ta ish (Turg'unov, Sotiboldiev, Eliseev, Holmatov); Shaxs bo'yicha 3 ta ish (G'ofurov, Saydullaev, Shakovolov); Differensial psixodiagnostika bo'yicha 1 ta ish (Madumarov); Yuridik psixologiya bo'yicha 2 ta ish (Ibragimova, Zapryagaev); Sport psixologiya bo'yicha 3 ta ish (Z.Gapparov, R.Gaynutdinov, R.Gaynutdinov); Neyropsixologiya bo'yicha 1 ta ish (Bobojonova); psixologiya tarixi bo'yicha (S.Raximov) ijtimoiy psixologiya bo'yicha 3 ta ish (Karimova, Abdumo'minov, Tursunov); va boshqa turli psixologiyani bo'limlari bo'yicha ko'pgina olimlar ish olib borib, O'zbekistonga psixologiya fanini, ya'ni psixologiya tushunchasini olib kirib, to'laligicha ochib berdilar.

Hozirgi kunda O'zbekistonda ham psixologiya tarmoqlari rivojlanib unga katta e'tibor berilmoqda. Hozirgi etishib chiqqan barcha olimlarimiz O'zbekistondagi psixologiyani chet mamlakatlar psixologiyasi kabi yuqori cho'qqiga chiqishida katta hissa qo'shib, intilmokdalar.

Odamlar ongiga esa milliy psixologiya asosida, ya'ni milliylik ruhida tarbiyalab, ularni ongiga psixologiyani sindirmoqdalar. O'zbekistonda psixologiya fanining hozirgi ahvoli ilgariyidan ancha rivojlangan. Chunki bu fanni o'qitish muassasa tayyorlov qurollar va markazlar ochilib kishilar ongiga etib bormoqda.

Bundan tashqari psixologiya tarmoqlari bo'yicha turli xil muammolarni echishda asosiy rol o'ynaydi. Bu fanni rivojlanishida o'zbek psixologiyasi, ya'ni M.G.Davletshin B.Qodirov, G'.B.Shoumarov, V.M.Karimova, M.Voxidov, E.G.G'oziev, R.I.Sunnatova, J.Azimov, N.S.Safaev, R.Gaynutdinov, Sh.Baratov, Z.T.Nishonova, K.Mamedov, va boshqa olimlarning hissasi katta.

Hozirgi kunda psixologiya fani ham o'z tarmoqlarini rivojlantirmoqda. O'zbekistonda ham mustaqillik yillarida inson omiliga berilayotgan e'tibor tufayli psixologiya fani o'z yutuqlarini

xalq xo'jaligining deyarli barcha tarmoqlariga joriy etish imkoniyati tug'ildi. Shu bois ham bugungi kunda maktab psixologi, salomatlik psixologini tayyorlash, reklama va marketing sohasi, boshqaruv va ishlab chiqarishni tashkil etish borasida fanning amaliyotga aralashuvi jarayoni tezlashdi.

Oliy o'quv yurtlarida tayyorlanayotgan psixolog kadrlarning asosiy sifat belgisi ham ularning amaliyotda o'z bilimlarini tatbiq eta olish malakasi bilan aniqlanmoqda. Demak, XXI asr psixologiyasi o'zining tatbiqiy xarakteri bilan ajralib turadi va uning tarmoqlari rivoji va samaradorligi ilmiy va nazariy bilimlarni nechog'li xalq xo'jaligining turli tarmoqlariga joriy etilishi bilan izohlanadi.

2.2. O'zbekistonda psixologiya fanining rivojlanishi va hozirgi ahvoli

Muhammad Gabdulganievich Davletshin M.G. Davletshin 1923-yil 11-noyabrda Orenburg shahrida tug'ildi. Toshkent shahrida o'rta maktabni tamomlagandan so'ng undagi tashkilotchilik ishiga bo'lgan qobiliyati tufayli rayon kamsamol qo'mitasi yo'llanmasi asosida aviatsiya zavodiga ishga yo'llandi. Slesorning shogirdlikdan mehnat faoliyatini boshlab u qisqa muddat ichida kadrlar tayyorlash bo'limining usta instruktori darajasigacha o'sdi.

1944-yildan 1954-yilgacha Davletshin komsomol, kasaba uyushmasi va partiya organlarida ishlab, zavodning komsoliga kotibning yordamchisidan O'zbekiston komsomoli markaziy komitetining kadrlar bo'yicha sekretari lavozimlarida ishladi. 1957-yil u "5-7 sinf o'quvchilarida texnik qiziqishlarni shakllantirish" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi va 1960-yil psixologiya kafedrasida dotsenti ilmiy unvoniga tayinlandi.

Nizomiy nomidagi pedagogika institutining o'quv ishlari bo'yicha prorektori sifatida 11 yillik faoliyatda M.G.Davletshin institutda o'quv tarbiya jarayonini takomillashtirish bo'yicha kata ishlarni amalga oshirdi. 1971-yil M.G.Davletshin "maktab o'quvchilarining texnik qobiliyati psixologiyasi" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. Professor Davletshin yosh psixologlarva tadqiqotchilarga maslahat berish bo'yicha katta ish olib bordi.

U butun ittifoq psixologlar jamiyatining O'zbekiston bo'limi prezidiumiga rahbarlik qildi. SSSR ning psixologlar jamiyatining barcha oltita syezdida M.G.Davletshin ma'ruzasi bilan qatnashdi.

SSSR psixologlar jamiyatining IV – V syezdlarida u markaziy sovetning a'zosi qilib saylangan, IV syezdda jamiyatning markaziy soveti prezidyumi a'zosi qilib saylandi.

Yoshlarni mehnat ta'limida va kasbga yo'naltirish psixologiyasi muammolarini yaratishga professor Davletshin ko'p e'tibor qaratgan. 1979-yilda A.G.Kovalyov va V.A.Kruttetski hammuallifligida M.G.Davletshinning "Qobiliyatlar tashhisi" (o'zbek tilida) monografiyasi chiqdi.

Unda qobiliyatlar muammolari nazariyasi, ularning strukturasi va ularning tashhisi masalalari – adabiyot, matematika va texnika qobiliyatlarini misolida yoritilgan.

Umuman olganda professor Davletshin tomonidan psixologik talimning turli masalalari bo'yicha 70 dan ortiq ilmiy ishi nashr qilingan.

Yoshlarni tarbiyalash, oliy pedagogic ta'limni rivojlantirish, malakali kadrlarni tayyorlashdagi xizmatlari uchun M.G.Davletshin "Hurmat Belgisi" ordeni, "Fidoyi mehnati uchun", "1941-1945 yillardagi ulug' vatan urushi g'alabasining 30 yilligi" medallari bilan, SSSR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining "Ishdagi a'lo yutuqlari uchun" nishoni, "O'ZSSR xalq ta'limi a'lochisi" nishoni, O'zSSR oliy soveti prezyudimining bir nechta faxriy yorliqlari bilan taqdirlangan.

Pedagogic ilm va kadrlarni tayyorlashni rivojlantirishga qo'shgan hissalar uchun professor Davletshinga 1975-yil "O'zSSRda xizmat ko'rsatgan fan arbobi" faxriy unvoni

Tokereva Valintina Andreevna – 1935 yilda tug'ilgan. 1958-yilda Leningrad Davlat universiteti, falsafa fa'kulteti, psixologiya bo'limini tugatgan. 1992-yil psixologiya fanlari doktori, 1996-yilada professor ilmiy darajasiga ega bo'lgan. T.V.Andreevna psixologiya fani taraqqiyotiga o'zining quyidagi asarlari bilan ulkan hissa qo'shgan. Jumladan olimaning 1968-yil "Maktab o'quvchilarida ijtimoiy burch hissini tarkib toptirish", 1989-yil "Psixologiya npravstvennogo razvitiya lichnosti", "O formiravnie umeniye obobshat pri obuchenii matematike uchashixsya", "O formirovaniy pervonachalnykh obobsheniye u pervoklassnikov uzbekov pri izuchenii vvdnogo ustnogo kursa yazika", 1975-yil "Voprosi pedagogicheskoy psixologiya i defektalogii", "Osnoviy idei psixologicheskoy konsepsii", "O razvitiy russkoy rechi trete klassnikov – uzbekov v protsesse formirovaniya u nix nekotoryx grammaticeskix obobsheniye. Aktualnie voprosi uslubiki prepodavaniya russkogo yazika v

natsionalnix shkolax O'zbekstana", "Lektor shaxs sifatida", "Metodika psihologicheskogo izucheniya shkolnikov", "Sotsialno-psixologicheskie problemi formiraviya lichnosti" kabi ilmiy ishlari psixologiya fani taraqqiyoti ravnaqiga hissa qo'shgan.

Muallif ilmiy tadqiqotlari va qiziqishlarining asossiy yo'nalishi – shaxs ahloqiy rivojlanishi masalalari, turli xil yosh davrlarida shaxs ahloqiy qobilyatlari shakillanishining asoslari mohiyati va tuzilishini o'rganish. Oxirgi paytlarda muallifning harbiy o'quv yurtiga ishga o'tishi munosabati bilan uning ilmiy qiziqishlari doirasida tinglovchilarni shaxsiy tarkibi bilan ishlovchi o'sha soha mutaxassislari o'rtasidagi pedagogik va psixologik muammolar ustida ishlagan. Bir so'z bilan aytganda T.V.Andreevna o'zbek psixologiyasi sohasiga qolaversa jahon psixologiyasi taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan olimadir.



Mamatov Mo'minxon Mamatovich 1940-yil Namangan viloyatida Pop tumanida tug'ilgan. 1964-yilda Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat institutining, boshlang'ich ta'lim uslubikasi fa'kultetini tugatgan. 1985-yilda falsafa fanlari nomzodi, 1992-yilda dotsent unvonini olgan.

M.M.Mamatov psixologiya fani taraqqiyotiga o'zining quyidagi ilmiy ishlari bilan hissa qo'shgan. 1975-yil "Inson xarakteri va uning shakillanishi", "Milliy psixologik qiyofa va uning xususiyatlari", 1992-yil "O'spirin psixologiyasi", 1997-yil "Aqliy kamolatingizni aqinlay olasizmi", 2000-yil "Sport psixologiyasi" nomli ilmiy ishlari o'zbek psixologiyasining taraqqiyotida o'z o'rniga ega. M.M.Mamatov etnopsixologiya masalalari bilan ham shug'ullanib, etnopsixologiya fanining predmeti, tarixi, O'zbekistonda rivojlanishi, uning tuzilmasi, milliy qiyofa va uning tarkibiy qismi-milliy xarakteri, milliy urf odatlar va an'analar, milliy tuyg'ular, did, milliy ong va milliy o'zlikni anglash kabi uammolarni tadqiq etgan. Tadqiqotda o'zbek xalqining psixologik xususiyatlari shakillanishi va ularni vujudga keltiruvchi omillar haqida ilmiy xulosalar bayon etilgan. Olib borilgan tadqiqodlar keng qamrovligi va aniqligi bilan ajralib turadi.

M.M.Mamatov hozirgi kunda O'zbekiston Milliy uneversiteti falsafa fa'kulteti, psixologiya kafedrasida dotsenti bo'lib, faoliyat yuritmoqda. Shu kungacha birqancha shogirtlar etishtirib chiqarib, o'z salohiyati bilan psixologiya fani taraqqiyotiga hissa qo'shib kelmoqda



Gapparov Zaxid Gapparovich 1942-yil 14-iyun kuni Toshkent shaxrida tug‘ilgan. Pedagogika fanlari nomzodi, professor. Z.G.Gapparov o‘zining ilmiy va ijodiy ishlari bilan psixologiya fani taraqqiyotiga katta hissa qo‘shib kelmoqda. Z.G.Gapparov tomonidan jismoniy tarbiya unstitutida talabalar va sportchilar uchun mo‘ljallangan psixologiya o‘quv ilmiy laboratoriyasi tashkil etildi. Ushbu laboratoriyaning yaratilishi kafedraning sport psixologiyasi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar faoliyatining boshlanishiga yordam berdi. Dastlabki tadqiqotlar asosan psixofiziologik xarakterga ega bo‘lib, ular qilichbozlarning harakatlaridagi assimetriyalarni o‘rganishga yo‘naltirilgan edi. Ushbu mavzu Z.G.Gapparov tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, unga L.E.Lebedyanskaya rahbarlik qilgan (1966-1969 yillar).

O‘zbekistonlik sport psixologlari ilk bor 1967-yilda xorijda bo‘lib o‘tgan ilmiy anjumanda o‘z ilmiy tadqiqotlari bilan ishtirok etdilar. O‘shanda Tbilisi shahrida sport psixologiyasi bo‘yicha Umumittifoq konferensiyasi bo‘lib o‘tgandi. Ushbu anjumanda hamyurtlarimiz tomonidan 2 ta ma‘ruza qilingan (L.E.Lebedyanskaya, Z.G.Gapparovlar tomonidan) ushbu ma‘ruzalar “Qilichbozlardagi harakat assimetriyalari” va “Funksional assimetriya qilichbozlarning sport tayyorgarligi holatining mezoni sifatida” deb nomlangan.

Ana shunday muvaffaqiyatli chiqishlardan so‘ng O‘zbekistonlik psixologlar keyingi yillarda sport psixologiyasi bo‘yicha o‘tkazilgan barcha konferensiya, simpozium, seminarlarda muntazam qatnashib bordilar. 1969-1972 yillar mobaynida psixolog Z.G.Gapparov Moskvadagi markaziy jismoniy tarbiya instituti (GSOLIFK)ning professor P.A.Rudik rahbarlik qilayotgan psixologiya kafedrasining maqsadli aspiranturasida tahsil oldi. Professor O.A.Chyernikova rahbarligi ostida Z.G.Gapparov tomonidan “Qilichbozlardagi oraliqni his qilishning psixologik xususiyatlarini o‘rganish” mavzusida dissertatsiya yozilib muvaffaqiyatli tarzda himoya qilindi. Moskva tajribasi kafedra psixologlarining o‘quv - ilmiy ishlarining yanada takomillashtirilishiga xizmat qildi.

Mazkur kafedra olis xorij mamlakatlarida ham sport psixologiyasi bo‘yicha bilimlarning tarqatilishiga o‘zining munosib hissasini qo‘shdi (dotsent Z.G.Gapparov 1983-1987 yillar davomida

Juzoirning institutlarida "Psixologiya" va "Sport psixologiyasi" fanlaridan dars berdi).

Sobiq ittifoqda sport psixologiyasi hali alohida fan sifatida ajralib chiqmagan, shuningdek uning alohida boshqaruv organlari ham yo'q edi. 1987-yilda Moskvadagi markaziy davlat jismoniy tarbiya instituti (GSOLIFK) qoshida simpozium o'tkazilib, unda sobiq ittifoqning barcha Respublikalaridan psixolog mutaxassislar ishtirok etdilar. Simpoziumning ta'ris majlisida sobiq ittifoqda sport psixologlari federatsiyasi tashkil etildi va, O'zbekiston psixologlari vakili Z.G.Gapparov esa mazkur majlisda qatnashdi.

Magistrantlar, aspirantlar, kafedraning professor o'qituvchilarining o'quv va ilmiy faoliyatlarini ta'minlash maqsadida kafedrada psixologik tadqiqotlar uchun PSI-10 kompyuter dasturi (kompyuterlashtirgan psixodiagnostika usullari) ishlab chiqildi, shuningdek talabalar bilan laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish uchun kompyuter o'quv dasturlari yaratildi (Z.G.Gapparov).

Psixologiya laboratoriyasi psixologik tadqiqotning yangi uslublari yaratilishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Xususan "FOSBERI" uslubi bilan balandlikka sakrashning ritm va sur'at strukturalarini aniqlash uchun xizmat qiluvchi "RTS-PV" kompyuter dasturi, sinxron suzish musobaqaviy kompozitsiyalarining ritm va sur'atli strukturalarini aniqlashga xizmat qiluvchi "SINXRO" dasturi hamda yangi o'rganayotgan slalomist – eshkakchilarda xotirani rivojlantirishga mo'ljallangan "SLALOMIST" dasturlarini alohida tilga olib o'tish mumkin. Futbolchilarda taktik tayyorgarliklarni takomillashtirish maqsadida "TAKTIK" kompyuter dasturi ishlab chiqildi. Ushbu barcha kompyuter dasturlaridan magistrlik va nomzodlik dissertatsiyalarida, shuningdek Respublikamizning terma jamoalari sportchilarining psixologik tayyorgarligini takomillashtirishda samarali foydalanildi. Z.G.Gapparov hozirda ham O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya instituti "Pedagogika va psixologiya kafedrasida"da ilmiy izlanishlar olib bormoqda.

Botir Rahmonqulovich Qodirov 1943-yil Qashqadaryo viloyatida tug'ilgan. 1967-yilda Samarqand Davlat tibbiy institutining davolash fakul'tetini tamomlagan. Iste'dodli psixolog, psixologiya fanlari doktori, professor B.R.Qodirov o'zining ijodiy faoliyatini iqtidorli yoshlarni o'rganishga bag'ishladi.

U differensial psixologiya sohasida yoshlarning individual xususiyatlarini o'rgandi. Yoshlarda ijtimoiy qiymatga ega bo'lgan

o'quvchilarning faoliyat yo'nalishlari, layoqat va birlamchi qobiliyatlarining miya mexanizmlari o'rganildi.

Yoshlarni u yoki bu ijtimoiy faoliyat yo'nalishlarini tanlashlari elektroensefalografik usullar bilan neyrofiziologik jihatlari tadqiq qilindi. Olingan ma'lumotlar miya faoliyatida kasb tanlash, kasbga moyillik va layoqat turlarini ta'minlab turadigan muqobil neyrofiziologik xislatlar borligini isbot etdi.

Zehn testlari majmuasi shakllantirildi. Asosiy ilmiy yo'nalishi umumiy psixologiyaning differensial psixofiziologiya sohasiga taalluqli bo'lib, yoshlarda ijtimoiy qimmatga ega bo'lgan o'quvchilarning faoliyat yo'nalishlari, layoqat va birlamchi qobiliyatlarining miya mexanizmlari o'rganildi.

Shu bilan birga O'zbekiston sharoitida o'ta zehni, aqliy zakovat saviyasi yuqori darajada rivojlangan o'quvchi – yoshlarni saralash va litsey, kollej va oliy o'quv yurtlariga tavsiya etish maqsadida maxsus psixologik testlari majmuasini yaratish ijtimoiy buyurtma sifatida qabul qilindi va oxirgi yillarda bu sohada bajarilgan ishlar jamoatchilik tomonidan qo'llab – quvvatlanmoqda.

Uning hozirgacha 1993-yil. "O'zbekistonning iste'dodli bolalari va ularni tanlash muammolari", 2007-yil "Iste'dod Tafakkur", 1993-yil "Iste'dodlarni izlash yo'lida". Ilmiy tuplam, 1995-yil "Iste'dodli bolalarni tanlash uslubikasi", 2004-yil. "Kasbiy tashxis uslubikalar to'plami", Serqirra olim hozirga qadar psixologiya fanida ko'plab izlanishlarni olib bormoqda. B.R.Qodirov hozirda ham o'zining ilmiy izlanishlari bilan psixologiya fani taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shib kelmoqda.



Gaziye Ergash Gaziyeovich 1944-yilda Toshkent shaxrida tavallud topgan. O'zbekistonda psixologiya faning rivojlanishi mustaqillikning dastlabki yillaridanoq qaratilgan e'tibor tufayli bugungi kunda jamiyat hayotidagi eng dolzarb muammolarning psixologik jihatdan hal etishda soha mutaxassislarining faol ishtirokini ta'minlashga olib keldi. Shu bois O'zbekiston Milliy universiteti Falsafa fakulteti Psixologiya kafedrasini tomonidan tayyorlanayotgan mutaxassislar mamlakatimizning barcha hududlarida o'zlarining kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini mamlakat ravnaqi uchun qo'llab kelmoqdalar.

Mustaqillik yillarida o'quv-uslubiy sohada erishgan yutuqlar asariga psixologiya fani bo'yicha o'quv adabiyotlarining davlat tilida yaratilganligini misol qilish mumkin. Bu borada psixologiya kafedrasida professori, psixologiya fanlari doktori E.G'.G'oziyevning ulushi ancha kattadir. Professor E.G'.G'oziyev tashabbusi va ijodiy mehnati mahsuli sifatida. 1992-yilda "Oilaviy hayot etikasi va psixologiyasi" darsligi, 1994-yilda Psixologiya (yosh davrlar) darsliklarining yaratilishini bu boradagi ilk ijod namunalari deyish mumkin. 1994-yilda talabalarning psixodiagnostika, umumiy psixologiya fanlari bo'yicha qo'shimcha adabiyotlar sifatida "Intellet psixologiyasi", "O'zingizni bilasizmi?" nomli o'quv-uslubiy qo'llanmalar yaratildi.

Professor E.G'.G'oziyev tomonidan 1998-1999 yillarda tashkiliy psixologiya, Muomala psixologiyasi, Psixologiyada matematik uslublarni qo'llash, Pedagogik psixologiya asoslari singari uslubiy qo'llanmalar yozildi. 2000-yilda esa, professor tomonida psixologiya yo'nalishi mutaxassisliklari uchun Umumiy psixologiya fanidan darsligi yaratildi. Shuningdek, professor E.G'.G'oziyev Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi buyurtmasi asosida kasb-hunar kolleji talabalari uchun "Psixologiya" darsligini tayyorladi va nashr ettirdi.

Psixologiya kafedrasida professor-o'qituvchilarining o'quv adabiyotlari yaratish bo'yicha erishgan eng yaxshi yutuqlari 2009-2010 yillarga to'g'ri keladi. Bu davrda professor E.G'.G'oziyevning psixologiya yo'nalishi talabalari uchun Umumiy psixologiya va Ontogenez psixologiyasi darsliklari chop etildi.

Uning "Oila etikasi va psixologiyasi" (1992 yil) "Oila adobi va ahloqi" (1993 yil) "Yosh davrlar psixologiyasi" (1994 yil) "Pedagogik psixologiya asoslari" (1996 yil) "Psixologiya muammolari" (1997 yil) "Psixologiyadan ma'ruzalar matni" (1998 yil), "Taraqqiyot psixologiyasi" (1999 yil), "Shaxs psixologiyasi" (1999 yil), "Psixologiya uslubalogiyasi" (2000 yil), "Muomala psixologiyasi" (2001 yil), "Umumiy psixologiya" (2002 yil), "Xulq - atvor motivatsiyasi" (2003 yil), "Kasb psixologiyasi" (2003 yil), "Psixologiya o'qitish uslubikasi" (2004 yil), "Oliy maktab psixologiyasi" (2005 yil), "Psixodiagnostika va amaliyot" (2005 yil) "Umumiy psixologiya", "Ontogenez psixologiyasi", "Psixologiya vısshey shkoly" (2006 yil), "Ijtimoiy psixologiya asoslari", "Kichik guruhlar psixologiyasi" kabi ilmiy qo'llanmalar, monografiyalar muallifidir. Kafedra professor - o'qituvchilari tomonidan mahalliy matbuot nashrlarida muntazam ravishda psixologik maslahat va ilmiy

maqolalar bilan qatnashib keng jamoani psixologik bilimlarni boytishga o'z hissalarini qo'shib kelishmoqda. Serqirra ijodkor olim 2008 y. "Mehnat shuhrati" ordeni bilan taqdirlandi.



Shoumarov G'ayrat Baxromovich 1947-yilada Toshkent shaxrida tavvallud topgan.(1990 yilda fan doktori, 1993-yili professor) differensial psixologiya, ijtimoiy psixologiya, etnopsixologiya, oila psixologiyasi, shaxs psixologiyasi, psixodiagnostika, o'zbek oilasining ijtimoiy psixologik, etnopsixologik

xususiyatlari masalasini o'rganishga katta e'tibor berdi.

Respublikada psixologik xizmat ko'rsatishni tashkil qilish, yosh va pedagogik psixologiya, boshqaruv psixologiyasini yoritishga oid darsliklar, o'quv qo'llanmalari, ilmiy-amaliy maqolalar yaratdi. Jumladan: "Vozmojnosti primeneniya adaptirovannogo varianta uslubiki Vekslera dlya diagnostiki zaderjki psixicheskogo razvitiya", 1983-yil "O problemax sovershenstvovaniya" psixologicheskoy diagnostiki v shkole", 1986-yil "Vliyanie psixologicheskix osobennosti uzbeksoy semi na vospitanie molodyoji", 1994-yil "Muhabbat va oila", 1998-yil "Realizatsiya Natsionalnoy programme po podgotovke kadrov v Uzbekistane", 2000 yil "Oila psixologiyasi". Akademik litsey va kasb - hunar kollejlari o'quvchilari uchun. O'quv qo'llanma, 2000-yil "1001 savolga psixologning 1001 javobi", "Intellektual koeffitsient, umumiy qobiliyatlarni aniqlash uchun test", "Oilani o'rganish psixodiagnostik uslubikalari", "Onalarga psixolog maslahati" nomli ilmiy ishlari nashrdan chiqdi. U 20 ga yaqin fan nomzodi va bir necha fan doktorlari tayyorladi.

Professor G'.B.Shoumarov ilmiy izlanishlarida oila va oilaviy munosabatlardagi nosog'lom psixologik muhitning bola xulq-atvoriga ta'siri, xulq og'ishining kelib chiqishida shaxsning individual - psixologik xususiyatlari, ruhiy tanglik va affektiv holatlarining bolalar va o'smirlarda xulq og'ishining kelib chiqishiga ta'siri masalasi batafsil yoritiladi.

G'.B.Shoumarovning ta'kidlashicha, oiladagi nosog'lom-psixologik muhit nafaqat er-xotin o'rtasidagi nizolarni, balki bolalar ruhiyatidagi, xulq-atvoridagi o'zgarishlarni ham keltirib chiqaradi. Oilada ota-onalarning o'z hayot va tashvishlari bilan bo'lib, bolalar faoliyatini nazorat qilmasliklari hamda ularni ijtimoiy foydali faoliyatga yo'naltirmasliklari, bolalarda xulq og'ishining kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Shuningdek, oilaviy tarbiyaning ta'sirchanlik

roli, ota-onaning shaxs sifatida ibrat ko'rsata olmasligi, ularning noaxloqiy xulq-atvorga ega bo'lishlari va boshqalar bolalar va o'smirlarda xulq og'ishining kelib chiqishiga olib keladi.

G'.Shoumarov milliy haraktyerning ba'zi konsepsiyalarini yaratishda turli xil milliy-etnik guruhlarda alohida shaxslarning qat'iy psixologik xislatlarida namoyon bo'luvchi va "madaniy xulqni" ko'rsatuvchi o'ziga xos milliy xarakter mavjudligidan kelib chiqishgan. Bu o'z navbatida ma'lum bir milliy-etnik guruh uchun xos bo'lgan va shu millat vakili sifatida shaxsiy hamda milliy madaniyatga oid xislatlarni o'zida aks ettirgan "shaxs" modelini yaratish imkonini bergan.

Milliy xarakterga xos xislatlarning shakllanishida madaniy va siyosiy institutlarning ta'siriga, shuningdek, farzandlar tarbiyasida oilaning rolga ustuvor ahamiyat berilganki, bu siyosiy-psixologik jihatdan alohida ahamiyat kasb etgan.

Shu bilan birgalikda hozirgi zamon psixologiyasida oila va uning jamiyat hayotida tutgan o'рни va ahamiyati masalasida ham G'.Shoumarov bir qator izlanishlar olib borgan. Mustaqillik yillarida amalga oshirilayotgan ijtimoiy islohotlar va oilaga e'tiborning ortib borayotganligi bois yutrimizda oila va uning muammolari olim o'z maxsus ilmiy maktab doirasida qator yosh olimlar bilan o'rganmoqda. Chunki oila muammolarining ilmiy jihatdan o'rganilishi unga aloqador amaliy masalalarni to'g'ri va asosli hal qilish, joylarda tashkil etilayotgan psixologik yordam va xizmat shaxobchalarining ishlarini samarali tashkil etishning kafolatidir.

Ular respublikamizda ijtimoiy psixologiya, xususan, oila psixologiyasi fanining rivojiga, hissa bo'ladigan qator ilmiy tadqiqotlar o'tkazdilar. Bu tadqiqotchi olimlarimiz zamonaviy milliy oila va uning psixologik xususiyatlari, muammolari, o'zbek xalqining o'ziga xos etnopsixologiyasi, oilaviy status va rollar haqidagi tasavvurlarning shakllanishi, yosh oilalarda yuzaga keladigan er-xotin nizolarining etnik xususiyatlari, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, nikoh to'yi bilan bog'liq o'zbek etnopsixologiyasining ba'zi ko'rinishlari mavzularda diqqatga sazovor ilmiy fikrlarni bayon qildilar.

Gaynudinov Rifkat Zaydullaevich 1950-yilda tug'ilgan. O'zbekiston jismoniy tarbiya institutining pedagogika fakul'tetini tamomlagan. 1992-yildan psixologiya fanlari doktori, 1997-yildan professor unvoniga ega bo'lgan.

Asosiy ilmiy ishlari “psixologich upravleniya v organax vnutrennix del”, “psixolog bakalavrlar uchun o‘quv qo‘llanma”, “Psixologicheskie osobennosti nesovershenno – letnix i ixuchet pri doprose”, “somosoznanie i samoregulyasiya uchitelya”, “Vaprosi organizatsii psixologicheskoy slujbi v shkole”, “Uchitelyu o psixologii vopitaniya”, “K probleme uslubologicheskix podxodov v psixologicheskix issledovaniyax lichnosti uchitelya v sisteme neprerivnogo obrazovaniya” shu bilan birga juda ko‘p ilmiy va ommabop maqolalar muallifidir.

Bir so‘z bilan aytganda olim tamonidan qilingan ilmiy ishlar psiholojiya fani taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan. Uning raxbarligida o‘n ikki kishi nomzodlik va bir kishi doktorlik dissertatsiyalarini himoya qilishgan. R.Z. Gaynudinov o‘zining ilmiy ishlari bilan psixologiya fani taraqqiyotiga o‘z hissasini qoshgan olimlarimizdandir.



Karimova Vasila Mamanosirovna Oila muqaddas dargoh. Bizning milltimizning eng talpingan, o‘z jonini ham fido qilgan muqaddas maskanlardan biri oila hisoblanadi. Huddi shu oilaning tinchligini uni saqlab qolishning dolzarb muommolarni o‘rganish ilm fidoiylari oldida turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Huddi shu masalaga o‘zining butun umrini baxshida qilib kelayotgan olimlarimizdan biri muqaddas zot, ona, ehtiromga loyiq ayol – olima Karimova Vasila Mamanosirovadir.

Vasila Mamanosirovna 1955-yil 18 avgustda Farg‘ona vodiysining so‘lim maskanlarida istiqomat qilayotgan xizmatchi oilasida dunyoga kelgan. Vasila Mamanosirovna maktabni a‘lo baholarga bitirib, ilm yo‘lidan ketish maqsadida Toshkent davlat universitetini 1972-1975 yillarda tahsil oldi. Olgan bilimlarini yanada mustahkamlash maqsadida Moskva davlat universitetining psixologiya fakultetiga o‘qishga kirib, 1977-yilda uni tamomlaydi. O‘z izlanishlarini davomi sifatida Moskva davlat universiteti qoshidagi Ixtisoslashgan Ilmiy kengashda 1988 yilda psixologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini, 1994-yilda psixologiya fanlari doktori ilmiy darajasini Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi bir martalik Ixtisoslashgan Ilmiy kengash qoshida himoya qilgan. Unga 2000-yilda Ijtimoiy psixologiya kafedrasining professori unvoni berilgan.

Karimova Vasila Mamanosirova yurtboshimiz siyosatini qullab-quvvatlagan holda oilada ayolning o'rnini, uning muammolariga bag'ishlangan qator tadqiqotlar olib borgan va olib bormoqda. Uning bu ilmiy izlanishlarni hisobga olgan holda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga ko'ra Respublika "Oila" ilmiy-amaliy markazining direktori etib tayinlandi. 2000 – 2011 yillarda ichida ushbu dargohni boshqarib kelgan holda bir qator ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bordilar va yurtimizda oila va nikoh institutining mustahkamlanishi, uning qonuniy bazasini takomillashtirish, aholi o'rtasida keng targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borishga hissa qo'shdilar.

O'tgan yillar mobaynida Karimova tomonidan jami 50 dan ziyod nomli o'quv qo'llanmalar, 5 ta monografiya, 2 ta darslik, 48 ta Xalqaro va Respublikaning nufuzli ilmiy-amaliy anjumanlarida ilmiy maqolalar chop etilgan, Xalqaro va respublika ilmiy-amaliy grantlarining rahbari va ishtirokchisi sifatida o'zi va shogirdlari bilan ilmiy izlanishlar olib borgan, 20 dan ziyod fundamental, amaliy, innovatsion, Xalqaro ilmiy tadqiqot loyiha-grantlarning rahbari va ijrochisi sifatida tanilgan. Jumladan, "O'zbekiston Respublikasi oilalarini mustahkamlash borasidagi davlat siyosati va oila istiqbolini belgilovchi ijtimoiy demografik tadqiqotlar" mavzusidagi fundamental, "Milliy istiqbol g'oyalari "Oila - mahalla" tizimidagi tarbiyaviy jarayonga singdirishning mexanizmlari va pedagogik-psixologik tamoyillari" va "O'zbekistonda xotin-qizlar tadbirkorligini samarali tashkil etishda gender-menejment dasturlaridan oqilona foydalanish" nomli amaliy, "Alohida yordamga muhtoj bolalar", "Yod tanqisligining oldini olish", "Gigienik vositalardan foydalanish, oilada tibbiy madaniyatni oshirish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish. Qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash" mavzusidagi Xalqaro grantlarning rahbari va ishtirokchisi sifatida o'nlab monografik kitoblar, ommabop risolalar chop ettirgan.

Siyosiy hamda mafkuraviy faoliyatini V.M. Karimova 1999-2011 yillar mobaynida O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi Ayollar qanotining rahbari sifatida ham vijdonan ado etib keldi, xotin-qizlarning siyosiy ongini oshirish, saylab qo'yiladigan organlar faoliyatini kuchaytirishda o'zining munosib xissasini qo'shdi.

Vasila Karimova psixologiya fanlari doktori, professor sifatida O'zbekistonda psixologiya sohasida oliy malakali kadrlar tayyorlashga munosib hissa qo'shib kelmoqda. Uning rahbarligida shu

davrgacha 50 ga yaqin yoshlar ijtimoiy psixologiyaning turli muammolari ustida doktorlik, nomzodlik, magistrlik dissertatsiyalari ustida ishlab kelmoqdalar. Ularning orasida bitta fan doktori, o'n olti nafar fan nomzodi bo'lgan shogirdlari ilmiy daraja beruvchi diplom sohiblari sifatida O'zbekistonning turli xududlarida yuqori malakali psixolog kadrlar sifatida muvaffaqiyatli faoliyat yuritib kelmoqdalar

V.M. Karimovanning muallifligida shu kungacha 320 dan ziyod monografiya, darslik, o'quv qo'llanma, risola, ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalar chop etilgan bo'lib, ular orasida respublikamizda ilk marotaba nashr etilgan "Ijtimoiy psixologiya" (2012), "Oila psixologiyasi"(2008) darsliklarini; nopedagogik hamda nopsixologik yo'nalishda ta'lim olayotgan oliy o'quv yurtlarining talabalariga mo'ljallab yozilgan "Psixologiya" (2000, 2002, 2005) nomli o'quv qo'llanmasi; "Salomatlik psixologiyasi: yohud sog'lom bo'lish uchun ruhiyatni boshqarish sirlari" (2005); "Oilaviy hayot psixologiyasi" (2006), mualliflar guruhiga rahbar sifatida chop etgan "Psixologiya". Nopedagogik va nopsixologik oily o'quv yurtlari uchun darslik" (2007), "Boshqaruv sohasidagi professional kompetensiya asoslari" monografiyasi (2007), "Boshqaruv psixologiyasi" (2008), "Etnopsixologiya" (2012), "Kasbiy Psixologiya", (2013) deb nomlangan o'nlab o'quv qo'llanmalarni alohida e'tirof etish mumkin. Nopedagogik hamda nopsixologik yo'nalishda ta'lim olayotgan oliy o'quv yurtlarining talabalariga mo'ljallab yozilgan "Psixologiya" o'quv qo'llanmasi bir necha yillar mobaynida qayta - qayta nashr etilib, "Yilning eng yaxshi kitobi" tanlovi g'olibi (2001 va 2002 y.y.) bo'lgan, u barcha oliy o'quv yurtlarida asosiy qo'llanma sifatida o'qitilib kelinmoqda. 2012 yilda chop etilgan "Ijtimoiy psixologiya" nomli darsligi barcha oliy o'quv yurtlari magistrleri uchun mo'ljallab yozilgan yagona darslik hisoblanadi. Muallifning qator ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalari Respublikamizning deyarli barcha yirik jurnal va gazetalarida – "Tafakkur", "Ta'lim va tarbiya", "Iqtisodiyot va ta'lim", "Sog'lom avlod uchun", "Oila", "Uzluksiz ta'lim", "Ta'lim menejmenti", "Huquq va Burch", "Pshihologiya", "Xalq ta'limi" kabi nufuzli ilmiy jurnallarda hamda "Xalq so'zi", "Ma'rifat", "Oila va jamiyat" kabi etakchi gazetalarda nashr etilib kelinmoqda, ayrim maqolalari "Yilning eng yaxshi maqolasi" tanlovlarining bir necha marotaba g'olibi bo'lgan (2005 y, 2008 y, 2012 y).

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 7 iyun qaroriga ko'ra tuzilgan "Milliy istiqloq g'oyasi konsepsiyasi"ni

tayyorlovchi ishchi guruh a'zosi sifatida ilmiy jurnallar hamda Respublika matbuotida 100 dan ortiq maqolalar chop ettirgan va "Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" kitobining mualliflaridan biri hisoblanadi. "O'quv dasturlari, darsliklar va o'quv qo'llanmalar qayta ko'rib chiqish va yangilarini yaratish bo'yicha respublika muvofiqlashtiruvchi komissiyasi" ishchi guruhi a'zosi (Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 29 may qarori) sifatida ko'plab yangi avlod darslik va qo'llanmalarining muallifi va taqrizchisi sifatida tanilgan.

Professor V.Karimova ilmiy-pedagogik faoliyatini jamoatchi-tashkilotchilik bilan uyg'unlashtiradi: 1994-yilda "FarDU xabarлари", 2004-yilda "Oila" ilmiy-ma'rifiy, ijtimoiy psixologik, rangli-bezakli jurnalning asoschilaridan, "Oila" jurnalining bosh muharriri bo'lib ishlagan.

V.Karimova o'tgan yillar mobaynida Respublikaning ko'zga ko'ringan jamoatchi faoli sifatida 30 ga yaqin jamoat tashkilotlari va jamg'armalarning ta'sischi – a'zosi sifatida yoshlar, xotin-qizlar, mahalla faollari o'rtasida katta faollik ko'rsatgan; milliy mafkura, oila psixologiyasi, sog'lom turmush tarzini targ'ib etuvchi 50 dan ziyod maqola va ko'rsatuvlar muallifi, ishtirokchisi sifatida xalq orasida obro' qozongan, yuzlab tele va radio ko'rsatuv va eshittirishlarda psixologik bilimlar, sog'lom turmush tarzi, ota-onalarning psixologik bilimdonligini oshirish, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash borasida jonbozlik ko'rsatgan olimadir.

V.M. Karimova 1994-yildan buyon psixologiya bo'yicha Ixtisoslashgan ilmiy kengashlarning a'zosi, rais o'rinbosari, raisi sifatida mamlakatimizda yuqori malakali psixolog kadrlar tayyorlashga katta hissa qo'shib kelmoqda: turli yillarda O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent davlat pedagogika universiteti hamda Qozog'iston Milliy universiteti qoshidagi Ixtisoslashgan Kengashlarda rais (2007 yil O'zMU), rais o'rinbosari (1998 - 2007) va a'zosi sifatida faoliyat yuritgan.

1991-1996 yillarda Farg'ona davlat universitetida ochilgan birinchi psixologiya va amaliy sotsiologiya fakultetining asoschisi va professori vazifasini bajarib keldi. 1998-yilda Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti qoshida ilk marotaba ochilgan Ijtimoiy psixologiya kafedrasini va aspirantura hamda 2012-yildan buyon katta ilmiy xodim-izlanuvchi institutining asoschisi va professori bo'lib

xanuzgacha ishlab kelmoqda. Vasila Karimova - oilali, ikki farzandning onasi, uch nabiraning buvisi.



To'laganova Gulchehra Qo'chqorovna 1956-yilda Toshkent shaxrida tug'ilgan. 1980 yilda Toshkent Davlat universiteti falsafa-iqtisod fakultetining psixologiya bo'limini tugatgan. 1993-yil psixologiya fanlari nomzodi, 2000-yilda dotsent unvonini olgan. Hozirda O'zbekiston Milliy Universiteti psixologiya kafedrasida dotsenti lavozimida ishlab kelmoqda.

Asosiy Ilmiy Ishlari:

1. Pedagogik psixologiya asoslari. O'quv-uslubik qo'llanma. Toshkent, "Universitet", 1997-yil.
2. Tarbiyasi qiyin o'smirlar. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya kursi bo'yicha uslubik ko'rsatma. Toshkent, "Universitet", 1999-yil.
3. Psixologiya sohalariga oid o'quv-uslubik qo'llanma. Toshkent. "Universitet", 1999-yil.
4. Psixologiyada matematik uslublarni qo'llanilishi. O'quv qo'llanma. Toshkent. "Universitet", 1999-yil.
5. Differensial psixofiziologiya. O'quv qo'llanma. Toshkent, "Universitet", 1999-yil.

Muallif "Tarbiyasi "qiyin" o'smirlarning potoxarakterologik xususiyatlari" mavzusida doktorlik dissertatsiyasi ustida ish olib bormoqda. Zero, tarbiyasi "qiyin" o'smirlar shaxsi shakllanishining sharoit va maqsadga yo'nalgan omillarini o'rganish faqat uning shaxsining deformatsiyalangan tuzilmasini psixokorreksiya qilish yo'llarini aniqlab qolmasdan, balki o'smir shaxsi shakllanishi muammosini psixologik hal qilish mumkin bo'lgan modellarini yaratish imkoniyatini beradi. Ayni vaqtda o'smirlar xarakteridagi muvaqqat o'zgarishlari psixoprofilaktikasi tarbiyasi "qiyin" o'smirlarni qayta tarbiyalash uslublarini tadbiq qilish bu muammoning yechilishiga yordam beradi.

Jabborov Azim Meyliqulovich 1957-yilda tug'ilgan, o'zbek. Toshkent Davlat universiteti falsafa-iqtisod fakultetining psixologiya bo'limini 1980-yilda tamomlagan. 2000-yilda psixologiya fanlari doktori unvonini olgan. Asosiy ilmiy ishlar "O'zbek xalqining o'ziga xosligi" (Poisk, 1998 yil, 3-son), "Ajdodlarimiz tajribasi" (Boshlang'ich ta'lim, 1996 yil, 3-son), "Xalq siymosi aks etar bunda"

(Fan va turmush, 1996-yil, 5-son), “Ma’rifat elchilari mas’uliyati” (Muloqot, 1997 yil, 2-son), “Oila tarbiya o’chog’i” (Boshlang’ich ta’lim, 1997 yil, 2-son), “Tilning aloqa vositasi sifatleri” (Til va adabiyot ta’limi, 1997 yil, 2-son), “Abu Rayhon Beruniyning etnopsixologik qarashlariga doir bebaho manba” (Sog’lom avlod uchun, 1997 yil, 2-son), “Markaziy Osiyoda XV asr ta’limidagi demokratik g’oyalar” (Xalq ta’limi, 1997 yil, 4-son), “Etnik stereotip nima?” (Fan va turmush, 1990 yil, 2-son), “Ta’limdagi muhim muammalar” (Xalq ta’limi, 1998 yil, 4-son), Psixologiya fanini o’qitishda Alisher Navoiy merosidan foydalanish. “Ulug’ Alisher Navoiyning o’zbek adabiyoti, tili, madaniyati, taraqqiyotidagi buyuk xizmatlari va hozirgi adabiy, madaniy jarayon” Respublika Ilmiy Konferensiyasi maqolalar to’plami. (Qarshi, 2000 yil).

Keyingi ilmiy faoliyatida o’zbek maktabi o’qituvchisining psixologik va etnik xususiyatlarini o’rganish, ana shunday sifat va fazilatlarining shakllanishi bilan bog’liq shart-sharoitlarini, hamda ularga ta’sir etuvchi muhim omillarni aniqlashni, shuningdek, ta’lim jarayonida samarali o’zlashtirishning etnopsixologik tamoyillarini tadqiq qilishni istiqboldagi rejasi sifatida belgilagan.

Akromova Feruza Akmalovna 1958-yilda tug’ilgan, 1980-yilda Abu Rayhon Beruniy nomli Toshkent Politehnika instituti, ABS fakultetini bitirgan. 1997-yil psixologiya fanlari nomzodligini yoqlagan. Asosiy ilmiy ishlari “Maqsad oilaviy hayotga tayyorlash”, “Respublika ko’rik tanlovi sovrindorlarining ilmiy-tadqiqot ishlari – Psixologiya”, “Yoshlarda sevgi muhabbat hislarining namoyon bo’lishi”, “Tashkiliy xulq”. Ma’ruzalar to’plami, “Psixologiya” ma’ruzalar matni, “1001 savolga psixologning 1001 javobi”,

Muallifning ilmiy g’oyalari va tadqiqot yo’nalishlari – yuqori sinf o’quvchilari tasavvurida sevgi-muhabbat hislarining namoyon bo’lishining ijtimoiy va etnopsixologik xususiyatlari. Keyinchalik shaxslar munosabatlarida attraksiyaning o’ziga xos xususiyatlarini yoshlarda namoyon bo’lishi. Oila psixologiyasi, muomala psixologiyasi, boshqaruv psixologiyasi, shaxs psixologiyasi yo’nalishida olib borilmoqda.

Soginov Nurmat Abdusamadovich 1958-yilda tug’ilgan. 1984-yilda Toshkent Davlat universiteti falsafa-iqtisod fakultetining “Psixologiya” bo’limini bitirgan. 1990-yil Psixologiya fanlari nomzodi. 1992-yilda dotsent unvonini olgan.

A. Avlomi nomidagi Xalq Ta'limi xodimlari malakasini oshirish Markaziy instituti "Psixologiya" kafedrasida dotsent lovozlarida faoliyat yuritgan. Asosiy ilmiy ishlari "Oila psixologiyasi: akademik litsey va kab-hunar kollej o'quvchilari uchun darslik", "1001 savolga psixologning 1001 javobi", "Ta'lim tizimida psixologik xizmatni amalga oshirishda psixodiagnostik vositalardan foydalanish". Ilmiy g'oyalar va tadqiqot yo'nalishlari: ijtimoiy psixologiya, etnopsixologiya, oilapsixologiyasi, shaxs psixologiyasi, psixodiagnostika kabi ilmiy tadqiqot ishlari olib boradi. O'zbek oilasining ijtimoiy psixologik, etnopsixologik xususiyatlarini o'rganish. Respublikada psixologik xizmatni tashkil etish, yosh davrlari psixologiyasi, pedagogic psixologiya masalalarini yoritishga oid ilmiy maqolalar, ilmiy uslubiy to'plamlar, ilmiy-amaliy qo'llanmalar muallifi. Muallif hozirda ham o'zining ilmiy ishlari va izlanishlari bilan psixologiya fani taraqqiyotiga oz hissasini qo'shib kelmoqda.

Safayev Nuriddin Solixovich 1959-yilada Toshkent shaxrida tavvallud topgan. 1981-yilda Moskva Davlat univesiteti, psixologiya fakul'tetini tamomlagan. 1989-yilda psixologiya fanlari nomzodi, 1995-yilda dotsent, 2005 yilda psixologiya fanlari doktori unvonini olgan. N.S. Safayev psixologiya fani taraqqiyotiga o'zining "Metodicheskie ukazaniya po eksperimentalnomu izucheniyu intensivnostno-vremennix xarakteristik sluxovogo vospriyatiya", "Laboratorie raboti po kursu obshey psixologii", "Sistemi podxod i fenomeni sensornoy sistemi", "Muomala sirlari", "Talimning modul tizimi. "Oliy pedagogik o'quv yurtlarining o'quv jarayoniga pedagogik texnologiyalarni tadbiiq etishning ilmiy asoslari" kabi ilmiy ishlari bilan katta hissa qo'shgan. Muallifning tadqiqot yo'nalishlari – O'zbekiston o'quvchi yoshlarida mutaxassislikni egallash jarayonida milliy o'zlikni anglashning psixologik asoslarini shakllantirishni o'rganishga qaratilgan. Bu yo'nalishda muallif milliy o'zlikni anglash xususiyatlarini tadqiq etish, kasb tanlash kabi bir qator muammolarni o'rganib chiqmoqda.

Sunnatova Ra'no Izzatovna 1959-yilada Toshkent shaxrida tug'ilgan. 1982-yilda Toshkent Davlat univesiteti falsafa – iqtisod fa'kulteti, psixologiya bo'limini tugatgan. 1986-yilad nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. O'n ikki yildan ortiq maktab va bog'chada amaliy psixolog bo'lib ishladi. 1996-yilda dotsent unvonini oldi 1999-yilda Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika

universitetida psixologiya kafedrasida doktarantirani tamomladi. 2002-yilda doktorlik dissertatsiyasini yoqladi. R.I.Sunnatovanning psixologiya fani taraqqiyotiga qo'shgan ilmiy ishlari quyidagilardan iborat. "Samoregulyasiya myslitelnoy deyatelnosti", "Optimizatsiya poznavatelnoy deyatelnosti detey 5-9 let", "Mustaqil fikrlash", "Professionalnaya konsultatsiya uslubi, problemy, i vozmojnosti", "Pedagogik faoliyat samaradorligi va o'qituvchi xususiyatlari" nomli ilmiy ishlarini ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari muallifning psixologiya faniga oid 40 dan ortiq ilmiy ishlarini ko'rishimiz mumkin. Muallifning qiziqilari – individual farqlar fundamental muammolari, yosh davrlari psixologiyasining muammolari bilan bog'langan.

Baratov Sharif Ramazanovich 1960-yilda Buxoro viloyati tug'ilgan. 1983 yilda Buxoro Davlat pedagogika institutini bitirgan. Psixologiya fanlari doktori. Hozirda Buxoro Davlat universiteti "Pedagogika va psixologiya" kafedrasida mudiri lavozimida ishlab kelmoqda. Asosiy ilmiy ishlari "Izucheniya otnasheniya uchashixsya mladshix klassov k vipolneniyu razlichnix vidov trudovix zadaniy", "Osobennosti mladshix shkolnikov k sovместnomu trudu", "Pedagogik muomala madaniyatining sosial psixologik asoslari", "Kichik yoshdagi o'quvchilar faoliyatini baholash", "Psixologiyada masalalar to'plami", "O'quvchilar shaxsini o'rganish usullari", "Psixologik xizmat asoslari", "Psixologik xizmat Nizomga qoshimchalar", "Mehnat jamolarida tashkil etilgan psixologik xizmat samradorligini o'rganish", "Umumiy psixologiya" nomli ilmiy ishlari va izlanishlari bilan psixologiya fani taraqqiyotiga hissa qo'shib kelmoqda.



Ruhiyeva Holida Aribjonovna 1962-yilda tug'ilgan Qozog'iston Respublikasi Chimkent shaxrida tug'ilgan. Millati o'zbek. 1981-yilda Toshkent Davlat universiteti falsafa – iqtisod fakul'teti, psixologiya bo'limini tugatgan. 1993-yil psixologiya fanlari nomzodi dotsent. Asosiy ilmiy ishlari "neyropsixologicheskie issledovaniya pri rannem ateroskleroze", "Metodicheskie rekomendatsii po psixologiya vishe shkoli dlya slushatley povisheniya kvalifikatsii prepodavateley vuzov", "Metodichke rekomendatsii po izucheniya lichnoste pravonarushiteley, sovershaemix v sostoyanie affekta", Programme po "Yuridicheskoy psixologii" dlya yuridicheskix visshix uchebnyx

zavedeniy, “Yuridik psixologiya kursi dasturi”. Tergov jarayonida sud-psixologik ekspertizasini tayinlash va o‘tkazish tartibining ba’zi bir psixologik xususiyatlarini aniqlash, sud-psixologik ekspertizasini – maxsus protsesual harakat bo‘lib, u ekspert xulosasini olishga yo‘naltirilgan va qat’iy qonun bilan tartibga solingan bo‘lishi lozim. Muallifning so‘ngi izlanishlari ham mana shu sud-psixologik ekspertiza yo‘nalishida o‘z ilmiy ishlarini davom ettirmoqda.

Xaydarov Fazliddin Ikromovich 1963-yil Buxoro viloyatida tug‘ilgan. 1986-yil Toshkent Davlat universiteti falsafa – iqtisod fakul’teti psixologiya bo‘limini tugatgan. 1997-yil psixologiya fanlari nozodi, 1999-yil dotsent unvonini oldi. Asosiy ilmiy ishlari 1996-yil “Qishloq maktab o‘quvchilarida o‘qish faoliyatidagi motivlarni shakillantirish”, “Qishloq maktablaridagi o‘smir o‘quvchilarda o‘qish motivlarini shakillantirish”, “Balki noyob odamdarsiz” nomli testlar to‘plami, “Amaliy psixologlarni tayyorlashda yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash tajribasi” nomli ilmiy ishlari bilan psixologiya fani taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan olimdir.



Sirliyev Baxtiyor Nazarovich, O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi “Psixologiya va pedagogika” kafedrasida boshlig‘i, podpolkovnik, psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Sirliyev Baxtiyor Nazarovich 1968 yilda tug‘ilgan. Millati o‘zbek. Ma‘lumoti oliy. Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent. 1992 yilda M.Ulug‘bek nomli Toshkent Davlat Universiteti Falsafa fakulteti psixologiya bo‘limini tamomlagan. Ichki ishlar idoralarida 1999 yil aprel oyidan, egallab turgan lavozimida 2004 yilning oktyabr oyidan xizmat qilib kelmoqda.

Sirliyev Baxtiyor Nazarovich 1999 yil 13 aprelda O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi boshlig‘ining buyrug‘i bilan “Ichki ishlar organlari faoliyatida psixologiya va pedagogika kafedrasiga”ga o‘qituvchi lavozimiga qabul qilindi. 1999 yil apreldan 2004 yillar davomida kafedrada o‘qituvchi lavozimida ishlagan. 2004 yil oktyabr oyidan 2014 yil noyabr oyigacha qadar “Psixologiya va kasb etikasi” kafedrasida boshlig‘ining o‘rinbosari, 2014 yil noyabr oyidan bugungi kungacha qadar “Psixologiya va pedagogika” kafedrasida boshlig‘i lavozimida xizmat faoliyatini olib bormoqda.

B.N.Sirliyev 2006 yilda O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 15 yilligi 7ko‘krak nishoni, 2014 yilda “A‘lo xizmatlari uchun” ko‘krak nishoni bilan va 2017 O‘zbekiston

Respublikasi konstitutsiyasining 25 yilligi esdalik nishoni bilan taqdirlangan.

Ilmiy-izlanish ishlari borasida ham ancha faol harakat qilmoqda. 2000 yilda 19.00.07 – pedagogik psixologiya ixtisosligi bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining 2011 yil 21 iyundagi 176/1-sonli bayonnoma qaroriga muvofiq unga "dotsent" ilmiy unvoni berilgan. Hozirda "IIV tizimida xodimlarni kasbga moslashuvining psixologik asoslari" mavzusidagi doktorlik dissertatsiya tadqiqoti ustida ilmiy izlanish olib bormoqda. Bugungi kunga qadar uning 100 dan ortiq darslik, o'quv qo'llanma, ma'ruzalar kursi, ilmiy maqola va boshqa uslubiy ishlari nashr etilgan.

Jumladan,

1. "Dastlabki tergov faoliyati psixologiyasi";
2. "Tezkor-qidiruv faoliyati psixologiyasi";
3. "Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati psixologiyasi", fanlaridan darslik;
3. "Psixologiya" fanidan darslik;
4. "Pedagogika. Psixologiya" fanidan darslik;
5. "Pedagogik psixologiya" o'quv qo'llanma;
6. "O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi tinglovchi va kursantlarida yuksak ma'naviyat va qonun ustuvorligi asosida yashash, el-yurtga sadoqat, adolat, halollik va jasorat fazilatlarini kamol toptirish maxsus kursi";
7. "Yo'l harakati xavfsizligi xizmati faoliyati psixologiyasi";
8. "Patrul-post xizmati va jamoat tartibini saqlash faoliyati psixologiyasi";
9. "Xorijga chiqish, kelish va fuqarolikni rasmiylashtirish xizmati faoliyati psixologiyasi";
10. "Penitensiar psixologiya";
11. "Huquqbuzarliklarning oldini olish xizmati faoliyati psixologiyasi";
12. "Qo'riqlash xizmati faoliyati psixologiyasi";
13. "Yong'in xavfsizligi xizmati faoliyati psixologiyasi";
14. "Psixologiya deyatelnosti po profilaktike prestupleniy";
15. "Psixologiya predvaritelnogo sledstviya" fanlaridan ma'ruzalar kursi;
16. "Stress va agressiya" (ichki ishlar idoralari xodimlari misolida);

17. "Mutaassib shaxsning psixologik xususiyatlari";
18. "Ichki ishlar idoralari xodimlarida ruhiy-salomatlikni tiklashda qo'llaniladigan psixokorreksion mashqlar";
19. "Diniy ekstremistik oqimga mansub va moyil shaxslarning farzandlari bilan olib boriladigan tarbiyaviy profilaktik ishlar" nomli o'quv-uslubiy qo'llanma;
20. "Jazoni ijro etish muassasalari faoliyati psixologiyasi";
21. "Yuridik psixologiyadan praktikum";
22. "Ekstremizm va terrorizm – taraqqiyot dushmani. Ichki ishlar tizimi xodimlari (profilaktika inspektorlari uchun)";
23. "Ichki ishlar idoralari xodimlari faoliyatida kasbiy muomala" nomli o'quv qo'llanmalar;
24. "Dars o'tish jarayonida o'quvchi ruhiyatini o'rganish";

B.N.Sirliyev o'zining ilmiy ishlari bilan Ichki Ishlar Vazirligi tizimida faoliyat olib borayotgan hodimlarning kasbiy faoliyatida uchraydigan psixologik muammolarni echish va sohaga oid darsliklar, oquv qo'llanmalar hamda ilmiy maqolalari bilan sohaning psixologik taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shib kelmoqda.



Rasulov Abdumumin Ibragimovich 1970 yil 25 avgustda Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumani Toshqo'rg'on qishlog'ida tug'ilgan. 1993 yilda Toshkent davlat universitetida Psixologiya bo'limining psixologiya o'qituvchisi ixtisosligi bo'yicha tahsil olgan.

1999 yildan buyon Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Psixologiya kafedrasida faoliyat olib bormoqda. 2001 yilda "O'zbek maktabi o'qituvchisini tarbiyachi sifatida o'quvchilar bilan o'zaro munosabatining psixologik darajalari" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan.

Pedagogik faoliyat yo'nalishida talabalarga "Umumiy psixologiya", "Umumiy psixodiagnostika" va "Testologiya" fanlaridan mashg'ulot olib boradi.

Ilmiy tadqiqot yo'nalishi psixodiagnostika muammolariga bag'ishlangan. "Shaxs psixodiagnostikasi uslubikalarining ilmiy-amaliy asoslari" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi bo'yicha ilmiy izlanish olib bormoqda.

80 dan ortiq ilmiy ishlari mavjud. "Psixodiagnostika" (2010), "Eksperimental psixologiyadan praktikum" (2010), "Diqqat nazariyasi, diagnostikasi va korreksiyasi" (2011), "Diniy

bag'rikenglik - ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida" (2015), "Harbiy psixodiagnostika" (2015), "Din psixologiyasidan praktikum" (2016) o'quv-uslubiy qo'llanmalarining muallifi.

A.I.Rasulov ilmiy ishlari va izlanishlari bilan psixologiya fani taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shib kelmoqda.



Arziqulov Dilshod Ne'matovich 1970 yil 2-sentiyabrda Samarqand viloyatida tug'ilgan. Psixologiya fanlari nomzodi dosent. Mehnat faoliyatini 1992 yilda Toshkent davlat agrar universitetining "Madaniyat, ijtimoiy psixologiya va pedagogika" kafedrasida o'qituvchilikdan boshlagan, 1996–1998 yillarda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining Hunar ta'limi xodimlari malakasini oshirish Respublika institutida ilmiy kotib, keyinchalik shu institutda Ma'muriy-xo'jalik ishlari bo'yicha prorektor, 1998–2000 yillarda Ikkinchi Toshkent davlat tibbiyot instituti "Falsafa va huquq" kafedrasida katta o'qituvchi, 2000–2002 yillarda Toshkent avtomobil yo'llari instituti "Pedagogika va psixologiya" kafedrasida katta o'qituvchi, 2002–2012 yillarda O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasining "Psixologiya va kasb etikasi" kafedrasida dotsenti lavozimida faoliyat olib borgan.

2012-yilda O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya instituti "Pedagogika va psixologiya" kafedrasida mudiri lavozimida ishlab kelmoqda. D.Arziqulov kafedra mudiri lavozimiga tayinlangandan so'ng uning tashabbusi bilan bir qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, kafedrada o'qitiladigan fanlarning o'quv-uslubiy majmualari tubdan yangilandi, o'quv adabiyotlar yaratish ishlariga keng e'tibor qaratilib, "Sport psixologiyasi" darsligi, magistratura mutaxassisligi uchun ikki qismdan iborat "Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya" o'quv uslubiy qo'llanmasi nashrdan chiqarildi. 2012-2013 o'tgan o'quv yilida "Sport psixologiyasi" bakalavr ta'lim yo'nalishida tahsil olgan talabalarning dastlabki bitiruvchilari institutni muvafaqqiyatli tugatib, bugungi kunda jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirishga o'z hissasini qo'shib kelmoqdalar.

70 dan ortiq, o'quv, o'quv uslubiy qo'llanma, ilmiy maqolalarni, nashr ettilgan. Shulardan: Psixologiya "o'quv-uslubiy qo'llanma", "Falsafa fanidan o'quv-uslubiy qo'llanma", "Psixologiya ma'ruza to'plami", "Ichki ishlar organi xodimlarining kasbiy madaniyati o'quv

qo'llanma, Pedagogika o'quv qo'llanma" kabi ilmiy ishlari bilan psixologiya fani taraqqiyotiga o'z xissasini qo'shib kelmoqda.

Hayitov Oybek Eshboevich, 1977 yilning 14 fevralida Qashqadaryo viloyatida tavallud topgan. 1994 yilda Qarshi davlat universitiga o'qishga kirib, 1999 yilda shu universitetni "Psixologiya" mutaxassisligi bo'yicha bitirgan. 1999 yildan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining "Ijtimoiy psixologiya" kafedrasida assistent lavozimida ish boshlagan.



2000 yil 1 apreldan 2003 yil 1 aprelgacha bo'lgan muddatda Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Ijtimoiy psixologiya" kafedrasida 19.00.05 – ijtimoiy psixologiya, etnopsixologiya ixtisosligi bo'yicha kunduzgi aspiranturaga tahsil olgan. 2003-2004 yillar oralig'ida ishlab chiqarishdan ajralmagan holda EdNet dasturi asosida "Iqtisodiyot" mutaxassisligi bo'yicha O'zbek-Amerika akademiyasida o'qigan.

"Tadbirkorlik faoliyati motivatsiyasining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi K.067.02.11 raqamli Ixtisoslashgan kengashda 2005 yilning 22 martida himoya qilgan. 2005 yil 30 iyundan psixologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasiga ega.

2005-yil O'zbekiston Respublikasi Prezidentining istiqbolli yosh pedagog va ilmiy kadrlar malakasini oshirish "Iste'dod" jamg'armasi-ning grant sovrindori bo'lgan va grant asosida Koreya Respublikasining Xandong Global Universitetida "Axborot texnologiyalari, global menejment va xalqaro huquq" bo'yicha malaka oshirgan. 2008 yil 26 iyundan "Pedagogika va psixologiya" kafedراسи bo'yicha dotsent ilmiy unvoniga ega.

Asosiy ilmiy ishlari "Psixodiagnostika va amaliy psixologiya" ma'ruzalar matni, "Psixodiagnostika i prakticheskaya psixologiya" tekst leksiy, "Psixodiagnostika va amaliy psixologiya" kursi bo'yicha ijtimoiy-psixologik treninglar, psixologik masalalar, topshi-riqlar va testlar to'plami" O'quv-uslubiy qo'llanma, "Pedagogik psixologiya" kursi bo'yicha vaziyatli va ishchi o'yinlar to'plami" O'quv-uslubiy qo'llanma, "Psixologiya" fani bo'yicha shaxsni o'r-ganishga doir psixologik testlar va uslubikalar to'plami" O'quv-uslubiy qo'llanma, "Sbornik situatsionnyx zadach, delo-vyx i psixologicheskix igr, testov, kontrolnyx zadaniy, keys-stadi, vop-rosov dlya samoproverki po kursu "Ekonomicheskaya psixologiya", Uchebno-uslubicheskoe

psobic”, “Psixologik iqtisod” O‘quv qo‘llanma, “Psixodiagnostika va psixologik amaliyot” o‘quv kursi bo‘yicha ta‘lim texnologiyasi, “Iqtisodiy ta‘limda-gi o‘qitish texnologiyasi” seriyasidan O‘quv-uslubiy qo‘llanma, “Psixodiagnostika va psixologik amaliyot” fani bo‘yicha o‘quv uslubiy majmua “Psixodiagnostika” O‘quv qo‘llanma, “Psixologiya” Darslik, Nopedagogik va nopsixologik oliy o‘quv yurtlari uchun, “Boshqaruv sohasidagi professional kompetensiya asoslari” monografiya, “Tadbirkorlik psixologiyasi” o‘quv qo‘llanma, “Boshqaruv sohasidagi professional kompetensiya asoslari” monografiya, “Boshqaruv psixologiyasi” o‘quv qo‘llanma, “Boshqaruv psixologiyasidan” qisqacha izohli lug‘at uslubik qo‘llanma, “Ma‘muriy boshqaruv organlari rahbarlarining lavozimga loyiqligini baholashga oid test va uslubikalar to‘plami” uslubik qo‘llanma, “Iqtisodiy psixologiya” O‘quv qo‘llanma, “Umumiy psixologiya” Darslik, Nopedagogik va nopsixologik oliy o‘quv yurtlari uchun, “Yoshlarda professional o‘shiga intilishni rivojlantirishning nazariy-amaliy asoslari” monografiya, “Bilim olishning intellektual tizimini ishlab chiqish nazariyasi va amaliyoti” monografiya, “Bilim olishning intellektual tizimi. Shaxs xususiyatlari va emotsional-intellektualligi sferasini diagnostikalash bloki”, “Sistemani intellektuallashtirish moduli”.

Mavzu yuzasidan tayanch tushinchalar:

Avesto, Axuramazda, Axriman, Ko‘pxudolik, Yakka xudolik, Nur olami, Haftiyak, Temur tuziklari, Hayot chirogi, Jadid, Qori Niyoziy, Evolyutsiya, Umumiy psixologiya.

Nazorat savollari:

1. Avesto kitobida yahshilik va yomonlik?
2. Zardo‘sh qarashlarida inson ruhiyatiga ta’snif?
3. Farobiy buyuk o‘zbek qomusiy allomasi sifatida ?
4. Tib qonunlarida inson ruhiyatining mohiyati ?
5. A.Navoiy asarlarida shaxs barkamolligi ?
6. Avloniy yangi davr asoschisi sifatida?
7. Turkiy guliston yohud ahloq asarida inson barkamolligi ?
8. O‘zbekistondagi dastlabki pedagogik va psixologik fikrlar markazi?
9. O‘zbekistondagi dastlabki ilmiy tadqiqot institutlari faoliyati?
10. O‘zbekistonda psixologiya fani taraqqiyoti ?

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. – T., Ma'naviyat, 2008.
2. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T., O'zbekiston, 2011.
3. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T.: O'zbekiston, 1997.
4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston-NMIU, 2017.
5. Mirziyoyev Sh.M. Erikn va farovon, demoktarik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majilisdagi nutq. – T.: O'zbekiston-NMIU, 2017.
6. Hergenhahn B.R., Tracy B. Henley "An Introduction to the History of Psychology". – 2014 Wadsworth, Cengage Lyerning.
7. Ярашевский М.Г. История психологии. – М., 1997.
8. Ждан Н.Ж. История психологии. – М., 1995.
9. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. – T., 2010.
10. G'oziyev E.G'. Psixologiya metodologiya. – T., 2013.

**ATAMANING
O'ZBEK
TILIDA
NOMLANISHI**

**ATAMANING
INGLIZ TILIDA
NOMLANISHI**

**ATAMANING
RUS TILIDA
NOMLANISHI**

**ATAMANING
MA'NOSI**

**Abstraksiya
(mavhumiyluk)**

Abstraction

Abstraksiya

Narsalarning o'ziga xos belgi va xususiyatlarini, ular o'rtasidagi bog'lanishlarni predmetlarning muhim bo'lmagan belgi va xususiyatlaridan ajratib olishga qaratilgan fikrlash operatsiyasidir.

Eng oddiy, osongina masalalar buyicha ham ma'lum qat'iyatga kelish qobiliyati yo'qligida namoyon bo'ladigan o'ta irodasizlikdir.

Tashqi sharoitlarga moslashish bo'lib, buning o'zi analizatorlarning o'zidagi o'zgarishlarni sezish bilan bog'liq fiziologik adaptatsiya va yangi guruhlardagi yangi faoliyat turiga moslashishidagi ijtimoiy-psixologik adaptatsiyalarga ajratiladi.

Abuliya

Abulia

Abuliya

Adaptatsiya

Adaptation

Adaptatsiya

Anketa	Questionnaire	Anketa	Tez va qisqa muddatda amalga oshiriladigan uslub. Kishining og'ir kechinmalar, yoki kasalliklardan tolikishi natijasida kelib chiqadigan, hamda uning tebarak-atrofdagi olamga nisbatan hyech qanday qiziqishlarsiz befarq qarashlarda ifodalanadigan psixik holat.
Apatiya	Apathy	Apatiya	
Asab hujayra	Neuron	Nervnaya kletka	Markaziy asab tizimining asosiy elementi bo'lib, organizmni qo'zg'atish vazifasini bajaradi. (Lot.- birlashtiraman, bog'layman, qo'shaman) psixologiyada - psixika hodisalarining bog'lanishi tufayli ongimizda paydo bo'ladigan muayyan tasavvurlar: o'xshashlik yoki qapama-qarshi belgilarga ko'ra boshqa tasavvurlarni hosil qilish.
Assosiasiya	Association	Assotsiatsiya	Psixik aks ettirish jarayoni bo'lib,
Bilish	Knowledge	Znanie	

			<p>bilimlarni egallash va uni o'zlashtirishni ta'minlaydi</p> <p>Xx asr boshlarida aqshda maydonga kelgan psixologiyaning mexanik yo'nalishi bo'lib, psixologiyani o'rganish predmeti qilib faqat odamning xulq-atvori olingan.</p> <p>Ular faqat odamning tashqi ta'sirlar natijasida paydo bo'lgan xatti-harakatlari, xulq-atvorni o'rganish mumkin deb hisoblaydilar. Bunda ongning roli inkor qilinadi.</p> <p>Bu yo'nalishlarning asoschilari- d.uotson. E.torndayklardir.</p> <p>Psixikaning moddiy asosidir</p> <p>Inson psixik faoliyatini ahamiyatga ega bo'lgan biror bir buyum va hodisaga yo'naltirilishi na unda to'xtashi.</p> <p>Asbob-uskunalar yordamida amalga oshiriladi</p>
Bixeviorizm	Behaviorism	Bixeviorizm	
Bosh miya	Brain	Golovnoy mozg	
Diqqat	Attention	Vnimanie	
Eksperiment	Experiment	Eksperiment	

Empatiya	Emphatic	Empatiya	(Ang.- hamdardlik.o'zini boshqalar o'rni qo'ya olish) inson boshqalar hishayajoni, g'am-tashvishi, qiyinchiliklariga emosional javob bera olish qobiliyati.
Etika	Ethics (morality)	Etika	Ahloqiy qoidalar (Kelib chiqish sabablari) biror xususiyatning mavjudligiga emas, balki uning vujudga kelish sabablari ham hisobga olinadi.
Etiologik tashxis	Diagnostics etiological	Etiologicheskiy diaqnoz	
Etnopsixologiya	Ethno psychology	Etnopsixologiya	
Evolyusiya	Evolutions	Evolyusiya	Dunyoning rivojlanish jarayoni
Faoliyat motivlari	Motives activity	Мотивы deyatelnosti	O'qitish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.
Faoliyat	Activity	Deyatelnost	Insongagina xos, ong bilan boshqaradigan ehtiyojlar tufayli paydo bo'ladigan va tashqi olam bilan kishining o'z-o'zini bilishiga, uni qayta qo'rishga yo'valtirilgan faolligidir.
Filogenez	Phylogenies	Filogenez	Dunyoni rivojlanish boshlanishidan to hozirgi kunga

qadar davri

(Grekcha - o'sim-
ta) - pastki miya
o'simtasi. U ichki
sekretsiya bezi
bo'lib hayvon va
odamning bosh
miya umirtqasida
joylashgan.

Gipofiz gor-
monlari organizm-
ning ish faoliyatda
muhim rol

o'ynaydi. Gipofiz
funksiyasining
buzilishi

organizmning
shakllanishi va
rivojlanishiga

ta'sir etadi, bunda
gormonlarning
ortib ketishi yoki
kamayib ketishi

kuzatiladi. Gipofiz
buzilishida

bolalarning bo'yi
o'smaydi,
moddalar

almashinuvi buzi-
ladi, jinsiy bez-

larning rivojlanishi
buzilishi natijasida

semirib ketish
hollari kuzatiladi,

bola psixikasida
intellektning buzi-

lishini xotiraning
yomonlashishi yuz

beradi.

Ma'lum masalani
yechishning

taxmini, uning
loyihasi.

Gipofiz

Hypothesis

Gipofiz

**Gipoteza
(taxmin)**

Hypothesis

Gipoteza

			Bosh miya qobig'ining qo'yi qismida joylashgan chiziq bo'lib, oriyentasiya reaksiyasi va o'rganishning fiziologik mexanizmlarida ishtirok etadi. O'z bilim va tajribalarini oshirish maqsadida pedagogik faoliyat va shaxsiyatining yutuq va kamchiliklarini tahlil qilish. Bunda kasbdoshlar to'g'ri idrok qilish uchun o'zlarini bir-birlarining o'rniga qo'yib ko'rishga harakat qiladilar.
Gippokamp	Hippocampus	Gippokamp	
Gnostik faoliyat	Gnostic activity	Gnosticheskaya deyatelnost	
Identifikasiya	Identification	Identifikatsiya	
Ijtimoiy psixologiya	Social Psychology	Sotsialnaya psixologiya	
Individual izlanish		Individualnoe issledovanie	"Men" obrazi asosida o'ziga xos o'zlikni anglash.
Individuallik	Individuality	Individualnost	O'ziga xos bo'lgan xususiyat
Insayt	Inside	Insayd	Miyaga echimning tezda kelishi
Instinkt	Instinct	Instinkt	Nasldan nasl o'zgarishsiz o'tadigan tug'ma xususiyat
Intellekt	Mind	Razum	Aqliy taraqqiyot darajasi
Introversiya	Introversion	Introversii	Shaxsni o'z fikrlari, sezgisi, kechinmalari,

			ya'ni o'z-o'ziga tayanishi.
Iroda	Will	Volya	Insonni biror bir harakatlarni bajarishga qaratilgan maqsad sari ongli intilishi.
Kasb	Profession	Professiya	Mehnat faoliyatining bir shakli
Kasbga o'qitish	Professional education	Professionalnoe obucheniya	Kasblar tizimiga asoslanib o'qitishdir.
Kasbiy anglash		Professional naya osoznannost	Kasbkorlikda o'z mavqeyini belgilash.
Kasbiy faoliyat	Professional activity	Professionalnaya deyatelnost	Kasbiy faoliyatning o'ziga xos psixologik qonuniyatlarini qamrab oladi. Mutaxassisning egallab turgan lavozimi va talab etayotgan malaka toifasiga mosligini namoyon etish.
Kasbiy imkoniyat	Professional possibility	Professionalnaya vozmojnost	Kasbiy layoqat tufayli diskvalifikasiya hollarini alohida kasb etishi.
Kasbiy nomutanosiblik	Professional incompatibility	Professionalnaya nesovmestimost	Ishchilar malakasiga, layoqaiga qo'yiladigan talablarni (kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar, shuningdek, sifatlar va kobilyatlar).
Kasbiy tanlov	Professional choice	Professionalny otbor	

Kommunikativ faoliyat	Activity communicative	Kommunikativnaya deyatelnost	Har bir talabaga individual yo'l topishi va ular bilan hamkorlik darajasida ishonchli munosabat o'rnatishi
Kompetentlik	Competence	Kompetentnost	Kasbiy faoliyatga mos tushish, o'z-o'rmini topish.
Konsepsiya	Concept	Konsepsiya	(Lot-idrok etmoq) - qarashlar sistemasi, farazlar yig'indisi.
Konstruktiv faoliyat	Constructive activity	Konstruktivnaya deyatelnost	O'qituvchining har bir mashg'ulotni o'tkazish uchun reja asosida (ishchi reja) senariy tuzish
Kuzatish	Watching	Nablyudeniye	Tabiiy xususiyatga ega bo'lgan uslub.
Mavqe	Status	Status	Jamiyatdagi tutgan o'rni
Menejment psixologiyasi	Management Psychology	Psixologiya menedjmenta	
Motiv	Motive	Motiv	Faoliyatga undovchi turtki, omil..
Motivasiya	Motivation	Motivatsiya	Motivdan kengroq tushuncha bo'lib, "nega", "nima uchun", va "qanday" degan savollarga javob qidiradi..
Mutaxassislik	Qualification	Kvalifikatsiya	Kasbkorlikning, muayyan sohaga yo'naltirilganligi.
Muxandislik psixologiyasi	Engineering psychology	Injenernaya psixologiya	Bu psixologiya fani sohasi bo'lib, kishi mehnatining psixologik

Nutq	Language	Rech	<p>xususiyatlarini faoliyat jarayonida texnika vositalari bilan munosabatda bo'lishda o'rganadi. Shu bilan birga bu soha mashina va uskunalar loyihasini yaratishda inson omillarini hisobga olish talablarini ishlab chiqadi. Odamlarning til vositasida muloqotda bo'lish jarayonidir. O'qituvchi o'zining faoliyatini bosqichma-bosqich amalga oshirishidir.</p>
O'qituvchining imkoniyatlari		Preimushstva prepodavatelya	
O'yin	Game	Igra	<p>Faoliyat turlaridan biri bo'lib, bu bolalarning kattalar faoliyatini, ularning ish-harakatlarini, kishilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni aks ettirishda ifodalana-digan va tebarakatrofdagi borlikni bilishga qaratilgan faoliyatdir.</p>
Ong	Reflections Consciousness	Soznanie	<p>Psixikaning obyektiv va subyektiv tarzda aks etishidir. Psixikaning oliy darajasi bo'lib, uni</p>

			yaxlit holga keltiruvchi tuzilmadir.
Ontogenez	Ontogenesis	Ontogenez	Ma'lum bir turning rivojlanish bosqichlari
			Tadqiqot sohalaridan biri
			bo'lib, sezgi a'zolari ishtirokisiz idrok qilish formalarini, shu bilan birga tirik mavjudotning fizik hodisalarga mushak kuchsiz ta'sir etish turlarini o'rganishga qaratilganidir.
Parapsixologiya	Parapsychology	Parapsixologiya	Parapsixologiya muammosi baxsgamolik sohadir.
			Psixologiya tarmoqlaridan bo'lib, turli kasalliklar natijasida psixik taraqqiyotining izdan chiqishini o'rganadi.
Patopsixologiya	Pathopsychology	Patopsixologiya	Psixologiya tarmoqlaridan bo'lib ta'lim va tarbiya qonuniyatlarini o'rganadi.
			Kasblar va ularning bir – biridan farqlanuvchi ixtisosliklar tomonidan inson oldiga qo'yiladigan
Pedagogik psixologiya	Educational psychology	Pedagogik psixologiya	
Professiografiya	Professiographics	Professiografiya	

talablarni bayon qilish majmuasi

Psixik jarayonlar	The mental Processes	Psixicheskie protsessy	Shaxs psixikasining aks ettirish shakli bo'lib, atrof-dagi voqelikni bilish demakdir.
Psixik taraqqiyot	Psychic development	Psixicheskoe razvitie	Insonning psixik jihatdan rivojlanishi.
Psixika	Rsyche	Psixika	Tashqi olamni ongimizda aks ettirilishidir.
Psixodiagnostika	Psychodiagnostika	Psixodiagnostika	“Psixologik tashxis qo'yish” degan ma'noni anglatib, shaxsning ruhiy holatida to'liq yoki biror bir alohida xususiyati haqida xulosa chiqarishdir.
Psixogramma	Psycho gram	Psixogramma	Kasbning psixologik portreti bo'lib, u anik kasbda dolzarb bulgan psixologik funksiyalar guruhi bilan namoyon bo'ladi.
Psiholingvistika	Psycholinguistics	Psiholingvistika	Psixologiyaning sohasi bo'lib nutq davrida psixologik holatlarni o'rganadi

Psixologik holatlar	Psychological properties	Psixologicheskie svoystva	Psixikaning namoyon bo'lish shakli bo'lib, shaxs xulqida hissiy kechinmalarning va irodaviy sifatlarni ifodalaydi. «Psixo» -ruh, «logos»- ta'limot. Odanning obyektiv borliqni sezgi, idrok, tafakkur, tuyg'u-hissiyot va boshqa psixik hodisalari orqali aks ettirish jarayonini o'rganadigan fandır.
Psixologiya	Psychology	Psixologiya	Psixologik o'Ichamlar Shaxsning ma'lum faoliyatdagi muvaffaqiyatlarni va osonlik bilan biron faoliyatni egallay olishini ta'minlaydigan yakka psixologik xususiyatlaridir. (Lot.-qarama-qarshi, hapakat) - psixologiya va fiziologiyada ichki va tashqi muhitning turli ta'sirlariga organizmning javob harakati. Boshqa odanning idrokiga taalluqli bo'lib o'ziga birovning ko'zi bilan qarashga
Psixometriya	Psychometric	Psixometriya	
Qobiliyat	Capability	Sposobnost	
Reaksiya	Reaction	Reaksiya	
Refleksiya	Reflection	Refleksiya	

intilishdir.

Sezgi	Sensations	Ощущенија	Sezgi organlariga bevosita ta'sir etib turgan narsa va hodisalarning aloxida xususiyatlarini aks ettiruvchi jarayon. (Lot.- qyvlashmachoq) - biror-bir harakatga yndamoq, turki. Reseptorlarda qo'zg'alishni vujudga keltiradigan tashqi ichki ta'sirdir. Kasbiy faoliyatini asoslovchi o'ziga xos uslub yoki tamoyildir. Kuchli quzg'ovchilar ta'sirida yuzaga keladigan jiddiylik holati. Psixik aks ettirishning ancha umumiy va bevosita usuli bo'lib, bu narsa va hodisalar o'rtasidagi o'zaro bog'lanish va munosabatlarni bilib olishida ifodalanadi Ma'lum qonun-qoidlarga asoslanishdir.
Stimul	Stimulus	Stimul	
Strategiya	Strategy	Strategiya	
Stress (tanglik kólati)	Stress	Stress	
Tafakkur	Thought	Мышленија	
Tamoyil	Principle	Принсип	

Tanlov xulosasi	The conclusion of choice	Zaklyuchenie otbora	Bu mutaxassis- larga ular kasbiy darajalariga muvofik malaka toifalarini berish to'g'risidagi qarorni qabul qilishdir Sezgi organlarga qachonlardir ta'sir etgan predmetlar va hodisalarning yaqqol hissiy obrazi.
Tasavvur	Imaginations	Voobrajenie	Har bir mash- g'ulotni o'tka- zishda har qanday to'siqqa qaramay, o'zining oldindan o'ylab qo'ygan rejasini amalda joriy etish
Tashkilotchilik faoliyati	Organizational activity	Organizatsionnaya deyatelnost	Shaxsning yakka psixologik xususi- yatlari majmui bo'lib, bu kishi faoliyati va xulq- atvorining dinamik va emosional tomonlari bilan xarakterlanadi. Sinaluvchi
Temperament	Temperament	Tamperament	shaxsning tushida olingan natijalarning ahamiyati va o'rni aniqlanadi
Tipologik tashxis	Diagnostics typological	Tipologicheskiy diagnoz	Kasblar yoki mehnat turlarini tug'larga ajratib o'rganish
Turkumlash	Classification	Klassifikatsiya	Kishining tevapak- atrofdagi
Ustanovka	Setting	Ustanovka	odamlarga yoki

obyektlarga nisbatan qanday munosabatda bo'lish, ularni ma'lum darajada idrok qilish, sezish, ularga baho berish va qandaydir harakat qilishga tayyorligini anglamagan holati.

Yuridik psixologiya-	Law psychology	YUridicheskaya psixologiya	<p>Kasbiy faoliyatdagi jismoniy va ruhiy zo'riqishlarining namoyon bo'lishi</p> <p>Psixologiya tarmoqlaridan bo'lib, hayvon psixikasining taraqqiyotini o'rganadigan sohadir.</p>
Ziddiyat.	Conflict	Konflikt	
Zoopsixologiya-	Zoopsychology	Zoopsixologiya	

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yyengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
2. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: O'zbekiston, 2011.
3. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T.: O'zbekiston, 1997.
4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston-NMIU, 2017.
5. Mirziyoyev Sh.M. Erikn va farovon, demoktarik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majilisdagi nutq. – T.: O'zbekiston-NMIU, 2017.
6. Abu Ali Ibn Sino. "Tib qonunlari" asari. – T., 1992.
7. Hergenhahn B.R., Tracy B. Henley "An Introduction to the History of Psychology". – 2014 Wadsworth, Cengage Lyerning.
8. Ярашевский М.Г. История психологии. – М., 1997.
9. Джан А.Н. История психологии. – М., 1995.
10. Джан А.Н. История психологии. – М.: MDU, 1990.
11. Ярашевский М.Г. Краткий курс истории психологии. – М., 1995.
12. Галперина П.Я., Джан А.Н. Хрестоматия по истории психологии. – М., 1980.
13. Немов Р.С. Психология. – М., 1974.
14. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. – М., 1989.
15. Соколова Э.Э. Тринадсат диалогов о психологии. – М., 1995.
16. Фромм Э. Психология человеческого деструктивности. – М., 2000.
17. Сервон В.М. История психологии (услобологический аспекти). – М.: ASSKES, 2004.
18. Ivanov P.I. Umumiy psixologiya. – T.: O'qituvchi, 1967.
19. Petrovskiy A.V. Umumiy psixologiya. – T.: O'qituvchi, 1992.
20. Петровский А.В., Ярашевский М.Г. Основы теоретической психологии. – М., 1998.
21. Петровский А.В. Развитие личности. – М., 1987.
22. Давлетшин М.Г. Психологическая наука в Узбекистане. Психологический журнал. №7. – Т., 1986.

23. Davletshin M.G. Psixologiya tarixi. Dastur. – T., 1996.
24. Iskandarov B. O'rtta Osiyoda falsafiy va ijtimoiy-siyosiy fikrlarning shakllanishi va rivojlanishi tarixidan lavhalar. – T.: O'zbekiston, 1993.
25. Karimova V.M. Psixologiya. – T.: A.Qodiriy nashriyoti, 2002.
26. Nishonova Z.T. Psixologiya tarixi. Ma'ruzalar matni. – T., 2002.
27. G'oziyev E.G'., Mamedov K.Q. Kasb psixologiyasi. – T., 2003.
28. G'oziyev E.G'. Kasb va shaxs. – T., 1996.
29. G'oziyev E.G'. va b. Kasb psixologiya kursidan ma'ruzalar matni. – T., 2000.
30. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. – T., 2010.
31. G'oziyev E.G'. Psixologiya metodologiya. – T., 2013.
32. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. – T., 1994.
33. G'oziyev E.G'. Tafakkur psixologiyasi. – T.: O'qituvchi, 1990.
34. G'oziyev E.G'. Psixologiya (Yosh davrlari psixologiyasi). – T., 1993.
35. Xayrullaev M.M. O'zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan lavhalar. – T., 1995.

MUNDARIJA

KIRISH.....	5
-------------	---

BIRINCHI BO‘LIM.

PSIXOLOGIYA TARIXI FANIGA KIRISH

I_QISM. PSIXOLOGIYA TARIXI FANINING FAN SIFATIDA SHAKLLANISH MASALALARI

I Bob. Psixologiya tarixi fanining soha sifatida shakllanishi, predmeti, maqsad va vazifalari.....	7
1.1. Psixologiyaning falsafa tarkibidagi taraqqiyoti.....	9
1.2. Psixologiya tarixi fanining ilmiy tamoyillari.....	10
1.3. Psixologiya tarixi fanining ilmiy tadqiqot uslublari.....	11
1.4. Psixologiya tarixi fanining manbalari.....	13
II BOB. Antik davr psixologik ta’limotlari (IV – V asrlar misolida). Qadimgi yunon mutafakkirlari qarashlarida psixologik fikrlar rivoji.....	16
2.1. Dunyoni tushunishning materialistik yo‘nalishi.....	16
III Bob. Qadimgi Hindiston va Xitoy falsafa maktablari va uning psixologik ta’limotlardagi o‘rni.....	37
IV Bob. O‘rta asr Sharq va G‘arb mutafakkirlarining psixologik qarashlari (VI-XVI asrlar misolida). Qadimgi sharq mutafakkirlarining psixologiyasi.....	52

II QISM. PSIXOLOGIYA FANIDA ONG MUAMMOSI.

EKSPRIMENTAL. PSIXOLOGIYA

I Bob. Ong psixikaning mahsulu sifatida.....	71
1.1. Ong mohiyati.....	76
1.2. Tanlash erkinligi yoki tashqi olamni anglash.....	81
1.3. Chaqaloqda ongning paydo bo‘lishi.....	86
1.4. Miyani tadqiq etishda qo‘llaniladigan uslublar (apparatlar).....	90
II Bob. Psixologiyaning ta’bii va aniq fanlar tizimida vujudga kelishi.....	95
2.1. V.Vund tajribasi va uning ilmiy ahamiyati.....	95

IKKINCHI BO'LIM.

XORIJ PSIXOLOGIK MAKTABLARI VA ULARNING PSIXOLOGIYA FANI TARAQQIYOTIDAGI ROLI

III QISM. XORIJ PSIXOLOGIYASI. PSIXOLOGIK MAKTABLAR VA ULARNING PSIXOLOGIYA FANI TARAQQIYOTIDAGI RO'LI

I Bob. Psixonaliz maktabi ta'limoti.....	103
1.1. Bixeviorizm maktabi ta'limoti.....	113
1.2. Vyursburg maktabi ta'limoti.....	117
1.3. Assotsiativ maktabi ta'limoyi.....	118
II Bob. Psixologik tadqiqotlar va ularning psixologiya fani taraqqiyotidagi o'rni.....	125
III Bob. Psixologiya fani taraqqiyotiga hissa qo'shgan xorij olimlari haqida ma'lumot.....	135

UCHINCHI BO'LIM.

SOBIQ SOVET PSIXOLOGIYASI

IV QISM. SOBIQ PSIXOLOGIYASI VA UNING O'ZIGA XOSLIKLARI

I Bob. Psixologik tadqiqotlar rivojida sobiq sovet olimlarining ro'li.....	175
1.1. Psixologiya fani taraqqiyotiga hissa qo'shgan sobiq sovet olimlari haqida ma'lumot.....	178

TO'RTINCHI BO'LIM.

O'ZBEKISTONDA PSIXOLOGIYA FANI UNING TARIXI VA XOZIRGI ISTIQBOLI

V QISM. O'ZBEKISTONDA PSIXOLOGIK MAKTABLARNING VUJUDGA KELISHI

I Bob. Psixologiya fani o'zbek olimlari siyomosida.....	204
1.2. Milliy psixologiyaning paydo bo'lishi.....	204
II Bob. O'zbekistonda zamonaviy psixologiya fanining rivojlanish taraqqiyoti.....	220
2.1. O'zbekistonda zamonaviy psixologiya fanining rivojlanish taraqqiyoti.....	220
2.2. O'zbekistonda psixologiya fanining rivojlanishi va hozirgi ahvoli.....	225
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	264

E.N.SIRLIYEV
O.S. MIRZAYEV

PSIXOLOGIYA TARIXI

O'quv qo'llanma

Bosh muharrir:
Narzullayev D.Z.

Texnik muharrir:
Aripjanova D.U.

Kompyuterda sahifalovchi:
Dalabayeva N.

Dizayner:
Imomov Sh.

Nashr.lits. AIN^o 283, 11.01.16. Bosishga ruxsat etildi 09.02.2018
Bichimi 60x84 ¹/₁₆. «Times New Roman» garniturada raqamli bosma
usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i 16,75. Nashriyot bosma tabog'i 17.
Adadi 100. Buyurtma № 8

«ILMIY TEXNIKA AXBOROTI - PRESS NASHRIYOTI»
100017. Toshkent sh, M-5, 45/4

27930 5.